

MIRKARIM OSIM

JAYHUN
USTIDA
BULUTLAR

20000





„O'zbek adabiyoti oltin fondi“

MIRKARIM OSIM

TARIXIY QISSALAR

TO'MARIS

KITOOGA IXLOS

JAYHUN USTIDA BULUTLAR

O'TROR

ZULMAT ICHRA NUR

„QALDIRG' OCH NASHRIYOTI“
TOSHKENT - 2020

UO'K: 821.512.133-311.6

KBK: 84(50)6

O-80

Mirkarim, Osim

Tarixiy qissalar / Muallif Mirkarim Osim. – T.: „Qaldirg‘och nashriyoti“, 2020. – 288 b.

**Mas’ul muharrir
ASHURALI JO’RAYEV**

ISBN 978-9943-5947-1-5

© Mirkarim Osim

© „Qaldirg‘och nashriyoti“, 2020.

TO'MARIS

I

Cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast. Allaqanday uzun oyoqli qushlar o'tlar orasida dumlarini likillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib ketgan xunuk bo'yinlarini o'tlarga cho'zadi, qo'ng'izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayoqqa yumalatadi. Qizg'ish-qo'ng'ir bir ilon o't orasidan o'rma-lab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o'xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo'rqib ketib oyoqlari bilan qumloq yerni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba'zan ovullar yaqinidan ko'kraklari oppoq sayg'oqlar gala-gala bo'lib chopib o'tadi, yer gumburlab ketadi.

Orol dengizining janubidagi shu bepoyon cho'llarning sohibi bo'lgan ko'chmanchi massagetlar kelin kutmoqda. Ularning qarorgohi bayram tusini olgan: har yer-har yerga gulxan qalangan, kiyik va qo'y go'shti pishayotgan mis qozonlar go'yo mehmonlarni sabrsizlik bilan kutayotgandek shaqir-shaqir qaynamoqda.

Qabila boshlig'i To'maris o'g'li Siparangizni shak urug'idan Zarina degan bir qizga uylantirmoqda. Massagetlar kelinni olib keladigan mehmonlarni kutib olish taraddudida.

Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda, yangalar o'tov xizmatini o'taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda.

Charchab gulxan yonida o'tirgan yoshlar uzoqdan ot choptirib kelayotgan choparni ko'rib, o'rinalidan sakrab turib ketdilar.

– Kelin... kelin kelayotir, – deb baqirdi u harsillab. – Qariyalar oldinda... darhol kutib olinglar.

Chopar sakrab egardan tushdi-yu, otini qoziqqa bog'-lab, bir chekkadagi katta gulxan yaqinidagi chollar oldiga borib o'tirdi.

Butun qarorgoh oyoqqa qalqib, aziz mehmonlarni kutilusga hozirlandi. Oradan ko'p o'tmay uzoqda uchi ingicha namat qalpoq kiygan otliqlar ko'rindi. Massaget yoshlari shaklarga peshvoz chiqib:

– Xush kelibsizlar, qo'noqlar, poyqadamlaringizga hasanot, – dedilar va otlarini jilovidan ushlab, egardan tushishlariga yordam berdilar.

Shaklar otdan tushib, massaget qariyalari bilan ko'rishganlaridan keyin atrofi soyabon aravalar bilan qurshalgan sayhon joyga, guldor namatlar ustiga chordana qurib o'tirdilar. Mezbonlar qo'y terisidan qilingan supralarda pishirilgan go'sht, meshlarda qimiz keltira boshladilar.

Kun botgandan keyin kelin va uning dugonalari tushgan uzun soyabon aravalar yetib keldi. Har yer-har yerga qalangan gulxanlarning olovi gurullab, osmonni yoritib yubordi, ashulalarning avji falakka ko'tarildi. Kelin bilan kelgan qizlar va yigitlarning yallasi, bolalarning qiy-chuvi, xursandlikdan terisiga sig'may qolgan kishilarning shovqiniga qo'shilib ketdi. Osmon baravar ko'tarilgan gulxanlarining yorug'ida o'yin-kulgi, ziyofat boshlandi.

Vaqt alla-palla bo'lganda, kuyov bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabon aravaga chiqarish oldidan kurashtrib ko'rishdi¹.

Bo'ychan, bug'doyrang, sochlari tim qora, ko'zları chaq-nab turgan Zarina o'zining sahroyi go'zalligi bilan boshqa ayollardan ajralib turardi. U gulxanlar yorug'ida davra qu'rib o'tirgan yigit-qizlarga bir qarab oldi-da, to'rda, obro'li kampirlar va chollar qurshovida savlat to'kib o'tirgan

¹Bu o'zbeklar orasida yaqingacha saqlanib kelgan „tortishmachoq“ning ibtidoiy shakli edi.

To'marisga ta'zim qildi, so'ngra qarshisida kurashga shaylanib turgan cho'zinchoq yuzli, ko'zlari katta-katta Siparangizga tikildi. Qiz sochlarini ro'molcha bilan mahkam tang'ib, belini kamar bilan bog'lab olgan edi. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha vaqtgacha gandiraklab borib tizzalab qoldi. Kelin tomondan kelgan yigit-qizlar xursand bo'lib qiyqirib yubordilar.

Kuyov bilan kelin payt poylab, bir-birlarining atrofida anchagacha aylanib yurishdi. Zarina epchillik bilan Siparangizga chang solib uni chalib yubordi, yigit yonboshi bilan qattiq yiqlidi-yu, lekin orqasi yerga tegmadi, darhol sakrab turib yana olisha ketdi.

Bir-birlarini yiqita olmagandan keyin ular o'zlarini sovitish uchun aylanib yurishdi. Siparangiz tetiklangandan keyin to'satdan qizning o'ng qo'liga yopishdi-yu, bir siltab tortib, xipcha belidan mahkam qisdi-da, ko'kragiga ko'tarib oldi. Qiz chap tomonga tashlaydi, deb mo'ljallab turgan edi, yigit uning ko'nglidagi gapni anglaganday, tizzasi bilan qayirib, o'ng tomonga tashladi. Shu mahalgacha nafaslari ichlariga tushib ketgan kuyov tomon yigitlari qiyqirib yubordilar. Qizning yag'rini yerga tekkan edi, u qizarib-bo'zrib o'rnidan turgach, yangalar: „Yarash-yarash“, – deb baqirib, kelin bilan kuyovni aravaga chiqarib qo'ydilar.

Ertasi kuni tongotar paytida havo aynib, qum bo'roni boshlandi. Hamma jonivorlar sahrodan kelgan qum uyurmalaridan o'zlarini saqlash uchun in-inlariga berkindi, cho'l huvullab qoldi. Qum to'zonidan osmon qorong'ilashdi, ko'chmanchilar aravalarning hamma yog'ini berkitib oldilar. Bo'ron bir soat davom etdi, so'ngra qanday bexosdan boshlangan bo'lsa, shunday tez tindi. Soyabon aravalarning oldi ochildi, odamlar namat ustiga yoyilgan qumlarni qoqib tushira boshladilar. To'rg'aylar hech narsa bo'Imagandek, yana chuldirab qo'shiqlarini aytishga kirishdi. Oftob yana jilmayib, cho'l kelinchagi ustidan yana oltin tangalar socha boshladi. Bahor naqqoshi yana qo'liga mo'yqalamini olib, tabiat qo'yniga zebo naqshlar sola boshladi.

O'g'li bilan keliniga qarab, To'marisning sevinchi ichiga sig'mas edi. Biroq oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n

beshi qorong'i, deb bekorga aytmaganlar. Baxt osmonida bir parcha bulut paydo bo'lib, cho'l malikasining yuragini g'ash qila boshladi. Mamlakat chegarasidan kelgan chopalar uning huzuriga Eron shohining elchisi kelayotganidan darak bergen edilar.

Kayxusravning elchisi o'z mulozimlari bilan O'kuzning¹ o'ng qirg'og'iga o'tib, ikki kun yo'l yurgandan keyin To'maris huzuriga yetib keldi. U otini sekin yurgizib, ustiga oq namat qoplangan katta soyabon arava oldida to'xtatdi. Shu payt egniga yarg'oq teridan kamzul kiygan, kamariga qilich va o'q-yoy osgan namat qalpoqli bir pahlavon yigit kelib, otning jilovidan ushladi va elchi egardan tushguncha bir qo'li bilan oltin uzangini ushlab turdi. Xuddi o'sha yigitga o'xshab qurollangan ikki ayol arava yoniga sholcha solib, ta'zim qilganlaricha qotib qoldilar. Yoshi qirqlarga borib qolgan, chiroylikkina bir ayol aravaning orqasidagi pardani ko'tardi-da, belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palos ustiga sakrab tushdi. Bu ayol massagettar malikasi To'maris edi. Yarqiroq mis bolta ushlagan ikki qiz uning ikki yoniga kelib turdi. Elchi To'marisni ko'rgach, ikki qo'lini yerga qo'yib, yer o'pdi-yu, o'midan turib ta'zim qildi:

– Shahanshohi Eron a'lo hazratlari sen ulug' malikaga behad salom va sovg'alar yubordilar, – dedi u baland ovoz bilan.

– Senga sog'liq, tuman boylik va uzoq umr tilab qoldilar.

U tumtaroqli so'zlar bilan To'marisni qutlug'lar ekan, mulozimlari tillado'z chophon va harir ko'ylaklar tugilgan zarbof bo'xhani malika oyog'i ostiga qo'ydilar.

To'maris sovg'alar uchun minnatdorchilik bildirib, Eron shohining sog'lig'ini so'radi va elchingin yo'lda qanday kelganini surishtirdi, so'ngra sholcha ustiga tashlangan yo'lbars terisiga o'tirishni taklif qildi. Elchi va uning mulozimlari ham qator qilib solingan po'staklar ustiga o'tirdilar. Oradan ko'p o'tmay, mezbonlar ular oldiga charm supra yozib, pishirilgan qo'y go'shti, baliq, g'oz, o'rdak kabob keltirib qo'ydilar. Elchi bilan yonma-yon o'tirib, uni gapga solayotgan To'maris ovqatga manzirat qildi.

¹ Amudaryo o'tmishda shunday atalardi.

Elchi ovqat yeb o'tirar ekan, doimiy ovul va shaharlari bo'limgan massagetslarning qo'y va yilqilar orasida juda ibtidoiy hayot kechirishiga, ayollarning erkaklardek qurollanganiga, malikaning oddiy odamlar qatorida o'tirishiga hayron qolar va uning turmushini sernaqsh koshonalarda, zeb-ziynat ichida yashovchi Eron shohining hayoti bilan solishtirardi: „Shuyam malika bo'ldi-yu, – deb o'ylardi u: – o'z fuqarolari bilan yonma-yon o'tirib ovqat yeydi, sochlari o'sib yelkasiga tushgan yilqichilar qo'l cho'zib, uning oldidan yog'liq go'shtni olib yeydilar, na ostida oltin taxti bor va na boshida toji. Ayollarning erkaklar bilan yonma-yon o'tirib, bir-birlariga gap otib, go'sht chaynashlarini qarang. Bu xotinlarning erlari rashk nima ekanini bilmasalar kerak. Tavba, ayol kishi ham quroq taqadimi? Bularda na qul bor va na xizmatkor, hammalari topganlarini o'rtada baham ko'radilar. Yovvoyi xalq-da! Qul bo'lishdan boshqa narsaga yaramaydi bular!“

Kayxusrav elchisini yuborayotganda unga: „Agar To'marisni xotin qilib olsam, uning fuqarosi o'z-o'zidan men-ga qaram bo'lib qoladi, urushib o'tirishga hojat qolmaydi. Sening vazifang mening shu rejami ro'yobga chiqarishga yordam berishdan iboratdir, tushundingmi?“ – degan edi.

Elchi hozir o'z podshohining topshirig'ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog'lamalik qilib, To'marisni maqtab, ko'klarga ko'tarar edi:

– Olamda shu mahalgacha hech bir zaifa shundog' ulug' mamlakatga hukmdor bo'limgan, yer yuzi sendek adolatli malikani ko'rmagan, – derdi u kekirdagini cho'zib.
– Oftob tangrisi senga ham husn beribdur, ham shon-shavkat. Agar sen o'z taqdiringni bizning shahanshoh taqdiri bilan bog'lasang, dunyoda hech bir podshoh bizga bas kelolmaydur. – Shu zayldagi tumtaroqli gaplardan keyin o'z maqsadini ochiq bayon etdi: – Men yolg'iz elchi emas,sovchi ham bo'lib keldim. Shahanshoi olam senga g'oyibona oshiq bo'lganlar.

To'maris ovqat yeyishdan to'xtab qoldi.

– Ne deding? Sovchi bo'lib?

U Eron shohining qanday niyatda ekanini endi tushunib olgan edi.

– Ha, sovchi bo'lib, – takrorladi elchi bosh egib. – Ering o'lganiga bir yildan oshdi, hali yoshsan, go'zalsan. Faqat shahanshoji olam Kayxusrav kabi ulug' hukmdorga munosib qalliqdursan.

– Nima, uning xotinlari o'lib, o'zi so'qqabosh bo'lib qoldimi?

– Yo'q, xotinlarining hammasi sog'-salomat. Ul kishiga kuyovga chiqsang, sen bosh xotin, barcha xotinlari sening cho'ring bo'ladilar.

To'maris qoshlarini chimirib, o'yga toldi. Agar u shohning sovg'alarini va taklifini qabul qilsa, xalqining boshiga qanday kunlar kelishini ko'z oldiga keltirib, dahshatga tushdi.

– Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo'lgandir, – dedi To'maris zaharxanda qilib. – Men emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo'lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o'z tojdoringizga borib aytинг: men uning taklifini qat'yan rad etaman. Men unga qalliq bo'lishni, o'z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman.

– Shahanshohning takliflariga rad javob berishdan avval sarkardalar va ulug' oqsoqollarining maslahatini olishing, o'ylashib ko'rishing kerak edi, – dedi elchi To'marisning o'ng-so'lida o'tirgan namat qalpoqli, yarg'oq teridan kamzul kiygan kishilarga istehzo aralash nazar tashlab.

– Bu to'g'rida o'ylab bosh qotirishning hojati yo'q, – dedi urug' oqsoqollaridan biri. – Yurtimizning ulug'i rost gapni aytди. Hukmdoringga borib: „To'maris senga xotin, ulusi qul bo'lishni istamas emish“, deb ayt. Agar shahanshoh bizga mehmon bo'lib kelsa, yaxshilab ziyofat qilamiz, oyog'i ga qirq qo'chqor so'yamiz. Ammo qilich bilan kelsa, bari askarlarini qirib tashlab, ularning qonini o'ziga ichiramiz.

– Ulug' shahanshoji Eronning sha'nilariga yarashmaydigan gap bo'ldi, – dedi elchi bo'riqib ketib. U qattiqroq bir gap aymoqchi edi-yu, ammo g'azab bilan tikilib turgan chehralarni ko'rib, tilini tishlab qoldi. – Ulug' toj-

dor meni yaxshi niyat bilan yuborgan edilar. Sizlar ulug' shahanshohning ezgu niyatlarini payqamadingiz. Buning oqibati siz uchun xayrli bo'lmas.

– Agar elchi bo'l maganiningizda shul gapni aytgan og'-zingizni qum bilan to'ldirar edim. Qayerda ekanligingizni unutmang, janob! Orqa-o'ngingizga qarab gapiring. Shahanshohi Eronning niyati bizga ma'lum bo'ldi, – dedi hamon jahldan tushmagan To'maris. – Boshimizdan zar soch-ganlaringda ham biz erkinlikni qullikka alishtirmaymiz.

Dasturxon atrofida o'tirganlar:

– Rost gap!

– Vatandosh ayollarimizning gapi bunday bo'ladi, – deb To'marisning so'zini ma'qulladilar.

Shu payt uzoqdan ot dupuri va yigit-qizlarning qiyqirig'i eshitilib qoldi. Elchi xavotirlanib, chang-to'zon ko'tarilgan tomonga qaradi.

– Qo'rwmang, o'g'lim Siparangiz o'z qaylig'i va do'stlar bilan shikordan qaytib kelayotir, – deb elchini tinchitdi To'maris. – Yaxshiki boyagi gaplaringizni o'g'lim eshitmadidi, yo'qsa, teringizga somon tiqqan bo'lur edi! Qiziqqon, g'ayratli yigit u.

Bir lahzadan so'ng cho'l shamolidan yuzlari biroz qoraygan, ko'zlari chaqnagan, qora sochli uch chiroyli qiz bilan uch barvasta yigit otlaridan sakrab tushdilar va To'marisning oldiga ikki oq quyruq kiyikni keltirib qo'ydilar. Qizlarning ham, yigitlarning ham bellarida o'q-yoy va sadoqlarida o'qlari bor edi.

Elchi o'rnidan turib, yuzlari cho'zinchoq, ko'zlari katta, novchadan kelgan Siparangizga ta'zim qildi va tumtaroqli so'zlar bilan o'zining kimligini e'lon qilib, uning sog'lig'i ni so'radi. Siparangiz u bilan so'rashib bo'lgandan keyin, qaylig'i bilan elchining so'l tomoniga, yo'lbars terisi ustiga o'tirdi.

To'y kuni Siparangizdan yiqilgani uchun unga itoatgo'y bo'lib qolgan Zarina erining yonida odob saqlab, uning so'zlariga qulq solib o'tirar, undan oldin gap boshlashni o'ziga ep ko'rmas edi.

Siparangiz elchining yo'lda qanday kelganligini so'radi, elchining batafsil hikoyasini tinglagandan keyin takalluf-sizlik bilan Eron shahanshohining boyligi, uning qancha mulozim ham nullari, nechta xotini borligi va hokazolarni surishtira boshladi. Elchi xinaga bo'yalgan soqolini siypab kulimsirarkan, savollarga batafsil javob berib, shohning saroyidagi urf-odatlar bilan uni tanishtirdi. Yoshlar Eron shohining ko'z ko'rмаган, quloq eshitmagan zeb-ziynat ichida yashashi, ichkilik bazmlari to'g'risidagi hikoyasini zavq bilan tinglab o'tirdilar.

– Shahanshoh ziyofatiga taklif etilgan zardo'z chophonli a'yon-amaldorlar, harir kiyim kiygan mehmonlar, begona yurt elchilarini avval oltin taxt ustida o'tirgan shohi olamga ta'zim qilib, o'zlariga ko'rsatilgan yerga o'tiradurlar. Etaklarini bar urgan epchil bakovullar osh tortar ekan, bellariga qirqtadan qo'ng'iroq taqqan yosh soqiylar ularga oltin pi-yolalarda sharob tutadilar. Bir tarafda sozandalar...

Elchining gapiga diqqat bilan quloq solib o'tirgan bir yigit uning so'zini oxirigacha tinglab:

– Siz sharob degan so'zni ishlatdingiz, bu nima, bizga tushuntirib bering, – dedi.

– Sharob uzum suvidan tayyorlanadigan ajoyib ichimlik, o'zi xushta'm, bir kosa urib olsangiz, vaqtingiz chog' bo'lib, kulaverasiz.

– Ajoyib narsa ekan, – dedi boyagi yigit so'lakayini oqizib.

To'maris qovog'ini solib o'tirar, yoshlar elchining hikoyasini zavq bilan tinglayotganiga g'ashi kelardi. Siparangiz To'marisning avzoyiga qarab, o'zi yo'qligida onasining kayfini buzgan bir gap o'tganini payqadi.

Ertasiga u nima bo'lganini so'rab-surishtirib bilib oldi. U shohning taklifini onasi qat'yan rad etganini eshitib, xursand bo'lgan esa-da, biroq elchiga nisbatan qattiq chora ko'rilmaganiga hayron qoldi.

– Elchining quloq-burnini kesib jo'natish kerak, – dedi u qat'iy qilib.

– Bunday qilish yaramaydi. Elchida ayb yo'q. U o'z qulog'iga quyib qo'yilgan gaplarni gapirdi, xolos. Yaxshisi,

keltirgan sovg'a-salomini qo'liga berib jo'natamiz, shuning o'zi shohga tarsaki bo'lib tushadi, – dedi To'maris.

II

Marg'iyona¹ni, So'g'diya²ni ishg'ol qilgan Kayxusrav o'z qo'shini bilan O'kuzning chap qirg'og'iga kelib chodir qur-gan edi. U To'maris huzuridan qaytib kelgan elchisining ma'rzasini tinglab, makr-hiyla bilan massagetlarni asorat zanjiriga tushirish mumkin emasligini payqadi va qurol ku-chi bilan ularni itoatga keltirishga ahd qildi.

Oradan ko'p o'tmay, To'marisning ayg'oqchilar, „Kay-xusravning katta qo'shini O'kuzdan o'tish taraddudida, eroniylar yog'och va qamishlardan sollar yasamoqdalar“, deb darak topib keldilar. To'maris jang ko'rgan dono chol-lar, ayollarni chaqirib kengash o'tkazdi. Chollardan biri darhol o'q-yoy bilan qurollangan merganlarni daryo bo'yiga yuborib, ko'priq qurayotgan eroniylarni o'qqa tutishni, o'ng qirg'oqqa o'tishlariga imkon bermaslikni maslahat berdi. Siparangiz bu taklifga qarshi chiqdi:

– Bunday qilsak, xorazmiylar, Yaksartning³ naryog'ida-gi shaklar nima deydilar, bilasizmi? Massagetlar eroniylar bilan to'qnashishdan qo'rqib, ularni daryodan o'tkazmadi-lar, uzoqdan ularni o'qqa tutib, ko'priklarini, sollarini bu-zib tashladilar, deb ayyuhannos uradilar. Bundan so'ng biz nima degan odam bo'lamiz, qanday qilib bosh ko'tarib yur-gaymiz. Yaxshisi, eroniylarga elchi yuborib, biz ko'priq qu-rib, daryoning bu betiga o'tishingizga to'sqinlik qilmaymiz, o'tib olganingizdan keyin siz bilan jang qilishga tayyormiz, deyishimiz kerak.

– Gapning o'g'il bolasi mana bundoq bo'ladi, – deb uning so'zini quvvatladi yoshroq bir yigit.

¹ Marg'iyona – Marv.

² So'g'diya – hozirgi O'zbekistonning g'arbiy qismi.

³ Yaksart – Sirdaryo.

To'maris ham jangovar massaget elining obro'sini saqlab qolish maqsadida o'g'lining gapini ma'qullab, cholning taklifnni rad etdi.

Shundan so'ng Amuning o'ng qirg'og'idagi bepoyon cho'listonda biridan biri dahshatli voqealar yuz bera boshladi. Jangovar yigitlarning tantiligi ularga juda qimmatga tushib ketdi.

Kayxusrav o'zining otliqlari va og'ir qurolli piyodalarini daryodan monesiz olib o'tgach, darhol massagetlar ustiga yurish boshladi, lekin bir hafta yursa ham ularni uchratolmadi. Ko'chmanchilarning eroniylarni bepoyon cho'l-lar ichiga olib kirib, ularni suvsiz, oziq-ovqatsiz qoldirib, tor-mor qilish niyatida ekanliklari ma'lum bo'lib qoldi. Yoz boshlanib, kunlar isib ketgan, maysalar qovjirab, sarg'ayib qolgan edi.

Kayxusrav kengash chaqirib, tajribali chollarning maslahatini eshitmoqchi bo'ldi.

– Baliq daryoda o'zini qanday sezsa, bu la'nati ko'chmanchilar ham shu suvsiz cho'llarda o'zlarini shunday sezadilar, – dedi keksa jangchilardan biri. – Cho'l-biyobon ularning o'z bag'rida o'stirgan mehribon onasi, biz uchun esa o'gay onadan battar. Massagetlar qayerda buloq, qayerda quduq bor, yaxshi biladilar...

– Xo'sh, ularni tor-mor qilmoq uchun qanday choralar ko'rishni tavsiya etasiz? – dedi ipak chodirning to'rida o'tirgan Kayxusrav noxushlanib. Uning egnida podsholik alomati bo'lgan to'q qizil kimxob chopon, qo'lida javohirlar bilan bezalgan aso, bir mulozim uzun yelpig'ich oilan timay yelpib turardi.

– Ularni tor-mor qilmoq uchun shunday bir nayrang ishlatmoq kerak. Qo'shinimizni uchg'a bo'lib, bir qismini orqada qoldirsak va ularni oziq-ovqat, sharob, nob bilan mo'l-ko'l ta'min etsak... Qolgan ikki qismi bilan yurishni davom ettirsak.

Eron shohi ko'pni ko'rgan keksa jangchining makr-hiyladan iborat bo'lgan rejasini zavq bilan tinglab o'tirdi. „Soddadil massagetlar daryodan o'tishimizga monelik qilmay, mardlik ko'rsatdi-yu, bizlar hiyla ishlatib, nomard-

lik qilamizmi?“ – degan fikr ko‘nglining ko‘chasiga ham kelmasdi. Iroq va Misrni, O‘rta Osiyoning janubiy qismini qurol va oltin, makr-hiyla bilan bosib olib, buyuk Eron davlatini barpo etgan bu shuhratparast shoh maqsadiga erishish yo‘lida har qanaqa nomardliklardan tap tortmasdi.

U askarning uchdan ikki qismini boshlab ilgarilab ketdi, orqaroqda qolgan jangchilari xuddi ziyofatga tayyorlana-yotganday ipak chodirlar qurib, yer o‘choqlar qaziy boshladilar.

O‘z ayg‘oqchilari orqali bundan xabar topgan To‘maris asosiy qo‘shindan ajralib orqada qolgan dushman qismini tor-mor etish payiga tushdi. U askarlarining uchdan bir qismini o‘g‘li Siparangizga topshirib, buyurdi:

– Sen ularni to‘zg‘itib yuborgandan keyin hayallamay, darhol Kayxusravga orqa tomondan ot sol, biz manglayidan uramiz. Quyosh tangrisi bizni yorlaqasa, shahanshohi Eron askarlari qurshovda qolgan jayronlarday, qochgani joy topolmay qolg‘aylar. Uqdingmi?

– Uqdim, – dedi o‘g‘li va uqqanini ko‘rsatish uchun onasining aytgan gaplarini takrorladi.

– Bor, o‘g‘lim, Quyosh tangrisi madadkoring bo‘lsin. Massaget otliq askarlari orqada qoldirilgan eroniylar qarrogohiga bostirib kirganlarida ular endi ovqatlarini suzib, sharob to‘la meshlarni dasturxon yoniga keltirib qo‘ygan edilar. Qisqa jangdan so‘ng eroniylar orqalariga qaramay qochdilar. Ularning bir qismi qilichdan o‘tkazildi, bir qismi qo‘lga tushirildi.

Asir tushgan bir eroniy so‘roq vaqtida Siparangizga shunday dedi:

– Ulug‘ sarkarda ekansiz, bizni g‘aflatda qoldirib, ustimizga balo-qazoday bostirib kelib qoldingiz. Biz endi bazzi jamshid boshlagan edik. – U sharob to‘la meshlarga va zarrin kosalarga, ovqat suzilgan tovoqlarga ishora qildi: – Bular bizga emas, sizlarga nasib qilgan ekan.

– Ovqatlariningiz, sharoblariningiz o‘zingizga buyursin, bizning ziyofat yemoqqa vaqtimiz yo‘q, – dedi Siparangiz sharob suzilgan kosalarga qarab, ammo o‘zining bir tatib ko‘rgisi kelib turardi.

– Yigitlar yo‘l yurib, jang qilib charchadi, otlar ham toliqdi, ularga biroz dam bermoq kerak, – dedi yosh sardorning yigitlaridan biri. – Tamaddi qilib, so‘ng darhol otlanamiz.

– To‘g‘ri, ozroq dam olaylik, tamaddi qilaylik, – deyishdi qorni ochgan yigitlar dasturxonlardagi noz- ne‘matlarga qarab.

Siparangiz ikkilanib qoldi, keyin:

– Hoy, chol, – dedi asir eroniya qarab. – Boshing uchun rost so‘yla, ovqat va sharoblarga zahar solingan emasmi?

– O‘zimiz yemoqchi bo‘lgan ovqatga nega zahar solaylik? Nima, o‘zimizga o‘zimiz dushmanmizmi? Barcha xudolarning xudosi Axuramazzani shafe keltirib qasamyod etamanki, biz bu noz-ne‘matlarga zahri qotil solganimiz yo‘q.

– So‘zlarining to‘g‘riligini isbotlash uchun bulardan yeb-ichib ko‘r-chi!

Asir sharob ichib, tovoqdagi go‘shtdan yeb ko‘rsatdi. Qo‘lga tushirilgan boshqa eroniylarga ham sharob ichirib, ovqat yedirib, ularning zaharlanmaganiga qanoat hosil qilgandan so‘ng, yigitlar dasturxonlar yoniga o‘tirdilar-da, sharoblarni no‘sht etib, pishirib qo‘yilgan go‘shtlarni tushira ketdilar.

O‘tkir sharob umrida ichkilik ichmagan yoshlarga darrov ta’sir qila qoldi. Ular hiringlashib, bir-birlari bilan askiya qila boshladilar. Qorovulga qo‘yilgan otliqlar ham benasib qolmasinlar, deb ularga ovqat va may oborib berdilar. Biroz ovqatlanib otlanmoqchi bo‘lgan yigitlar og‘izlariga ichkilik tegishi bilan xursandchilikka berilib, qancha vaqt o‘tganini bilmay qolgan edilar.

Kayxusravning muddaoси ham shu edi. Massagetlardan qochib qutulgan eron otliqlaridan ba‘zilari Kayxusrav huzuriga yetib borib, qarorgohda ro‘y bergen hodisalardan uni voqif qilgach, u otining boshini orqaga burdi, anqayib qolgan yumronqoziq ustiga tashlangan ilondek Siparangiz qo‘shiniga birdan hujum qildi. Qorovul bo‘lib turgan shirakayf askarlar eroniylarning yetib kelganlarini payqamay qoldilar. Qisqa jangdan so‘ng dushman ularni qirib tashladi. Bazm qurib o‘tirgan yigitlarning ba‘zilari jang suronini eshitgach, o‘rinlaridan turaman deb, gandiraklab yiqlilib tushdi, otlariga yetib olganlar qilichlarini qinidan

sug'urishga ulgurolmadilar. Ba'zi yoshlar jang ko'rgan askarlarning so'ziga kirmay, otlariga dam berish uchun ayilni bo'shatib qo'yishgan edi, shu sababdan otlariga minishlari bilan egar qiyshayib, otlarning qorniga kelib, o'zлari boshlari bilan yerga sanchilishdi. Xullas, dushmanning nayrangiga uchib, hushyorlikni qo'ldan bergen Siparangiz o'zining bir necha yigit bilan asir tushib qoldi. Ularning oyoqlariga kishan solib, qo'llarini orqalariga bog'lab, Kayxusravning ro'parasiga turg'izib qo'yishdi. Shoh istehzoli iljayib, asirlarni ko'zdan kechirdi.

– Ha, qo'lga tushdingmi? – dedi u Siparangizga bosh irg'ab. – Holing shu-ku, men bilan jang-jadal qilmoqchimiding, ona suti og'zidan ketmagan tirmizak!

Tiriklayin qo'lga tushmaslik uchun dushman bilan toza olishib, u yer-bu yeri tormalgan yosh sardorning mastligi tarqab, hushyor tortib qolgan edi. U boshini viqor bilan ko'tarib, shahanshohga nafrat ko'zi bilan qaradi-da:

– Ha, sen bilan jang-jadal qilmoqchi edim, ammo bu baxt menga muyassar bo'ljadi, – dedi. – Sen ochiq yerda rasmona jang qilishdan qo'rqib, makr-hiyla bilan bizni qo'lga tushirding. Afsuski, yoshlik qilib, qilich dastasini ushlagan qo'limga manfur sharob kosasini oldim va tuzoqqa ilindim. Agar sen nomardlardek...

Shohni haqorat qilishga o'tgan Siparangizning tovushini o'chirish uchun askarboshilardan biri:

– Bas qil, ahmoq! – deb uning yuziga qo'lidagi piyoladan suv sepib yubordi. Yigit bexosdan seskanib ketgan edi, uning gaplari naryoq-beryog'idan o'tib ketgan Kayxusrav kulib yubordi, yonidagi a'yon va sarkardalar ham shohlariga taassub qilib, ko'zlaridan yosh chiqquncha xaxolab kulishdi.

– Kuling-a, kuling, – dedi Siparangiz ularga jirkanib qarab, – ko'p o'tmay yig'laysiz, qon yig'laysiz. Hiyla va makrlaringiz endi ish bermaydi, arslon terisini yopingan tulkilar...

Haligi askarboshi uni gapirtirmaslik uchun yuziga suv sepib yubordi. Kayxusrav bu safar zo'rma-zo'raki iljayib qo'ydi, yoni-veridagilar xaxolab kulishga jur'at etmay, tirjayib qo'yishdi.

- Biz qahr-g'azab qilishni ham bilamiz, luft-karam qilishni ham, - dedi Eron shohi Siparangizga qarab. - Xususan, biz sen kabi bolalarga shafqatlimiz. Ehtimol, onangni sog'ingandirsan, istasang, seni qo'yib yuboramiz.

Siparangiz zaharga aylangan tupugini qult etib yutib o'yadi: „Qo'shinimizning uchdan birini men nobud qildim. Safdoshlarimning qirilib ketishiga men sababchi bo'ldim. Agar endi bo'shatib yuborsalar ham o'z elatimga qaytib ketmayman. Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman?“

- Qo'limni yechib qo'yinglar, - deb iltimos qildi u.

Kayxusrav bir mulozimga ishora qilgan edi, u yugurib borib yigitning qo'lini yechdi-da, o'z joyiga borib turdi. Shu on Siparangiz qo'ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib, o'zining ko'ksiga sanchdi-yu, mukka tushib jon taslim qildi.

- Mard yigit ekan, - dedi Kayxusrav birozdan keyin. - O'limni nomusdan afzal ko'rdi. O'limganda, ehtimol, ulug' sarkarda bo'lar edi. Mayli, bo'lar ish bo'ldi, endi mana bularni ham, - u asir yigitlarga ishora qildi, - o'z sarkardasi ortidan narigi dunyoga jo'natinglar.

III

Siparangiz va uning safdoshlari halok bo'lganligi to'g'-risidagi xabar To'marisning va barcha ayollarning yuraklarini o'qdek teshib o'tdi. Ruhiy azobning zo'rligidan ularning ko'zlariga yosh ham kelmay qoldi. Birmuncha vaqtidan keyin soyabon aravalarning ichidan xotinlarning dod-faryodi eshitila boshladи. Xususan, Siparangizning qaylig'i sochlarini yulib yig'lab, hammaning yurak-bag'rini ezib yubordi, ammo To'maris qayg'usining zo'ridan yig'lay olmasdi. U esi og'ib qolgandek bir nuqtaga tikilganicha qotgan, lablari bir nima deb pichirlar edi.

Qayg'u-hasratning davosi - dushmanidan o'ch olish edi. Dahshatli xabar kelgan kunning ertasiga To'maris tajribali urug'doshlarini to'plab, kengash o'tkazdi.

Davra qurib munkayib o'tirgan keksalarga, kampirlarga, dushmanidan o'ch olish istagi bilan yongan yoshlarga bir-bir ko'z yogurtirib, titroq ovoz bilan:

– Otalar, onalar, ukalar, ahvolimiz tang, falokat boyqushlari tepamizda uchib yuribdur, – dedi. – Yovuz dushman navqiron yigitlarimizni makr bilan qirib tashladi. Biz ularning o'chini olmog'imiz, bor kuchimizni to'plab, yovni yurtimizdan haydab chiqarmog'imiz kerak. Shu to'g'rida sizning maslahatingizni olmoqchimiz.

To'rda o'tirgan oppoq soqolli, kulcha yuzi qip-qizil, o'tkir ko'zli bir chol tomog'ini qirib gap boshladi:

– Beparvo bo'lganimiz, g'aflat bosib bemaslahat ish qilganimiz uchun bizni Mihra jazoladi. Agar biz yuborgan qo'shinga Siparangiz emas, ko'p janglarda suyagi qotgan, ehtiyyotkor bir kishi boshchilik qilganda navqiron yigitlarimizdan ajralib qolmas edik. Siparangiz mard bo'lsa-da, ammo ko'p jang ko'rmagan, tajribasiz yigit edi. Keyinchalik u zo'r sarkarda bo'lib yetishardi, afsuski, umri qisqa ekan.

– Rost aytasiz, – deb uning so'zini bo'ldi To'maris. – Men suyagi qotmagan o'g'limni bu qo'shinga bemaslahat bosh qilib yubordim va manmanlikning jazosini tortdim.

– Yigitlar orasida qizlar, ayollar bo'lganida bu falokat boshimizga kelmas edi, – dedi bir kampir tutaqib. – Mihra ayollarni kuch-quvvatga to'lgan vaqtida, fahm-u farosat yordamida yaratgan. Siparangiz qo'shinida qizlar bo'lganida yigitlarning qo'lidan may kosasini urib tushirar edi...

– Bo'lar ish bo'ldi, otilgan o'qni qaytarib bo'lmas, – dedi boyagi chol uning gapini og'zidan olib. – Biz endi bundoq qilsak: barcha qariyalar va bolalarni mollar bilan orqaga yuborib, barcha er-xotin, yigit-qizlarni qurollantirsak va dushmanni cho'l ichiga aldab olib kirib, o'sha yerda qirib tashlasak...

Ko'pni ko'rgan chol qayergacha chekinish va dushman bilan qaysi joyda jang qilish kerakligini batafsil gapirib berdi. Kengashdagilar uning rejasini ma'qullab, ba'zi tuzatishlar kiritdilar.

O'sha kuniyoq To'maris, urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin, deb buyruq berdi, keyin otlarining jilovidan ushlab saf tertib turgan erkak va ayollarning qurol-yarog'lari, ust-boshlari, oyoq kiyimlarini ko'zdan kechirdi. Ularning puxtaligiga qanoat hosi qilgandan keyin

bir arg‘umoqni qurbanlikka so‘ydirib, Quyosh tangrisiga iltijo qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi, belidagi oltin kamariga osilgan qilichi va qalqonini yerga qo‘yib, massagetlar nazdida xudolarning xudosi bo‘lgan Mihraga sig‘ina boshladi:

– Ey, butun mavjudotni – yer-u ko‘kni, suv va o‘tni yaratgan Quyosh tangrisi! Sen ko‘zingni ochsang olam nurga to‘ladi: ko‘zingni yumsang – yer yuzini qorong‘ilik lashkari bosadi. Odamlarga o‘t bergen ham sen, daryolarni toshirgan; ekinzor va o‘tloqlarga suv bergen ham sen! Qo‘y va kiyiklarni ko‘paytirgan, don-dunga baraka bergen ham sen! Ey, ulug‘ Quyosh tangrisi, bizni eroniylarga xor qilma, dili-mizga g‘ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o‘ch olovini sol! Qilichimizni o‘tkir qil, toki, yurtimizni oyoqosti qilgan makkor dushmanni tor-mor aylab, qullik balosidan xalos bo‘laylik!

U najot so‘rab Mihraga yolvorarkan, ko‘zlaridan duvul-lab yosh oqib ketdi. Bir lahma yerga qarab turdi-da, o‘zi-ni tutib olgandan so‘ng qilich-qalqonini taqib olib, past-ga tushdi, o‘ynoqlab turgan oq otiga minib, qurollangan xalqqa murojaat qildi. Yurtning boshiga tushgan falokat to‘g‘risida gapirib, so‘zining oxirida shunday dedi:

– Opa-singillar, aka-ukalar, qayerga ketayotganingizni hammangiz bilasiz. Shu ketganimizcha yo hammamiz bit-ta qolguncha qirilib, o‘z qonimiz bilan sha’nimizga tush-gan dog‘ni yuvib tashlaymiz, yoki dushmanni qirib yuborib, g‘alaba bilan qaytamiz. Ishonaman: oramizda Eron shohi oldida tiz cho‘kadigan nomard yo‘q. Biz albatta yengamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko‘rsin Eron shohi!

– Bizni jangga boshla, onaxon! Dushmanidan intiqom olib, dudini dimog‘idan chiqaraylik!

Oftob nuri To‘marisning yelkasiga tushib turar, go‘yo Mihra nurli qo‘llari bilan uni siypab, olqishlayotgandek bo‘lar edi.

– El-yurt ayol kishining fotihasini oldi, g‘alaba bizga yor bo‘lg‘ay, – dedi soqoli ko‘ksiga tushgan bir chol.

Shu payt tip-tiniq osmonda bir burgut qanotlarini keng yoyib, ular ustida aylana boshladi. Qurolli yigit-qiz-

lar boshlarini ko'tarib, uning parvoznni tomosha qildilar. Hamma ko'zlar chaqnab, yuzlar yorishib ketdi, chunki ularning e'tiqodida bu yaxshilik alomati edi...

To'maris tish-tirnog'igacha qurollangan va hali char-chamagan Eron qo'shini bilan hozir jang qilsa, oqibati xunuk bo'lishini yaxshi bilardi. Eng oldin dushmanni cho'l-larda sarson qilib, uning tinkasini quritish va qulay joy topib turib, jang qilish kerak edi.

Yengil g'alabadan havolangan Eron qo'shini To'marisning chekinayotganini eshitib, zudlik bilan uni ta'qib eta boshladi. Kayxusrav osongina zafar qozonib, o'lja olishga shoshilayotgan qo'shinini to'xtatib qolishdan ojiz edi. Massagetlar esa bir tepalik ostida o'zлari uchun qulay joy ishg'ol qilib, saf tortib turdilar. Birinchi safda o'q-yoy bilan qurollangan yengil aslahali merganlar, ular orqasida og'ir qurolli askarlar turar edi. Kayxusrav askarlari sekin-asta yaqinlashib kelaverdilar. Massaget merganlari to'satdan ularni o'qqa tutdilar, sadoqlar bo'shab qolgach, uzun das-tali mis boltalar, kalta nayzalarni ishga soldilar. Qo'shining ikki yoni va orqa tomoniga himoya qilib turgan otliqlar suvlig'ini chaynab, tilla o'mildiriqlarini oftobda yarqiratib turgan sabrsiz arg'umoqlarning boshini qo'yib yubordilar. Saflar bir-biriga aralashib ketdi. Qilich va nayzalarning bir-biriga taraqlab tegishi, jangchilarning suroni, otlarning kishnashi, yaradorlarning ingrashi birga qo'shilib, qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Odamlar g'uj bo'lib olib, bir-biriga nayza sanchar, bolta bilan boshiga tushirar, qilich bilan chopar edi. Jang shu zaylda kechgacha davom etdi. O'z yerlarini yovdan tozalash va o'ch olish ishtiyobi bilan yongan massagetlar jonbozlik ko'rsatib yov bilan mardlarcha olishishdi, nihoyat, zafar ularga yor bo'lib, dushman ni orqaga sura boshlashdi. Zarina boshchiligidagi otliq qo'shin dushmanning chap qanotini sindirib, orqaga o'tib oldi. Bir tepalik ustida jangni kuzatib turgan Kayxusrav qilich yalang'ochlab, o'z navkarlari bilan jangga shoshildi, biroq u birinchi to'qnashishdayoq halok bo'ldi. Kayxusravning o'lganini bilib, eroniylarning ruhi tushib, yuraklari-dagi o't so'na boshladi. Dushmanning bir qismi chekinib,

yaqin o'rtadagi to'qaylarga yashirinmoqchi bo'ldi. Biroq To'maris boshchiligidagi erkak va ayol suvorilar ularning oldini to'sib chiqib, qilichdan o'tkaza boshladilar. Massagetlar eroniylar ustidan to'la g'alaba qozonib, bir talay asir olishdi.

– Kayxusravning... kallasini kesib olib kelinglar! – deb buyurdi hali ham nafasini rostlab ololmagan To'maris. Uning yonida turib, dushman bilan olishgan kelini uchto'rt ayol jangchi bilan shahanshoh askarlarining jasadiga to'lgan maydonga ot surdi. Ko'p o'tmay, Zarina Kayxusravning jasadini topdi va uning kallasini kesib olib, To'marisga keltirib berdi.

– Endi bir meshga qon to'ldirib kelinglar!

Jangchilar darhol malikaning buyrug'ini bajo keltirdilar. To'maris soch va soqoliga qon yopishib qotib qolgan, ko'z-lari yumuq, dahshatli kallani qo'liga olib, unga qaradi-da:

– Ey Kayxusrav¹, umr bo'yи jang qilib odam qoniga to'y-mading, mana endi to'yguningcha ich! – deb uni mesh ichiga soldi-da, mesh og'zini chilvir bilan mahkam bog'lab qo'ydi.

¹ Kayxusrav eramizdan ilgarigi 529-yilda halok bo'lgan.

KITOBGA IXLOS

Yarim kecha, osmonda charaqlagan yulduzlar mast uyquda yotgan yerga nazar tashlab, bir-birlariga ko'z qisib qo'yishadi. Kunduzi bozorchilarning g'ala-g'ovuridan charchagan Buxoro sukunat qo'ynida orom olmoqda. Ahyon-ahyonda uzoqlardan dovul tovushi eshitiladi: tun posbonlari uyqudag'i shaharni qo'riqlab yuradilar.

Shimol tomonga qaratib solingan baland bir ayvoning o'tasida, xontaxta ustida miltillab yongan shamning sarg'ish nuri ostida o'n yetti-o'n sakkiz yoshdagi bir yigitcha mutolaa qilib o'tiradi. Uning qotmadan kelgan tiniq yuzida, katta-katta ko'zlarida zakovat nuri porlaydi. Nazari satrlar oralab yo'rg'alarkan, yer ostidan xazina topgan kishidek qo'llari asta titraydi, yuziga g'lati tabassum yuguradi, keng va yorqin peshanasida marjondek ter paydo bo'ladi. U butun koinotni unutgan, butun fikri satrlar orasi ga yashiringan sirlarni topish tashvishida.

Ayvonning chekkasida yotgan Sitorabonu bir uyquni olib, o'rnidan turib o'tirdi, o'g'lining haligacha yotmagani ni ko'rib:

– Hoy o'g'lim, shu mahalgacha o'tiribsanmu? Yosh joningga muncha jabr qilmasang? Yot hozir, – dedi.

– Onajon, yana biroz o'tirishga ijozat bering. Juda ajoyib kitob ekan.

Qirqlarga borib qolgan bo'lsa ham, tarovatini yo'qotmag'an, qomati kelishgan qora qosh ayol o'g'lining yuzidagi jiddiy ifodani ko'rib, ko'ngli yumshadi.

– Kecha bir tangaga sotib olgan kitobingmi?

– Ha, o'shal kitob. Buni qarangki, shu mahalgacha boshimni qotirib yurgan muammolarni osonlikcha yechib beribdura!

Sitorabonu o'glining gapiga yaxshi tushunmagan bo'l-sa ham, riyozat chekib ilm o'rganayotgan o'glining yuksak martabaga yaqinlashib qolganini ichki his bilan angladi va mayin jilmayib, boshini yostiqqa qo'ydi.

Keyinchalik Abu Ali ibn Sino nomi bilan mashhur bo'lgan yosh Husayn har kuni yarim kechagacha o'tirib, yunon va arab hukamolarining tib va falsafaga doir kitoblarini o'qir edi. Uyqusi kelib, ko'ziga qum tiqilganda allaqanday bir o'tni qaynatib tayyorlangan doridan bir ho'plam ichar, ko'zi yana ochilib, zehni ravshanlashardi. Bugun esa onasining so'zini yerda qoldirmay, o'sha dorisidan ichmadi. Kelgan joyiga xatcho'p solib, kitobni tokchaga olib qo'ydi-da, o'rniiga kirib yotdi.

Husayn shu bugun ertalab sahof bozorni¹ aylanib yur-ganda paranji ichidan qo'lini chiqarib, kitob ushlab turgan bir kampirga ko'zi tushib qolgan edi.

– Onajon, kitobingizni sotasizmu?

– Ha, soturman, juda yaxshi kitob.

Yigitcha uning qo'lidan kitobni ol'ib, varaqlay boshla-di. Bu – Forobiyning „Fasusi al-hikam“ degan kitobi bo'lib, Arastuning „Moba'dat tabiat“ degan kitobiga yozgan sharhi edi. Husayn shu mahalgacha „Moba'dat tabiat“ni bir necha marotaba o'qigan bo'lsa ham, sira tushunmagan edi. Mana endi uning kalitini topdi. Forobiy ulug' yunon hakiminining juda chigal falsafiy mulohazalari mag'zini chaqib bergen edi.

* * *

Somoniylar shajarasingning so'nggi butog'i bo'lgan pod-shoh Nuh binni Mansur kasalmand odam edi. Buxoroning mashhur tabiblari uni davolash bilan ovora edilar. Biroq hech birining bergen dori-darmoni tojdor bemorga kor qilmas, dardini yengillatmas edi.

Podshoh devon ma'muri bo'lgan marhum Abdulloning o'g'li Husayn tabibi hoziq bo'libdi, degan xabarni eshitib, uni darhol huzuriga chorlatdi.

¹ Sahof bozor – kitob bozori.

Saroy o'lik chiqqan uyga o'xshaydi. A'yonlar, saroy amaldorlari, soqchilar oyoq uchida yurardilar, bir-birlari bilan shivirlashib gaplashardilar.

Saroy vaziri Husaynni qo'lidan ushlab, qilichlarini ylang'ochlab yelkalarig'a qo'yib turgan soqchilar orasidan olib o'tdi va eng ichkaridagi bir xona oldiga olib borib to'xtatdi. Eshikning ikki tomonida chiroyli ikki turkman yigit soqchilik qilib turardi. Vazir barmog'i bilan shu yerda turishni buyurib, o'zi xona ichiga kirib ketdi.

Oradan besh-o'n daqiqa o'tgach, eshik ochilib, yosh hakimni ichkariga taklif etdilar. Uzun, rang-barang oynali darchadan xira nur tushib turgan, shiftlari muzayyan, devorlari o'ymakor xonaga kirib, Ibn Sino to'rdagi ipak to'shak ustida yostiqqa suyanib o'tirgan rangpar kishiga ta'zim qildi. So'ngra uning ishorasi bilan to'shak yoniga borib, cho'kka tushdi. Yosh hakimning xipchagina gavdasini tik tutishi, dadil boqishidan, tip-tiniq nurli yuzidan, katta-katta ko'zlaridan kamtarligi va shu bilan birga o'ziga ishonganligi bilinib turardi.

Nuh binni Mansur savqi tabiiy bilan o'z huzurida ulug' iste'dod egasi bo'lgan bir hakim o'tirganini payqadi va uning sha'niga munosib muomala qilib, hol-ahvol so'radi. Ibn Sino o'zini yaxshi tutib, uning savollariga shoshmay javob berdi. U podshohning kasali nima ekanligini tabiblardan eshitgan bo'lsa-da, o'z hamkasblarining odatiga muvofiq, keskin harakat bilan tojdor bemorning tomirini ushlab ko'rdi. U o'z oldida Movarounnahrning podshohi emas, balki oddiy kasal kishi yotgandek, uning sarg'aygan yuziga tikilar, tilini ko'rsatishini so'rар, podshohning sha'niga nomunosib savollar berardi. (Bir necha xil kasali bo'lgan binni Mansur bavosil kasaliga ham mubtalo edi.) Saroy vaziri podshoh huzurida o'zini shu qadar sokin va betakalluf tutgan hakimni birinchi marotaba ko'rishi edi.

Ibn Sino podshohning javobini tinglab, peshanasini ushlaganicha o'ylab qoldi. Keyin achchiq ovqat, ichkilik ichmaslikni, ko'proq shirguruch yeb, ho'l meva iste'mol qilishni tayinlab, o'rnidan turdi.

– Zoti oliylari, bandalariga ijozat bersinlar, kechqurun dori tayyorlab yuborgayman. Ko'proq tar meva iste'mol qilsinlar, ammo Buxoro mevasi janoblariga zararlidir. Mevani Samarqanddin keltirib yesinlar. – Ziyrak tabib o'zining xulq-atvori saroy vazirida noshoyista ta'sir qoldirganini payqagan edi. – Agar hurmat shartlarini joyiga keltirolma-gan bo'lsam, afv etgaylor.

Binni Mansur bilinar-bilinmas jilmayish bilan undan xafa bo'limganini bildirgandek bo'ldi. Yosh hakim ta'zim qilib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi. Bir haftadan keyin saroyga kelgan Ibn Sino dori-darmonlari bemorga yaxshi ta'sir qilganini ko'rdi. Rangi tozargan binni Mansur uni ochiq chehra bilan qarshi oldi va yosh tabibdan behad minnatdor bo'lib, nima tilasa berishga tayyor ekanini aytdi. Yosh tabib uning oldida tiz cho'kib, imkon xorijida bo'lgan bir narsani so'ragandek qo'rqb, past tovush bilan:

– Menga saroy kitobxonasida mutolaa qilmoqqa ijozat bersalar bas, – dedi. – Menga pul kerak emas.

– Barakalla! Umrinda puldan ilm-urfonni yuqori qo'yaturgan odamni birinchi ko'rishim. – Podshoh iljayib uning iltimosini bajon-u dil qabul qilganini izhor etdi. So'ngra saroy vaziriga qarab dedi: – Kitobdorga aytib qo'ying, Ibn Sinoga har kun kitobxonada mashg'ulot o'tkazmoqqa ijozat berdim.

Vazir indamay bosh egib qo'ydi.

* * *

X asrda butun O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda tengi bo'limgan Buxoro kutubxonasida qadimgi Yunoniston, Hindiston hukamolarining arab tiliga tarjima qilingan asarlari saqlanardi.

Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan kitobdor Ibn Sinoni mammunlik bilan qarshi olib, o'z qo'l ostidagi boyliklar bilan uni tanishtirib chiqdi. Har bir hujrada bir fanga doir kitoblar saqlanar, qator-qator sandiqlar kitob bilan liq to'la edi. Kitobdor har bir hujraning qulfini ochib, bunda qanday

kitoblar borligini aytar edi, u sandiq ochib nodir qo'lyozma asarlarni ko'rsatar ekan, Ibn Sinoning ko'zları yaltirardi.

– Qadrdon ota, men endi sizga har kun mehmon bo'l-gaymen, – dedi u hayajonlanib.

– Mammuniyat bilan sizga kitobxonaning to'ridan joy bergaymen. Sizga hech bir buxorolikning qo'li tegmagan kitoblarni topib bergaymen.

Jome peshtoqi ostidagi marmar supa ustida ikki kishi gaplashib o'tirardi. Ularning biri mosh-guruch soqolli, bo-shiga olifta qilib misqoli salsa o'ragan o'rta yoshli kishi. Ikkinchisi esa, oppoq soqoli ko'kragiga tushgan, quyuq qoshlari qordek oqargan chol. Uning qoshlari chimirilgan, ko'zları o'qrayib qaraydi.

– Taqsir, qarigan chog'ingizda dunyoning g'amini yeb na qilursiz? – dedi o'rta yoshli kishi. – Hamma ishni bizga qo'yavering, o'z joningizning rohatidan bo'lak narsani o'y-lamang.

– Xo'p gapirasiz-da, mulla Sadriddin, dunyoning buzi-lib ketayotganini ko'rganiningdan keyin ko'ngil qanday tinch bo'lzin. Axir, ko'rib turibsiz, yoshlar qariyalarni hurmat qilmay qo'ydi, o'rtadan sharm-hayo ko'tarildi. – Har bir davrning miyasi aynib qolgan chollariga xos shikoyatdan so'ng Mag'oqiatton machitining imomi chuqur xo'rsinib qo'ydi.

– Madrasalarda ilmi hol¹ o'gay o'g'il holatiga tushib qoldi. Yoshlar masoil diniga emas, hikmat, mantiq, ilm ri-yoziy va hokazolarga qiziqadurlar. Lavhlari ustida Qur'on emas, mashoyixlarning kitoblari emas, balki majusiy olim-larning kitoblarini ko'radurman. Afsuski, saroy ahlida ham dinga rag'bat qolmadi. Saroy kitobxonasi yoshlarning miyasini zaharlayturgan makonga aylandi. Koshki edi unga o't tushib, kuli ko'kka sovurilsa...

– Sabr qilsinlar, taqsirim, hammasi siz aytgandek bo'lg'usidir. Sharqdan kelmoqda bo'lgan to'fon Nuhning taxt-saltanatini olib ketajakduri. Qorabug'roxon boshliq ko'chmanchilar o'rdusi hozir Samarqand bo'sag'asida turur. Qoraxoniylar yaqindagina dini islomni qabul qilganliklari

¹ Ilmi hol – diniy ilmlar.

uchun dinga qattiq berilganlar, somoninlarning esa e'tiqodi susaygan. Ko'chmanchilar garchi o'z jinsimizdan bo'lmasalar ham, e'tiqod jihatidan bizga yaqindurlar.

– Ilohi, ularning qo'li baland bo'lsin.

Shu paytda kitobxonadan xushnud bo'lib qaytayotgan Ibn Sino bu ikki mutaassib din peshvosiga duch kelib qolib, qo'ng'iroqday tovush bilan:

– Marhabo, to'tiy mullo! – deb salom berdi.

– Marhabo! – deb javob qaytardi mulla Sadriddin, – ha, mulla; yo'l bo'lsin?

– Uyga.

– Eshiddik, sizga kitobxona eshigi ochilibdur.

– Ha, toliblar uchun ilm eshigi doim ochiq.

– Kitobxona siz uchun ibodatxona-yu, majusiy olimlari siz uchun rahnamo bo'lib qoldi shekilli.

– Ilmni Chin-Mochinga borib o'rgansang ham joizdur, deganlar, rasuli Xudo. Kitobxona men uchun muqaddas joydur. Kitob haqiqatni o'rganmoq va tabiat sirlarini anglamoqqa yordam beradur.

– Menimcha, majusiy olimlarining yozgan kitoblari kishi ko'nglida shubha ilonini uyg'otib, e'tiqodini susaytirsa kerak...

– Men uchun shubhadek mustahkam qo'rg'on yo'q, to'tiy mullo, chunki u johilligi tufayli o'zini dono hisoblaydigan shaxslar hujumidan odamni saqlaydур, – dedi yosh olim mullaning so'zini bo'lib.

Mulla Sadriddin uning gapiga yaxshi tushunolmay, labini burushtirib qo'ydi.

– Eng oldin ilmi holni o'rganib, e'tiqodingizni mustahkamlab oling, ilmi qolni¹ keyin o'rgansangiz ham bo'ladur, aks holda, kofir bo'lib ketmoq hech gap emas.

– Ba'zi nodonlar dono kishilarni kofir deb hisoblaydurlar.

– Tavba, bu mahmadonaning gapini qarang. Besh-o'n kitobni o'qib, o'zini dono hisoblaydур. Iloyo kitobxonaga o't tushib, sen juvonmarg bo'l! – dedi Mag'oqiattorom domla imomi.

¹ Ilmi qol – dunyoviy ilmlar.

– Men besh-o'n kitob emas, yuzlab kitobni o'qib, mazmunini miyamga joylab oldim, – dedi Ibn Sino boshini g'oz ko'tarib. – Mabodo kitobxonaga o't tushib ketgudek bo'lsa, undagi kitoblarni qaytadan yozib, sandiqlarni yana to'ldirmoqqa qodirdurmen.

Ibn Sino bosh egib, mullalar bilan xayrslashdi-da, yana yo'lga tushdi. Nariroq borgandan keyin jahl ustida aytgan gaplariga pushaymon bo'ldi: „Yoshlik g'ururi hali boshimdan ketmaganga o'xshaydi, – deb g'ijindi u. – Menga maqtanishni kim qo'yibdi! Yuzta kitob o'qigan bilan olim bo'lib qoladimi kishi? Tavba, minba'd bunday qiziqqon bo'imaslik kerak. Ammo shunisi borki, sallali eshaklarni ko'rsam, qonim qaynab ketib, tilimni tiya olmayman. Hozirgi zamonda tiling qanchalik o'tkir bo'lsa, shunchalik o'tkir qilich bilan kesiladi!“

Mulla Sadriddin yosh hakimning orqasidan qarab su-kutga ketdi. Keyin boshini ko'tarib, domla imomdan:

Shumtakaning: „Mabodo kitobxonaga o't tushib ketsa...“ deganini eshitdingiz-a? – deb so'radi.

– Ha, bir emas, ikki qulog'im bilan eshitdim.

– Agar o'shal majusiyalar kitoblari yig'ilgan makonga o't tushib ketsa-yu, sizni guvohlikka chaqirtirsalar, eshitganningizni tasdiqlashdan bosh tortmaysizmi?

– Albatta yo'q.

– Bo'ldi, qolgan ishni menga qo'yib bering!

Oradan ko'p o'tmay, somoniylar tarixida ketma-ket ikki fojiali voqeа ro'y berdi. Qorabug'roxon boshchiligidan Sharqdan bosib kelayotgan ko'chmanchilar Samarqand yaqinida Hojib Ayach boshchiligidagi qo'shinni tor-mor keltirib, o'zini asir qilib oldilar va Samarqandni ishg'ol etib, yurishni davom ettirdilar. Nuh binni Mansur tomonidan yuborilgan sipohsolor¹ Foiq xiyonat qilib, dushman tomoniga o'tdi. Shahar xalqi Buxoro devorlari ostiga kelib qolgan istilochilar bilan jang boshladи.

Ibn Sino o'qishini yig'ishtirib qo'yib, boshqa jarrohlar qatorida qilich zarbidan, o'q zaxmidan azob tortayotgan

¹ Sipohsolor – askarboshi, general.

jangchilarga yordam berishga kirishdi. Arkning ro'parasi-dagi ko'hna saroy yaradorlarga to'lib ketgandi. Yosh hakim kechgacha qilich yarasiga qov qo'yib, malham surtish, badanga sanchilgan o'qni olib, bog'lab qo'yish bilan ovora bo'ldi. U horib-charchab endi dam olish uchun o'tirmoqchi bo'lganda, soniga o'q sanchilib qolgan bir kosib yigitni olib keldilar. Ibn Sino yechib tashlagan qonli yaktagini yana ki-yib, qo'lida nashtar bilan yaradorning tepasiga keldi. O'q-ning uchi chiqib qolganda, uning pat yopishtirilgan uchi-ni qirqib tashlab, sug'urib olish qiyin emasdi, ammo uchi chiqmay qolgan o'qni olish amri mahol.

Ibn Sino o'ylanqirab turib dedi:

- Behush dori berib, yorib olishga to'g'ri keladur.
- Yo'q, - dedi rangi sarg'ayib ketgan bo'lsa-da, o'zini bardam tutishga uringan yarador. - Qirqqa chidagan qirq biriga ham chidaydi. Shuncha uqubatdan keyin...
- Barakalla, azamat yigit ekansiz. Sizga azob bermay, chiqarib olg'aymen. Meni tanirsiz-a?
- Ha, siz amirni davolagan atoqli hakimsiz. Sizga ino-nadurmen.
- Juda soz, - dedi Ibn Sino uning qanshariga qattiq tiki-lib turib. - O'qni xuddi xamirdan qil sug'urgandek sug'urib olg'ayman, sezmay ham qolursiz.

Shunday deb yosh hakim uning son go'shtini ikki palla-ga ajratib o'qni oldi, so'ngra malham qo'yib, yopishtirdi-da, tikib, bog'lab qo'ydi. Tashrih vaqtida tishini tishiga bosib yotgan yigitdan sado chiqmadi.

- Barakalla, azamat ekansiz, koshki edi hamma sizdek mard bo'lsa!

Shunday deb yosh hakim yigitga kulib boqdi-da, qo'li-ning qonini yuvib, dam olgani ketdi.

Sipohsolor Foiqning xiyonati qimmatga tushgan edi. Muntazam qo'shindan ajrab, zaiflashib qolgan Buxoro son-siz-sanoqsiz ko'chmanchilar tomonidan bosib olindi. Qorabug'roxon shaharni ishg'ol etib¹, saroydagi boyliklarni qo'lga kiritdi, o'z askarlariga bozorni talatdi. Ko'p imorat-

¹ 992-yil may oyida.

larga o't tushib ketib, achchiq tutun shaharni o'rab oldi. O'z mol-dunyosini saqlab qolmoqchi bo'lganda qilich yeb yiqilgan kishilarining faryodi, asir qilib olib ketilayotgan ayollarning dodi, quturgan dushman askarlarining suroni qulqlarni qomatga keltirardi. Uch oy ahvol shu zaylda davom etdi.

Ibn Sino esa alamini kitobdan olar, yarim tungacha o't-rib mutolaa qilar, yozar edi. Bir kun kechasi yotgisi kelib, ko'ziga qum tiqila boshlaganda uyqu qochiradigan dorisini ichib, hovliga tushdi. Odati bo'yicha, osmonga qarab, Hullkar yulduzi qayerga kelganini bilmoqchi bo'ldi, shu payt Registon tomon qizarib, osmonga uchqunlar sachrab turganini ko'rди. O'qtin-o'qtin olovning qip-qizil tillari qorong'i osmonni yalar, uzoqdan qiy-chuv ovozlar eshitildi. Yosh hakimning yuragi bir falokatni sezgandek dukullab urib ketdi. Darrov kavush-mahsisini, choponini kiyib, onasini uyg'otdi.

– Onajon, Registon maydoni yaqinida bir uyga o't ketganga o'xshaydur, borib bilib kelay, qo'limdan kelganicha o't o'chirishga yordam beray.

– E, qo'ysang-chi, o'g'lim. Sensiz ham o't o'chiruvchilar topilib qolar.

– Yo'q, onajon. Bormasam bo'lmaydur. Uyqum ham o'chib ketdi. – Yosh yigit ko'ngliga kelgan shubhani onasiga aytishdan ham qo'rqardi. „Bordi-yu, agar... yo'q, yo'q, bu mumkin emas. Necha yuz yillab to'plangan ilm-fan xazinasining kuli ko'kka sovurilishi mumkin emas“.

Sitorabonusning aftiga qarab ijozat bermaslikning iloji yo'qligini angladi.

– Mayli, borsang bora qol. Ammo kechikma...

Ibn Sino halloslab Registon maydoniga kelganda ko'nglini ezayotgan shubha haqiqat bo'lib chiqqanini angladi. Yuzlab kishilar qo'lma-qo'l chelak uzatib maydon o'rta-sidagi hovuzdan olingen suv bilan kitobxonaga tushgan o'tni o'chirishga urinar edilar. Madrasa talabalarining, tevarak-atrofdagi mahalla ahlining jonbozligiga qaramay, yong'in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshididan tutun ar-

lash chiqib turardi. Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha, moydek ta'sir qilayotgandek edi. Ba'zilar mehnatlari bekorga ketayoyganini ko'rib, qo'llarini qo'l-tiqla urdilar. Odamlar orasida asrlardan beri to'plangan boylikning tutunga aylanib, osmonga uchishidan zavqlanib iljayayotgan sallali kishilarni ko'rish mumkin edi.

Ibn Sino boshda chelaklab suv tashib, o't o'chirayotganlarga qarashib turdi. Keyin ko'pchilikning hafsalasi pir bo'lganini ko'rib, g'azabiga chidolmay, olov chiqib turgan bir hujraga o'zini urdi. Bunda tibga doir kitoblar saqlanardi. Odamlar uni tutib qololmadilar. Bir necha daqiqadan keyin, etagining yonayotganiga parvo qilmay, bir necha kitobni quchoqlab olib chiqdi. Odamlar yugurib borib, uni chopon bilan o'rab oldilar, bo'lmasa, ustidagi kiyimi bilan o'zi ham yonib ketishi turgan gap edi. Ibn Sino yana o'zini o'tga urmoqchi edi, bir necha qo'l uni mahkam ushlab qoldi. Shu orada allakim: „Hoy yigitcha, hushingizni yig'ib oling. Ortiq urinishning foydasi yo'q!“ – dedi. Yosh hakim alanglab, tovush eshitilgan tomonga qaradi. Chap biqinida g'am-hasratdan ko'zları cho'kkan keksa kitobdor turardi.

– Bu qanday falokat, qanday mudhish falokat! – dedi Ibn Sino yig'lamoqdan beri bo'lib.

Chol xo'rsinib qo'ydi:

– Ha, baxtsizlik, ammo bilib qo'yingki, ilmi qol dushmanlari ma'rifat chirog'ini o'chirolmaydilar. Ular ota-bobolardan qolgan nodir kitoblarni yondirib, kulga aylantirib yuborsalar-da, zakovat nurini so'ndirolmaydurlar...

Shuncha urinib yong'inni so'ndirolmagan odamlar birin-ketin uy-uylariga jo'nashdi. Olovning ozig'i kamaygan sari hovuri pasayardi. To'da-to'da kullar ustini qoplagan tutun kuyib shakli qolgan qog'oz parchalari bilan shamolda asta tebranarkan, qurum isi har yoqqa taralardi.

Ibn Sino xuddi yaqin bir kishisini ko'mib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyisolib, yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo'ltilqlagan holda uyiga jo'nadi...

Oradan ikki oycha vaqt o'tdi. Shu vaqtgacha o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan Ibn Sino bir kuni uyiga xursand bo'lib keldi.

– Suyunchi bering, onajon. Qorabug'roxon qo'shi-ni Buxoroni tashlab chiqib ketmoqda. Qo'liga yarog' ol-gan Buxoro xalqi turkmanlar bilan birlikda ularni haydab chiqarmoqda, talab olingan mollarini tortib olmoqda.

Karmana tomon chekinayotgan istilochilarining orqada qolgan qismi bilan buxoroliklar o'rtasida bo'layotgan jangning suroni uzoqdan sal-pal eshitilib turardi. Sitorabonu-ning rangi o'chib:

– Oxiri baxayr bo'lzin! – deb qo'ydi.

Bir necha kundan keyin „tayyorga ayyor“ bo'lib, Amul-dan (Chorjo'ydan) Nuh binni Mansur Buxoroga kirib keldi. Hayot yana avvalgi iziga tushgandek edi. Yana savdogarlar do'konlarini ochib, kosiblar dastgohlarini yurgizib yubordi-lar. Biroq vazirlar o'rtasidagi nifoq, ayrim viloyat hokimla-rining isyoni, ko'chmanchilarining hujumi somoniylar sulo-lasi qurgan imoratni kundan kunga yemirmoqda edi. Keksa Nuh vazirlarini bir-biri bilan yarashtirolmay, mamlakatda tinchlik o'rnatolmay, dog'-hasratda o'lib ketdi. Uning o'g'li Abulhoris Mansur ham bebosh vazirlar, isyonchi hokimlar ni jilovlay olmadi, Qorabug'roxonning o'g'li Nasrga qarshi yuborilgan sarkarda Yanoltakin uning tomoniga o'tib ket-di. Somoniylar davlati xuddi ichi qurtlagan olmadek uzilib, yana istilochilar qo'liga tushdi.

Buxoro ko'chmanchilar qo'liga o'tgandan keyin sal-la-kallalarining dasti daroz bo'lib qoldi. Ibn Sino qora quzg'unlar uyasiga aylangan shaharni tark etib, o'ziga ma'rifatparvar tojdar, bir homiy izlashga jazm qildi. U yo'l hozirligini ko'rib bo'lgandan keyin, o'pkasini bosolmay yig'layotgan onasiga yuzlandi va o'zini bardam tutib:

– Onajon, qo'ying, yig'lamang, agar o'g'limning boshi omon bo'lzin desangiz, menga oq fotiha bering, – dedi. – Hayotim xatarda qoldi, sallali eshaklar bir kun emas, bir kun meni kofirga chiqarib, boshimni yeysilar.

– Bolaginam, mo'min-qobilgina bo'lib, o'sha mullalar-ning aytganini qilsang, nima bo'ladi?

Ibn Sino javob o'miga kechasi yozib qo'yan ruboiysini o'qib berdi:

*O'zini dono deb bilgan ikki-uch
Nodonga bir kishi kelib qolib duch:
„Men eshakmas“ desa, o'shal aqli puch
Eshaklar, bu kofir bo'ldi, degaylar¹.*

Ammo men hech qachon o'zimni eshak deb hisoblamayman, shuning uchun meni albatta kofirga chiqaradurlar. Onajon, meni xotirjamlikka chaqirmang. Xotirjamlik kishini g'aflatda qoldirg'ay, ehtiyyotkorlik esa kishini falokatdan xalos etg'ay. Agar ovchi bir qushning uyasi qayerdaligini bilsa, uni o'sha yerdan tutib olib ketadur, ovchilardan qutulish uchun u doim uchib yurmog'i lozim.

O'g'lining dalillari oldida ona uchun taslim bo'lishdan bo'lak iloj yo'q edi. U o'z farzandining haqlı ekanligini aqli bilan bilib tursa-da, ko'z yoshlarini tiya olmasdi.

– Mayli, bo'lmasa. Oy borib, omon kel, – dedi hiqillab, – mendan xavotir olma, ukang katta bo'lib qoldi.

Ibn Sino onasi bilan xayrlesharkan, tokchadan bir kitobni olib o'pdi-da, uni peshanasiga tegizib, so'ngra onasining qo'liga tutqazdi. Bu – Forobiyning „Fasusi al-hikam“ degan kitobi edi.

Onajon, shul kitobni biror serijitixod tolibi ilmgaga sovg'a qilarsiz.

– Xo'p. Sening bosh-ko'zingdan sadaqa bo'lsin bul kitob. Xayr, qayerda bo'lsang ham savdogarlardan xat yuborib, sihat-salomatligingni bildirib tur.

Ibn Sino orqasiga qarashdan qo'rqib, darvozadan chiqdi-da, Gurganj saroy tomon yo'l oldi.

¹ Forschadan tarjima.

JAYHUN USTIDA BULUTLAR

I

Xorazmshoh Abu Abdulloning amakivachchasi Abu Nasr Mansur ibn Iroq ma'rifikatparvar, sipo odam edi. U yuksak martabali amaldorlar bilan emas, balki olim va fozil odamlar bilan suhbatlashishdan zavqlanar, insonning ziynati zardo'z chopon va tilla kamar emas, ilm-u urfon deb hisoblar edi. Shu sababdan taxtga o'tirib davlat kemasini idora qilishni xayoliga keltirmas, vaqtini riyoziyot, handasa, falakiyot ilmlarini o'rganishga sarf etar edi.

Odatda, podsholar taxt-toj to'g'risida xayol suradi-gan qarindosh-urug'laridan qo'rqa dilar, ularni poytaxtdan uzoqlashtirish va nazorat ostida saqlashga harakat qiladilar. Abu Abdullo olim va fozil amakivachchasini o'zi-dan uzoqlashtirmay, unga yer-suv in'om qilib, ilm bilan shug'ullanishga da'vat etar edi.

Amudaryoning o'ng sohilidagi Kot¹ shahri Buxorodan katta va obod edi. Daryoga yaqin tepalik ustida qurilgan, uch qavat qo'rg'on bilan ihota etilgan qal'a, peshtoqlari koshinkor qilib ishlangan jomelar, darvozalari tepasiga sher surati solingan karvonsaroylar shaharga ulug'ver tus berar edi. Eron, Iroq va Movarounnahrdan Idil bo'yidagi shaharlarga, rus yerlariga qatnaydigan karvonlar shu sha-harda to'xtab, turli mamlakatlardan keltirgan mollarining bir qismini yo'l xarji uchun shu yerda pullar, kerakli mol-larni xarid etar edilar. Bu yerda yunoniylar, suriyaliklar, arablar, ruslarni uchratish mumkin edi.

Abu Abdullo bilan Abu Nasr ilm va san'at ahliga homiylik qilgani uchun bu yerga turli mamlakatlardan olimlar, shoirlar yig'ilash boshladilar.

¹ Kot – ilgarigi Shobboz shahri, hozir unga Beruniy nomi berilgan.

Bir kuni Abu Nasr shahar tashqarisidagi maktabdor domladan zehni o'tkir, o'qigan, eshitgan narsasini sira esdan chiqarmaydigan qobiliyatli bir bolaning ta'rifini eshitib, uni ko'rishni istadi.

U kattalardek salom berib kirgan to'qqiz-o'n yashar, do'ng peshana bolaga tikilib, nomi va otasining ismini so'radi.

Garchi maktabdor domladan uning nomini eshitgan bo'lса-da, xotiridan ko'tarilgan edi.

– Otim Muhammad, otamning otlari Ahmad ekan. Abu Nasr tap tortmay javob qilgan bolaga qarab o'ylab qoldi.

U vaqtarda otasi va o'zining ismi noma'lum bo'lgan bolalarни Muhammad ibn Ahmad deb chaqirar edilar.

– Otangni ko'rganmisан?

– Yo'q, chaqaloqligimda o'lib ketgan ekanlar.

– Hozir seni boqayotgan kampir o'z onangmi?

Oq yaktakli Muhammad yamoq tushgan yelkasini qisib:

– Bo'lmasa-chi, – dedi.

Abu Nasr taxmini to'g'ri chiqqanini fahmlab, bolaning zotini surishtirib o'tirmadi va uni imtihon qilib ko'rdi.

Muhammad harflarni yaxshi bilar, Qur'oni tutilmay o'qiy olar edi. Shu yoshdagи ko'p bolalar ayrim suralarni yod olib, ularni to'tidek yodaki o'qiy bilar, ammo xat yozolmas edilar. Muhammad esa tom ma'noси bilan savodxon, yozuv-chizuv qo'llidan kelar edi. Ibn Iroq hayron bo'lib, unga tikilib qoldi. Keyin:

– Nima bilan tirikchilik qilasizlar? – deb so'radi.

– Bizmi? Cho'ldan eshakda saksovul keltirib sotamiz. Men tag'in har xil o'tlarni, ularning urug'ini yig'ib kelib, bir yunoniya pullayman.

– Unday bo'lса, sen giyohlarning nomini ham bilarsan. Mana bu nima? – Abu Nasr tokchadan barglari mayda quruq o'tni olib ko'rsatdi.

– Olabo'ta. Yunonchasi „ram-ram“.

– Bu-chi?

– Za'far – Anixus.

– Iye, sen bularning yunoncha nomini qayoqdan bila-san? – deb so'radi Ibn Iroq yoqasini ushlab.

- O'sha yunoniy o'rgatgan. Qo'ziqorinni futr deydilar.
- Barakalla.

Abu Nasr bolaning xotirasi zo'rligi, bir eshitgan narsasini esida olib qolishiga ishondi. Shu bilan birga Muhammad hozirjavob, yurakli bola bo'lib, berilgan savollarga tortinmay javob berar, ganchkor tokchalaryagi charm muqovali kitoblarga qarar edi. U shakli kulchaga o'xshagan, ichi bir necha qavat bo'lib, har bir qavatiga doiralar chizilgan asbobga tikilib:

- Bu nima? – deb so'radi.

– Usturlrob. Qo'y, ushlama, – dedi uy egasi usturlobning bandini ushlaromoqchi bo'lgan bolaning qo'lini chetga olib qo'yib. – Agar o'qisang, uning bandidan ushlab aylantirishni, oftob va oyning osmondagи holatini belgilashni o'rgataman. Aqli, odobli bo'lsang, seni o'zimga shogird qilib olaman. Oyog'ingga etik, ustingga chopon olib beraman.

Bola ishonqiramay:

– Agar xohlasangiz, sizga jon deb shogird bo'lardim, o'qitganingiz uchun har hafta o'tinxonangizga cho'ldan bir eshak saksovul keltirib berardim, – deb yubordi.

Bu norasida faqir bolaning yurakdan chiqarib aytgan so'zlari Ibn Iroqqa qattiq ta'sir qildi. Ko'ngli yumshab:

– Sen yaxshi o'qisang, shuning o'zi kifoya. Bir xil dom-lalarga o'xshab o'qitganim uchun haq talab etmayman, – dedi. – Sendan turli giyohlarni sotib olaturgan anavi yunoniyni ham chaqirtiramiz, u senga yunon tilini o'rgatsin.

Shu kundan boshlab, Muhammad ibn Ahmad muhtojlik balosidan qutulib, butun kuch-g'ayratini ilm o'rganishga sarf etdi. Ibn Iroq unga hisob va handasa ilmidan, Abu Sahl – xristian dinidagi yoshgina bir mullavachcha esa arab tili va ilmi tabiatdan dars bera boshladi.

Bir kuni ibn Iroq Abu Sahldan Muhammadning qanday o'qiyotganini surishtirdi.

– Odam bolasi shu qadar zehnli bo'ladi, deb o'ylamagan edim, – deb javob qildi yosh mulla. – Har kuni o'n-o'n ikki so'zni xotirida olib qoladur. Miyasi charchamaskan, deb kunda o'ntadan ortiq so'z o'rgatmaslikka harakat qilaman. Ishqilib, ko'z tegmasin-da.

– Shavq-zavq bilan ilmga berilgan kishining miyasi charchamaydur. Unga ko'z tegadi, deb aslo qo'rwmang. Irodasiz, g'ayratsiz odamlargina ko'zikadurlar.

– Rost aytdingiz. Muhammad juda aqli, o'ziga pishiq bola. Qulog'iga kirgan har gapga inona bermaydur. Uning kitob o'qib charchamaganiga hayronman.

Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldil.

* * *

Muhammad ustozining kutubxonasidan chiqmas, kecha-yu kunduz kitobdan bosh ko'tarmasdi. Bir kuni Ibn Iroq uning qo'lidan Arastuning „Moba'dat tabiat“ degan kitobini tortib olib tokchaga qo'ydi.

– Avval ilmi hisob, handasani o'rgan, falsafaga hali tishing o'tmaydi, – dedi va shogirdining qo'liga Iqlidusning „Handasa“ sini tutqazdi. – Eng avval berilgan saboqlarni tayyorla. Hozircha Arastuni tinch qo'ya tur!

– Bergan sabog'ingizni tayyorlab bo'lib, Arastuni qo'liga olgan edim.

– Tushunmasang, nima qilasan o'qib?

– Yaxshi anglay olmasam ham, o'qiganimda qulog'imga uzoqdan yoqimli bir ovoz kelgandek bo'ladur. Musiqa tinglagandek rohat qilaman. – U hozirgina yod olgan bir parchani qiroat bilan o'qib, ustozini hayratda qoldirdi.

Shundan keyin Abu Nasr shogirdining qo'lida Arastu, Forobiyning asarlarini ko'rsa ham, indamaydigan bo'ldi. „Mayli, o'qiy bersin, yod olsin, axir bir kun tushunib olar“, deb o'yaldi u.

Beruniy, ya'ni shahar tashqarisida yashovchi odam, qishloqi deb nom olgan o'spirin o'n besh-o'n olti yoshdayoq falsafa, mantiq, ilmi falakka doir asarlarni o'qib, yaxshi tushunadigan, quyosh va sayyoralarning osmondagи holatlarini kuzatadigan bo'ldi.

– Yillar o'tgan sari zehn bulog'ining ko'zi ochilib, ilmga tashna bo'lgan yoshlardan bahramand bo'la boshladilar.

Beruniy bo'sh vaqtlarida she'r o'qir, diniy kitoblarni mutolaa qilar edi.

– Muqaddas kitoblarda kishining ko'nglini xijil qilaturgan yerlar bor, – dedi u bir kuni ustozи kutubxonaga tashrif buyurib, tepasiga kelganida. – O'tiring, ko'nglimdagi shak-shubha tugunlarini yechishga yordam bering. Tavrotda, xudo olamni olti kunda yaratdi, birinchi kuni yer-u osmonni, uchinchi, ya'ni chorshanba kuni oy bilan quyoshti yaratdi, deyilgan. Holbuki, kun va tunning sababchisi – chiqib, botib turadigan oftob-ku. U birinchi kuni yaratilishi kerak edi, axir...

– Bas qil, – dedi Abu Nasr uning so'zini og'zidan olib. – Shakkokliging boshingga yetmasa edi! Muqaddas kitoblarни ilmi mantiqni o'rganmasdan burun o'qimoq kerak.

U shu mahalgacha hech kim payqamagan haqiqatga idroki yetgan shogirdining fahm-farosatiga qoyil qoldi, lekin shakkoklik yo'liga kirib, falokatga yo'liqishidan qo'rqib, unga e'tiroz bildirish uchun dalillar axtara boshladi.

– Xudoning kuni bizning bir kunimiz bilan teng emas, – dedi u nihoyat. – Qur'onda, xudoning kuni sizning ellik ming yilingizga teng, deyilgan. Angladning-mi? Kel, endi bu to'g'rida bahslashib o'tirmaylik. Sen endi ilohiyot bobidagi tadqiqotlariningni to'xtatib, ilmi tabiiyot va jug'rofiya bilan shug'ullan.

Beruniy qadimgi yunon va O'rta Osiyo jug'rofiyunlarning asarlarini o'qishga kirishib ketdi. Batlimus¹ yer kurrasining globusini yasash yo'llarini o'rgatgan edi. Yigirma bir yoshga kirgan yosh olim qutri (diametri) yetti gaz keladigan katta globus yasadi.

Turli mamlakatlar, shaharlarning jug'rofiy mavqeyi oralaridagi masofani belgilovchi chiziqlar chizdi. Xatti ustuvuning² janubida quruqlik yo'q, deb o'ylagani uchun uni ko'k rangga bo'yadi. Bundan boshqa samoviy jismlar ustidan mushohada olib borish uchun usturloblar, burchak o'lchay-

¹ Batlimus – Ptolemy.

² Xatti ustuvu – ekvator.

digan katta asboblar yasadi. Olib borgan mushohadalarini katta bir daftarga yozib bordi.

II

Shu vaqtida Jayhun ustida falokat bulutlari paydo bo'la boshlagan edi. Gurganj amiri Ma'mun binni Muhammad Xorazmshoh Abu Abdulloni yiqitib, o'zi yagona podsho bo'lish, poytaxtni Gurganjga ko'chirish niyatiga tushgan, urush ochish uchun bahona qidira boshlagan edi. Beruniy esa imkoniyat eshiklari yopilmasdan burun quyosh ustida olib borayotgan kuzatishlarini oxiriga yetkazishga shoshilardi. Movarounnahrda ham tinchlik buzilgan, lashkarboshilardan goh unisi, goh bunisi isyon ko'tarib, somoniylar davlatining chirigan ustunlarini silkitib yiqitishga urinar edilar.

Xorazmshoh Abu Abdullo bu voqealarni tashvish bilan kuzatar, ularning o'z taqdiriga qanday ta'sir ko'rsatishi ustida bosh qotirar, lekin o'ylab o'yining tagiga yetolmas edi.

Bir kuni u tokchalari ganchkor, darichasini oltin naqshlar bezagan hujrayi xosida amakivachchasi bilan gaplashib o'tirganida shu to'g'risida gap ochdi:

Sipohsolor Abu Ali ibn Simjur somoniylar boshiga bitgan balo bo'ldi. Mana, bir necha yildirki, ul nobakor Nuh binni Mansurga qarshi isyon bayrog'ini ko'tarib, Movarounnahrning tinchini buzib kelmoqda. Kechagina Buxorodan kelgan chopar qiziq bir xabar keltirdi: „Nuh binni Mansur G'azna viloyatining hokimi Sabuktakin bilan aning o'g'li Mahmudni yordamga chorlabdur. O'ylaymanki, ota-bola isyonkor sipohsolorni ajal chohiga joylagaylar“.

– Iloyo aytganing kelsin. Yurtning tinchin buzgan is-yonkorlar o'limga sazovordurlar, – dedi Abu Nasr.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Hazoraspdan kelgan noma Abu Abdulloni qattiq hayajonga soldi. Hazorasp hokimi Abu Alining yengilib, Xorazmga qochgani, hozir shahar yaqinidagi bir qishloqqa yetib kelganini bildirgan va uni asir qilib olishga ruxsat so'ragan edi.

– Darhol asir olib, poytaxtg'a yuborsin, – dedi Abu Abdullo saroy vaziriga. – Qo'l-oyog'ini bog'lab, Buxoroga yuborgaymiz.

– Ijozat ber, bir so'z aytay, – dedi Abu Nasr Mansur. – Avval o'ylashib ko'rayik. Bemaslahat ishning oqibati na bo'lishini o'zing bilasan. Ehtimol, Nuh binni Mansur aning gunohidan o'tib, Ma'mun ixtiyorig'a yuborayotgandir. Agar biz...

– Nuh arting gunohidan o'tishi mumkin emas, – deb yubordi Abu Abdullo qizishib. – Qorabug'roxon Buxoroga yaqinlashganida Abu Ali aning tomoniga o'tib, shahar darvozasini ochib bergen edi. Nuh Buxoroni qaytib olgach, ul nobakor Balx hokimi sotqin Foiq bilan ittifoq tuzib, isyon bayrog'ini baland ko'tardi. Agar Sabuktakin o'z o'g'li bilan yordamga kelmaganida somoniylarning holi nima kechar edi. Emdi ul nobakor mag'lubiyatga uchrab qolgan ekan, bizning vazifamiz ani asir olib, Nuh binni Mansurga topshirmoqdir.

Bunday shoshilinch qadam tashlashga qarshi bo'lgan saroy vaziri afv so'rab, bir so'z aytmoqchi edi, Abu Abdullo unga so'z bermadi.

– Abu Ali Simjurda mening xusumativ bor. Esingda bordir. Nuh bir vaqtlar menga Obivardni bergen edi. Ul isyonkor nobakor o'shal obod shaharni zabit etib, mening askarlarimni kiritmadi. Shuning alamidan chiqolmay yurar edim, emdi o'ch olmoq fursati keldi. Qo'l-oyog'i band dushman bilan so'zlashmoq naqadar zavqli!.. Mening amrim shul: darhol ani asir olib, oldimga keltirsinlar! Biz aning dodini berib, so'ngra Buxoroga tortiq qilib yuborgaymiz.

Saroy vaziri noiloj bosh egib, farmoni oliv hozirlagani chiqib ketdi.

* * *

Yosh olim Amudaryoning g'arbiy sohilidagi bir qishloqda oftob davrasining eng baland nuqtasini aniqlashga urinib turganda, Abu Nasrning bir mulozimi uning yelkasiga qo'l tegizib:

– Sizga xalaqit bergenim uchun kechiring, – dedi. – Sizni ustoz chorlayotirlar.

– Nima hodisa bo‘ldi? Tinchlikmi? – deb so‘radi Beruniy, oftobni kuzataverib qizarib ketgan ko‘zlarini qo‘li bilan ishqalab.

– Tinchlik bo‘lganida sizni bezovta qilmagan bo‘lur edilar. Gurganj amiri, Abu Alini ozod etaman, deb yurish boshlagan emish. Bir hafta o‘tmay, shahrimizni bosib olsa kerak.

– Xudo ko‘rsatmasin u kunlarni. Gurganj amiridek zolim yurtimizga xoja bo‘lsa, holimizga voy! Orqamizda taassub qamchisi o‘ynagusidir... Siz manavi usturlobni ko‘tarib oling, – dedi Beruniy boshqa bir asbobni qo‘lga olib.

Yuz-ko‘zini soqol bosgan mulozim eshkak eshar ekan, tinmay vaysar edi:

– Bir qozonda... ikki qo‘chqorning boshi qaynamas...

Amir bizning shohdan boy... askari ko‘p... karvonsaroylar... qul bozorlari... ajnabiy savdogarlardan ozmuncha boj... tushadi deb o‘ylaysizmi?

Ular o‘ng qirg‘oqqa o‘tib, qayiqni qoziqqa bog‘ladilar, asboblarni olib, saroy tomon jo‘nadilar.

Kechasi bilan uxmlay olmay ko‘zlar kirtayib qolgan Abu Nasr Mansur ibn Iroq shogirdini panaga tortib:

– Bu yerdan ketish kerak. Anjomlaringni yig‘ishtirib, yo‘l hozirligini ko‘r. Tongda Abu Vafoning karvoni Ray shahriga ketar ekan, – dedi.

Beruniy hech narsaga tushunmay, unga savol nazari bilan qarab qoldi.

– Sen oftobni kuzataman deb, yerda bo‘layotgan ko‘p hodisalardan bexabar qolgansan. Hazorasp hokimi Abu Alini zanjirband qilib, bu yerga yuborganidan xabar topgan Ma’mun askar to‘plab, safarga chiqqan emish. Biz Abu Ali Nuh binni Mansurdan qochib kelayotir, deb o‘ylagan edik, holbuki, Buxoro hukmdori aning gunohidan o‘tib, Gurganj amiri ixtiyoriga jo‘natgan ekan.

– Amirga bahona topilibdi-da, Abu Alini ozod etaman, deb qilich yalang‘ochladi, deng.

Shundoq. Bizning sarkardalarimiz anga sotilgan. Uchto'rt kun ichida amir poytaxtga bostirib kirda kerak. Tezroq jo'na.

– Andog' bo'lsa, siz ham men bilan birga keting.

– Yo'q, shul yerda qolaman. Ketib qolsam, amir mening to'g'rimda shubhaga tushgusidur. Axir men afrig'iylar urug'idanman. Osmonga chiqsam – oyog'imdan, yerga kirmsam – qulog'imdan tortadur. Dasti daroz. Yaxshisi, taslim bo'la qolay.

– Shundoq yurtimizni, sizdek aziz ustozni tashlab keta-manmi, a?

– Boshqa iloj yo'q. Odam o'zini xavf-xatardan olib qochnog'i lozim. Ehtiyotkorlik qo'rkoqlik emas.

– Tajriba sohibi bo'lган donishmand odamlarning maslahati – saodat yo'lini ochib beradur, deganlar mashoyixlar. Menga oq fotiha bering, borib safar anjomini hozirlay!

Bolaligidan boshlab, turli giyohlar va ularning xosiyatini bilishga qiziqqani uchun Abu Rayhon laqabini olgan Muhammad Ahmad o'g'li o'ziga kerakli buyumlarni bo'g'joma-ga joylab, tong saharda karvon bilan yo'lga chiqdi.

Yigirma ikki yoshga qadam qo'ygan bu yigit har ishning oqibati xayrli bo'lishiga, taqdir unga yomonlikni ravo ko'rmasligiga qattiq ishonardi. U hamrohlari bilan obod qishloqlar, quruq sahrolardan o'tib, yo'l azobiga bardosh berib, Tehron yaqinidagi Ray shahriga yetib bordi. Bu yerda u Gurganj amiri Ma'mun binni Muhammad Kot shahrini bosib olganligi, Abu Abdulloni asir qilib olib ketib, uni qatl ettirganini, buning ustiga Kot shahrining yarmini suv olib ketganligini eshitib, yuragi qonga to'ldi. Ustozi Abu Nasr ibn Iroqning holi nima kechdi ekan? Nahotki amir uning ham hayot gulshanini mamot gulxaniga aylantirgan bo'lsa!

Yosh olimning musofirchilikda boshidan kechirgan kul-fatlari bu tashvishlar oldida hech gap emasdi. U g'am-anduhlarini og'ir mehnat bilan, mutolaa va ilmiy mashg'ulot bilan yengishga urindi.

Bahor paytlari tog'larning ustini qalin bulutlar qoplab, jala quyib bergenida tog' yonbag'ridagi tosh, tuproqni sel oqizib ketadi, turli jinslardan tarkib topgan yumshoq

toshlar parchalanib, shag' alga aylanadi, zarralari mahkam yopishgan metin toshlar bir-biriga urilib silliqlashadi, bora-bora yumaloq shaklga kirib, bir-biriga ishqalana-ishqalana sayqal topadi.

Yoshi yigirma ikkiga qadam qo'yganda Beruniy ni ham hodisalar seli yumalatib o'zi bilan birga janubga olib ketdi, uni fozil odamlar bilan o'zini olim hisoblagan maqtanchoq puldorlar, mag'rur podsholar bilan to'qnashtirdi. Uning tartibtsiz, jo shqin fikrlari muntazam bir shaklga kirib, voyaga yetdi. Berahm taqdir to'qqiz yil uni u qo'lidan bu qo'liga olib o'ynab, chiniqtirgandan keyin yana o'z yurtiga irg'itdi.

III

Tuya ustida bir maromda chayqalib kelayotgan qorasqol, qirg'iyburun yigit uzoqdan ko'zga tashlangan Gurganj qal'asining baland minoralariga, oftobda koshinlari yarqirab ko'ringan jome va madrasalarning peshtoqlari ga suqlanib qarardi. Yuzida sarosima alomati yo'qligidan, qomatini tik tutib, iljayib qo'yishidan u ko'p qiyinchilikni boshidan kechirgan, achchiq-chuchukni totgan yurakli yigitga o'xshardi. Karvon darvoza tagidagi xandaq ko'prigidan o'ta boshlaganda ba'zi yo'lovchilarning ko'zları javdirab, yuzlarida tashvish alomati paydo bo'ldi. Ammo qirg'iyburun yigit esa beparvolik bilan chäkmonining oldini yopib, belbog'ini boshqatdan bog'lab oldi. Ro'molchasi bilan yuz-ko'zining changini artib, orqaroqqa surilgan cho'girmasini to'g'rilib qo'ydi.

Eron, Iroqdan Sharqiy Yevropaga ketayotgan savdogarlar Gurganjda to'xtab o'tadilar. Shahar aholisi kunda shahar darvozalaridan kirib-chiqib ketib turadigan tuya karvonlariga o'rganib qolgan, shu sababdan hijriya hisobi bilan 305-yilning¹ ilk bahorida Jurjon shahridan kelgan bu karvon bir necha savdogar, karvonsaroy egalari va o'n-o'n besh bekorchidan boshqa hech kimni qiziqtirmadi.

¹ 1004-yil.

Karyon shaharning eng katta karyonsaroylaridan biriga kirib keldi, tuyakashlar tuyalarini cho'ktirib, saroy xizmatkorlari yordamida ularning ustlaridagi yuklarni tushira boshladilar. Bizning yigit esa bor-yo'g'ini jamlagan qopini qo'ltilqlab, darvoza oldida turgan saroybon oldiga keldi, unga salom berib, bir kecha yotib ketish uchun hujra so'radi. Saroybon yigitning yonida xizmatkori yo'qligini ko'rib, uning kambag'al bir mulla ekanini angladi. Mensimasdan:

– Gurganjga birinchi kelishingmi? Nechun bir kecha yotib ketmoqchisan? – deb so'radi u.

– Yoshligimda shahrингизга bir kelgan edim. Endi shul yerda turib qolsam kerak. Obro'li bir odamga mehmon bo'lib kelayotirman. Yuvinmay-taranmay ul kishi huzuriga bormoqqa iymandim.

– To'g'ri, obro'li kishilar oldiga ozoda bo'lib borgan yaxshi. Qani, yuring, – dedi u negadir bu gal sizlab.

Saroybon yigitni zinadan ikkinchi qavatga olib chiqib, burchakdagi tor bir hujraga joylashtirar ekan, otini, qayerdanligini surishtirdi.

– Otim Muhammad, – dedi yigit noxushlik bilan. – O'zim Kot shahridanman.

Saroybon esa yigitning gaplashishga tobi yo'qligini ko'rib, uning tag-zotini surishtirib o'tirmay, pastga tushib ketdi.

Yigit hujraga joylashib, biroz dam olgandan keyin saroy yonidagi ko'hna mo'rchada yuvindi, kiyimlarini almashtirib sartaroshxonaga kirdi. Sochini oldirib, soqolini qaychilatgandan keyin hujrasiga qaytdi. Kechasi miriqib uxbab o'ziga keldi. Nonushta qilib, oq tuya junidan to'qilgan chakmonini, yangi kavush-mahsisini kiydi-da, saroybon oldiga tushdi. Salom berib Abu Nasr ibn Ali ibn Iroqning hovlisi qayerdaligini so'radi. Saroybon unga boshqaacha nazar bilan qarab, hurmat bilan:

– Janoblari ul kishiga mehmon bo'lib kekdilarmi? Ul zotning kimlari bo'ladilar? – deb so'radi.

– Yaqin odamlari bo'laman.

– Shul gapingizni kecha aytmaysizmi? Yaxshiroq hujra topib bergen, humatingizni joyiga keltirgan bo'lardim.

Axinul zot qadimiy xorazmshohlar urug'idan bo'ladilar-a! Nahotki uylari qayerdaligini bilmasam! Men sizga bir odamni qo'shib yuboraman, uylarini ko'rsatib qo'yadur, - dedi saroybon.

Mehmon sernaqsh darvoza oldiga yetib kelgach, saroybonning xizmatkoriga javob berib yubordi-da, mis halqani taqillatdi. Oradan ikki-uch daqqa o'tgach, darvozaning chap tavaqasidagi kichkinagina eshik ochilib, soqoli oqara boshlagan, cho'girmali bir bosh ko'rindi.

- Assalomu alaykum, bobo, - dedi yigit baland ovoz bilan.
- Vaalaykum... Xo'sh, xizmat?
- Siz bul dargohga yaqinda kelgan ko'rinasiz, yo'qsa, meni tanigan bo'lur edingiz.

- Oriy, shundog'. Xizmatga kirganimga besh-olti yil bo'ldi. Siz... kimlari bo'lasiz?
- Shogirdlari. Beruniy xizmatingizga keldi, de sangiz, bas!
- Iye, Muhammad... Abu Rayhon, o'g'ilim, senmisan? - Ichkaridan hayajonli bir ovoz eshitildi. Boshiga cho'qqili duxoba taqya kiygan, keng peshanali, sochlari oqara boshlagan chok ichkaridan chiqib keldi va musofir yigit bilan quchoqlashib ko'risharkan, ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi.

- Qachon kelding? Yuking qani?
- Kecha... Yukim karvonsaroyda qoldi.
- To'g'ri shu yerga kelavermabsan-da. Seni farzand deb edim axir...

- Meni ma'zur tuting, otaxon. Ust-boshim kir-chir bo'lidan to'g'ri kelaverishga botinolmadim. Yuvinib, liboslarimni almashtirishim kerak edi.

- Hay, mayli. Qani, ichkariga yur.
Uy egasi oltmishta borib qolgan bo'lsa-da, shaxdam qadam tashlab, shogirdini mehmonxonaga boshladi.

- Ajab imorat soldiribsiz, - dedi yigit mehmonxonaga kirib, ko'rpa chaga o'tirganlaridan keyin. Ular yuzlariga fotiha tortib, hol-ahvol so'rashdilar.

Beruniy ganchkor tokchalar dagi charm muqovali kitob-larga ko'z yogurtirib, kuli b qo'ydi. Uy egasi uning xursand bo'lganidan zavqlanib:

– Senga kitob bo'lsa – bas. Oshni ham unutasan, nonni ham, – dedi. – Yodingdami, yoshligingda bir necha marta bo'lingdan Arastu, Aflatunning asarlarini, tishing o'tmaydur, deb tortib olgan edim. Sen tushunmasang ham alarni o'qir, ba'zi joylarini yod olarding. To'g'risini aytsam, og'ir damlarda meni yupatgan, orom bergen shular bo'ldi.

Abu Nasrning yoshroq bir mulozimi dastshu bilan qumg'on keltirib, mehmon, mezbon qo'liga suv quydi, das turxon yozib, barkashlarda non, shinni, qand-qurs, yaxshi saqlangan uzum va bir kosa sharbat olib kelib qo'ydi. Beruniy xuddi o'z uyiga kelgandek, nonni ushatib, kichkina bir bo'lagi ni shinniga botirdi-da, og'ziga solib chaynay boshladi.

– Sog'-salomatligingizni ko'rib behad quvondim, – dedi u sharbatdan bir ho'plab. – Boshingiz uzra yelib o'tgan falokat shamollari sizga zarar yetkazmabdur. Gurganj amiri joningizga qasd qilmabdur. Asli men ham yoningizda qolaversam bo'lar ekan.

– Yo'q, ketganining yaxshi bo'ldi. Amirni yomonlab yurgan sen tengi yigitlarning ko'pi nobud bo'ldi. Yoshligingda sen ham tilga ixtiyorsiz eding. Bul yerda qolsang, nima bo'lishingni Xudo o'zi bilar edi. Musofirlik vodiysi da oyog'ingga ranj-alam tikanlari qadalgan, yaxshi-yomon odamlar bilan to'qnashib, ruhing inkishof topganga o'xshaydur. Buni maktublaringdan, yozgan asarlaringdan angladim. Ray shahrida olimlik da'vo qilgan zangin va omi bir odamdan xo'rlik ko'ribsan, Homid al-Xo'jandi kabi olim bilan rasadxonada ishlab, ko'p narsalar o'rganibsan. Jurjon hukmdori. Qobus saroyida izzat-hurmat ko'ribsan. U yerda yozgan „Osori boqiya“ngni o'qib, behad xursand bo'ldim.

Yosh olim boshini quyi solib, ustozining so'zlariiga mammuniyat bilan qulqoq solardi.

– Qobus qandoq odam ekan? – deb so'rab qoldi. Abu Nasr birozdan keyin.

– Nima deyishimni ham bilmayman. O'zingizga ma'lum, ul siyosatli, uddaburon hukmdor, istedodli shoir va har taraflama olim. Arab tilida yozgan she'rlari tahsinga sazovor. Ammo bir nuqsoni shuki, taaddini o'ziga hunar,

afvni ayb deb biladur, andak xatosi uchun o'z amaldorlari va fuqaroning bo'yniga qilich urdiradur.

Shogirdining gapini eshitib, Abu Nasrning quyuq qoshlari uyilib ketdi.

– Izzat-nafsi kuchli podshoning qahridan Xudoning o'zi asrasin, – dedi chuqur nafas olib. – Ul to'g'rida men yaxshi gaplar eshitgan edim. Dovulning tovushi uzoqdan yoqimli eshitiladir, deb bekorga aytmag'anlar. Haytovur, sanga ziyoni tegmabdur.

– Agar sizning maktubingizni olmaganimda, holim nima kechishihi bilmas edim. So'nggi vaqtarda Qobus mehdan sha'nimga yarashmayturgan ishlarni talab qila boshlagan edi.

– Chunonchi, qandoq ishlarni? – deb so'radi Abu Nasr sergaklanib:

– Ul yurt ulug'lari va ajnabiylar elchilarni qabul qilg'onda anga mulozimlik qilib turishimni talab etdi.

– Ya'ni, shundoq olim mening xos mulozimim, deb kerilmoqchi bo'libdur-da! Kishining boshiga humo qushi qo'nsa, ko'ngli nimalarni tusamaydi! Tavba.

– Agar Ali ibn Ma'mun nomidan yozgan xatingizni ko'r-satmaganimda menga ruxsat bermas edi. Fe'limni bilasiz, Qobus saroyida albatta boshimga bir falokat kelgay edi...

Mulozim taom olib keldi, keyin idish-tovoqlarni yig'ish-tirib, dasturxonga ikki piyola sharbat keltirib qo'ydi. Ovqat mahalida ham, ovqatdan keyin ham ustoz bilan shogirdning suhbatini to'xtamadi. Nihoyat, Abu Nasr:

– Emdi Ali ibn Ma'munga salom berib kelaylik, – dedi. – Garchi, otasi Xorazmshoh Abu Abdulloni yovuzlarcha qatl ettirgan bo'lsa ham, o'g'liga nisbatan yuragimda qatracha adovat yo'q, chunki otasining yomon ishlari uchun o'g'lini ayblab bo'lmaydur. Marhum Ma'mun binni Muhammad qilichidan qon tomgan berahm podsho'edi, bizning avlod-dan ko'p odamlarning yostig'ini quritdi, ammo ko'p o'tmay o'zi ham qilichdan o'ldi. Ammo o'g'li uning aksi, insofli, ma'rifatparvar odam. Rost, Ali ibn Ma'munning ham o'ziga yarasha nuqsonlari bor, ammo fazilatlari alardan ustunroq.

Eng yaxshi xislati – ilm-fan arboblariga homiyligidir. Yur, saroy ahliga munosib liboslarni kiyib, därgohiga boraylik.

IV

Beruniy Gurganjga kelgan yili qiziq bir hodisa yuz berdi. Yosh olim samoviy jismalarning holatiga qarab, räma-zon oyining o'n to'rtinchi kuni, chorshanbag'a o'tar kechasi oy to'la tutilishini aniqladi va uni kuzatishga hozirlik ko'ra boshladi. Xuddi aytgan kuni¹ qorong'i tushishi bilan oy yernirig soyasiga kira boshladi. Avom xalq oyning ku-yib ketishidan qo'rqib, hayajonga tushar, jom, chelak, tos chalib, falokatning oldini olmoqchi bo'lar, mullalar esa, gunohimiz oshib ketganidan Xudo bizni ógoohlantirayotir, deb azon aytar edilar. Butun shaharni qiy-chuv bosgan, ammo Beruniy miyig'ida kulib, yer kurrasining oyga tush-gan soyasi diametrini o'lhash bilan mashg'ul edi. Xorazm tuprog'iga qadam qo'ygan yili yuz bergen bu ajoyib hodisa-ni u boshqalar kabi yomonlik emas, yaxshilik alomati deb bilar edi.

– Avom xalq ham, mullalar ham bu hodisaning sababla-rini bilmaganlaridan, Xudoning qahri kelgani uchun shunday bo'ldi, deb osongina qutuladilar. Ulamolar o'z nodon-liklarini Xudoning nomi bilan niqoblamoqchi bo'ladurlar, – dedi u Abu Nasrga turli handasiy shakllar, raqamlar bilan to'lib ketgan qog'ozni uzatar ekan.

– Bu gapingni mendan boshqa odamga aytma, din peshvolaridan qo'rqmoq kerak, – dedi ustozи qog'ozni qo'l-ga olib, uni ko'zdan kechirarkan. – Iloyo, senga ko'z tegmasin. Aytganingdek, bul hodisa sen uchun ham, yurt uchun ham yaxshilik alomati bo'lsin.

Darhaqiqat, o'sha yildan boshlab Gurganjga har taraf-dan olimlar kela boshladilar, shular qatorida Ibn Sino ham bor edi. Ular Beruniy atrofiga to'planib, uning falakiyot va ilmi tabiiyot sohasida olib borayotgan ilmiy ishlarini kuza-tib bordilar.

¹ 1004-yilning beshinchи iyulida.

Bir kuni Beruniy hovlisida yumaloq shishani oftobga tutib turgan edi, eshik taqillab qoldi, U eshikka o'girilib:

– Kiraversinlar, ruxsat, – dedi va qotmadan kelgan, ko'zлari katta-katta, ozoda kiyangan Ibn Sinoni ko'rib, shishani yerga qo'ydi-da, u bilan ko'rishdi va mehmonxonaga taklif etdi.

– Yo'q, yo'q, men siz bilan birga tajriba o'tkazmoq niyatidaman.

– Unday bo'lsa, mana buni tomosha qil. – Uy egasi ichiga suv to'ldirilgan yumaloq shishani oftobga to'g'riladi-da, uning ichidan o'tgan nurni bir nuqtaga to'pladi. – Agar suvni to'kib tashlasak, shisha ichidagi havo oftob nurini suv kabi bir yerga to'play olmaydur. Mashg'ulotdan charchagan vaqtimda ermak uchun shul tajribani o'tkazayotgan edim.

– Siz mavjudot sirlarini o'rganmoq uchun ko'p tajribalar o'tkazasiz. Hatto bekor vaqtingizda ham. Qo'lingizdagi shishani ko'rib, bir narsa xotirimga keldi. Siz menga yozgan xatlarining birida ustodi avval Arastuning, yer yuzida, koinotda bo'shliq yo'q, degan da'vosini rad etgan edingiz. Shul fikringizni tajriba bilan isbot etsangiz...

– Biz hammamiz ul ulug' zotning shogirdlarimiz. Ammo men sinab ko'rmay, har qanday olimning ham da'vosiga bovar qilmayman. Mana, ko'r.

Ibn Sino oq yaktak kiygan, egar qoshli uy egasining vajohatiga qarab, o'zini chetroqqa oldi. Beruniy shisha ichidagi havoni so'rib oldi-da, darhol boshmaldog'i bilan uning og'zini berkitdi va uni to'nkardi-da, tosdagi suvga tiqib, barmog'ini tortib oldi. Suv asta-asta ko'tarilib, shishani to'ldira boshladи.

– Ko'rdingmi? – dedi Beruniy o'zi haqli ekanini sezgan kishiday jilmayib. – Shisha ichida bo'shliq paydo bo'lgani uchungina uning ichiga suv kirdi. Bundan chiqdi, koinotda bo'shliq bo'lishini inkor etib bo'lmas ekan.

– Siz shishani so'rayotganingizda havo harakatga kelib, shishani isitib yuborgan, qo'lingizning issig'i ham shishaga o'tgan. Issiordan shisha kengaygani uchun ichiga suv kirgan.

– Man gapingni tajriba bilan rad etaman, – dedi Beruniy qizishib. O'sha shishaning suvini to'kib, uning og'zidan puflay boshladi, keyin to'nakarib, tosga tiqdi. – Qara, man puflaganda shishaning ichidagi havo harakatga kelib, uni isitgan, kengaytirgan bo'lishi kerak, ammo ichiga suv kirmadi-ku!

Ibn Sino unga gap topib berolmay qizarib, kinoya bilan:

– Bu kashfiyotingizdan bashariyat uchun na foyda? – dedi.

– Iye, hikmat uyi attorlik do'konı emaski, kun-bakun foyda keltirib tursa, – dedi Beruniy tutaqib. – Biz arqonni uzun tashlab qo'yib ishlaymiz. Besh yuz yil, ehtimol, ming yildan so'ng odamlar bo'shliqda tajriba o'tkazib, biror narsa ixtiro etarlar.

– Unday bo'lsa, ustoz Batlimusdan ham bir talay xato topgandirsiz?

– Batlimus – ulug' olim, lekin u ham ba'zi xatolar dan xoli emas. Sen ilmi tib sohasida benazirsan, ammo Jurjon shahrining uzunligi, kengligini belgilashda adash-gansan, uka. Sening falakiyat va hikmat bobidagi ba'zi xulosalaringga inonib bo'lmaydurdur...

– Ta'bingizga yoqmasa inonmang, – deb eshik tomon yo'l oldi yosh olim.

* * *

Ali ibn Ma'mun qattiq betob, saroy ahli oyoq uchida yu-rib, shivirlashib gaplashishadi. Ibn Sino ipak to'shak usti da qimir etmay yotgan, rangi murdadek oqorgan shohning tomirlarini ushlab, yonida turgan tabib al-Masihiyga ko'z qirini tashlaydi va bilinar-bilinmas bosh chayqab qo'yadi.

Täbiblar o'n uch yil taxtda o'tirib, bearmon hayot sur-gan, muhabbat sharobi va mayi nobni ortiqcha iste'mol qilib darmondan ketgan podshoni o'limdan olib qolish tarad-dudida; sarkardalar, a'yonlar esa bir xonaga to'planishib, qazo qilsa, taxtiga kimni o'tqazamiz, deb bosh qotirish-moqda.

Ba'zilar taxtga podshoning to'qqiz yashar o'g'lini, ba'zilar inisi Abul Abbosni munosib ko'radilar, bir-birlari bilan talashib-tortishadilar.

Abul Abbas o'qimishli, xushfe'l, shu bilan birga maishatparast, irodasiz odam. Bu keyingi xislatlari mamlakatni istagancha tasarruf qilmoq niyatida bo'lgan a'yonlarga juda qo'l keladi. Toj-taxt tevaragida to'plangan olimlar, shoirlar, sozandalar ham uning podsho bo'lishini istaydilar.

Nihoyat, Abul Abbosning tarafdorlari ustun chiqib, boshiga humo qushi qo'ndi. U taxtga o'tirishi bilan uddaburon va dono As-Suhaylini o'ziga vazir qilib oldi. Mahmud G'aznaviy va O'zgand xoni bilan do'stlik iplarini mustahkamlab, ichki ishlarni tartibga soldi.

Olimlar saroydagagi katta bir xonaga to'planib suhbatlashayotganlarida Abul Abbas Ma'mun ham bir chekkaga qo'yilgan taxt ustida jimgina o'tirar, munozara boshlanganida xuddi pahlavonlarning kurashidan zavqlangan ishqibozlardek jonlanib ketar edi.

Oradan bir necha yil o'tgandan keyin baytulhikmatning¹ shuhrati har yoqqa tarqalib, dushmanlar ko'nglida hasad, do'stlar qalbida havas uyg'ota boshladi.

Bir kuni olimlar to'planishib, podsho bilan Beruniyning kelishini sabrsizlik bilan kutar edilar. Ibn Sino Beruniy bilan, bizning olamdan boshqa olam, boshqa quyosh va yulduzlar bormi, ularda to'rt unsur: yer, suv, havo va otash bormi, ular hamma joyda bir xilmi, degan mavzuda munozara olib bormoqchi edi. Biroq u bugun ulug' olim bilan munoqasha olib borish sharafiga noil bo'lmadi.

Eshikdan yolg'iz o'zi kirib kelgan Beruniyning qovog'i soliq, peshanasi tirishgan edi.

– Nima gap, tinchlikmi? Nega zoti oliy siz bilan birga kelmadilar?

Beruniy gapni qanday boshlashni bilmay, anchagacha ikkilanib turdi.

– E, yor-birodarlar, – dedi nihoyat ma'yus holda. – Sizlar bu yerda munozara olib bormoqqa hozirlanayotganin-

¹ Baytulhikmat – hikmat uyi.

gizda man va podsho hazratlari boshingizga kelgan falokatni daf qilish ustida bosh qotirayotgan edik.

– Qanday falokat? Yo Parvardigor!

– Kecha G'aznadan qaytib kelgan elchimiz Mahmud G'aznaviyning, Gurganjdag'i barcha olimlarni mening huzurimga yubor, degan mazmundagi farmonini topshirdi. Biz zoti oliv bilan maslahatlashib bu farmonga quloq solmaslikka qaror berdik. Shoh hazratlari, xohlaganlar G'aznaga borsin, xohlamaganlar o'z yurtlari yoki istagan joylariga keta bersin, dedilar. Hodisalar girdobiga o'zini tashlashga tayyor bo'lganlar shu yerda qolsin!

Olimlar esankirab, bir-birlariga qaradilar. Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Hammadan oldin Ibn Sino o'ziga kelib, yonidagi Abu Sahl al-Masjhiy bilan pichirlasha boshladi. Birozdan keyin Beruniyning oldiga kelib:

– Ijozat bo'lsa, biz Mavlono al-Masihiy bilan Xurosonga ketsak, – dedi, – Mahmud kabi g'addor hukmdorning in'omlaridan biz shaxsiy ozodlikni afzal ko'ramiz.

– Yaxshi. Men xazinadan yo'l xarji va boshqa ehtiyojlar ringiz uchun aqcha olib beraman. Oradan o'tgan past-baland gaplarni ko'nglingdan chiqar. Mendan yetti yosh kichiksan, uka. Yuzingga ba'zan qattiq gaplar aytgan bo'l-sam ham, ichimda senga yaxshilik tilar edim. Mendan xafa bo'lma. To'g'ri gapni yotig'i bilan aytishni yoqtirmayman.

Ibn Sino bosh egib, o'ng qo'llini yuragi ustiga qo'ydi.

V

Yor-birodarlaridan bir nechasi ketib qolgandan keyin yuragiga qil sig'may qolgan Beruniy mehnat bilan o'zini ovutishga urinar edi. Keyingi vaqtarda u javohirlarning turlari va xosiyatlarini o'rganishga kirishgan edi. Balo o'qiga nishon bo'lmasdan burun bu ishlarini oxirigacha yet-kazishga harakaq qilar edi. Bir kuni tosh qozonda achchiqtosh suviga kahraboni solib qaynatayotgan edi, saroydan farrosh kelib:

— Zoti oliylari sizni chorlayetirlar; zarur bir ish chiqib qolgan ko'rinadur, — dedi.

Beruniy noxushlanib, qozon tagidagi olovni tortib olib o'chirdi, kahraboni olib qutiga solar ekan, u nima uchun qizardi ekan, deb bosh qotirardi. Miyasi bu qimmatbaho javohirning sirri-asrorini bilish bilan band ekan, ustidagi korjomasini yechib, yuvindi. Artinib bo'lib, qimmatbaho shoyi to'nini kiydi, sallasini o'rab, saroya ja'nadi.

Hujrayi xosida o'tirgan yosh podsho eshik yonida turib ta'zim qilgan olimni chaqirib, o'ng tomonidan joy ko'rsatdi.

— Zarur bir ish chiqib qolmasa, sizni bezovta qilmas, ishingizga xalal bermas edim... .

— Podshoning amri vojib, — dedi olim kimxob to'shakka o'tirarkan, rang-ro'yi ketib qolgan Abul Abbosga savol na-zari bilan qarab.

— Biz uchun baxt eshigi yopilib, ranj-u alam davri boshlanganga o'xshaydur. Kecha G'aznadan qaytgan elchimiz noxush xabarlar keltirdi. Mahmudning vaziri Hasan Maymandiy ani chaqirib olib: „Agar podshohingiz biz bilan do'st bo'lishni istasa, Xorazm masjidlarida jum'a nomozida amiralmuslimin Mahmud G'aznaviy nomlariga xutba o'qitsin”, deb maslahat berildur. Bu gapga nima deysiz?

— Xo'ja Hasan bamisoli Mahmudning zanjirdagi iti-da, — dedi olim o'zini tutolmay, — aning akillashiga quloq solma. It hurar, karvon keehar. — Abul Abbos o'zidan o'n uch yosh kichik, bir chekkasi shogirdi bo'lgani uchun Beruniy uni sansirab gapirardi.

— Mahmuddek podshoning vaziri hech mahal o'z hukmdoridan bemaslahat bir gap aytmasa kerak.

— Shundoq. Lekin biz bu gap vazirhing o'zidan chiqqan, deb gumon qilishimiz, shul sababdan anga bovar qilmasligimiz kerak.

— Siz Mahmudni bilmayturganga o'xshaysiz.

— Biladurman. Aning zabardast sarkardalari bor, zaif dushman ustiga balo-qazodek yopirilib boraturgan askarlari behisob. Biz bu baloni daf etish uchun aning dushmanlari bilan ittifoq tuzib, o'zimizga do'st orttirmog'i-

miz zarur. Agar Turkiston xonlari bilan bir yoqadan bosh chiqarsak, Mahmud peshanamizga ham cherta olmas edi.

– Xonlar hokimiyat talashib bir-birlari bilan bo'g'ishayotirlar. Qandoq qilib, biz bilan muttafiq bo'lurlar!

– Agar alarni bir-birlari bilan yarashtirsak, bizdan minnatdon bo'lib, begaraz do'st ekanligimizga ishonch hosil qilg'usidurlar.

Abul Abbas ibn Ma'mun o'ylanqirab qoldi.

– Mayli, men sarkardalar bilan maslahatlashib ko'ray. Agar kerak bo'lsa, O'zgandga Mahmud Jandani yuboramiz. Ul dono va jasur odam. O'zgandda elchi bo'lib turganida xonlar orasidan do'stlar orttirgan. Ammo... – Ma'mun ikki-lanib turib qo'shib qo'ydi: – Hozircha Xorazmnning chekka-sidagi biror masjidda Mahmud nomig'a xutba o'qitsak...

Beruniy chuqur o'nga toldi: „Afsuski al-Suhaylidek ud-daburon vazirni haydab yubordi, hozir ahyol mushkullash-gan paytda undan bir maslahat chiqarmidi“, deb o'yladi.

– Hozircha shoshmay turish kerak. Bu to'g'rida saraskarlar va raiyat boshliqlariga maslahat solmagan yaxshi. Alarning kayfiyatları manga ma'lum. Alar g'avg'o ko'targusidurlar.

– Mahmudning talabi rostmi ekanligini bilmox uchun G'aznaga odam yuborsak...

– Hozircha shoshmay tur. Avval o'ylashib ko'raylik, har mushkul masalani ham hal qilish yo'li topiladur.

...Oradan bir qancha vaqt o'tdi. Beruniyni yana saroyga chorlashdi.

– Yuring, shoh hazratlari sizni istayotirlar, – dedi farosh.

– Nima gap? Tinchlikmi? – deb so'radi olim rang-quti o'chgan farroshga qarab.

– E, nimasini so'raysiz. Yurt ulug'lari saroy oldiga to'planib g'avg'o ko'tarmoqdalar, shoh hazratlarini haqorat qilmoqdalar...

Beruniy qasrga yaqinlashganda tug' ko'tarib, qilichlari ni qintlaridan sug'urib, ovozlarining boricha baqirib, so'ki-nayotgan askarboshilarni ko'rdi.

- Kerak emas bizga bunday nomard podsho! Ma'munlar avlodidan taxtga loyiq odam qurib qoldimi!

- G'aznaviyning tovonini yalayturgan sotqin Xorazm taxtiga loyiq emas.

- Uyalmay-netmay, Mahmud nomig'a xutba o'qitaylik, deydi-ya! Xotinining so'ziga kirib, shul ishni qilayotir.

Kap-katta odamlar podshoning xotini, Mahmud G'aznaviyning singlisi Qaljani uyat so'zlar bilan so'kar edilar. G'azabdan titrab-qaqshayotgan yoshi katta odamlar orqasida turgan yoshlari Qalja to'g'risida bir nima deb hirlinglashar edi.

- O'zingizni bosing, xaloyiq! G'azab vaqtida qilingan ishning oqibati afsus-nadomat bo'lg'ay. So'zlarizingizni eshitdim. Siz haqlisiz, ammo ixtilofni tinchlik yo'li bilan hal qilaylik. Men shoh huzurlariga kirib, bu achinarli hodisaning sababini bilib chiqay.

Qomatini tik tutib, baland ovoz bilan gapirgan Beruniyning so'zлari olovga sepilgan sувdeк ta'sir ko'rsatdi. Bir gap bilan odamni o'ziga tobe qiladigan Beruniyning vajohatini ko'rib, xaloyiq jimb qoldi.

- Mening maslahatimga kirmay, o'shal so'zni oraga solibdilar-da. Men sarkardalarning kayfiyatidan ogoh qilgan edim-ku. Bir kattaning so'ziga kir, bir kichikning, deganlar, - dedi Beruniy shoh huzuriga kirib, eshikni yopgandan keyin.

- Bo'lar ish bo'ldi, ustoz, otilgan o'qni emdi qaytarib bo'lmaydir. Nima qilib bo'lsa-da, alarni tinchiting. Ulug'larga mening nomimdan oltin-kumush va'da qiling. Mayli, pul ketsa ketsin, ammo qo'ldan saltanat uzugi ketmasin! - dedi rangi o'chgan Abul Abbas hayajon bilan..

Beruniy zinapoyaga chiqib, olomonga xiteb qildi:

- Aziz birodarlar, ogoh bo'linglar! Shoh hazratlari sizning sadoqatingizni sinamoq uchun xutba to'g'risida g'i gapni o'itaga solgan ekanlar. Ammio bu fikr ko'ngillari ko'chasidan ham o'tmagan ekari. Xorazm taxtiga sadoqatingizni, dushmaniga adovatingizni ko'rib, zoti oliy behad xuy sand bo'ldilar. Shoh hazratlari sarkafda va raiyat boshlilqlarini huzurlariga chiorlaydurlar. - Beruniy besholti mashhur kishining nomini aytib, ularni ichkariga chaqirdi.

Sarkardalar, boshlarida katta cho'girma, egnilarida zar yoqali oq chakmon, bellarida kumush dastali qilich, shukuh-salobat bilan yuriб zinadan ko' tarildilar, salsa-kallali shayxulislom, kimxob to'nli a'yonlar ularga ergashdilar. Ular qabulxonaga kirganlaridan keyin Beruniy shunday dedi:

– Zoti shohonalari sadoqatingizni ko'rib, har biringizga ming dinor va bosh-oyoq sarupo in'om qildilar. Siz tushunmay ul zotning sha'nlariga malomat toshlarini otdingizlar. Salomxonaga kirib alardin kechirim so'rang, ortingizdan men ham kirgayman, chiqqaniningzdä bul yerda xazinador oltinlar bilan, saroy vaziri sarupolar bilan sizni kutib olg'ay.

Hozirgina Ma'munni sotqinlikda ayblagan a'yon va sarkardalar pulning daragini eshitgach, boshlarini quyi solib, salomxonaga qadam ranjida quldilar.

VI

Mahmud G'azraviy vaziri Xo'ja Hasan Maymandiy bilan yolg'iz qolgandan keyin:

– Qani, so'yla, Xorazmdan ne xabarlar bor? – deb do'riliadi. U sakkiz qirrali, qimmatbaho javohirlar bilan bezalgan oltin taxtning suyanchig'iga qo'lini qo'yib, o'ng tomonida, pastda o'tirgan vaziriga burgutqarash qildi. Go'yo hozirdushman bilan chopqilashadigandek, egnida mayda po'lat simlardan to'qilgan kalta yengli sovut, belida oltin dastali qilich va xanjar. Burni qayrilib tushgan, yelkasi sal bukchaygan, vajohatidan odam qo'rqa digan Mahmud yirtqich qushga o'xshardi.

– Xorazm elchisi Mahmud Janda O'zgand shahriga behisob sovg'a-salomlar bilan kelib, xonlar bilan uchrashibdur, alarni bir yoqadan bosh chiqarmoq, bahamijhat bo'lmoqqa da'vat etibdur. Olingan xabarlarga ko'ra, elchi xonlarning kissalarini oltin, qo'yinlarini va'dalar bilan to'ldirib, maqsadiga erishganga o'xshaydur. Agar xonlar birlashib, Xorazm bilan ittifoq tuzsalar, alarning bo'yniga itoat bo'yinturug'ini solmoq mahol.

Mahmud qovog'ini uyib, jimib qoldi.

– Qani, so'yla. Ikki yovni bir-biridan ajratib, avval biringi, keyin ikkinchisini urmoq uchun nima qilmoq kerak?

Yovlarning bo'yinlariga itoat sirtmog'ini solishga mohir bo'lgan vazir o'z fikrlarini bayon qila ketdi.

Uning so'zlariga qulqolar ekan, Mahmudning yuzi borgan sari yorishib, qahrli ko'zlari jilmayar, ora-sira makkor va sodiq vaziriga savol tashlar edi.

– Barakallo, – dedi u so'zini tamomlagach, – mening ko'nglimdagagi gapni aytding. Ma'mun jasoratsiz odam, ani gapga ko'ndirmoq qiyin emas, ammo xorazmliklar o'jar va jangovar xalq. Agar Xorazm o'zaro urush olovi ichida qolsa, ani zabit etmak oson... Buning uchun ul yerga yana elchi yuborib, barcha jomelarda nomimg'a xutba o'qitmoqni mening nomimdan talab etmoq kerak. Ana o'shanda ko'rasan Xorazmda fitna bo'ronining boshlanishini. Biz fursatdan foydalanib, Xorazmni talon-taroj, ma'munlar to'plagan oltin, kumushlarni yag'mo etgaymiz.

– Inshoollo, tadbir o'qlari orzu nishonasiga borib tek-kay, xato ketmagay!

– Omin, – dedi vazirning issiq nafasidan ruhlangan o'ta mutaassib Mahmud G'aznaviy. – Ammo biz yarim yo'lida qolishni istamaymiz, olma pish, og'zimga tush, deb o'tirmaymiz, harakat qilamiz. Sen aytgandek, O'zgandga behad sovg'alar bilan Abu Nasr Mishkonni elchi qilib yuboraylik. Hiyla va makr bobida Mahmud Janda ustunmi yo Mishkonni, o'zing ko'rasan.

Turkiston xonlari huzuriga elchi qilib yuborilgan elchi ikki oy o'tmay G'aznaga qaytib keldi va Mahmudning huzuriga kirib, uni muvaffaqiyat bilan muborakbod etdi. Xonlar, agar Xorazm bilan orangizda nizo chiqsa, biz beta-rarf qolamiz, deb va'da bergen edilar. Mahmud G'aznaviyga keragi shu edi. U xursand bo'lib, yangi safarga hozirlana boshladi.

408-sanaiy¹ hijriyaning ilk bahori. Tog'dan esgan izg'i-rin odamning suyak-suyagidan o'tib ketadi. G'azna shahri shu sovuq kunlarda qizg'in janglarga hozirlanmoqda. Eg-niga po'stin, yoniga qilich osgan otliq askarlar nayzalar, dubulg'alar uchiga bog'langan bayroqchałarni hilpiratib, karnay, surnay, nog'ora sadolari ostida shahardan chiqib ketmoqdalar.

Qobil bilan Qandahor shaharlari o'rtasida, baland tog'lar etagida joylashgan kichkinagini G'azna shahrini Mahmud qaroqchilar uyasiga aylantirgan. Bu yerdan turib u goh Xuroson, goh Turkiston, goh Hindistonga bosqin qiladi, xalqlarni talab, qo'yni-qo'njini to'ldirib qaytadi.

– Bu safar askarlarimiz qay tomonga yo'l olmoqdalar, qay mamlakatning sho'ri quriydi ekan? – deb so'radi ko'k sallali bir kishi yonidagi sherigidan. – Axir sizning amaki-vachchangiz Xo'ja Hasanning xizmatkori-ku, bilsangiz kerak, mulla Qiyomiddin?

– Bu safar Xorazmning sho'ri quriydiganga o'xshaydur, – dedi Qiyomiddin. – Urush uchun osongina bahona topilib qoldi.

– Qanday bahona?

– Xorazm xalqi isyon ko'tarib, podsholari Abul Abbas Ma'munni va aning bosh vazirini o'ldiribdurlar, Ma'muning jiyani Abulhorisni taxtga o'tirg'izibdurlar. Shohimiz, kuyovimizning qotillarini jazolayman, deb safar kamarini belga bog'laganlar.

– Ajabo, Ma'mun aning kuyovimi edi?

– Iye, gapdan xabaringiz yo'q ekan-da. Ali ibn Ma'mundan tul qolgan Qaljani aning inisi Abul Abbas Ma'munga uzatgan edilar.

– Tavba, singillarini siyosat quroli qilib, goh u hukmdor, goh bu hukmdorning qo'yнига sola berar ekanlar-da. Ishqilib, Qaljaning boshi omon bo'lsin. Isyonkorlar anga ziyon-zahmat yetkazmabdilarmu?

– Mahmud G'aznaviydekkor hukmdorning singlisiga taad-diy qilaturgan odamning boshi o'nta bo'lishi kerak. Isyon-

¹ 1017-yil.

korlar boshlig'i Alip takin ani sovg'a-salomlar bilan og'osi huzuriga jo'natibdur. Erta-indin kelib qolsa ajab emas. Qalja ikki arning boshini yedi... – U shivirlab bir narsa degan edi, sallali kulib yubordi.

– Ehtiyot bo'ling, mulla Qiyomiddin, – dedi u o'zini tutib olib. – Bunday gaplar kishining boshiga falokat keltiradur.

– Sizga aytaman-da, aka. Bu gapni birovga aytib bo'larmidi!

* * *

Abúl Abbos Ma'munning fojiali o'limidan so'ng ko'hna tarixning charxpalagi tezroq aylana boshladı. Ehtiyotkor Mahmud sovg'a-salomlar bilan singlisini va kuyovining qotillarini yuborishni talab etdi. Alip takin uning birinchi talabini darhol qondirdi, o'ziga yoqmagan besh-olti amaldorning qo'l-oyog'ini bog'latib, ularni ham jo'natdi. Ammo Mahmud, harbiy hozirligi tugagandan keyin talabni kattaroq qo'ydi. U Alip takinning o'zini zanjirband qilib yuborishni talab etdi. Hukumat boshida turgan shaxs albatta yurtning tinchligi uchun o'zini qurban etishni istamasdi. U urushga hozirlana boshladı, o'zining yordamchilari Sayyod takin va Xumortosh bilan ellik ming otliq askar to'plab, Hazorasp yaqinida Mahmudni kutdi.

G'azna va Balxdan chiqqan dushman qo'shini Jayhun daryosi bo'ylab shimolga tomon yurish boshladı. Mahmud G'aznaviy qo'shinining ilg'or qismi Hazoraspga yaqinlashganda Xumortosh o'z qo'l'i ostidagi qism bilan uni tor-mor keltirdi. Bundan xabar topgan Mahmud zudlik bilan yurib, Alip takin ustiga tashlandi. Xorazm otliq askarlari karnay, surnay, nog'ora sadolari ostida dushman bilan chopqilasha boshladilar. Ahvoli mushkullashganda Mahmud fil-larni ishga soldi. Besh yuz filning na'rasi karnay, nog'ora larning tovushini bosib ketdi. Xorazm otlari hurkib, ba'zilari keyingi oyoqlariga o'tirib qoldi, ba'zilari shart o'girilib qocha boshladı. Fillar xartumi bilan otliqlarni o'rab olib yerga urar, bosib o'ldirardi. Mayib bo'lgan otlarning kish-

nashi, odamlarning faryodi hamma yoqni bosib ketdi, qov-jiray boshlagan o't-o'lanlar qip-qizil qonga bo'yaldi.

Mahmudning qo'shini sarosimaga tushgan Xorazm ot-liqlarini o'rab olib qira boshladi. Alip takin askarlaridan juda oz qismigina fillardan qutuldi, omon qolganlari asir tushdi.

Jang suronidan qizib ketgan Mahmud bandi qilib keltirilgan Alip takin, Sayyod takin va Xumortoshga ijirg'anib nazar tashladi-da:

– Emdi nima degan odam bo'ldilaring, – dedi xirillab. – Qo'llaringdan kelgani shu ekan-ku!

– Agar fillaring bo'lmanida biz dodingni berar edik, dedi qo'li orqasiga bog'langan Xumortosh g'azab bilan.

– Sanlarni gapga bichgan. Mard bo'lsang, askaringni to'plab man bilan urishib ko'r-chi. Qo'lingni yechdirib yuboraman. Qani ko'raylik holingni. Fillarimni endi ishga solmayman. Ha, nafasing ichingga tushib ketdi-a? Xorazmlarning orqasiga hali amri ma'ruf qamchisi tegmagan. Man ko'zlarining ochib qo'yaman.

– San – qaltabon¹ ko'p chirana verma. Sandaqalardan nechasi yurtimizga kelib ketgan.

Betiga qon yugurgan Mahmud o'zini tutolmay:

– Fil oyogi ostiga tashlanglar bu valadni, – deb yubordi.

Katta bir qoyatoshga o'xshagan beso'naqay fil bo'ynida o'tirgan filbonning amrini bajo keltirib, oyog'i ostiga tashlangan sarkardani ko'kragidan bosib majaqladi.

– Qarmat, shia mazhabidagilarga, isaviylarga boshpana bergen Xorazm ahli bularning o'liklarini ibrat ko'zi bilan ko'rib, qanday ahvolga tushganlarini bilib qo'ysinlar. Biz alarni shaharma-shahar aylantirib yuramiz.

Fillar oyoqlari ostida majaqlangan sarkardalarni tishlari ustiga qo'yib asta yura boshladi.

– Gurganjga borg'onimizda kuyovimizning go'ri ustiga uch yog'och o'matib, bularni alarga mixlatib qo'yamiz, – dedi taskin topgan Mahmud.

¹ Qaltabon – qaroqchi.

Omadi yurishgan toshyurak podsho nifoq bo'roni xarob etgan o'lkani osonlikcha bosib oldi. Ma'munlar to'plagan oltin, kumush va qimmatbaho javohirlarga ega chiqdi...

Asir qilib olingan bir talay yosh askarlar va xalq ichidan tanlab olingan qizlarni soqchilar nazoratida G'aznaga jo'nata boshladilar. Tuyalarning ikki tomonidagi kajavallarda o'tirgan qizlar piqillab yig'lashar, bolalaridan ayrilib qolgan onalar ular ketidan yugurib, nola qilar edilar. Soqchilar tuyalar oyog'i ostiga kelib qolgan kampirlarni turtib chetga surar: „Ovozlarining o'chir...“ deb o'shqirar edilar.

Asirlar orasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq, Abdusamad va boshqa olimlar ham bor edi. Ajal kelsa tayyor turgan Beruniy tuya ustida qomatini tik tutib o'tirar edi. U g'amdan bukchayib qolgan hakim Abdusamadga achinar, chunki qarmat mazhabidagi bu odamni o'taketgan mutaassib, sun'iy mazhabning jangovar himoyachisi Mahmud G'aznaviy omon qo'ymasligini yaxshi bilar edi.

Sochlariga qirov tushgan Abu Nasr ibn Iroq esa romolchaga tugib olgan bir hovuch ona yurt tuprog'ini bag'riga bosib, jonajon Vatani bilan vidolashar, ko'zlaridan ikki betiga oqib tushgan yosh oftobda marvariddek yaltirar edi.

VII

Uzoq safardan qaytib kelgan Mahmud G'aznaviy shahar tashqarisidagi bog'da orom olmoqda. Atrofidagi mevali daraxtlarning soyasi tushib turgan sarhovuz bo'yi salqin, g'ir-g'ir esgan bodi sabo sakkiz qirrali oltin taxt ustida chordana qurib o'ltirgan sultonning egnidagi yengil ipak to'nni asta hilpiratadi. Ostida zarbof to'shak, qo'lida Gurganj ustalari naqsh solgan kumush qada, qirra burni biroz qizargan, xiyol qiyiq ko'zlarida tabassum.

Nifoq bo'roni xarob etgan Xorazmni osonlikcha zabit, behisob o'ljalari olib kelganidan u xursand, hammasidan ham Ma'mun saroyining shuhratini olamga yoygan olimlarni asir qilib olib keltirganidan behad mammun.

Afsuski, ular orasida ulug' donishmand Ibn Sino yo'q. Mahmud Xorazmga yetib bormasdan burun u qayoqqadir

qochib ketibdur, ammo uni yer ostidan bo'lsa ham toptirgusidur. Axir Mahmud G'aznaviy olim va shoirlarning homiysi sifatida ham nom chiqarmoqchi-ku!

Shu topda uning ko'ngli donishmand odamlar suhbatini tusab qoldi, qars uring farroshni chaqirdi va darhol xorazmlik olimlarni boshlab kelishni buyurdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, hassaga tayangan, qoshlari gacha oqarib ketgan Abu Nasr ibn Iroq, qizil yuzli, barvasta Beruniy, qasidago'yligi aftidan bilinib turgan shoir Abu Mansur taxt ro'parasiga kelib, ta'zim qildilar. Sulton ularga iltifot qilib, yonidan joy ko'rsatdi. Kelganlar qat-qat solingan turkman gilamlariga o'tirganlaridan so'ng sulton ular bilan hol-ahvol so'rashdi.

– Yo'l azobi orqada qolib ketdi, emdi jannatmonand poytaxtimiz G'aznada rohat-farog'at bilan umrguzaronlik qilinglar. Sizlar uchun imkoniyat eshiklari ochiq, sirlar qu-tisidan hikmat gavharlarini olib, qulog'imga taqinglar, men hamyoningizni sim-u zar bilan to'ldiray. Hammasi sizning davlatimizga bo'lgan ixlosingizga bog'liq...

Uning nutqini eshitib, Beruniyning ensasi qotdi. G'aznaga yetib kelishi bilan qarmat, shia mazhabidagi ulug' olim Abdusamadni qatl ettirgan mutaassib Mahmud endi o'zini ilm-u ma'rifikat homiysi qilib ko'rsatmoqchi! Olim o'zini tutolmay:

– Afsuski, qatorimizda ustoz Abdusamad Avval yo'qlar, ma'rifikat imoratining bir ustuni yiqilib tushdi, – deb yubordi.

Bu gap Mahmudning safrosini qaynatgan bo'lsa-da, u o'zini bosib:

– Sunniy mazhabining dushmani bo'lgan bir qarmatiying o'limidan taassuf bildirganingizga ajablanurman, – dedi. – Har qanday ilmnинг poydevori dini islam bo'lmog'i kerak. Shia, qarmat mazhabi ilmni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadur...

Beruniy ota-bobolari majusiy bo'lgan bu hukmdorning islam homiysi bo'lib qolganiga taajjublanardi, chunki u Mahmudning nasl-nasabini boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilardi.

...Bu voqealardan ellik yilcha ilgari somoniylarning si-pohsolari keksa Alip takin Mahmudning otasi Sabukni Nishopurdagi qul bozoridan sotib olgan edi. Asli oti Sevik yoki Sebik bo'lgan bu majusiy turk yigitni keyinchalik is-lom dinini qabul qilib, ot minishni, qilich urish, o'q otishni o'rgandi va bu bobda boshqalarga dars beradigan bo'l-di. Xo'jası og'iz juftlamasdan burun uning nima demoqchi ekanini bilar va har buyrug'ini aytganidan ortiq qilib bajrardi. Bir necha yil ichida u xizmat bosqichining eng yuqori pog'onasiga chiqib, takin (biy) degan unvonni oldi. Alip takin o'lgandan so'ng G'azna viloyatiga hokim qilib belgilandi va Buxoro podshosiga sidqi dildan xizmat qila boshladi. Sabuk takinning o'g'llari ichida Mahmud o'zining fahm-farosati, jasorati bilan ajralib turardi. Shu sababdan otasi uni doim o'zi bilan olib yurar, unga sarkardalik san'atini o'rgatardi. Sabuktakin o'lgandan keyin qo'shin boshida bo'lgan Mahmud poytaxtni osonlikcha ishg'ol etib, o'zini amir deb e'lon qildi. Somoniylar yiqilgach, Jayhunning so'l tomonida-gi yerlarni o'ziga qaratib, mustaqil hukmdor bo'lib oldi...

Mana endi Xorazmni ham zabit etib, ulug' bir mamlakatning podshohi bo'lib olgan qulning o'g'li bilan ulug' olim ro'para kelib turibdi. „Nahotki toj-u taxt, shon-u shavkat odamni shu qadar buzsa! – deb o'yladi Beruniy Mahmudning ko'zlariga qarab. – Davlat tizginini qo'lga olgandan keyin o'z hamjinslarini unutdi, faqir-u fuqaroni, qullarni ezib, suvini icha boshladi. Bu qanday bedodlik!“ Abu Nasr Mansur shogirdining vajohatini ko'rib, uni kishi-bilmas sekin turtib qo'ydi. Shundan keyin Beruniy yerga qarab, yuziga itoatkorlik tusini berdi.

Mahmud hozir g'azab qilish o'rinsiz ekanini fahmlab gapni boshqa yoqqa burdi:

– Ko'nglimni shubha tutuni bilan to'ldirgan bir savolga javob olmoq uchun sizlarni bu yerga chaqirtirdim, –dedi u. – Kuni kecha tunyoqdan kelgan bir vakilni qabul etgan edim. Tili turkiy tilga biroz o'xshaydur. Gapdan gap chiqib, bizning tomonlarda yoz chillasidan qish chillasigacha qu-yosh botmaydur, qish chillasidan boshlab oftobni olti oy ko'rmaymiz, dedi. Axir bir kecha-kunduz yigirma to'rt so-

atga barobar-ku! Nahotki alarning bir kuni bizning bir yuz sakson kunimizga teng bo'lsa! Andog' bo'lsa, ul yerlarda musulmon kishi ro'zani qanday tutadur! Men kazzoblikda ayblab, ul yolg'onchi kofirni zindonga taşladim. Ani qatl ettirishdan oldin so'zları qanchalik to'g'ri ekanligini sizlardan so'rab bilmoqchi bo'ldim.

– Yaxshi ish qilibsiz, – deb yubordi Beruniy. – Ijozat bersangiz... sizni qiy nab qo'ygan bu savolga javob qilsam. – U hayajonlangandi, chunki gap bir begunoh odamning hayot-mamoti ustida ketayotgan edi.

Vajohati yirtqich qushga o'xshagan Mahmud xo'mrayib, „ayt“ degandek bosh irg'atib qo'ydi.

– Oftob usq chizig'idan pastda bo'lган vaqt ni biz tun deb ataymiz, – deb gap boshladi Beruniy. – Tun va kunning uzoqligi yil fasllariga ya mamlakatlarning jug'rofiy vaziyatiga bog'liq. Ma'lumingizki, bu yerlarda qish faslida tun uzoq, kunduzi qisqaroq, yozda esa, aksincha, kun uzoq, tun qisqa bo'lur. Xatti ustuyoda, ya'ni yer kurrasining belbog'i-da tun va kun har vaqt bir-biriga bab-barobar. Bizda yilda ikki martabagina kun bilan tun barobar bo'ladur. Shimolga qarab ketgan sari qishda tunlar bizdagidan uzunroq, kunlar qisqaroq bo'lur. Bas, shunday ekan, qutbga yaqin yerlarda qish faslida olti oy kecha, yozda esa olti oy kunduz bo'lishi tabiiy holdur...

Olim o'z fikrlarini har qanday odamga tushuntirishga mohir bo'lsa-da, gaplari podshoga borib yetmaganini ko'rib, boshqacha dalillar axtara boshladi. Dunyoviy ilmlardan bexabar, mutaassib Mahmudga faqat diniy dalillargina ta'sir qila olardi. Beruniy buni anglab, gapni boshqa tomonga burdi:

– Tunyoq odamlari bari majusiy, alar islam dinini qabul qilmaganlar, – dedi u istehzo aralash jilmayib. – Shul sababdan Xudo qish faslida alarga oftob jamolini ko'rsatmasa, bunda hayron qolarlik narsa yo'q.

Beruniyning bu gapi podshoga ma'qul tushib, iljayib qo'ydi.

– Ana, o'zingizga keldingiz, Abu Rayhon, gaplaringiz emdi ma'no kasb etdi. Rostdan ham qutb tomondan kelgan

vakil meni aldamaganga o'xshaydur, – dedi va eshik oldida turgan farroshga vazir Hasanakni chaqirib kelishni buyurdi.

– Anovi...tunyoqdan kelgan vakilni darhol zindondan chiqarib yubor, – dedi u boshiga kuloh, egniga ipak chopon kiygan vazir huzuriga kelgach. – Ani xursand qilib, sovg'a-salomlar bilan yurtiga jo'nat!

– Bosh ustiga, – dedi Hasanak orqasi bilan yurib chiqib ketayotib.

* * *

Boshda Mahmud Beruniyning donoligiga qoyil qolgan bo'lsa ham, o'zining nohah, uning haqli bo'lib chiqqani alam qilib ketdi. „Mendek ulug' podshoning oldida boshini nor tuyadek baland ko'tarib mag'rurlik bilan javob berishini qara-ya! Bora-bora meni mensimay qo'yadi, bu valad! Agar hoziroq burniga buynda taqmasam, keyin jilovini tutqazmay qo'yadi“, deb o'yladi u. Tevarak-atrofida-gi odamlar xorazmlik olimni maqtaganlarida uning safrosi qaynab ketar, bu maqtovlar unga ta'nadek tuyular edi. Har safar: „Jilovlab olmasam, menga bosh bermay qo'yadi!“ deb o'ylardi u.

Bir kuni Beruniy o'z hujrasida mutolaa qilib o'tirganida ostonada saroy farroshi paydo bo'ldi.

- Xo'sh, xizmat? – dedi olim boshini kitobdan ko'tarib.
- Zoti oliy sizni ko'rmoqni istaydurlar.

Olim darhol o'rnidan turib kiyina boshladi. U salomxona eshigidan kirganda jamoat jam, sulton to'rdagi oltin taxt ustida o'ng mushtini tizzasiga tirab o'tirar, pastda olimlar, shoirlar qo'l qovushtirib o'tirar edilar. Beruniy ta'zim bajo keltirgandan so'ng ustozi Abu Nasr Mansur yoniga borib o'tirdi. Mahmud uni ko'rishi bilan qoshlari chimirilib, yuzida noxushlik alomati paydo bo'ldi-yu, keyin o'zini tutib olib, bosh irg'atib qo'ydi va u bilan hol-ahvol so'rashib bo'lgandan keyin:

– Odamlarning aytishicha, dunyoda sen bilmagan sir qolmagan emish, yer-u ko'kdagi barcha asrordan voqif emishsan, – deb qoldi.

– Qulogqa kirgan har gapga inonib bo'lmaydur, – dedi Beruniy boshini ko'tarib, – eshitgan har gapni amalda sinab ko'rib, aning qanchalik to'g'rilagini bilsa bo'ladur.

– O'zim ham sen to'g'ringda eshitgan gaplarni sinab ko'rmoq niyatida edim. Dunyoning sir-u asrori mahraming bo'lsa, qani ayt-chi: hozir shu eshiklarning qay biridan chiqib keturmen!

Salomxonaning sakkiz eshigi bo'lib, hammasi olimni yutishga hozirlangan ajdahodek og'zini lang ochib turar edi.

Beruniy, bu savolning ilmga taalluqi yo'q, deb yubora-yozdi-yu, lekin o'zini tutib olib:

– E shohi zamon, menga boshqa savol bering, – dedi. – Hozir yulduzlarning holati, alar orasidagi masofa yoki javohirlar turlari va xosiyatlari va hokazolarin so'rang, shundagina mening ilmi hikmat va falakiyot xazinasidan qanchalik nasibador ekanimni bilursiz.

– Agar yulduzlarning holati senga ma'lum bo'lsa, shularga boqib nima ish qilmoqchi bo'lganimni ayta olursesn. Qaysi eshikdan chiqib ketishimni bir qog'ozga yoz, men ani to'shagim ostiga qo'yay. Chiqib ketgandan so'ng, yana qaytib kelib, xatingni o'qib, sening sirri-asror olamidan qanchalik xabardor ekaningga qanoat hosil qilurmen.

Keksa Abu Nasr Mansur podshoning aql oynasini safro bosganini va buning oqibati shogirdi uchun yomon bo'lishini his qilib, ko'ziga dunyo qorong'i bo'lib ketdi. Beruniy esa o'yga toldi. Sakkiz eshikning qay biridan chiqib ketishini oldindan bilib bo'lmaydi. Tavakkal qilib, falon eshikdan chiqib ketasiz, deb yozsa-yu, taxmini tasodifan to'g'ri chiqib qolsa, unda Mahmudning o'zi mot bo'ladi-ku. Buni u hisobga olganmikin? Janglarda g'animning niyatini payqab, kutilmagan tomondan hujum qilishni yaxshi biladigan Mahmud albatta buni hisobga olgan. U bir martaba mot bo'ldi, ikkinchi bor mag'lubiyatga uchrashni istamaydi. Shuning uchun hech kimning aqliga kelmagan ishni qila-

di. Shu eshiklarning hech biridan chiqib ketmaydi. Olim shularni o'ylab, tevarak-atrofga ko'z yogurtirdi va to'satdan miyasiga kelgan fikrdan yuzi yorishib ketdi. Go'yo podsho-ning niyatini bilmochchi bo'lgandek, o'rnidan turib usturlobni qo'lga oldi, uni Mahmudning peshanasiga to'g'rilab, bandini aylantirdi. Jinni bo'lib qoldimi shogirdim? Bu o'ta masxarabozlik-ku! Bu yerda usturlobga balo bormi? – deb o'yladi Abu Nasr Mansur tong qolib, lekin bir lahzadan keyin o'ziga kelib miyig'ida kului: – Dunyoviy ilmlardan bebahra Mahmudni kalaka qilish uchun shundan boshqa chora yo'q. Eshagiga yarasha tushovi. Bu safar ham Abu Rayhon podshoni mot qilsa ajab emas, lekin buning oqibati ni o'ylayotganmikin?..

Beruniy esa podshoga eshittirib: „Qay eshikdan chiqib ketishlari menga ayon bo'ldi“, deya juzdonidan bir varaq qog'oz, qalamdonidan davot va qalam oldi, bir narsalar ni yozib qog'ozni vazirga uzatdi. Abu Nasr munozaradan g'olib chiqqan mullavachchadek ko'ksini kerib joyiga o'tir-gan shogirdiga taajjublanib qaradi. Salomxonada bo'l-gan olimlar, shoirlar podsho bilan Beruniy o'rtasidagi bu olishuvning oqibatini sabrsizlik bilan kutar edilar. Mahmud qog'ozni qo'lida aylantirib, to'shami ostiga tiqib qo'y-di-da, vaziri Hasanakka qarab, qoshini kerdi. Vazir chiqib ketgandan keyin taxtning ro'parasidagi devor orqasidan gursullagan ovozlar eshitila boshladi. Hamma ajablanib o'sha yoqqa qarab qoldi. Bir necha daqiqadan so'ng devor teshilib, biri qo'lida tesha, ikkinchisi misrang ushlagan ikki ustaning kallasi ko'rindi. Ular g'ishtlarni birin-ketin olib, oyoqlari ostiga qo'ya boshladilar. Ro'paradagi devorda odam bo'yi teshik paydo bo'lgandan keyin Mahmud G'aznaviy taxtdan tushdi va boshini ko'tarib o'sha teshikdan tashqariga chiqib ketdi. Uning qaysi eshikdan chiqib ketishini bilmay boshlari qotgan ulamo va shoirlar unga tasanno o'qib, hayrat barmoqlarini tishlab qoldilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Mahmud vaziri Hasanak bilan salomxona-naga kirib keldi. Hamma gur etib o'rnidan turib ta'zim qil-ganicha qotib qoldi. Mahmud taxtga o'tirganidan so'ng to'shami ostidan xatni olib o'qidi-yu, rangi quv o'chib ketdi.

Ko‘zlariga ishonmagandek yana o‘qib, badanidagi har bir mo‘yi tik bo‘ldi. Nihoyat, u o‘zgargan ovoz bilan:

– Hammangizga javob, meni yolg‘iz qo‘ying, – dedi.

Hang-mang bo‘lib qolgan odamlar o‘rinxidan turib, oyoq uchida chiqib ketdilar. Ular nima hodisa bo‘lganini bilmay garang edilar. Eshikdan chiqqanlardan keyin Abu Nasr shogirdiga savol nazari bilan qaragan edi, u:

– Xatga, hech bir eshikdan chiqib ketmaysiz. Ro‘paradagi devorni buzdirib, teshikdan chiqib ketasiz, deb yozgan edim, – deb javob qildi.

– O‘ylaganini topibdursan-da, farosatingga qoyilman. Ammo bu qadar donolikning, hozirjavoblikning xavfli ekanin bilar eding-ku! Nega bunday qilding?

– Men bilan o‘chakishgan odam oldida o‘zimni yerga urolmaymen. Ko‘lmak suvdek yuzimga parda tutib, jim turishga toqatim qolmaydur.

– Sen bilan o‘chakishgan odam ulug‘ mamlakat podshosi ekanini unutmasang bo‘lar edi.

– Na qilay, bo‘lgan-turganim shul. Ba’zan aqlning tizgini izzati nafs qo‘liga berib qo‘yurmen.

– Xudo o‘zi seni falokatlardan asrasin!

Hamma salomxonadan chiqib ketgandan so‘ng Mahmud vaziri Xo‘ja Hasanakka shunday dedi:

– Jamiki olamning kaliti qo‘limda deb mag‘rurlanib ketgan Azozil Odam Alayhissalom oldida sajda qilmagani uchun jannatdan quvilgan, farishtalar orqasidan tosh otib qolgan edilar. Beruniy ham kibr-u havoga berilib, ulug‘larni mensimay qoldi. Xatni topshirgandan keyin ko‘ksini kerib o‘tirishini qara! Adabini berib qo‘ymoq kerak edi.

– Rost aytdingiz. Yuganga bosh bermay qo‘yan otni jilovidan mahkamroq tortib haydaydurlar.

– Xuddi ko‘nglimdagi gapni topding. Jazzasini berib, ko‘zini ochib qo‘ymoq kerak, ikki qo‘lini bog‘lab, saroy tomidan tashlab yubormoq kerak!

Bu gapni eshitib, Hasanakning hushi boshidan uchdi. Saroy tomi shu qadar baland ediki, u yerdan pastga qulagan kishi til tortmay o‘lar edi. U boshini ko‘tarib, sultonga

qaradi. Mahmud G'aznaviyning yuzi qizarib, ko'zlar o't sochib turar edi.

– Yo, shohi zamon. Qadimgi donishmandlar, g'azab vaqtida qilingan ishning oqibati pushaymonlik bo'lur, deganlar. Yalini so'rayman, bul ishni ertaga qoldirsak...

– Men aytgan so'zimni qaytarib olmaymen, – dedi Mahmud mushtini qisib. – Farmonimni bajo keltirishing shart, bo'lmasa boshing ketadur.

– Men boshimni siz uchun qurban qilishga tayyormen, e shohi zamon. Beruniy har qanday og'ir jazoga loyiq, ammo o'limga hukm qilmang. Tomdan tashlab yuborilsa, til tortmay o'ladur.

– O'ladurmi, qoladurmi, bu bilan ishim yo'q. Ammo so'zim so'z.

Hushyor vazir podshoning amrini o'z bilganicha ijro etishga, lekin six ham kuymasin, kabob ham qabilida ish ko'rishga qaror qildi.

– Har amringizga mute, har farmoningizga tobedurmen, – deya ta'zim qilganicha orqasi bilan yurib chiqib ketdi va mulozimiga saroy hovlisini supurtirib, tartibga keltirib qo'yishni buyurdi.

Beruniy hujrasida qo'li ishga bormay, falokat nayzasi qay tomondan kelib sanchilishini kutib o'tirar edi. To'rtta barvasta yigit balo-qazoday hujrasiga bostirib kirishi bilan pinagini buzmay o'rnidan turdi. Yigitlarning biri qo'lini orqasiga bog'lamoqchi bo'lganida bir ijirg'anib, uning qo'lidan o'zini bo'shatib oldi.

– O'ldirmoqchi bo'lsang, qo'limni bog'lama. O'lim jari yoqasiga o'z erkim bilan borgaymen!

Uni sudrab saroy tomiga olib chiqdilar va qo'l-oyog'i-dan ushlab hovli sahniga tashlab yubordilar. „O'ldim“ deb beixtiyor ko'zini yumib olgan olim paxta ustiga tortib qo'yilgan to'r ustiga tushib ko'zini ochdi. Chap qo'lining jimjilog'i sirqirab og'rir edi. Bu og'riq tufayli hushidan ketib qolmagan olim xuddi to'rga tushgan qushday tipirchilab undan o'zini qutqarmoqchi bo'ldi. Shu payt ikkita yigit qo'ltig'idan olib, turg'izib qo'ydi.

Rang-ro'yi soqolidek oqarib ketgan Abu Nasr Mansur hassasiga tayanib hujraga kirganda Beruniy to'rdagi

to'shak ustida, oq latta bilan bog'lab qo'ygan jimjilog'ini ko'tarib yotar edi.

- Xudoga shukur, tirik qolibdursen. Bir yering lat yemadimi?
- Jimjilog'im chiqqan ekan, joyiga solib qo'ydim. Boshqa hech yerim shikastlangani yo'q.

- Ming qatla shukurki, omon qolibsen. Mahmud men o'ylagandan ko'ra makkorroq ekan. Seni tomdan tashlatib yuborib, tushaturgan yeringga paxta yoydirib qo'yibdur, shu bilan hushingni joyiga keltirmoqchi, ko'zingni ochib qo'ymoqchi bo'libdur. Mahmud G'aznaviy Ma'mun emas, u bilan o'ynashib bo'lmaydur.

- Rost aytdingiz, bundan so'ng ehtiyotkor bo'lmoq, ilm uchun o'z shaxsiy ozodligimizdan kechib, har qanday jabr-zulmga bardosh bermog'imiz kerak.

- Biz ilm bilan shug'ullanmoqqa qayerda imkon topsak, erkimiz o'shal yerda, - dedi Abu Nasr.

Ustoz bilan shogird yuraklarining chigilini yozish uchun uzoq vaqtgacha dardlashib o'tirdilar.

* * *

Bir kuni Mahmud G'aznaviy shahar tashqarisida, hovuz bo'yida qavat-qavat solingan gilamlar ustida chordana qurib o'tirib:

- Agar Beruniy bo'lganda miyamni qotirgan bir muammoni yechib bergan bo'lur edi, - deb qoldi.
- Ijozat bersalar, uni yer ostidan bo'lsa ham topib keltirgaymen, - dedi quyiroqda shoir Unsuriy bilan yonma-yon o'tirgan Hasanak.
- Qanday qilib? Ajabo, sen o'shal kuni amrimni bajarmaganmi eding?
- Xuddi siz aytgandek qilgan edim. Ammo janoblari ulug' olimni yana bir bor ko'rishni istab qolarsiz, degan andisha bilan aning hayotini saqlash uchun bir hiyla ishlatib edim. Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytib berurmen.
- Ayt!

Vazir bo'lgan voqeani ipidan ignasigacha gapirib ber-gandan so'ng Mahmud G'aznaviyning chehrasi ochilib, Beruniyni darhol huzuriga keltirishni buyurdi.

Yer tagida ilon qimirlasa biladigan Mahmud Beruniyning tirikligidan xabardor ekanligi, o'zini bilmaslikka solib yurganligi vazirga ayon edi. O'z hukmdorining riyokorligi, ustomonligini yaxshi bilgan vazir o'zini go'llikka solib, ta'zim qildi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin Beruniy podshoh huzuriga kelib ta'zim qildi. Podshoh biroz oriqlab, qirra burni biroz kattalashib qolgan olimga razm solib, uning bir enlik pastga tushganini, taqdirga tan bergани, lekin aqli, jilovlab olgan irodasi hali ham sinmaganini payqadi. Oradan hech gap o'tmagandek u bilan hol-ahvol so'rashib, o'tirishni taklif qildi. Beruniy G'aznaviyning har xil ilmiy mavzularda olimlar bilan suhbat qilishni yaxshi ko'rishini bilar edi. Shuning uchun uning savollariga yotig'i bilan javob berishga hozirlanib, yuziga xayrixohlik tusini berdi.

Mahmud bugun ertalab xazinasiga kirib, sandiqlarda-gi rang-barang javohirlarning tovlanishini tomosha qilib, ko'ngli joyiga tushgan, shu sababdan chehrasi botib bora-yotgan quyoshdek sokin edi. U javohirlarning turlari va xo-siyatlari to'g'risida gapirib berishni so'radi.

– Javohirlarning eng qiymatlisi yoqutdur, – deb gap boshladi Beruniy. – Lekin alarning turlari ko'p. Oq, ko'k, sariq va qizil rangli yoqutlar bor. Eng qiymatlisi anor do-nasiga o'xshab tovlanib turadur. La'l esa yoqutga nisbatan yumshoqroq, qizil, tiniq va ravshan javohir turur...

Olim javohirlarning turlari va sifatlari to'g'risida gapi-rar ekan, Mahmudning ko'ziga xazinasidagi rang-barang yoqutlar ko'rinish ketgandek bo'ldi va saxiyligi tutib ketib, vaziriga yuzlandi-da:

– Abu Rayhon Beruniy janoblariga egarlog'liq arabiylot, ming dinor va xizmatini qilib turish uchun bir g'ulom in'om qildim, xazinador va miroxo'rga farmonimni yetka-zing, – dedi.

Pastroqda chordana qurib o'tirgan kotib chap tizzasi ustiga qo'yilgan qog'ozga uning farmonini yozib qo'ydi.

O'TROR

I

613-yil savr¹ oyining boshlarida ertalab ikki otliq tevaragi baland paxsa devor bilan o'ralgan chorbog'ning darvozasi oldiga kelib egardan tushdi. Darvozaning ikki tavaqasi lang ochiq. Darvozabon eshik yonida turardi. Egniga movutdan kalta yengli tugmador², oyog'iga ufka etik kiygan, ikki yuzi qip-qizil, g'o'laburdan kelgan suvori otini yetaklaganicha eran-qaran darvozadan kirdi. Uning yonida kumush dastali qilich, belida o'q-yoy va yettita o'q solingan sadoq osig'lik. Ikkinchchi otliq – yoshi yigirma bir-yigirma ikkilarda bo'lган novchagina yigit, qirchang'i otini yetaklab, uning orqasidan ergashdi. Miyiqlari sabz urgan, do'rdoq lablari iljayib turgan bu yigitning yelkasiga yamoq tushgan, ko'hna etigining poshnasi mayishgan.

Eshik yonida turgan darvozabon birinchi otliqqa hurmat bilan salom berdi-da, ikkinchi otliqqa istehzo bilan qarab jilmayib qo'ydi. Shu payt ichkaridan bo'z yaktak kiygan oriqqina bir xizmatkor yugurib chiqib, mehmonlarning otini yetaklaganicha otxonaga olib kirib ketdi.

Bog'dagi meva daraxtlari gullagan, havodan bol isi anqiydi. Bahor daraxtlarni yosh kelinlardek bezatib, ustlariga oq, qizil ko'yak kiygizgan, kokillariga gulob sepgan. Kishining yoshligini eslatuvchi muattar daraxtlar atrofida shirinlikka o'ch arilar go'ng'illashib uchib yurishardi.

Besaranjom chumchuqlar yasangan-tusangan daraxtlarning gullarini cho'qib-cho'qib uzib tashlamoqda, ular ustida qaldirg'ochlar charx urib valfajri o'qiydi.

¹ Milodiy hisobda 1216-yil, aprel.

² Kamzul.

Chorbog'ning qoq o'ttasiga qurilgan baland shiypon zinalaridan o'rta yoshli; miqtidan kelgan, qiyiq ko'zli bir kishi tushib kelayotibdi. U ham go'yo hozir urushga ketayotgandek qurollangan, yonida kumush dastali qilich, belida sadoq, qo'lida o'q-yoy. Birinchi mehmon uni ko'rishi bilanoq o'n qadamcha berida to'xtab, indamay, o'ng qo'lining kaftini ochib, boshi uzra ko'tardi-da, uning uchini yerga tegizib ta'zim qildi. Rangi o'chib ketgan yosh yigit ham sherigiga taqlid qilib, qo'l uchini yerga tegizib, keyin qaddini rostladi. Bog' egasi ularning ta'zimiga bosh silkish bilan javob qildi-da, hol-ahvol so'rashgandan keyin qisqacha so'radi:

– Ha, Qulnazar, ne xabar?

– Ming qatla shukurkim, soyayi davlatlarida eson-omon yuribdurmiz. Yurt tinch, aholi duoyi jonlarini qilib yotib-durlar, – dedi kelgan yuzboshi. – Janoblariga bir xushxabar keltirdim.

– Qani, eshitaylik, – dedi qo'rg'on egasi miyig'ida kulib.

– Ulug' elchi Bahouddin Roziy Chin-Mochindan qaytayotgan ermishlar. Chopar kelib, tongla O'trorda bo'ladurlar, deb xabar qildi.

– Durust, durust, – deb qo'ydi Inolchiq beparvolik bilan. Uning qotmadan kelgan qoracha yuzi jiddiy, hech bir mushagi qimirlamas edi. U qip-qizarib yerga qarab turgan yosh yigitga savol nazari bilan tikilgancha qoldi.

– Bu yigit – Temirtosh. Men janoblariga aytib erdim, – dedi yuzboshi Qulnazar. – Mana endi xizmatingizga o'z oyog'i birla keldi.

O'tror shahar hokimi Inolchiq o'ziga epchil bir navkar topib berishni yuzboshi Qulnazardan iltimos qilgandi. Urug' oqsoqollaridan bo'lgan bu odam oddiy xalqdan chiqqan navkarlarning sadoqatli, o'z vazifasini bajon-u dil bajaradigan, mard bo'lishini yaxshi bilardi.

Inolchiq Temirtoshning uzun qo'llariga, yirik panjasiغا, sal bukchaygan gavdasiga qarab: „Agar tarbiyat qilinsa, yaxshi qilichboz chiqadi, – deb o'yladi. – Lekin tomoqdan qisilib o'sgan yigitga o'xshaydi, boqsa odam bo'ladi“. Temirtosh esa hokimning qora soqoliga, baquvvat bo'yniga,

kiyimi ostidan bilinib turgan mushaklariga qarab, „moy bilan go'shtni ko'p yeb, iligi to'lgan“, deb o'yladi.

– O'q otmoq, ot minmoqni bilurmusen? – deb so'radi hokim, u bilan so'rashib bo'lgandan keyin.

– Ha, o'jni yaxshi otib, otni yaxshi minurmen.

Inolchiq sadog'idan o'q-yoyini va bitta o'qini olib unga tutqazdi-da, yuz qadamcha naridagi yosh terakni ko'rsatib:

– Mergan bo'lsang, o'shal og'ochni qorag'a olib otg'il, – dedi-da, o'zini chetga olib turdi.

Temirtosh o'jni yoy ustiga qo'yib, yo'g'onligi odamning sonidek keladigan terakka qaradi. So'ngra og'ir o'q-yoyni arang tortib otdi. O'q terakka borib sanchildi, ikki yoniga pat qadalgan dumi zag'izg'onning dumidek likillab tura-verdi.

– Ofarin, – dedi Qulnazar yuzboshi. – Yaxshi mergan bo'lsang-da, kuching yo'q erkan.

U belidan o'q-yoyni olib, uzoq poylab o'tirmay, kamon tortib qo'yib yuborgan edi, o'q o'sha terakni teshib o'tdi.

Temirtosh qoyil qolib:

– Balli, kuch-quvvatdan bergen ekan, – deb yubordi.

– Nima, sen yuzboshi Qulnazarxo'ja hamma kuchini qorniga to'plag'on deb o'yabmi erding? – dedi u katta qornini ko'rsatib. – Hamma kuch bilakda. Istanasang, kuchdan qarz berib turay.

Hazil-mutoyibaga uncha hushi bo'limgan Inolchiqqa yuzboshining gapi uncha yoqmadi shekilli, qoshini chimirib:

– Bul yigitni xizmatga olurmen, – dedi Qulnazarning bir tuki yo'q qip-qizil basharasiga qarab. – Siz bu yigitni o'z bo'lukingizga olib, ot minmoq, qilich urmoqni o'rgating.

– Bosh ustiga, – deb ta'zim qildi yuzboshi, so'ngra ko'zlari chaqnab ketgan Temirtoshga burilib gapira ketdi: – Qilichni shunday urmoq kerakdurkim, yerga sanchib qo'yilgan qamishning tagi qimir etmasun, kesilgan uchi qavatiga tushib, sanchilib qolsun. Seni shunday o'rgaturmen.

– Sog' bo'ling, og'a. Men yaxshilikni unutaturg'on yigitlardin ermasmen.

Inolchiq bu soddadil yigitning chin yurakdan chiqarib aytgan gapiga miyig‘ida kulib qo‘ydi-da:

– Qani, shiyponga marhamat, so‘ylashaylik, – dedi.

II

Temirtosh o‘trorlik bir uzangisoz hunarmandning bitta-yu bitta o‘g‘li edi. Otasi faqirgina kosib bo‘lgani uchun yoshligida uylana olmay, yoshi qaytgandan keyin o‘ziga o‘xshagan bir kambag‘al bog‘dorning qiziga uylangan, qirq beshga kirganda Temirtoshni ko‘rgan edi. O‘g‘il yetti yosha kirganda otasi soch-soqoliga oq oralagan, tishlari tushib ketgan chol bo‘lib qoldi. Temirtosh onasi bilan galma-gal damni bosib, o‘choqdagi olovni qizitar edi. Otasi katta sandonning yonidagi chuqurga tushib, bir juft temirni olova tiqib qo‘yardi. Temir qizargach, uni uzun ombur bilan o‘choqdan olib, sandon ustiga qo‘yar, o‘ng qo‘lidagi cho‘kich bilan temirni ura-ura cho‘zardi. Temirtosh har vaqt ko‘zini yumganda terlab ketgan, yuzlari bujur, cho‘kich urayotgan otasi ko‘rinib ketardi.

Yosh bola dam bosib charchaganda, onasi:

– Bor, o‘g‘lim, dalaga chiqib o‘ynab kel, – deb, o‘zi dam bosishga o‘tirardi.

Temirtosh kichkina o‘q-yoyini olib, o‘rtoqlarini boshlab dalaga chiqib ketar, ular bilan o‘q otishardi. Kimning o‘qi o‘zsa, orqada qolgan hamma o‘qlar o‘shaniki bo‘ldi. Temirtosh aksari sheriklarining hamma o‘qlarini yutib olardi, keyin xomush bo‘lib shaharga qaytayotgan sheriklari ga o‘qlarini ulashib berardi.

U o‘q yasashga juda usta edi. Qo‘li bo‘s sh mahallarda ayvon ustuniga bog‘lab quritib qo‘ygan adil sambittol novdalarini yo‘nib uchini chiqarar, kesib tayyorlab qo‘yilgan tovuq patini dumiga yopishtirardi.

Bundan boshqa uning yana bir ermagi bor edi. Yoz paytida kechqurunlari qo‘snilari bo‘lmish Bug‘rohojining xizmatkorini bilan otlarni anhorga oborib sug‘orar, cho‘miltirardi. Yaydoq otning ustiga minib olib, oyog‘i bilan niqtardi-da, uni suvning o‘rtasiga tushirardi. Ot quloqlarini

dikkaytirib bir tekis suzib ketganda bir qo'li bilan uning yolidan ushlab, bir qo'li bilan bo'yniga qoqib-qoqib qo'yardi. Hamma yog'i shalabbo holda uyiga qaytgach, o'zida yo'q xursand bo'lib, otlarni qanday cho'miltirganini zavqlanib ota-onasiga so'zlab berardi. Ba'zan otasidan:

- Menga qachon ot olib berursiz? -deb so'rardi.
- Katta bo'l-chi, nasib qilsa yaxshi bir tulpor olib bergaymen, - deb va'da qilardi otasi.

Biroq Temirtoshning peshanasiga ot bitmagan ekan, ko'p o'tmay otasi bir kuni to'satdan o'lib qoldi. Bug'rohojidan qarz ko'tarib otasini ko'mishdi, ta'ziyasini o'tkazishdi. Otadan yetim qolgan sho'rpeshana bola onasi bilan shaharning chekkasidagi bog'dor tog'asining hovlisiga ko'chib bordi. Tog'asi yozda bog'iga ko'chib chiqardi.

Qarindoshlarining maslahati bilan Temirtoshni Abdumajid usta degan uzangisozga shogirdlikka berishdi. Abdumajid ustaning olov do'konida ikki xalfa, ikki-uch shogird ishlardi. Uch-to'rt oy xizmatkorlik qilib yurgandan keyin Temirtosh damgarlik qildi. Bir yil o'tgach, olov yonida turib bosqon bilan qizigan temirni ura boshladи. Shundan so'ng ustadan haftasiga besh-olti yarmoq oladigan bo'ldi. Payshanba kuni kechqurun tog'asinikiga onasini ko'rgani borar, juma kuni dam olib, shanba kuni tongotarda yana ustaniqiga qaytardi. Faqat onasi oldidagina u o'zini baxtli sezardi.

Tog'asinikiga kelgan kuni kechqurun bog'dagi supacha-da yotar, hammadan erta turib, qushlarning sayrashiga qu-loq solardi. Juma kuni o'zi singari yalangoyoq, juldurvoqi qo'shni bolalarni ergashtirib, keng dalaga olib chiqar, ular bilan o'q otishardi. Yoshi o'n olti-o'n yettiga kirganda ham, qo'shnilarining masxara qilishiga qaramay, o'q otib mashq qilishini qo'ymasdi. Shu yaqin orada bog'i bo'lgan Qulnazar yuzboshi uni ko'rib yurardi. U Temirtoshning otga, o'q otishga ishqibozligini bilib, uni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Bir kuni Temirtoshni dalada uchratib:

- Bir sarkardaga navkar kerak, borurmisan, - deb so'rab qoldi.

– Jonim birlan, – deb javob qildi Temirtosh o'ylab-netib o'tirmay.

U qattiqqo'l ustanning qo'lida ishlab, o'z mehnati birlan uni boyitishni istamasdi. Ammo o'z boshiga olov do'konii ochish uchun unda na uy, na mablag' bor edi!

Qulnazarxo'ja bilan uchrashgandan keyin Temirtoshning hayoti boshqa izga tushib ketdi.

III

O'tror shahri XII va XIII asr boshida O'rta Osiyoning sharqi-shimol chegarasidagi eng yirik shaharlardan biri edi. Shahardan to'rt-besh chaqirim nariroqda Sirdaryoga quyiladigan Ars suvi O'tror vohasini sug'orib, gullatgan edi. Bu viloyatda yashovchi mehnatkash va jafokash xalq Arsdan anhorlar chiqarib, biydek dashtni bog'-bo'stonga, bug'doyzorlarga aylantirgan edi. Sharq tomondan bu obod yerlarga ko'chmanchilar bostirib kelganda dehqonlar omochni tashlab, qo'llariga qilich olar, Movarounnahrni, ya'ni Sirdaryo bilan Amudaryo o'rtasidagi jannatdek o'lkani ko'ksilari bilan to'sib, bosqinchilarni uloqtirib tashlashardi. O'tror Movarounnahrning qalqoni edi. Hatto XIII asr boshlarida bostirib kelgan qoraxitoylar ham uzoq janglardan keyin uloqtirib tashlandi. Shundan so'ng yana O'tror shahri orqali Sharqiy Turkistonga katta savdogarlar karvoni o'ta boshladi.

O'tror buyuk savdo va hunarmandchilik markazi. Shaharga yaqinlashgan kishi darvozalardan kirib-chiqib turgan karvon tuyalarining jangir-junguri, bo'kirishi, bozorlarning g'ovuri, miskarlik, temirchilik, chilangularlik rastalarining taraqa-turug'ini eshitar, shahar madrasalarining oftobda jimjima qilgan peshtoqlarini ko'rib, ko'zi qamashar edi.

Gir atrofi qo'rg'on bilan o'ralgan O'tror shahrining o'rtaida, sahni o'n uch-o'n to'rt botmon keladigan to'rt burchakli baland tepa ustiga qal'a qurilgandi. Bu ichki qal'a xom g'isht devor bilan o'ralgan bo'lib, unga uch darvoza dan kirlardi. Qal'a devorlari ich tomondan uncha baland bo'lmasa ham, tashqi tomondan balandligi qariyb yigir-

ma-yigirma besh gaz kelardi. Qal'aning to'rt burchagiga baland minoralar qurilgan bo'lib, shinaklaridan tevarak-at-rofni o'qqa tutish oson edi. Bu yerda amaldorlar, sarkardalar, askarlar turishardi.

Inolchiq Xitoydan qaytib kelayotgan Xorazm elchisi Bahouddin Roziy sharafiga ziyofat bermoqda. Ichki qal'aning o'rtasiga qurilgan to'rt ustunli sernaqsh xona ziyofat uchun hozirlangan, devor taglariga shohi ko'rpa chalar solingan, dasturxonlar yozilgan. To'r tomondagi zarbof to'shakda Inolchiq bilan elchi, so'l tomonda sarkardalar, o'ng tomonda elchingining ikkita yordamchisi, devon boshlig'i Badriddinxo'ja, shahar qozisi, amaldorlar, savdogarlar o'tirishardi. Mehmonlar bellarini mahkam tang'ib olgan ko'k sallali yosh ayoqchilar qo'lidan qadahni olib sharob ichib, kumush tovoqlarda ustma-ust keltirib turilgan qovurmalar, g'oz, o'rdak kaboblarni tamaddi qilishardi. Hammalarining betlari qizarib, ko'zlar chaqnagan, lablari iljayadi.

Bugun Qulnazar yuzboshi qo'l ostidagi bo'linma saroya navbatchilik qiladi. Ziyofatda eng quyidagi o'rniklardan birini ishg'ol qilgan yuzboshi o'qtin-o'qtin tashqari chiqib, joy-joylarga qo'yilgan soqchilarini tekshirib keladi.

Jo'ngina matodan yangi tugmador kiygan Temirtosh ziyo fat bo'layotgan xona eshigi yonida qotib turadi. U ko'z o'ngida bo'layotgan hamma narsalarga beparvoday ko'rinsa ham, uning miyasini shu mahalgacha aqliga kelmagan fikrlar kovlaydi: „Shu yerda o'tirgan o'n chog'li zarbof chonli mehmonning ko'ngilxushligi uchun yuztacha odam ovora. Oshpazlar, xizmatkorlar, bakovullar, ayoqchilar bu yeb-ichayotgan bir necha odamga xizmat qilib ulgura olmaydi. Mana, bakovul ichiga qiyma tiqilgan kakliklarni olib o'tyapti. Bay-bay, muncha hidi yaxshi-ya, – deb o'yaydi u, og'zining suvi kelib. Navbatchilikka turishdan oldin u serqatiq go'ja ichib, qornini to'yg'azib olgan bo'lsa-da, buxorolik oshpaz Abulmakorim pishirgan ovqatlarga ko'ngli sust ketadi. – Ana tandir kabob. Muncha ovqatni ko'p yeyishmasa. Shuncha ovqat bilan bir mahalla kosibni to'yg'izish mumkin. Bularning qorni meshmi, nima balo? Shunday fikrlar xayolidan o'tarkan, uning ikki qulog'i suh-

batda edi. Barvasta, cho'zinchoq yuzi cho'l shamolidan qorayib ketgan elchi ajoyib-g'aroyib voqealardan hikoya qilardi.

Bahouddin Roziy Xitoya yetib borganda Pekin shah-rini Chingizzon bosib olgan ekan¹. Elchi Pekin shahar darvozasi oldida tog'dek uyilib yotgan o'liklarni ko'ribdi. Sasib-bijib ketgan murdalarni ko'mishga odam yo'q. Chingizzon poytaxt hunarmandlari – kosiblari, ustalarini tirik qoldirib, boshqa barcha aholini qilichdan o'tkazgan ekan. Shahar maydonlarida ustma-ust uyilgan qonli, yalang'och xotinlar, bolalarning mурdalari dahshatli manzara kasb etarkan. Shahar sasib ketgan, turli yuqumli xastaliklar tarqal-gan ekan. Shaharni bosib olgan mo'g'ullar ham vabodan qirilayotgan ekanlar. Ammo elchi ziyofat vaqtida bunday narsalar to'g'risida gapirishni noo'rin deb bildi. Elchilik la-vozimi hozir ko'pchilik ichida Chingizzonning qabih ishla-ri to'g'risida gapirishga yo'l qo'ymas edi. Shuning uchun u bu gap o'mniga qoon²ning ziyofatlari, saroy oldida bo'lgan mushakbozlik, xitoy raqqosalari to'g'risida hikoya qila ketdi.

Xushbo'y musallaslar sipqaraverib quloqlari qizib qol-gan sarkardalardan biri miyig'ida kulib, dedi:

– Chin-Mochinning qizlari ko'rqli bo'ladur, deb eshitamiz, rostmi?

– Ha, ko'rqli va iffatli bo'ladurlar, – deb gapida davom etdi elchi. – Mo'g'ullar shaharga bostirib kirganlarida xitoy qizlari mo'g'ul yigitlari ilkiga tushmaslik uchun yonib turgan uylar ichiga o'zlarini urchanlarini, nomuslarini saqlamoq uchun o'zlarini o'tga tashlaganlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. – Elchi dahshatli voqealarni gapirdi-yu, tilini tishlab qoldi. U ko'rgan-kechirgan voqealarga o'zining mu-nosabatini bunday ravshan ifoda etib, xitoylarga xayrixohligini bildirib qo'yganidan pushaymon bo'ldi. „Me'yordan ko'proq ichib qo'ydim chog'i“, deb o'yladi u qovog'ini solib. Ayoqchi uzatgan qadahni olmay, boshi og'rib turgani ni bahona qilib, uzrini aytdi. Shu paytda quyida o'tirgan

¹ 1215-yili.

² Xoqon, ya'ni Chingizzon.

mashshoqlar mungli bir kuyni chalib yubordilar. Hamma jimb qoldi.

Ziyofat tugab, mehmonlar tarqalgandan keyin, elchi Inolchiq bilan yolg'iz qolib, uzoq gaplashdi. U Chingizzxon va mo'g'ul qo'shini to'g'risida batafsil ma'lumot berib, ko'r-gan dahshatli voqealarini birma-bir hikoya qilib berdi.

Ertasi kuni hokim amaldorlar bilan elchini shahar tash-qarisigacha kuzatib qo'ydi. Bahouddin Roziy yuzlarcha tu-yaga mollarni ortgan xorazmlik, sharqiy turkistonlik sav-dogarlar hamrohligida Gurganjga yo'l oldi.

IV

Chingizzxonning elchisi Mahmud Yolvoch Buxoroga ilk bahorda yetib keldi¹, chunki Xorazmshoh Muhammad shu yerda edi.

O'rta yoshli, qipchoqdan ko'ra turkmanga ko'proq o'xshagan Xorazmshoh Buxoro arkida, ziynatli, serustun salomxonaning to'ridagi sakkiz qirrali oltin taxt ustida viqor bilan o'tirganicha, ta'zim qilib turgan elchilardan hol-ahvol so'rardi. Soqoli qorakuyadek qop-qora Mahmud Yolvoch qora ko'zlarini sultonga tikib, o'ttada qo'l qovush-tirganicha turardi, yordamchilari savdogar Yusuf bilan Alixo'ja uning ikki tomonida ta'zim qilganlaricha qotib qolganlar.

– Safarlari bexatar bo'ldimi? Yo'lda ko'p mashaqqat chekmay yetib keldilarmi?

– Ming qatla shukurki, moy ostonalarig'a sog'-salomat yetib kelduk. Alalxusus, davlatningiz chegarasidin o'tganimidan so'ng safarimiz bemashaqqat, yo'l bexatar bo'ldi.

U Xorazmshoh oldida egasini topib olgan ovchi itday yaldoqlanar, shirin so'z bilan uni ilondek avramoqchi bo'lar edi.

Xorazmshoh Chingizzxon elchilari oldida o'zining ulug' davlat podshohi ekanini ko'rsatish uchun egniga og'ir zar chophonini kiyib, simobiylar sallasining peshanasiga o'n ikki misqolli olmos qadab, qo'llariga qo'sha-qo'sha yoqut ko'z-

¹ 1218-yili.

li tilla uzuklar taqib olgan. U kulimsirab elchi yordamchilarining ism va laqablarini, qayerlik ekanliklarini so'radi. Shohning so'l tomonidagi turgan sarkardalar, o'ng tomonidagi vazirlar, amaldorlar, din peshvolaridan ba'zilari elchi Yusufning o'trorlik, Alixo'janing buxorolik ekanini bilib tong qoldilar, ko'plarning yuzida nafrat va g'azab alomati paydo bo'ldi. Taxtning orqasida turgan saroy soqchilari boshlig'i Temur Malik g'ijinib: „Mahmud Yolvoch xorazmlik, anovi o'trorlik, bunisi buxorolik. Shunday bo'la turib, begona podshoning xizmatiga kiribdurlar, bu ham ozlik qilganidek, uning elchisi bo'lib kelibdurlar, bu qandog' surbetlik!“ deb o'ylar va mushtini qisar edi. Bu yerda hozir bo'lganlarning ham xayoliga shu fikr kelgan edi. Elchilar ko'pchilikning kayfiyatini sezgandek, qizarib yerga qarab ta'zim qilib turishar edi.

Mahmud Yolvoch Chingizzonning yorlig'ini sultonning o'z qo'liga topshirgandan keyin sukut qilib turdi. Sultan marhamat qilib, o'ng qo'lini uning yelkasiga tegizib qo'ydi, elchi esa orqasi bilan yurib, joyiga borib turdi.

Saroy bitikchisi – belbog'iga qalamdon qistirgan, ko'k sulla o'ragan yigit Chingizzonning fors tilida yozdirgan yorlig'ini o'qib eshittirdi. Yorliqda mo'g'ul qooni Xorazmshohni o'g'lim deb atagan va Mo'g'uliston bilan Turkiston mamlakati o'rtasida do'stlik munosabati o'matishni, savdo-sotiq bitimi tuzishni taklif qilgan edi. Qoon sultonni o'g'lim deb atagani uchun ko'plarning jahli chiqdi, shohning ham rangi o'chib ketdi.

Yorliq o'qilgandan so'ng saroy vaziri Chingizzonning yuborgan sovg'alarini e'lon qildi. Bu vaqtda sultonning oldidan qoon yuborgan sovg'alarmi – tuya junidan to'qilgan jo'ra-jo'ra qimmatbaho matolar, Xitoy shoyisi, yosh kiyik muguzlari, bog'lam-bog'lam savsar terilar, noyob yashil rang yada toshi va boshqa narsalarni olib o'ta boshladilar. Eng oxirida to'rt barzangi yigit tuya bo'ynidek keladigan tillani olib o'tganlarida, hamma qoonning saxiyligiga hayron qoldi. „O'g'lim“, deb atag'ani uchun jahli chiqqan sulton ham buni ko'rib, jahlidan tushdi.

Qabul marosimi tugagach, elchilar sharafiga katta ziyo-fat berildi.

Kechasi sulton Chingizzonning bosh elchisi Mahmud Yolvochni huzuriga taklif qildi. Tun qorong'isida maxfiy suratda chaqirtirilganidan xavotir olgan elchi rangi o'ch-gan holda saroy vaziri orqasidan ergashib, shohning „huj-rayi xosi“ eshigi oldida to'xtadi-da, nafasini rostladi. Oltin eshik oldida sultonning shaxsiy mulozими Qoracha Hojib elchidan ko'zini uzmay qaqqayib turar edi. Birozdan keyin vazir hujradan chiqdi-da, elchining qo'lidan ushlab, ichkari olib kirdi. Zar to'shak ustida o'tirgan sulton biroz qimirlab qo'yib, o'z yonidan joy ko'rsatdi. Sultan bilan bir to'shakda o'tirish har bir elchiga tuyassar bo'lmaydigan ehtirom edi.

Elchi tiz cho'kib, chap qo'li bilan shoyi to'nining etaklarini tizzasi ostiga qistirib qo'ydi. Gir atrofi qop-qora jingalak soqol bilan o'ralgan yuzi za'farondek sarg'ayib, qalin lablari dir-dir titrardi.

Sulton muloyimlik bilan bola-chaqasining sog'lig'i, savdo-sotiq ishlari qanday borayotganini surishtirdi. Elchi tinchlanib javob berdi.

– Ming qatla shukur, hammalari soyavi davlatingizda eson-omon yuribdurlar, ishlarim, alhamdulillo, kundan kun rivoj topmoqda...

– Durust, durust. Sizni o'zimizga yaqin olib, suhbatlashgim kelib edi, – dedi sulton tomog'ining osti qirilgan yumshoq chanbar soqolini silab. – Har qalay, siz o'z odamimizdursiz. Shul yerda tug'ilib o'sgansiz. Taqdir taqozosi birla do'stimiz Chingizzondin elchi bo'lib kelibdursiz, ammo bilurmenkim, musulmon bo'lg'oningiz sababli ko'nglingiz bizga moyil. O'zingiz ul yerda, ammo dilingiz bul yerda...

– Oriy, rost aytadurlar, – dedi pul uchun, mol-dunyo uchun dinini ham, elini ham qoonga allaqachon sotib yuborgan elchi tilyog'lamalik qilib. – Ko'nglim sizga moyil bo'lmay, kimga moyil bo'lsun. Axir, shuhrating'iz olamni tutgan. Butun Turon-u Eron, Hind-Afg'on, Sharqiylariston sizga tobe, xalqlari soyavi davlatingizda baxtiyor, poyqadamingiz tekkan yer saodat nuri birla munavvar. Siz-

dek shoh uchun xizmat qilmoq har kimarsa uchun baxt-sa-
dat...

Sulton elchining xushomad bilan aytgan tumtaroqli
so'zlariga qulq solib erib ketdi. U tabassumini yashirol-
may, ichi barqut bilan sirilgan qutichalardagi gavhar, za-
barjad, yoqut toshlarini elchi oldiga surib qo'ydi.

– Podsholarning in'omini qabul aylamoq farzdur, – dedi
ko'zları chaqnab ketgan elchi. U gavharni ko'zi bilan cha-
malab: „To'rt-besh misqol kelar“, deb o'yladi.

Sulton gapni aylantirib, Mahmud Yolvochni mo'g'ul
qo'shini to'g'risida maxfiy ma'lumotlar yuborib turishga
ko'ndirmoqchi bo'ldi. Mahmud ikkilangan kishidek, biroz
sukut qilib, yerga qarab qoldi. Holbuki, u ikkilanib o'tirmay,
dadil ish qiladigan odam edi. Shu topda u Chingizxonning
ilonnikidek hech pirpiramaydigan, odamga tik qaraydigan
ayyorona targ'il ko'zini ko'rgandek bo'ldi, uning: „Hoy,
Mahmud, sen sulton nima desa xo'p deyaver, jouslikni
taklif etsa – qabul qilaver, qo'rhma“, degan so'zlarini eshit-
ganday bo'ldi. Chingiz mo'g'ul qo'shini to'g'risida qan-
day ma'lumot berishni, ya'ni ustalik bilan Xorazmshohni
chalg'itishni ham o'rgatgan, kaltabin sultonning elchini
josus qilib-olish niyatiga tushishini nazarda tutib, tegishli
choralar ko'rib qo'ygan edi.

– Sizdek ulug' podsho menga xizmat taklif etadurlar-u,
men yo'q deymanmu, xizmat kamari belimda, sadoqat nuri
dilimda, ne amringiz bo'lsa, buyuravering, – dedi Mahmud
qat'iy ohangda.

Sulton qars urgan edi, belbog'iga qalamdon, qo'ltig'iga
naqshli charm juzdon qistirgan yosh bitikchi ta'zim qilib
kirdi-da, ostona oldida o'tirdi. U Yolvochning mo'g'ul as-
karlarining soni, joylashgan yerlari to'g'risida aytgan gap-
larini yozib oldi...

Oradan bir hafta o'tgach, Yolvoch sulton bilan savdo
bitimi tuzib, Mo'g'uliston sari yo'l oldi. U Xorazmshohdek
podshoni aldab, qoon uchun Xorazm davlatining ichki ishlari
to'g'risida qimmatbaho ma'lumotlar olib, eson-omon
ketayotganidan xursand edi. Xorazm va Buxoro savdogar-
lari, amaldorlari o'rtasida muxlislari ko'p bo'lgan Yol-

voch saroydagi kelishmovchiliklar, mamlakatning ahvoli, qo'shin to'g'risida ko'p ma'lumot to'plagan edi.

Sulton juda ustalik bilan asb yurish qilgan satranjboz-dek xursand. Holbuki, Temur Malik, Shahobiddin Xivaqiy, Inolchiq singari oldinni ko'radigan arboblar sotqin Mahmud Yolvochni xoin sifatida jazolash o'rniغا sovg'a-salom-lar bilan jo'natalishidan norozi, tilyog'lama elchi sultonni laqillatib ketganini fahmlagan edilar. Yolg'iz sultonninggi-na bunga aqli yetmasdi.

V

Har tarafdan azon tovushi eshitilardi. O'tror shahridagi masjidi jome muazzini ketidan barcha mahallalarning so'filari chuvullashib, yo'g'on-ingichka ovoz bilan qavmlarni xufton namoziga da'vat eta boshladilar.

Osmonda charaqlagan katta-kichik, xira-yorug' yulduzlar boylarning uylarida yongan sham va qandillarga, kam-bag'allarning uyida miltillagan chiroqlarga o'xshardi.

Eldan burun xufton namoziga ketayotgan taqvodorlardan boshqa ko'chalarda hech zog' yo'q. Hamma yoq suv quygandek jimjit. Ammo kesak devorlarning orasiga berkingan chirildoqlar yuz ming yillardan beri takrorlab kelgan ashulalarini qichqirib kuylaydi.

Boshiga simobiylarga egniga banoras to'n kiygan bir otliq shaharning So'fi darvozasi yaqinidagi katta bir darvoza oldida egardan tushdi-da, jilovni o'z xizmatkoriga tutqazdi. Jikkakkina ko'sa chol xo'jasining oldiga tushib, shaharning narigi burchidan yugurib kelgan edi. U harsil-lab otning jilovidan ushlagan holda, yolini to'g'rilay bosh-ladi. Xo'jası esa katta mis halqani ushlab, taqillatmoqchi bo'lib turganda shu hovli yaqinidagi masjidning muazzini xunuk ovoz bilan azon ayta boshladi. Kishi darhol halqani qo'yib yuborib, darvoza yonidagi supachaga o'tirdi. So'fi azon aytib bo'lgandan keyin, gavhar toshli uzuk taqqan qo'lini ochib duo o'qidi-da, yuz-ko'zini siypadi, so'ngra o'r-nidan turib, darvozani uch marta qoqdi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas zanjirlarning shiqirlab tushgani eshitildi.

So'ngra darvozaning so'l tavaqasidagi kichkina eshik g'i-jirlab ochildi. Qiyofasidan shu qo'raning xizmatkori ekanib bilinib turgan bir chol fonusni boshi baravar ko'tardi. Ichi-ga bir yarmoqli sham yoqilgan fonusning xira sarg'ish nuri o'rta yoshli mehmonning yo'g'on va savlatli gavdasini, lunji osilgan qip-qizil yuzi, quyuq qoshlarini yoritdi. Xizmatkor uni tanib, darhol orqasiga bir qadam tashladi-yu, rangi o'chib ta'zim qildi:

- Kelsinlar, taqsirim, kelsinlar.
- Xo'jang uydami? – dedi mehmon.
- Uydalar.

Mehmon o'z xizmatkoriga javob berib yubordi-da, boshini engashtirib kichik eshikdan ichkari kirdi. Ro'paradagi mehmonxona darchalaridan hovli sahniga yorug' tushib turardi. Mehmonxonada – darcha yonidagi pastakkina xontaxta yonida yuzi yumaloq, soch-soqoli oqargan, mo'ylovi va qoshlari qora bir chol ingichka, uzun daftarchaga allanarsalarni yozib o'tirardi. Beshta mum sham yoqilgan qandil mehmonxonani nurga g'arq qilgan edi.

Uy egasi hovliga tikilib qaradi. Mehmonxona tomon ke-layotgan ikki kishining qorasini ko'rib, xontaxta ustidagi daftar bilan qalam-dovotni yig'ishtirib, tokchaga qo'ydi. Shu payt mehmon dahlizga kirib, baland poshnali sag'ri kavushini yechdi. Eshik oldida o'zini qarshi olgan mezbon-ga ikki qo'lini berib ko'rishdi.

- Keling, Badriddinxo'ja, sog'-salomatgina yuribdursizmu?
- Ming qatla shukur, o'zlari bardammilar? Assalomu alaykum! Qutluqqadamdin xat kelib turadurmu? Otamurodjon eson-omonmu?

Xushomadgo'y mehmon Bug'rohojining o'g'illari, nevaralarining sog'-salomatligini qayta-qayta so'rardi. Shunday yo'g'on, barvasta kishining ingichka ovoz bilan gapirishi juda g'alati tuyulardi.

Mehmon bilan mezbon mehmonxonaga kirib, to'rga solingan ko'rpachaga o'tirishdi-da, yuzlariga fotiha tortishdi, yana hol-ahvol so'rashishdi. Bu vaqtda xizmatkor chol darhol dasturxon yozib, dahlizdan yasog'liq barkash olib kirdi.

Sirtiga turli afsonaviy qush va hayvonlarning suratlari solingan chinni ko'ralar, idish-oyoqlar, Samarqand ustalari gul solib ishlagan mis ko'zalar, barkashlar tokchalarga tizilgan, anordek qip-qizil turkman gilamlari oyoq ostiga to'shalgan, kashmir ustalari to'qigan harir pardalar darchalarga tutilgan. Tokchalar va piramonlarning zihlari ganchdan qabartma qilib ishlangan.

Bu xonadagi anjom va ashylar uy egasining turli mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilib turishidan darak berib turardi.

Bug'rohoji O'tror shahrining eng boy savdogarlaridan biri. Uning savdo karvonlari Suriya bilan Xitoy o'rtasida qatnab turadi. Gumashtalari Damashq po'lati, Iroq matolari, zeb-ziynat asboblari, billurdan yasalgan idishlari, oynalarini Xitoy va Sharqiy Turkistonga, Xitoy ustalari to'qigan matolarni G'arbga oborib sotadi. Bug'rohoji yetmishga borib qolgan bo'lsa ham, ikki yuzi qip-qizil, o'zi tetik, ko'zlar o'ynab turadi. Ikki xotini bo'lgan bu chol sharm-hayoni unutib, yaqinginada yosh bir qizga uylandi.

Yoshi o'ttiz beshlarga borib qolgan qora soqol mehmon – Badriddin binni Tojiddin Inolchiqning ma'muriy ishlar bo'yicha yordamchisi edi. Shundoq ulug' martaba egasi bo'lgan bu odam boy oldida ikki bukilib ta'zim qilib o'tirar, savollariga kulib javob qilardi.

– Yana ne xabarlar bor? – deb so'radi mezbon iljayib.

– Xabarlar ko'p. Mahmud Yolvochdin so'ng qoon hazzatlari yana to'rt yuz ellik kishilik elchilar karvoni yuborayotgan ermishtilar. Janobingizning tag'oyivachchalari Umarxo'ja bosh elchi bo'lib kelayotgan emish.

– Qoon birla sulton nega muncha inoq bo'lib qoldi, a? Bir gap bormu? Go'yo mehribon aka-ukadek, bir-biriga in'om yuborib turadurlar.

– Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur, deb aytmiss ona tulki bolalariga shudgordag'i qopqonga qo'yilgan quyruqni ko'rsatib, – dedi Badriddinxo'ja ingichka ovoz bilan. – Qoonning sovg'alari baayni shudgordag'i quyruq kabidir. Sultonning onasi Turkon xotun aqli qisqa o'g'lini harchand ogohlantirsa dog'i, o'g'li qopqondagi quyruq sari intilmoqda...

– Qorchiq Turkon aqlli xotun, – dedi uy egasi suhbat-doshining so'zini og'zidan olib. – Yaxshiki sulton onasi ni davlat ishlaridan chetlashtirmish. Sultan saroyina nifoq kirdi. Bu ham bo'lsa siz birla bizning baxtimiz.

– Oriy, rost aytadurlar, xo'jam, – dedi mehmon yaltoq-lanib. – Qayu uyga nifoq kirsa, buzmog'uncha qo'ymas. Mo'g'ulistondin oqib kelayotgan sel shahar va qishloqlarni vayron, dalalarni payhon etaturg'on ko'rindur.

– Qo'rwmang, Badriddin, siz birla bizning qo'rg'onimiz shunday baland yerdaki, alarni hech qanday to'fon buzol-maydur.

Chetdan turib quloq solgan kishi ularning nima to'g'risida gaplashayotganlarini anglay olmas edi. Mehmon bilan mezbon oxirigacha aytilmagan qisqa bir gap, bir imo-ishora bilan bir-birlarini tushunib olar, bu ularning ko'pdan buyon do'st va fikrdosh ekanini ko'rsatardi.

Xo'ja Badriddinning otasi Tojiddin bir necha yil O'tror shahrining qozisi bo'lib kelgan nufuzli bir zot edi. O'troni qoraxitoylar bosib olganda, Tojiddin dushman tomoniga o'tib, ularga bajon-u dil xizmat qilgan edi. Sultan O'troni qaytib olganda, xiyonatchi qozining bo'yniga qilich urdir-di. Keyinchalik sulton shahar savdogarlari va shariat pesh-volarining ko'ngli uchun sobiq qozining o'g'li Badriddinni sohibi devon qilib belgiladi. Sultan Badriddinning boshini silab, unga ko'p yaxshiliklar qildi, biroq qozivachchaning qori ketsa ham muzi ketmas, ko'nglida kek saqlab yurardi. U bilan har safar uchrashganda yuragida bitib qolay degan yarani Bug'rohoji yangilar, uni qasos olishga undar edi.

– Sultan Muhammadning davlati bamisoli ustunlari chirigan ko'hna bir imorat turur. Bul imoratning tezroq qulag'ani yaxshi. Tuzalmay turgan bemorning o'lgani – uy ichidagilarning tingani yaxshi, – dedi Bug'rohoji tishlarini g'ijirlatib. – Sultan xuddi tog' ustindagi torgina so'qmoq-dan ketayotgan kishiga o'xshaydur. Qo'lidagi lo'ttibozlik langari jonini saqlab keladur.

Darhaqiqat, Xorazmshohning davlat kemasini qurt yeb, chiritib qo'ygan edi. Sultan qipchoq oqsuyaklari bilan turk-

man beklari o'rtasidagi nizo olovini so'ndirish o'rniغا, unga moy sepib, gurullatib yuborardi. Goh ota urug'i bo'lган turkmanlarga yon bosib, o'zini ularga xayrixoh qilib ko'r-satar, goh ona urug'i – qipchoqlar tomoniga o'tib ketardi. Bu siyosat turkman beklari bilan qipchoq xonlari o'rtasida-gi ziddiyatni borgan sari kuchaytirar, sulton bu nizolardan foydalanib, o'z hukmronligini mustahkamlamoqchi bo'lar-di. Sultonning onasi Turkon xotun esa Dashti Qipchoqdan o'z qarindoshlarini chaqirib, ularga mansablar berar, turk-manlarni chetlashtirishga urinardi.

Xo'ja Badriddin saroy nizolari haqida Bug'rohojiga batafsil gapirib berdi-da, so'zining oxirida:

– Inolchiq Yolvochning sovg'a-salomlar bilan qaytarib yuborilganini eshitib bisyor xafa bo'ldi, agar men sulton o'rnida bo'lsam, bu jousuning bo'yniga qilich urdirardim, deganini o'z qulog'im birla eshitdim, – dedi.

Bug'rohoji bu gapni eshitib, o'ylanqirab qoldi. Ichida: „Umarxo'ja boshliq bo'lib kelayotgan elchilar karvonining taqdiri nima bo'ladi? – deb o'yladi. – Agar ixtiyor Inolchiq-ning qo'lida bo'lsa, elchilarni omon qoldirmaydi, ammo sulton bunga yo'l qo'ymas. Qadimdan „elchiga o'lim yo'q“, degan gap bor-ku. Hech kim shu mahalgacha elchining jo-niga qasd qilgan emas“.

Uy egasi bu sertashvish fikrlardan o'zini chalg'itish uchun gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

– Taxmin etaylikkim, sulton butun askarlarini bir yerga to'pladi va Inolchiq kabi bir kimarsani alarga bosh qilib qo'ysi, ul taqdirda Chingizxonni mag'lub etmagi mumkin-mi?

– Albatta. Sultonda askar ko'p. Ammo, baxtimizga, sulton butun cherikni bir yerga to'plag'oni qo'rquadur. „To'plasam, qipchoqlar meni taxtdan tushirib, o'rning'a Qutbid-dinni o'tirg'izadurlar“, deb o'laydur. Lashkarini bir yerga to'plamoqqa biz ham yo'l qo'yamaymiz, – shuni deb Badriddin qo'ynidan to'rt buklab taxlangan bir qog'oz chiqardi-da, mezbonga uzatdi. Bug'rohoji xatni yorug'ga solib o'qiy boshladi:

„Ulug‘ qoon, Mo‘g‘uliston va Chin-Mochinning buyuk hukmdori Chingizxon hazratlariga salomi benihoya-din so‘ng bandalari Inolchiq va Temur Malik bosh urib arz qilamizkim, podshohimiz sulton Muhammadning kosib, dehqon va alaxsusus tijorat ahliga zulm-taaddisi kundan kun oshmoqda, shul sababdin barcha ulusni o‘ziga dushman qilib olmoqda. Bizlar ham bul zulm imoratini qulatib, siz kabi ulug‘ xonning taxti rayosatig‘a kirmoqqa ahd qildik. Agar lashkar tortib kelsalar, o‘z hukmimizdagi O‘tror va Xo‘jand qal’alarining darvozalarini ochib bermoqqa tay-yormiz...“

Uy egasi bu nomani o‘qidi-da, hayron bo‘lib, savol nazar bilan Badriddinga qaradi.

– Bul maktubni izohsiz anglab bo‘lmaydur, – dedi mehmon kulimsirab va suhbatdoshining savolini kutmay, tushuntira ketdi. – Buni ko‘chirtirub va ostig‘a Inolchiq va Temur Malik muhrini bosib, o‘z nomimdin yozilg‘on maktub birla qoon janoblarig‘a yubortirurmen...

Uy egasi ustalik bilan yozilgan bu qalbaki hujjatni qo‘li-da aylantirib kulib yubordi:

– Ofarin, siz ulug‘ podsholarg‘a vazirlikka munosib a‘yon ekansiz, ofarin¹.

O‘tror shahridagi fitnachilarining boshliqlari bo‘lgan bu ikki zot yarim kechagacha o‘tirib, uzoq suhbat qilishdi.

VI

So‘fi darvozasidan kirayotgan qator-qator tuyalarning bo‘kirishi, miskarlar, temirchilarining taraqa-turuqi, bozor ahlining g‘ovuri bir-biriga qo‘silib, quloqlarni qomatga keltirardi. Darvozadan birvarakayiga besh yuz tuya, savdogarlar, elchilar, tuyakashlar bo‘lib to‘rt yuz elliq kishi o‘tdi. Eng so‘nggi nortuyaning bo‘yniga osilgan katta qo‘ng‘iroq-

¹ „Turkon xotunning qarindoshlari bo‘lgan sarkardalarg‘a nisbatan sultonda ishonchsizlik tug‘dirish uchun Chingizxon o‘trorlik Badriddinining maslahatidan foydalandi. Bu sarkardalar nomidan Chingizxonga maktub yozilib, maxfiy ravishda sultonning qo‘liga topshirildi...“ Hamdullo Qazviniy (*Tarixi guzida*).

ning darang-durungi Chingizzon elchilarining yetib kelgani
nini hammaga e'lon qilar edi.

Ulgurji, chakana savdogarlar, attorlar, bazzozlar, mo'yado'zlar karvon kelib tushgan saroylar atrofida uymalashib qoldilar, chunki Xitoydan kelgan savdogarlarda ular uchun kerakli mollar topilardi.

Odatda, Xitoydan, Sharqiy Turkistondan Rumga va Russa boradigan sardogarlar O'trorda to'xtab, yo'l xarji uchun mollarining bir qismini sotib ketar edilar. Bunday vaqtarda attorlar doriga ishlatiladigan jenshen va ichidagi qoni qotmagan yosh kiyik muguzi, mushk-upor; mo'ynado'zlar esa savsar, tulki terisi; bazzozlar – ipak jujun, tovar; zargarlar – oltin, kumush xarid qilar edilar. Karvonsaroylarda niyati buzuq, shubhali odamlar ham pashshaxo'rda bo'lardi. Savdogarlar bir joydan ikkinchi joyga yolg'iz foydali mollar emas, turli mish-mish xabarlarni ham olib kelishardi.

Kechqurun, usti yopiq rastalarda harakat to'xtab, shahar suv quygandek jimjit bo'lib qolgan paytda Inolchiq o'zining mehmonxonasida pakanagina, qorni katta, mittiko'z bir odam bilan qarama-qarshi o'tirardi. Bu kishi bazzozlar rastasining oqsoqoli bo'lib, uning har tabaqa kishilardan oshna-og'aynilari bor, shahardagi hamma voqealardan xabardor edi. Hozir u Inolchiqning mo'gul elchilari va savdogarlari to'g'risida bergen savollariga hazil aralash javob qaytarardi.

– Ha, ko'plari shu yerlik savdogarlar... Namuna uchun bir xitoyni ham ergashtirib kelibdurlar. A? To'rt yuz ellik kishi... go'yo shaharni jang-u jadalsiz ishg'ol qildilar.

Bazzozning bu gapi Inolchiqqa yoqmadi shekilli, peshanasini tirishtirib savdogarlar keltirgan mollarning xilini, son-sanog'ini surishtirdi. Bir kun ichida talay ma'lumot to'plagan bu bitko'z odam o'zining aniq javoblari bilan hokimni qanoatlantirdi. Gapining oxirida bazzoz:

– Alar bu yerda ba'zi bir mollarini sotib, evaziga ba'zi ma'lumotlarni olib ketmoqdalar chog'i, – dedi kulimsirab.

– A? Qanday ma'lumotlar?

– Chunonchi, masalan, O'tror qal'asidagi askarlarning soni, shu yerlik savdogarlarning kayfiyati haqidagi ma'lumotlar va hokazo.

– Hah-ha! Tag'in nimalarni so'rab-surishtirayotirlar?

– Ko'p nimarsalarni. Savdogarlar orasida menin Faxriddin otlig' buxorolik oshnam ham bor. Ul, kosib va bozor ahliga Inolchiq tomg'a soldimi, xalq bundin rozimi-norozimi, deb ko'p surishtirdi. Mening o'tgan hafta Binokent borib kelganimni bilib, ul qal'aning mustahkamligi, askar ahvolotini bilmoqchi bo'ldi...

Inolchiqning rangi oqarib, mushtlari qisildi. Buni ko'rib bazzozning kapalagi uchib ketdi.

– Amin bo'lingkim, menin bergan javoblarim davlatimizga zarracha ham zarar yetkazmaydur, zeroiki...

– Men sizni yaxshi bilurmen. Bul xususda xavotir olmang. Siz aqli va sadoqatli odamsiz. Xo'sh, boshqa savdogarlar-chi?

– Boshqalari ham karvonsaroya kelgan allaqanday shuhbali kishilar birla pichir-pichir qilib turgaqlarini ko'rdim.

Inolchiq o'midan turib ketdi-da, tishlarini g'ijirlatib, uyoqdan bu yoqqa yura boshladi. Mehmon ham o'rnidan turib, qo'l qovushtirganicha qotib qoldi.

– Hozircha sizga javob, bergan ma'lumotlaringiz uchun rahmat, – dedi uy egasi o'zini bosib olib.

Bazzoz chiqib ketgandan keyin Inolchiq tashqariga chiqib, boshyalang holda hovlida aylana boshladi. Mohir sarkarda, jasur va irodali jangchi bo'lgan Inolchiqda davlat arbobiga yarashmaydigan qiziqqonlik, sabrsizlik xislati bor edi. U hozir ham shoshib-pishib o'zicha bir qarorga keldi-yu, qal'adagi sardorlarni o'z oldiga chaqirtirdi...

* * *

– To'rt ustunli, devorlariga ov va urush manzaralari solingen salomxonada yetti savdogar – Chingizxonning elchilari shahar hokimining chiqishini sabrsizlik bilan kutar edilar. Ularning orasida boshiga uchi ingichka taq-ya qo'ndirgan bir mo'gul ham bor edi. Egnidagi shoyi cho-

pon tagidan sassiq hid anqirdi (oqar suvgaga tushib yuvinish mo'g'ullar dinida man etilgan). Yuvinib-taranib yurishni yaxshi ko'radigan boy savdogarlar badbo'y hiddan ko'ngilari ag'darilib, zo'rg'a chidab turardilar.

Buyuk elchi Umarxo'ja O'troriy tizzasi ustiga Chingizxon tomonidan berilgan oltin taxtakachni qo'yib, devonda o'tirardi. Bu oltin taxtakach uning oliv mansab egasi ekanligini ko'rsatar, Chingizning qo'li yetgan joyda elchining daxlsizligini ta'min etardi. Uning o'ng tomonida Faxriddin Buxoriy, chap tomonida Najmuddin Dehlaviy, Miragi, Aminiddin Xiraviy gerdayishib o'tirishardi. Oradan bir soat o'tgandan so'ng yoqasiga va etagiga kumush uqa tutilgan, tillado'zi chopon kiygan, simobiyligiga sallasiga ikki misqolli olmos qadalgan hokim o'zining bek va amadorlari qurshovida tantana bilan asta yurib, salomxonaga kirib keldi. Uning belidagi tilla kamariga kumush qinli, oltin sopli Isfahon qilichi taqilgandi. O'sha vaqtning odatiga muvofiq podsho va hokimlar ajnabiyligini mamlakatlardan kelgan elchilar oldiga eng qimmatbaho liboslar kiyib chiqib, boyliklarini ko'z-ko'z qilar, shu bilan dushman elchilari oldida o'zlarining buyuk, qudratli davlatning vakili ekanini ko'rsatmoqchi bo'lar edilar. Inolchiq ham dushmani deb bilgan qoon elchilari oldida o'zini yerga urmaslikka harakat qilgan, o'ng va so'lidagi amaldor va beklar ham shohona liboslarda edilar.

Hokimning qoshlari chimirilgan, qiyofasi jiddiy edi. Ikki bukilib ta'zim qilgan elchilarga u bosh qimirlatib javob qildi-da, asta yurib zarhal kursiga o'tirdi, biroq elchilarni o'tirishga taklif etmadi, odatga xilof ravishda Chingizzxonning sog'lig'ini ham so'ramadi, elchilarning aziyat chekmay yetib kelganliklari to'g'risida ham savol bermadi. Elchilar sarosimaga tushib, bir necha vaqtgacha lom-mim deyolmay, tayyorlab qo'ygan nutqlarini ham eslaridan chiqarib qo'ydilar. Nihoyat, Umarxo'ja o'zini tutib oldi-da, oqara boshlagan cho'qqi soqolini siypab, so'l ko'zini qisib, gap boshladidi:

– Mashriqning ulug' qooni Chingizzxon hazratlari Mag'rib podshohi sulton Muhammad Aloiddin hazratlariga o'z muhabbatlarini izhor aylamoq uchun biz faqir-u haqir-

larni elchi qilib yubordilar. Qoon hazratlaridin sulton janoblariga ko'pdan ko'p salom barobarinda behad shohona in'omlar olib bormoqdamiz. Qoon hazratlari sulton janoblarini o'g'il o'rnidida ko'radurlar va ul janobg'a do'stlik ilkini uzatadurlar...

Inolchiq Umarxo'janing tumtaroqli so'ziga qulog solarkan, safrosi qaynar, uni so'kib yuborishdan o'zini bazo'rtutib turardi.

Umarxo'jadan so'ng savdogar Najmuddin so'z boshladi:

– Qoon janoblari sizga ko'pdan ko'p salom bilan qimmatbaho sovg'alar ham yubordilar (shu payt uning mulozimi kattagina kimxob bo'xchani o'rtaga olib kelib qo'ydi). Inolchiq hazratlari sovg'amiz bilan bizning duoyi salomimizni ham qabul qilg'aylar, deb umid qilurmiz.

Chingizxonidan katta vakolat olgan bu elchilar o'zlarini haddan tashqari mag'rur tutar edilar. Inolchiqning rasmiy nomi G'oyirxon ekanini yaxshi bilgan Najmuddin uni atayin Inolchiq deb kamsitmoqchi bo'lgan edi. Hokimning ko'zları o'tday chaqnab, lunjida yong'oqdek bir narsa nari borib, beri kela boshladi.

– Xoqoni binni Xoqon Iskandari soniy-sulton Muhammad Xorazmshoh hazratlari (sultonning nomi tilga olin ganda, uning hurmati uchun beklar va amaldorlar o'rinalidan turib qo'l qovushtirdilar) qanday qilib majusiy Chingizzonning o'g'li bo'lsin, – dedi Inolchiq davlat arbobiga munosib bo'lмаган qiziqqonlik bilan. – Sultan Muhammad Aloiddin hazratlari yoshda Chingizdan kichik bo'lsalar dog'i davlatlari andin farovon, dastlari andin uzun, lashkari andin bisyorroq va kuchliroqdir (ranglari o'chib, qo'l qovushtirib turgan amaldorlar „shunday“ deganday bosh egib qo'ydilar). Bu bir, ikkilamchi, siz elchilar O'tror shahar hokimining unvonini bilmog'ingiz zarur erdi...

Najmuddin Dehlaviy uncha-muncha do'qdan qo'rqadi-gan odam emasdi. U nafasi ichiga tushib, dokadek oqarib ketgan Umarxo'jaga bir qarab qo'ydi-yu, qoonning obro'sini saqlash o'rniiga uning lom-mim demay qaqqayib turishi ni ko'rib, g'azabga keldi.

– Ulug‘ qoonni majusiy deb va Chingiz deb kamsitmoqqa qanday jur‘at qildingiz! – dedi u, tulkinining ko‘ziga o‘xshash sarg‘ish ko‘zlarini Inolchiqqa tikib. – Qoonning shuhrati ro‘yi zaminga yoyilg‘on, agar istasalar, ilklarining bir ishorasi bilan podsholarni taxti tojidan mahrum eta bilurlar.

Mag‘rur savdogarning bu gapi Inolchiqning qonini qaynatdi:

– Bachchag‘ar, tagi past, kimning huzurida turganining unutdingmi? O‘zing kimdursan? Kasb-koring savdogarlik – itning hunari! O‘taketgan beadablik qilding! Tiz bukib, oldimda tavba qil, itvachcha!..

Safrosi qaynab ketgan Inolchiqning og‘zidan poymapoy haqorat so‘zlarini otilib chiqar, nima deyayotganini o‘zi ham bilmas edi.

Savdogar ko‘zlarini suzib istehzo bilan kulimsirab qarab turardi. Ehtiyotkor Umarxo‘ja ish pachava bo‘lganini anglab, hokimni tinchitishga urinib ko‘rdi:

– G‘oyirxon janoblari, huzuri oliyingizda beadablik qilg‘on shergimizning gunohidan o‘ting. Alalxusus...

– Sen sotqin, so‘zga aralashmasang yaxshiroq bo‘lur edi,
– dedi Inolchiq battar tutaqib. – Sen o‘trorlik savdogarsen. Chingizdan elchi bo‘lib kelmoqqa qanday haqqing bor? Buxorolik Faxriddinning elchi bo‘lib kelmoqqa nima haqqi bor? Majusiy podsho xizmatiga kirib, endi o‘z vatandoshlaring yuziga oyoq qo‘yaturlan bo‘ldingmi? – Shunday deb yonida turgan mingboshi Qulnazarga qarab buyruq berdi: Yog‘iy¹ tomonina o‘tib, o‘z podshohina xiyonat qilg‘on bu joslarni darhol hibs etib, zindonga soling! Mol-mulkular esa xazina foydasiga musodara etilsin! Anovi mo‘g‘ulni qo‘yib yuboring!

Shu zahoti elchilar orqasida qurolli sipohilar paydo bo‘ldi.

– Qadimdin elchiga o‘lim yo‘q, degan maqol bor. Qayu mamlakat tarixida bu kabi hodisa sodir bo‘lg‘on? Biz elchilarni zindon solmoqqa haqqi-huquqingiz yo‘q.

– Joslarni! Qayu bet bilan o‘zingizni elchi deb ataysiz? Siz elchi emas, balki yov xizmatina kirgan sotqin va-

¹ Yog‘iy – dushman.

tandoshlarimizdursiz. Siz yanglig' xoinlarni vatandosh de-moqqa og' zim bormaydur.

Inolchiq shuni deb, savdogarlarni olib chiqib ketishni buyurdi:

– Bular bilan aytishib o'tirmoqqa fursatimiz yo'q, ko'zimdin yo'qoting manxus basharalarni!

– Inolchiq, o'z boshingga Ollohnning balosini chorlamoqdasen! – deb baqirdi Najmuddin sipohilar oldiga tushib, eshikdan chiqar ekan.

Beklar va amaldorlar boshlarini egib, juda tez ro'y ber-gan bu voqeanning qanday oqibatlarga olib borishi to'g'risi-da bosh qotirishar edi.

Qulnazarxo'ja mahbuslarni zindonchi qo'liga topshirib, uyiga qaytar ekan: „Eshitgan qulooqqa yomon, – deb o'yladi siyrak soqolini chimdib, quv ko'zlarini qisib, – elchilarni qamadi, deb yomonotliqqa qolaturgan bo'ldik. Albatta, alarni Xorazmga o'tkazib yuborsak, xato qilg'on bo'lur edik. Bu sotqinlar ko'p narsani bilib, Chingizzon uchun qimmatli ma'lumotlar olib ketgan bo'lur edilar. Lekin bu ishni ustalik bilan qilmoq kerak edi-da. Men Inolchiq o'r-nida bo'lsam, alarni Qizilqumda „qaroqchilar“ga talatar, boshlarini kestirar edim, so'ngra Chingizzondin afv so'rab, shu savdogarlardan o'lja tushirgan molning yarmini anga sovg'a qilib yuborar edim. Ammo Inolchiq quvlik-shumlikni, riyokorlikni bilmayturgan cho'rtkesar odam, askarchasiga harakat qiladur. Hay, attang, otilgan o'qni qaytarib bo'lmay-di-da! Ammo Chingizzon Mashriqdagi barcha katta-kichik o'lkalarni olib bo'lg'och, baribir bizga chovut soladur. Inolchiq Mag'rib sari kelayotgan yovvoyi mo'g'ul otiga bir qam-chi urdi-yu, uning yurishini tezlashtirdi, xolos“.

Qulnazardan boshqa hamma amaldor va askarboshilar ham uy-uylariga qaytayotganlarida xayollarini taxminan shunday qarama-qarshi fikrlar band qilgan edi.

VII

Ertasi kuni shahar hokimi Inolchiq Temirtoshni oldiga chaqirtirib, shunday dedi:

– Mana bul nomani Gurganjga zud eltgaysen va uni sulton hazratlarining o‘z ilkligiga bergaysen. Mana bu yorliq sening nomingga yozilg‘on. Yo‘lda kimga ko‘rsatsang, istagan narsangni berur. Inonurmankim, kerakli narsadin ortig‘ini olmaysen... Qulnazar senga yo‘l bilguvchi bir askar bergay. Bir soatdan so‘ng yo‘lda bo‘lasen!

– Bosh ustina, – dedi Temirtosh qisqagina qilib. U ortiqcha gapni yoqtirmasdi.

Bu vaqtida o‘nboshilik martabasiga erishgan Temirtosh yetilgan, gavdasi to‘lishgan, baquvvat yigit edi.

U endi to‘rt yil avvalgidek bo‘s-h-bayov Temirtosh emasdi. Ilgarigi tortinchoqligidan asar qolmagan. Inolchiq buyruq berarkan, uning ko‘zlariga tikka qarab, gapiga diqqat bilan quloq solib turardi.

Oradan bir soat o‘tar-o‘tmas Temirtosh chap yuzi chandiqli, bir ko‘zi ko‘r, badqovoq, kamgap bir askar hamrohligida yo‘lga chiqdi. O‘zi bilan ikki juft ko‘ylak-ishton, bir xalta qurut, bir xalta tolqon, suv uchun mesh olgan edi.

Yo‘l uzoq, safar xatarli. Oldinda suvsiz, bepoyon Qizilqum sahrosi, tashnalik balosi kutib yotadi. Biroq shunga qaramay, uning dimog‘i chog‘, yosh yuragi sevinchini ichiga sig‘dirolmaydi. U ot ustida silkinib, qamchisini o‘ynatib borayotib, xirgoyi qiladi, badqovoq hamrohining jahlini chiqaradi. U har qancha xursand bo‘lsa arziydi. Chunki uni bir oy ilgari hamsoyalari bo‘lgan bir kosib-bog‘dorning qiziga unashtirib qo‘yanlar. Hamsoyaning qaddi niholdek, yuzlari qirmizi olma, ko‘zlar charosdek chevar qizi Temirtoshga juda yoqadi.

O‘sha vaqtning odatiga ko‘ra, kuyov bo‘ladigan yigit qallig‘i bilan ko‘rishib yurardi. Yigit qizning yangasiga sovg‘alar olib, qorong‘i tushganda qallig‘ining uyiga borar, u bilan gaplashib o‘tirib, yarim kechada qaytar edi. Qizning ota-onasi o‘zlarini ko‘rmaslikka solib, yoshlarning suhbatlariga xalal bermas edilar.

Temirtosh ham qallig‘i Minglioyning yangasiga kecha ikkita iroqi sovun, upa-elik olib, yangi ro‘molchaga qand-qurs tugib, qosh qorayganda borgan edi.

Yanga uning qo'lidan tugunchani oldi-da, qiz bilan yigitni tashqaridagi hujrada yolg'iz qoldirib, ichkari kirib ketdi. Minglioy taxmondan ko'rpa cha olib, namat ustiga solar ekan:

– Nechun o'tgan kun kelmading? – dedi o'pka qilib.

– Qo'lim tegmadi. Chin-Mochindan kelgan „mehmonlar“ni kutish birla ovora edik. Emdi bir oygacha ko'risha olmaymiz.

– Nechun? – qizning yumaloq yuzidagi ginaxonlik alovati tashvish bilan almashindi.

– Gurganj ketayoturmen, – dedi yigit ko'rpa chaga o'tirib. So'ngra qaylig'ining qo'lidan tortib yoniga o'tirg'izdi.

– Bir bahona topib, bormay qo'ya qol-da.

– Bo'lmaydi. Hokimdan buyruq olg'onmen. Yo'q desam, xizmatdin bo'shatib yuborg'usidur. Hazil gapmi, har yili oshlig'imni berib turadur.

– Mayli... Oy borib omon qayt. Ammo yo'lida qizlarga qarama. Xorazm qizlari ko'rkli bo'ladur, deb eshitamen. Tog'i seni birortasi o'zina rom qilib olmag'ay. – Minglioy sochlari mayda o'rilgan boshini yigitning boshiga qo'yib yig'ladi.

– Yig'lama, sendin o'zgaga sevgi ko'zi-la boqsam, ko'zim teshilsin, – dedi Temirtosh qaylig'ining boshini silab.

Ular u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirib, vaqt yarim kecha bo'lib qolganini sezmay qolishdi. Bu vaqtda yarim kechada yurish taqiq qilingani uchun yigit yotib qolishga majbur bo'ldi. Yangasi chiqib ularga o'rin solib berdi-da, indamay ichkari kirib ketdi. Temirtosh yechinmay, o'zi bilan qaylig'i orasiga qilichini qo'yib, o'rniga yotdi. Sevgilisi shivirlab gapirganda, yuziga uning iliq nafasi kelib turarkan, o'zini behad baxtiyor his etardi. Biroq halol yigit bo'lganidan hali nikohiga kirmagan qallig'iga qo'l tegizishni nomardlik, nomussizlik deb bilardi.

U Minglioy bilan gaplashib yotib, saharga yaqin mizg'ib oldi. Tong otar-otmas o'g'ridek biqinib, qallig'inikidan chiqib ketdi.

Kechasi juda ham kam uxlagan bo'lsa-da, hozir o'zini qushdek yengil his etar, shodligini yuragiga sig'dirolmay xirgoyi qillardı:

*Qushlar sayrar, chechaklar kular,
Bodi sabo boshimni silar,
Sonduvochim, qayda bo'lsam-da,
Ko'nglim sen-la ovunmoq tilar.*

Shaftoli, uzum, nok, olma pishgan bog'-bo'stonlar ustida qaldirg'ochlar charx urib sayrardi, chetlariga tol, teraklar o'tqazilgan paykallar ustida, oltin boshoqlari osilgan bug'doyzorlar ustida kurkuldaqlar qurqullab parvoz qillardı.

Oqliqlar bog' ko'chalar, paykallar, bedazorlarni orqada qoldirib, Sirdaryo bo'yiga keldilar, daryo suvi kamaygan, qirg'oqlari ochilib qolgan edi. Ular kechik yer topib, daryordan ot suzdirib o'tishdi. Sirning narigi betidagi Chordara vohasi juda chiroyli manzara kasb etgan edi. Quyosh nuriiga cho'mgan ko'm-ko'k bedazorlar, oltin bug'doyzorlar ustida havo jimirlar edi. Ba'zan quyoshni to'sib, gala-gala chug'urchiqlar uchib o'tardi.

Temirtoshning ruhi yengil, kayfi chog'. Hatto uning bir ko'zli kamgap hamrohining ham chiroyi ochiq. Biroq qum sahrosiga kirishlari bilan kayflari o'zgara boshladı. Malla to'qli sahro ustida to'rg'aylar ipga osib qo'yilgandek, chirillab yig'lardi. Ot tuyoqlari ostidan qizil qanot chigirkalar uchib ketar, katta-katta kaltakesaklar qochib, saksovullarning xunuk tanasiga yopishib olardi.

Bu ko'ngilsiz manzara Temirtoshning musaffo yuragini xira qilar, xayolini qora fikrlar bulutiga chulg'ar edi. Bir mahal kun chiqish tomondan, chang-to'zon bilan xas-cho'pni chirpirak qilib, quyun bostirib kela boshladı. Yo'lovchilar quyun o'tib ketguncha yuzlarini berkitib, teskarri qarab turdilar. „Ildizi chirib qolgan sho'ra o'tlar, shuvuoqlarning osmonda o'ynashini qara, tomir otgan yantoq, bo'tako'z, isiriq yerni quchoqlab olib, jonini saqlab qolyapti“, deb o'yladi Temirtosh.

Yuz-ko'zlar, ust-boshlarini chang-to'zon bosgan yo'-lovchilar quyunlarni, kunduzgi garmsel, tungi ayozni pisand qilmay ketaverdilar. Ular yo'ldagi sho'r quduqlardan meshlarini to'ldirib olib, kecha-yu kunduz yo'l bosar, Gurganjga yetib olishga shoshilar edilar.

Oradan bir oy o'tgach, cho'l shamoli va oftobdan yuzi qorayib, ko'zlar kirtayib qolgan Temirtosh O'trorga Xorazmshohning javobini olib keldi. Sulton Inolchiqning fikrini to'g'ri topgan, sotqin savdogarlarning mollarini musodara qilib, o'zlarini qatl etishga rozilik bergen edi.

VIII

Ko'klam payti. Ikki kun bosim yog'gan yomg'ir va uning ketidan ko'ringan quyosh o'tlarning qulog'idan tortib chiqargan, hamma yoq ko'm-ko'k, bahor cho'lga bepoyon gulli yashil palos yozib tashlagan. Havoda qanotlarini piril latib to'rg'aylar sayraydi, qaldirg'ochlar o'qdek uchib yuradi, daryo bo'yidagi butalar orasida bulbullar fig'on qiladi.

Sirdaryo bo'yidagi xushmanzara yerga o'nlab o'tovlar qurilgan. Ba'zi o'tovlardan o'lan ovozi, ba'zilaridan gurung, qahqaha sadolari eshitilib turadi. Usti gul dor oq namat bilan qoplangan bir o'tov ko'zga yaqqol tashlanadi. Lekin bundan na kulgi va na o'lan sadosi eshitiladi. Bundagilar atrofdagilarning xursandchiliga qo'shilmay, jiddiy suhbat bilan mashg'ul. O'tovning to'r tomonidagi kimxob to'shak ustida ikki kishi chordana qurib, asta gurunglashib qimiz ichishadi, ularning o'ng' va so'l tomonlarida mulozimlar hurmat saqlab o'tirishadi, quyi roqda boshiga oq dokadan sallacha o'ragan oq yuz, qora soch chiroyli kelinchak – Inolchiqning to'qoli yonidagi meshni chayqatib-chayqatib, zarang kosalarga qimiz quyadi, ikki qo'llab qo'noqlarga uzatadi. Mehmonlar qimiz ichib, oldilaridagi dasturxon ustiga tizilgan kumush tovoqlardan yaxna go'sht, g'oz kabobidan tamaddi qiladilar.

To'rda o'tirganlardan biri – yaqindagina Gurganjdan kelgan bir tuman otliq askarning sardori Qoracha Hojib. Inolchiq uning sharafiga shaharda bir necha kun ziyofat

berdi, endi Sir bo'yiga olib chiqib sayr-tomosha qildirayotir. Maqsadi – Qoracha Hojibni yaqindan tanib, uning qanaqaligini bilib olmoq.

Chingizzxonning elchilari o'ldirilgandan keyin har ikki tomon urushga hozirlana boshladi. Xorazmshoh, har bir shahar, har bir qo'rg'on o'zini o'zi mudofaa qilsin, deb buyruq berdi. Sulton o'zining shaxsiy mulozimi Qoracha Hojibga o'n ming otliq askar berib, O'trorga jo'natdi. Saroy soqchilarining sardori Temur Malikni ham bir necha ming askar bilan Xo'jandga yubordi, Inolchiq, Temur Malik singari aqlli sardorlar lashkarning har tarafga tarqatib yuborilishi mamlakat uchun xavf-xatarli ekanini yaxshi bilar, lekin churq etisha olmas, chunki toshyurak sultonning so'zini ikki qilołmas edilar. Sultanning siyosatidan norozi bo'lgan, unga qarshi gapirgan kishining umri qisqa bo'lar edi.

Hozir Inolchiq mehmonning ko'nglini olish uchun u yoqdan, bu yoqdan gapirib o'tirar, lekin yuragi g'ash, ichini it tirnar edi: „Hozir o'yin-kulgining paytими? Chingizzon Tang'udni, Sharqiy Turkistonni oldi, bizga chovut solishga tayyorlanayotir, biz esa g'aflatdamiz“, deb o'ylardi u barvasta Qoracha Hojibning xushchaqchaq, tovoqdek yuziga qarab.

Hojib egnida asl movutdan tikilgan yengi kalta tugmador kamzul, oyog'ida baland poshnali upuka etik. U chertsa qon tomadigan qip-qizil yuzini burushtirib, ko'zlarini istehzo bilan qisib, hamsuhbatiga qulqolar, ah-yonda bir bema'ni iljayish yuzini yoritib yuborardi. Gerdayib o'tirishi, boshini ko'tarib, shoshmasdan gapirishi uning mag'rur va o'ziga bino qo'ygan odam ekanligini ko'rsatardi. Kechalarini bedor o'tkazadigan kishidek ko'zlar kirtaygan, peshanasini ajin bosgan Inolchiq esa qiyiq ko'zlarini yaltiratib, qoraxitoylar bilan qilgan janglari to'g'risida hikoya qilardi. U Qoracha Hojib singari og'ir va sipo emas, iroda va g'ayrat barq urib turgan chehrasida g'urur va kibr-havodan asar yo'q, hayajon bilan qizishib gapirar edi.

– Talas bo'yidagi jang tavorix sahifasida mangu qol-gusidur. G'animning o'ttiz mingdan ortiq lashkari daryo bo'yida turar edi. Bizning lashkar naqqoralar chalib, saf

tortib boraverdi. Men jeyba kiyib, otlarga kejim solib, bir tuman otliq nayzaboz cherik birla g'animning o'ng qo'lidan orqasina o'tib oldim. G'animni o'rtag'a olib andoq savadikkim, u qochg'ali joy topolmay qoldi. Qoraxitoy sarosima bo'lib, tog'ga qochdi, necha ming askari bizning otlar oyog'i ostida poymol bo'ldi... – Inolchiq shunday hayajon bilan so'zlar ediki, hamsuhbatlari uning gapiga mahliyo bo'lib, urush manzarasini o'z ko'zlari bilan ko'rayotgan-dek jimb qoldilar. Hokim o'z hikoyasini tamomlab, chuqur xo'rsindi-da, sekin gapira ketdi:

– Mana, endi mo'g'ul badbaxt ustimizga lashkar tortib kelayotir. Agar biz bor kuchimizni Sir bo'yiga yig'olsak, Chingizning qo'shinlarini to'zitib yuborur erdik. Bizda cherik ko'p, quroq-yarog' mo'l, tajribali sarkardalar bisyor. Afsuski, biz bu kuchlarni bir yerga to'plamay, aksincha, tarqatib yuborayotirmiz.

Inolchiq saroy vaziri Shahobiddin Xivaqiyning sulton huzuridagi kengashda aytgan gaplarini takrorlayotgan edi. Kengashda sulton saroy vazirning fikriga quloq solmagan edi, har qaysi qal'a o'z boshiga urush qilsin, mo'g'ul qo'shinlari tarqalib ketgach, ularni yengish oson bo'ladi, deb o'ylardi. Qoracha Hojib ham shu keyingi taklifni quvvatlab gapirgan a'yonlardan biri edi.

– Men sulton hazratlarining har bir qarorlari xatodan xolidir, deb bilurman – dedi Qoracha Hojib burun kataklarini kerib. – Shuni bilib qo'yingki, mo'g'ul qoonning qo'shini chinakam savashni hali ko'rgani yo'q. Qani, mo'g'ul biz birla chopqilashib ko'rsin... ko'rsatib qo'yajakmiz. Xorazmshoh cheriki shu topgacha hech kimarsadan yengilgani yo'q va yengilmaydur.

– Oriy, – dedi Inolchiq qovog'ini solib. – Agar biz g'aflat uyqusida yotmay, savashga yaxshi tayyorlansak, mo'g'ulning barcha tishini qoqib olg'aymiz.

– Qayg'urma, G'oyirxon. Birinchi savashdayoq mo'g'ul qo'shinlarini to'zg'itib yuborg'usimizdur, – dedi Hojib ko'kragini kerib.

Inolchiq bu odamning yengiltakligiga, asossiz mag'rur-lanishiga, bolalarcha mulohaza yurgizishiga hayron qol-

di. Maqtanchoq kishilar jiddiy bir to'sqinlikka uchraganda suvgaga tushgan nondek bo'kib, bo'shashib qolishini o'z umrida ko'p ko'rgan.

Sayr-tomosha va o'yin-kulgi uchun chaqirilgan joyda bunday so'zlar o'rinsiz ekanini Inolchiq payqab qoldi. Sultanning bema'ni qaroridan xafa bo'lgan shahar hokimi, soddadillik qilib, o'z fikrini ochiqchasiga aytib qo'ygani uchun ko'p afsuslandi. Tag'in kimning oldida? So'z uqtirib bo'lmaydigan nodon va aravani quruq opqochadigan kishi oldida-ya! Xayf-e! So'z mavzusini o'zgartirish uchun:

– Qoracha o'lanni yaxshi aytadur, deb eshitgan erdim, qani, Oysuluv bilan aytishib ko'r-chi, – dedi.

Mushtini soniga tirab o'tirgan Hojibning tovoqdek yuzi yorishib ketdi, bir kosa qimizni bo'shatib, Oysuluvga uzatarkan, tovushini barala qo'yib boshlab yubordi:

*Sirdaryodan o'rdak uchar bo'ynin cho'zib,
Menga boqar bir nozanin ko'zin suzib.
G'oyirxonning qo'ylari ko'p, yilqisi ko'p,
Yaylovlarda xixilashib yurar to'p-to'p.
Behisobdir sigir, novvos, nortuyasi,
Hammasideyan yaxshi ekan oq biyasi.*

U keyingi so'zlarni aytar ekan, Oysuluvga qarab, ko'z qisib qo'ydi. Bema'ni o'xshatishdan jahli chiqqan Oysuluv kosani yana to'ldirib, Hojibga uzatar ekan, qora sochli kichkinagina chiroyli boshini chayqatib javob aytди:

*Hasad qilma sen birovning ahvoliga,
Ko'z tikmagin Inolchiqning haloliga.
O'lan aytsang, bilib aytgil, yolg'on dema,
Yuvoshdir deb oq biyadan tepki yema.*

O'tovdagilar Oysuluvning javobiga qoyil bo'lib, kulib yubordilar. Bu go'zal xotin raqibining har bir haziliga mo'hir qilichboz kabi ustalik bilan javob berib, uning har bir zarbini rad etar edi. Inolchiq esa tili qilichdek o'tkir xotining qo'ng'iroqdek tovushini, oqilona javoblarini eshitib zavqlanar, tomog'idan beixтиyor chiqib ketgan qiyqiriqlar bilan xotiniga dalda berardi.

Bora-bora Qoracha Hojib aljib ketdi, hazillari qo'pollashdi. „Oq biya“ so'zini payrov qilib, odob chegarasidan

chiqa boshladi. Biroq Oysuluv ham bo'sh kelmay, ustalik bilan unga javob qaytarar, o'tov atrofiga yig'ilgan odamlarni kuldirardi. Hammaning ko'zi ikki beti naqsh olmaday qizargan Oysuluvda edi. U yangi-yangi so'zlar, o'xshatishlar topib, raqibini devorga taqab qo'ydi. Nihoyat, Hojib yegilganiga tan berib, qulluq qildi.

Shu ravishda ziyofat xursandchilik va o'yin-kulgi bilan tugadi.

IX

Shahar va tevarak-atrofdagi ovullarning aholisi O'tror qo'rg'onining shikast-rextini tuzatish va qo'rgon atrofidagi xandaqlarni tozalash, chuqurlashtirish uchun safarbar qilindi. Zamindorlar, savdogarlar, boylar qo'lida ezilgan xalq yana mo'gullarga yem bo'lishni istamasdi. Mehnat ahli yaqindagina qoraxitoylar zulmidan ozod bo'lган, chet el bosqinchilarining qipchoq xonlaridan ham yovuz ekanini bilardi. Qoraxitoylar bilan olib borilgan janglarda qo'rg'onga ancha shikast yetkazilgan, ba'zi joylari qulab tushgan edi. Bularni tuzatmay turib, shaharni himoya qilish mumkin emasdi. Aholining bir qismi qamal vaqtida shaharni suv bilan ta'min qiladigan hovuzlarni tozalay boshladi. Shahar ichi ari inidek g'uvullar, har yoqda yelkasiga ketmon qo'ygan yoki belkurak ko'tarib ishga ketayotgan kishilar ko'zga chalinardi. Shahar ustini bulutdek qoplagan chang-to'zon yozgi oftob nurida tilla zarralaridek tovlanar, daraxt barglariga, gul shoxlariga, odamlarning yuziga o'tirardi. Xalq o'z ona shahrini mustahkamlash uchun jonini ayamay jonbozlik ko'rsatayotgan mahalda mardikor yollab, o'zlarini og'ir mehnatdan qutqarib qolgan savdogarlar tilla-kumushlarini, javohirlarini xumchaga solib, yerga ko'mish bilan ovora edilar.

Sunbulat oyining o'n beshiga kelib, shahar dushmaniga davomli qarshilik ko'rsatishga tayyor bo'lди: qo'rg'onning shikast-rextlari tuzatildi, tozalangan xandaqlar, shahar ichidagi hovuzlar suv bilan, shahar omborlari g'allá

¹Sunbulat – avgust.

bilan to'ldirildi. Tevarak-atrofdagi dehqonlar shoshilib, arpa-bug'doyini o'rib oldi yanchib, ot-aravalarda shaharga tashiy boshladi.

Uzangisozlar va temirchilar so'nggi marta shahar yaqinidagi Arslon bobo mozoriga sayilga chiqishgan edi. Ular mozor boshida beshta qo'yni so'yib, bittasini shayxlarga ehson etishdi-da, to'rttasini doshqozonga bosib qovurma pishirishdi.

Qator teraklar ko'lankasiga solingan uzun ko'rpa chalar ustida chordana qurib ovqat yeishar ekan, hunarmandlar mamlakat chegarasiga yaqinlashib kelayotgan mo'g'ullar to'g'risida, mamlakatni himoya qilish to'g'risida gaplashib o'tirishardi. Xayollarini band qilgan qora fikrlardan o'zlarini chalg'itish uchun gap mavzusini o'zgartirishga harchand urinsalar-da, yana gap aylanib kelib, ko'ngillarini g'ash qilgan o'sha mavzuga taqalardi. El ustiga falokat quyuni bostirib kelayotgan mahalda boshqa narsa ko'ngilga sig'armidi?

– Axiylar¹, keling endi, kun sayin yovuqlashib kelayotgan g'anymi daf etmoq chorralari to'g'risida so'ylashib olayiq, – deb gap boshladi axiylar oqsoqoli Abdulmajid usta, oqargan quyuq qoshlarini chimirib. – Bovujud O'tror qo'rg'oni berk va mustahkam bo'lsa dog'i, mo'g'uldek g'anymi daf etmoq oson ish ermas. Agar ulus, xususan. biz hunarmandlar lashkarga ko'mak bermasak, ish xarob bo'lgusidir. Kuni kecha hokim janoblari hunarmandlar oqsoqollarini huzurlariga chorlab, shul xususda maslahat so'radilar. Har bir kasb egasi o'z yo'li birla qo'shing'a ko'mak bermoqqa va'da etdi. Men sizning nomingizdan, biz o'q, nayza, qilich-qalqon, jeyba-sovit yasaymiz, yaroq birla qo'shinni ta'min etgaymiz, deb so'z berdim...

Oqsoqol shoshmasdan, to'xtab-to'xtab uzoq gapirdi. Hunarmandlarning ba'zilari uning gapiga xayrixohlik bilan qulq solar: „Oriy, rost aytadilar, ko'maklashurmiz“, deb uning gapini ma'qullar, ba'zilari peshanalarini tirishtirib.

¹Axiylar – birodarlar.

yer chizib o'tirardilar. Qorachadan kelgan, oriq, badjahl bir hunarmand ora-chora po'ng'illab qo'yardi.

Gapini tugatgandan keyin oqsoqol kaftining orqasi bilan ko'kragiga tushgan mosh-guruch soqolini ostidan ko'tarib, uchini tishlab, miyig'ida kulib qo'ydi-da, po'n-g'illab o'tirgan kishiga qaradi:

- Boyqadam, siz bir nima demoqchisiz chog'i? Ayting, qulog'imiz sizda.

- Aytaturgan gapim shulki, biz shu chog'gacha qipchoq beklariga tomg'a to'lab, alarni semirtirib keldik. Endilikda alarning o'zlarini yovni daf etsinlar.

- Mo'g'ul beklari kelib, teringni tiriklayin shilib olsa maylimi? - deb uning gapini bo'ldi yonidagi bir chol!

- Hozir esa qipchoq beklari shilib olayotirlar.

- Qipchoq beklari pulingni olsa, mo'gul joningni oladur.

- Mo'g'ul kelib, o'zimizni qul qilib olsa, xotun, ushog'i-mizni bozorga chiqarib sotsa yaxshimi?

- Bo'lmasa, qipchoqlarga xo'jalalar o'zlarini ko'maklashsinlar, chumolini ot qilib urushga chiqsinlar, - dedi allakim.

Quyiroqda o'tirgan yosh-yalanglar bu gapni eshitib, qiqirlab kulib yubordilar.

Oqsoqol jahl bilan:

- Bas, safsatani to'xtating! - deb o'shqirdi. - So'zimga qulq osinglar, axiyalar, - deb gap boshladi yana hamma jum bo'lgandan keyin. - Boyqadamning xafa bo'lmoqqa haqqi bor. Qoraxitoylar quvilg'ondin so'ng shahar mahkamasi biz hunarmandlarni boj bilan qisib qo'ydi. Biz bir necha bor hokim janoblariga arz qildik, boshda qulq solmadilar, axiyri boj-xiroj miqdorini ozaytirdilar. Qadim zamondan beri biz hunarmandlar tomg'a, ya'ni boj-xiroj lafzini eshitmagan erdik. Va lekin shuni bilib qo'yinglarki, mo'g'ul kelsa boj birlangina qutula olmaysiz...

Oqsoqol mo'g'ullar xalqning boshiga nimalar solishini xuddi o'z ko'zi bilan ko'rgandek so'zlab berdi. Hammani va-hima bosdi.

- G'anim qo'lida xor-zor bo'lmoqni istamagan har bir musulmon yarog'-aslaha yasamog'i darkor, biz qo'limizg'a cho'kich, bolg'a, yosh-yalanglarimiz qurol olsinlar,

avval dushmanni daf etayik, keyin o'z xo'jalarimiz birla so'zlashabiz, – dedi oqsoqol gapini tamomlab.

– Rost aytasiz, qipchoq beklari bizning kuch-g'ayrati-mizni ham bilib qo'ysinlar. Hunarmand yoshlari qo'lida ya-roq' bo'lsa, oqsuyaklarning tili qisqaroq bo'lur, – dedi bir chol oqsoqolning gapini ma'qullab.

Sunbula oyining so'nggi kunlaridan birida Temirtosh boshlig'idan ruxsat olib, onasini shaharga ko'chirib kelish uchun bog'ga jo'nadi. Yo'lda bog' ko'chalarini changitib, dehqonlar shaharga ko'chayotgan edilar.

Jiyron ot ustida quyib qo'ygandek o'tirgan xushqo-mat Temirtoshga qarab hammaning havasi kelardi. Bu yi-git yoshlik chog'ida orzu qilib yurgan narsasiga erishgan: endi uning o'z oti bor, kechqurun uni otxonaga olib ki-rib bog'lagandan keyin duxobadek mayin burun kataklari-ni paypaslab, suvlig'ini chiqaradi, sovigandan keyin egarni olib, ustiga yopiq tashlaydi-yu, sug'orib yem beradi, keyin bo'yniga asta qoqib qo'yadi. Uning nazarida bundan yuqori baxt bo'lishi mumkin emasdi. Biroq u shu baxtga erishgan paytda yurt ustida falokat boyqushi qanot qoqa boshladи. Kambag'alning baxti shu-da: og'zi oshga yetganda burni qonaydi.

Hozir uning ko'ngli g'ash, yuragiga qil sig'masdi. Jiy-ron ot boshini chayqab, bilqillagan ko'cha tuprog'ini chan-gitib ketar ekan, yetmishta borib qolgan mushtipar opasini o'ylardi: „Chorbog'ni tashlab, shaharga ko'chib tushishga qanday ko'ndirsam ekan, axir ota meros oshyonni tark etib ketish osonmi?“

Temirtosh kichkinagina chorbog'iga kirganda, olma-larning qizarib pishganini, so'ridagi uzumning yetilgani-ni ko'rib, yuragi battar g'ash bo'ldi: „Nahotki jannatdek bog'larimizni tashlab, qal'aga berkinib olsak! Bu nomard-lik-ku, axir! G'anim ustiga arslonlardek yopirilib bormas-dan, kalamushlardek inga berkinib olish er kishining ishi emas-ku. Nima qilaylik, sultonning amri bu!“ Shu mahal-gacha nomini hurmat bilan tilga olgan sultonni u hozir ichida barcha qatori eng behayo so'zlar bilan so'kardi. Bi-roq ayvonga orqasini o'girib, malla joynamoz ustida tasbeh

o'girayotgan onasining bukchaygan, ushoqqina gavdasini ko'rganda hamma narsani unutib yubordi, ko'ngli yumshab, qalbi mehr-muhabbat bilan to'ldi. Kampir ot pishqirig'ini eshitib, o'girilib qaradi. O'rnidan turaman deb, ko'y lagining etagini bosib oldi-yu, gandiraklab ketdi. O'g'li yugurib borib uni suyab qolmaganda, yiqilib tushar edi.

– Kel, o'g'lim, tani-joning sog'mi? Nega kecha kelma ding? – dedi u jilmayib.

– Ish ko'p. Shaharni mustahkamlayotirmiz.

Temirtosh mumkin bo'lganicha sodda til bilan mamlakat ahvolini tushuntirishga harakat qildi.

– Bog'-rog'larni tashlab, xotin kishilardek qo'rg'on ichina berkinib olurmisiz? – deb so'radi kampir istehzo bilan.

– Sultonning amri shu! – dedi Temirtosh qip-qizarib.

– Xudo olsin sultonni! – kampir o'zini tutolmay vaysab ketdi: – Yuragida o'ti bo'lsa, na'ra tortib yov ustina yurmaydurm? Nahotki iniga yoshurinib, o'z fuqarosining bog'-rog'larini g'animg'a oyoqosti qildirib qo'ysa!

Temirtosh onasining gapiga quloq-solib jilmayar: „Ancha qarib qolgan bo'lsa-da, kampir voqeani ko'p a'yonlarga qaraganda to'g'ri tushunibdi“, deb o'ylardi. Bog'ni tashlab shaharga ko'chib tushish zarurligini aytganda, kampirning jahli chiqdi:

– Nechun bog'ni tashlab ketar ekanmen! – dedi jahl bilan.

– Hech qayerga ketmagaymen, o'ligim shu yerdin chiqsin.

Temirtosh uh tortib o'rnidan turdi-da, bog'ga kirdi. „Onam hech qachon bu yerni tashlab shaharga ketmaydi. Bog'idan, o'sgan tuprog'idan ajralsa o'ladi. Bu chorborg'ni obod qilaman deb bobom o'lib ketdi, har bir qarich yer to'kilgan ter, ko'z yoshlari bilan sug'orilgan... Bordi-yu, kampirni tashlab ketsam, mo'g'ullar unga shikast yetkazmasmikin? Bu yerda uni qoldirish xatarli. Yana bir marta yalinib ko'ray, zora ko'nsa!“

Ammo kampir o'z so'zida qattiq turib oldi, o'g'lining yalinib-yolvorishi uning qarigan asablariga zarracha ta'sir qilmadi.

– Tavakkal o'ziga, – dedi tamshanib kampir, – Sen men-dan xavotir olma. Yaratgan egamga astoydil iltijo qilsam, bu kulbayi vatanim temir qo'rg'onga aylanur, dushman menga hech nima qila bilmas.

– Mo'g'ul ablak berahm deb eshitadurmen, sizga shi-kast yetkazmasaydi, deb qo'rqamen, – dedi Temirtosh ona-sining oq sochlarini silab.

– Menga hech narsa bo'lmaydur, – dedi kampir o'ziga ishongan holda, – sen o'ldiradur deysan, kampirni o'ldi-rib shohi chiqadurmu mo'g'ulning, axir o'shal kofirlarning ham onasi bordir.

Kampirning bu dalili unga kuchli ta'sir qildi. „Darvoqe, kampirni o'ldirib nima manfaat ko'radi mo'g'ul? Yaxshisi, uni shu yerda qoldirib, ovhatini g'amlab ketay. Zo'rlab olib ketib bo'lmaydi“, dedi o'zicha, lekin shu zahoti yuragi bir narsani sezgandek, shig' etib ketdi.

X

Mingboshi Qulnazarxo'ja o'z bo'lugi bilan darvozadan chiqib sharq tomon yo'l oldi. Qarshidagi bog'lar ustida ko'tarilib kelayotgan oftob suvorilarning boshlaridagi yal-tiroq dubulg'alarda, egnilaridagisovutlarda aks etib, ko'z-larini qamashtirar edi. Tuyoqlar ostidan havoga ko'tarilgan chang-to'zon otlarning burniga kirib pishqirtirardi.

Yaqindagina yuzboshilik martabasiga ko'tarilgan Temirtosh mingboshining yonida otini yo'ittirib borar, homiysining so'zlariga diqqat bilan qulq solardi.

– G'anim qochishga tushganda sen qizishib ketib, or-qasidin behuda quva berma, pistirmaga yo'liqasen. Qoraxi-toylar qochib yurib urishar edilar, mo'g'ullar dog'i shular urug'idin. Qush uyasida ko'rganin qilur, deydilar.

Temirtosh urush oldida o'z boshlig'inинг shunchalik vazmin va xotirjam bo'lganiga hayron qolardi. O'zining esa yuragi gupullab urar, asabiylashar, yuragi siqilardi.

Bo'linma bog' ko'chalardan o'tib, keng dalaga chiqqan-dan keyin lashkarlar yoyilib ketdi. Temirtosh o'z bo'lugi-ning oldiga tushib oldi.

Kecha darakchilar g'animning sharq tomondan kelayotgan ilg'ori yaqinlashib qolganini xabar qilgan edilar. Inolchiq darvozalarni berkitib olishdan oldin dushman bilan bellashib ko'rmoqchi bo'ldi.

Temirtosh o'z boshlig'i bilan burgutdek qanotini ker-gan qo'shining o'ttasida borar edi. Ko'p o'tmay, oldinga yuborilgan yigitlar harsillab ot choptirib keldilar, g'animning oldingi qismiga duch kelib, arang qochib qutulganlarini aytdilar. Qulnazар mingboshi otini qamchilab haydab ketdi. Otliqlar uning orqasidan qolmay, saf-basaf yo'rttirib boraverdilar. Dushman suvorilari ko'rinishi bilan o'rtadan Qulnazар boshliq bir guruh otliq ajralib chiqib, qilich yalang'ochlagan holda dushman ustiga ot qo'ydi. O'ng va so'l qanot kamonday egilib, dushmanni ikki biqinidan siqib bora boshladi. Mo'g'ullar ikki-uch daqiqa jang qilgandan keyin orqalariga qaramay qochdilar. Temirtosh hali jangga kirganicha yo'q edi. Qulnazarxo'ja mo'g'ullarni quvlamasdan orqaga qaytishga buyruq berdi. Jangda o'lgan mo'g'ullardan o'n-o'n beshtasining kallasini kestirib, qoplarga soldirib oldi. Shu mahalgacha urushni ko'rmagan Temirtosh qonga belangan bu badbashara kallalarni ko'rganida eti jimirlashib, ko'ngli bir xil bo'lib ketdi. Uning ijirg'anganini ko'rib, mingboshi miyig'ida kuldi-da:

— Ko'ngling agdarilayotganga o'xshaydur, — dedi. — Boshda shundoq bo'ladur, so'ng o'rganib ketgaysen.

O'trorliklardan o'n to'rttasi o'lgan, besh-oltitasi yarador bo'lgan edi. Yaradorlarning yarasini bog'lab, o'liklarni pishqirgan otlariga ortib, qal'aga qaytib kirishdi.

* * *

Kuz kirishi bilan Chingizxon bir necha yuz ming otliq va piyoda askardan iborat katta qo'shinini boshlab, O'trosga yetib keldi¹. Mo'g'ullar shaharni jang rusumiga muvo-fiq qamal qilishga kirishishdi. Avvalo, ariqlarni berkitib shaharga SUV kirgizmay qo'yishdi. Manjaniqlardan tinmay tosh otib, katta yoylardan o'q yog'dirishdi, shu paytda bel-

¹1219-yilning sentabr oyida.

dorlar qo'rg'on atrofidagi xandaqlarni to'ldira boshladilar. Qorluqlar, uyg'urlar va boshqa xalqlar ham mo'g'ullarga ergashib kelishgan edi. Mo'gullar xandaq to'ldirish kabi eng og'ir va xatarli ishlarni shularga qildirar, o'ljaning esa juda oz qismini berar edilar. Qo'rg'on himoyachilari do'ldek yog'ayotgan tosh va o'qlardan saqlanish uchun o'zlarini panaga olgan paytlarida uyg'ur va qorluq beldorlar xandaqning anchagini qismini to'ldirib tashladilar. Ularning bir qismi shahar atrofidagi teraklarni kesib kelib, uzun shotilar tayyorlashga kirishdi. Mo'gullar qo'rg'on mudofaachilarini chalg'itish uchun darvozalar oldida suron ko'tarib, yolg'ondaqa hujumga o'tar, bu vaqtida xandaqlar to'ldirilgan joylardan yonma-yon ikki kishi sig'adigan katta shotilarni qo'yib, piyodalar qo'rg'on tepasiga asta chiqishga urinar edilar. Mo'g'ullar tevarak-atrofdan haydab keltirgan asirlarni shotidan chiqishga majbur qilishardi. Sho'rlik asirlar ikki olov orasida qolgan yuqoriga chiqmay desalar, mo'g'ullar orqalaridan sanchadi, chiqay desalar, mudofaachilarning o'q va nayzasiga sanchiladilar. Biroq mo'g'ullarning bu urinishi har safar muvaffaqiyatsizlikka uchrar, chunki hushyor mudofaachilar dushman qayerdan hujum qilsa, shu yerda hozir bo'lib, ularni narvon-parvonlari bilan pastga qulatib tushirib yuborar edilar. Shahar kosiblarining o'g'illari ham qurollanib olgan, askar safida turib, qo'rg'oni himoya qilishardi. Ba'zan Qulnazar mingboshi goh u darvozadan, goh bu darvozadan otliq askarlari bilan chiqib, mo'g'ullar bilan chopqilashar, ularni qo'rg'on tagididan qochirar, qo'rg'oni toshbo'ron qilayotgan asboblarini buzib, zudlik bilan yana qo'rg'onga kirib ketar edi.

Mo'g'ul sarkardalari qattiq mudofaa qilinayotgan, oziq-ovqat va suv serob bo'lgan bu mustahkam qo'rg'oni bir hamla bilan olishga ko'zlari yetmagandan keyin, uni uzoq qamal qilishga qaror qildilar.

XI

Chingizzon o'z chodirini darvozayi So'fiy qarhisidagi tepalik ustiga qurgan edi. Qo'rg'onidan turib otilgan o'q va

toshlar yetmaydigan bu tepalikning tegrasiga xandaq qazilgan, atrofi tuproq devor bilan o'ralgan. Tepaning qoq o'rtafiga oltin eshikli sariq ipak chodir qurilgan. Bu qoonning chodiri, u jahongirning to'rt o'g'li va no'yonlari (beklari) ning chodirlari bilan qurshalgan edi.

Kech payti... Shabada atrofdagi bog'lardan pishib yetilgan mevalarning xushbo'y hidini olib kelmoqda.

Chingizzon chetlari ko'tarilib qo'yilgan chodirida to'rt o'g'li va mashhur no'yonlari bilan kengash qilardi. To'rdagi zar to'shak ustida qoon shoyi jildli bolishga tirsagini qo'ygan holda Jaba no'yonga o'tkir ko'zlarini tikib, uning so'zlariga diqqat bilan qulq solardi. Bu vaqtda oltmish to'rt yoshga kirgan qoon novcha, uzun soqolli tetikkina chol edi. Yonoqlari turtib chiqqan emas, yuzi ko'sa mo'g'ullarning yuziga o'xshamasdi. Hozir u tajribali sarkardasining xo'ppasemiz, bir tuki yo'q basharasiga qarab, olmos ko'zli uzuk taqilgan barmoqlari bilan qizil soqolini siypab qo'yadi. Chap tomondagи hurmatli o'rinni uning to'rt o'g'li: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy, Tuli ishg'ol etishgan, o'ng tomonida mashhur sarkarda Jaba no'yon, Uloq no'yon, bir ko'zli Subutoy bahodir, Saktu tiz cho'kkан holda o'tirardilar. Jaba no'yon bundan buyungi xatti-harakat to'g'risidagi o'z fikri ni bayon qilmoqda edi.

– Turkiston viloyatida O'tror qo'rg'onidek berk va mustahkam qo'rg'on yo'q, – der edi u qoshlarini chimirib. – Uch kundan buyon butun kuch-quvvatimizni sarf etib, bir ish chiqaza olmadik. Bu yanglig' berk qo'rg'onlarni bir hamlda olib bo'lmaydur. Qal'a xalqi jangovar, yoshlari o'q otishning mashqini olgan. Bularidan tashqari, taxminimcha, Inolchiqning ellik mingdan ortiq lashkari bor...

– Ellik sakkiz ming, – deb luqma tashladi Chingizzon.

Jaba no'yon gapdan to'xtab, bosh egib qo'ydi-da, so'zini davom ettirdi.

– Oriy, shundog'. Qal'a ichida askar va xalq ko'p. Hozir alar kuchli qarshilik ko'rsatadur, lekin besh-olti oydin so'ng oziq-ovqatlari tamom bo'lgach, qay ahvolga tushishlari ma'lum. Bu qo'rg'oni qamal qilib, ishg'ol etmoq uchun bu yerda yuz ming yayov va otliq askar qoldirsak... Jo'ji bir-

lan Chig'atoy janoblari bul ishga bosh bo'lsalar, Saktu bir qism askar birlan Sirdaryo bo'yidagi qal'alarmi zabit etmoq uchun yuborilsa, qolg'on qo'shin qoon janoblari va ulug' no'yon To'lixon boshchiligidida Qizilqum orqali Buxoro va Samarqand ustiga yursalar...

– O'trorni men bilan O'qtoyga qoldirib keta bering, boshqalar ko'magiga muhtoj emasmiz, – deb no'yonning g'apini bo'ldi Chig'atoy. Katta akasi Jo'jini ko'rarga uning ko'zi yo'q edi. Chig'atoyning mushuknikidek yum-yumaloq yuzi bo'rtib, sarg'ish ko'zlar chaqnardi. Undan yuqoriroqda o'tirgan yuzi cho'zinchoq, boshi kichkina Jo'ji ukasining gapini eshitib qip-qizarib ketdi, chunki bu gap unga qattiq botgan edi. Chig'atoya tegizib, bir-ikki so'z aytish uchun og'zini juftlab turgan edi, Chingizzon Chig'atoya o'qrayib qarab:

– Bas qil, ulug' no'yon gapirayotganda ne qilasen so'zini bo'lib! – deb o'shqirdi. Jo'ji og'ziga kelgan achchiq-achchiq gaplarni aytmaganiga xursand bo'ldi. Rangi qum-quv o'chgan Chig'atoy tiz cho'kib, otasidan kechirim so'radi. Hammaning nafasi ichiga tushib ketdi.

Yoshi qirqlardan oshgan Jo'ji o'zini mustaqil tutar, uklari singari otasiga yaldoqlanavermasdi. U otasining o'limini, butun hokimiyatni qo'lga olish paytini sabrsizlik bilan kutardi: „Otam suyukli kenja o'g'li Tulini o'z taxtiga o'tqazib ketsa kerak. Lekin bu nimjon va irodasiz inimni „gah“ deganda qo'limga qo'nadigan qilib olaman, hamma hokimiyatni qo'lga kiritaman, xushchaqchaq, oqko'ngil O'qtoy esa mening chizig'imdan chiqmaydi. Ammo Chig'atoyni bir yoqlik qilishga to'g'ri keladi. Bu to'g'rida keyin o'ylab ko'raman“, der edi ichida.

Tulkidek ayyor, ilondek hushyor bo'lgan Chingizzon si-pogarchilik bilan qoshini chimirib o'tirgan to'ng'ich o'g'liga qarab, uning yuzidan ko'nglidagi qora fikrlarni o'qigandek bo'ldi. Shuning uchun unga noxushlik bilan bir nazar tashlab qo'ydi-da, ruxsat so'rab so'zini davom etti-rayotgan Jaba no'yonning gapiga diqqat bilan qulq soldi. Jaba no'yondan keyin so'zlaganlar uning fikrini quvvatlab qo'shimcha tarzda ba'zi bir mulohazalarini o'rtaga tashla-

dilar. So'ngra Chingizzon tirsagini yostiqdan olib, qaddini rostladi-da, qizil soqolini siypab asta gap boshladi:

– Har bir so'zimni isirg'a yanglig' quloqlaringizga taqib olingiz, har vaqt biz dushmanning emas, dushman bizning irodamizga bo'ysunib kelgan. Baxt qushi doim bizga yor. Xorazmshohning qarori bilan bo'linib-bo'linib ketgan bu ulug' o'lka xalqini o'z irodamizga bo'ysundirmoq u qadar mushkul emas. Ammo bu yerning odamlari jangovar, sarkardalari tajribali. Bilishimcha, sultonning uch sheryurak sarkardasi bor. Alarning biri – Jaloliddin Manguberdi, ikkinchisi – Xo'jand hokimi Temir Malik, uchinchisi – O'tror hokimi, Turkon xotunning jiyani Inolchiqlar. Sultan bilan Manguberdiga qarshi Tuli bilan Jaba no'ytonni olib o'zim borurmen. Inolchiqni bir yoqlik qilmoq uchun bu yerda Chig'atoy bilan O'qtoyni qoldirurmiz. Temir Malik bilan bel olishgani Uloq no'yon bilan Saktuni yuborg'aymiz. Jo'ji esa Jand, Binokent, Yangikentni qamal qilib olsin...

Chingizzon O'rta Osiyo shaharlari, qal'alari, mashhur sarkardalar, qo'shin haqida anchagini ma'lumot to'plagan edi. U uyqusiz kechalarda tuzib qo'yan rejalarini bayon qilar ekan, o'g'illari va no'yonlarini o'z zakovati, xotirasining kuchi bilan hayratda qoldirardi.

Kengash tamom bo'lgach, Chingizzon oyoqlarining chigilini yozish uchun o'rnidan turib tashqariga chiqdi. O'g'il-lari va beklari ham asta qo'zg'alib, churq etmay uning orqasidan ergashdilar. Chodirlardan o'n besh qadamcha narida, ikki yoqdan temir zanjirga tortib bog'lab qo'yilgan yo'lbars oldida o'n bir-o'n ikki yashar bola turar, qo'lidagi uzun tayoqni yo'lbarsnung tumshug'iga nuqib jig'iga tegardi, yo'lbars esa o'tkir tishlarini irjaytirib, ko'zlarini qisib irilliardi. Oldingi oyog'i bilan tayoqni ushiamoqchi bo'lganda, bola yonidagi qurolli yigitga qarab, qah-qah urib kulardi.

Chingizzon bola oldiga kelib, uni qo'lidan ushladi-da, nariroqqa olib ketdi. Bola – uning suyukli nevarasi. Jo'jinining o'g'li Botu edi. Qoon nevarasini jasur qilib o'stirishga harakat qilar, uning yo'lbars bilan o'ynashayotganini ko'rganda jahli chiqish u yoqda tursin, aksincha, xursand bo'l-

gan edi. U cho'zinchoq oq yuzli, ko'zlar qiyiq nevarasini asta yetaklab ketar ekan:

- O'tror shahri ichinda bundan ham zo'r bir yo'l-bars bor, to'rt yuz ellik elchining boshini yegan, - dedi.
- Chig'atoy bilan O'qtoy amaking o'shal yo'lbarsni tutib, zanjirga bog'lab kelturg'aylar.

Botuning ko'zlar chaqnab ketdi:

- Rostdanmi? Zo'r yo'lbarsmi, a? Bobo, aytin, uni tez-roq tutib kelsinlar...

- Ul - ikki oyoqli yo'lbars. Oti Qoyirxon. Chig'atoy amaking ani tutib keltirsa, zanjirband qilib ming ohangga sol-gaymiz. Endi borib o'yna, mening ishim boshimdan oshib yotibdi.

Oradan uch kun o'tgach, Chingizzon Chig'atoy va O'q-toyga yuz ming askar qoldirib, o'zi suyukli o'g'li Tuli va ulug' no'yon Jaba bilan Qizilqum sahrosi orqali Buxoro ustiga lashkar tortdi... Qo'shining bir qismi Uloq no'yon boshliq Xo'jandga, bir qismi Jo'ji boshchiligi ostida Yangikent, Binokent tomon jo'nab ketdi. O'tror qal'asi ostiga oqib kelgan loyqa daryo to'rt tarmoqqa ajralib ketgan edi.

Mo'g'ullar O'trorni uzoq qamal qilib, tinkasini quritishga jazm qilganlaridan keyin qal'a tagidan uzoqroqqa ketib, uni temir halqadek o'rab oldilar. Chig'atoy askarlariga navbatma-navbat o'z bola-chaqalari oldiga borib, bir-ikki kun ular oldida tunab kelishga ruxsat berdi. Mo'g'ullarning bola-chaqalari ho'kiz va tuyalar qo'shilgan uzun soyabon aravalarga tushib, qo'shin orqasidan kelmoqda edilar. Bo'ydoq cheriklar esa o'nta-o'nta bo'lib tevarak-atrofdagi egallari tashlab ketgan bog'larga borar, asaldek shirin mevalar bilan qorinlarini va xurjunlarini to'ldirib, kechqurun o'rdu-gohga qaytar edilar.

O'nboshi Tuqchor boshliq bir guruh cherik bog' ko'chalarda sanqib yurib, yangi qurilgan darvoza oldida to'xtadi. Paxsa devor ustidan g'arq pishgan shaftoli va olxo'rilar ko'chaga mo'ralab turardi. Bir mo'g'ul darvozani itargan edi, ochilmadi. Cheriklar darvozani buzib, bog'ga kirdilar. Yangi solingan ayvonchada Temirtoshning onasi malla joy-namoz ustida o'tirib, tasbeh o'girardi. Kampir ismi a'zamni

tilga olib takror-takror duo o'qir ekan, qo'rg'oncham endi temir qo'rg'onga aylandi, hech bir yov bu yerga kirolmaydi, deb o'ylar edi. Mo'g'ullar balo-qazodek qo'rg'onchaga bostirib kirkach, kampir boshi tepasida turgan sochlari o'siq, xo'ppasemiz basharalarni ko'rди. Boshda ularni ya'juj-ma'juj deb o'ylab, salavot o'qidi. Biroq bu bilan ham ularni daf qilolmadi.

Mo'g'ullar orasida yerli xalqning tilini biladigan qorluq yigit bor edi. O'sha yigit kampirga xunuk, cho'tir yuzini o'girib, xotinlarnikidek ingichka ovoz bilan:

- Qorchiq, senga qo'noq bo'p keldik. Berkitib qo'yg'on bovursoqlaringni olib chiq, - dedi.

Sochlari paxtadek oqarib ketgan kampir ko'zlarini katta ochib, angrayib qarab qoldi. Qorluq yigit o'z buyrug'i ni takrorlagandan keyin kampir o'midan turdi-da, chaqirilmagan qo'noqlarni ichida qarg'ay-qarg'ay, hujraga kirib ketdi. „Agar aytganlarini qilmasam, sandig'imni buzib, to'qochlarimni bitta qo'y may olib ketadilar, noilojman“, deb o'yladi kampir. Hayal o'tmay, katta mis barkashga besh-o'nta to'qoch, bir hovuch bo'g'irsoq, osib qo'ygan uzumidan ikki-uch boshini solib, uni yengi bilan ushlagan holda keltirib, „qo'noqlar“ oldiga asta qo'ydi. So'ngra yana joynamoz ustiga o'tirib, tasbehini aylantira ketdi. Ammo fikr-zikri parishon bo'lgani uchun „tahlil“ni davom ettirolmadi. Oqar suvda cho'milishni zo'r gunoh deb bilgan mo'g'ullardan sassiq hid kelib turar, kampirning ko'ngli ag'darilib, o'qchigisi kelardi.

Uzumni non bilan qo'shib chapillatib chaynagan askarlarga u nafrat bilan qarab, ichida ularga o'lim tilardi. Birozdan so'ng, qorluq yigitdan:

- Bu tusingni yegurlar qoydin kelgan, betlari muncha sovuq, o'zlarឈ muncha sassiq? - deb so'radi.

- Ena, alar mo'g'ul, - deb javob qildi yigit, non chaynab.
- Chingizzxonning cheriklari.

- Sen biz kabi so'ylaysen, o'zimizning urug' odamiga o'xshaysen, alar orasida ne qilib yuribsen?

– Men – qorliq urug‘idin, – dedi yigit uzumning urug‘ini yerga tupurib, – bizning xonimiz Arslonxon Chingiz bir-la O‘trorni qamal qilib yotir.

– Baloga giriftor bo‘lg‘ay Arslonxon, – dedi kampir tit-rab-qaqshab, nahotki mo‘g‘ul xizmatiga kirib, o‘z vatan-doshlariga tig‘ ko‘tarsa. Ilohi, podshohing jahannam qa‘ri-ga ketgay!

Kampirning baxtiga qorliq yigit hech narsa tushun-madi. Qorliq musulmon emasdi, u arabiyl, forsiy so‘zlar ara-lashtirib gapirilgan gapni anglay olmasdi.

„Qo‘noqlar“ barkashni quritib, bog‘ ichiga kirib ketish-di. Uzumlarning sarasini yeb, to‘rvalarini to‘ldira boshla-dilar. Kampir ham orqalaridan ergashib bog‘ga kirdi. Uning g‘azabi qaynab-toshib tursa-da, tishini tishiga bosib yur-di. Ayniqsa, oltinday sarg‘ayib, oftobda billurdek tovlangan husaynilarni uza boshlaganlarida kampirning qovurg‘asi qayishib ketdi. „O‘g‘lim sho‘rlik shahar qo‘rg‘onida bir g‘u-jum uzumga zor bo‘lib o‘tirganda, bu quzg‘unlar o‘g‘lim-ning mehnati bilan yetilgan uzumlarni yeb rohat qilyap-tilar“, degan fikr xayolidan yalt etib o‘tib, bag‘rini o‘rtab yubordi. Tashna bo‘lib o‘tirgan o‘g‘lini eslaganda xo‘rligi kelib, ko‘zlaridan tirqirab yosh oqib ketdi.

Boldek shirin uzumni yeb, hordiqlari tarqagan va bi-laklaridagi kuchga kuch qo‘shilgan mo‘g‘ul yigitlari to‘q-likka sho‘xlik qila boshladilar. Qilichlarining damini, bilak-larining kuchini bir-birlariga ko‘z-ko‘z qilish uchun yosh meva daraxtlarini kesishga tutindilar. Meva daraxtlarining qanday mehnat bilan o‘stirilganini bilmagan, tekin tomoq yeishiga odatlanib qolgan ablahlar bu bo‘ston qanday ye-tishtirildi, deb sira o‘ylamas edilar.

Novchadan kelgan, qo‘llari uzun Tuqchor qilich urishda sheriklaridan o‘ta ekanini ko‘z-ko‘z qilar, yo‘g‘on-yo‘g‘on shoxlarni qisqa bir zarb bilan kesib tashlardi. – U bilakdan yo‘g‘onroq bir olxo‘rini ko‘rsatib, qorliq yigitga:

– Qani, kuchingni ko‘rsat-chi, – dedi.

Qorliq tirjayib, qilichini sug‘urib kelayotgan edi, kampir yugurib kelib, daraxtni to‘sdi. Bu olxo‘ri daraxtiga bultur g‘aynolu ulangan bo‘lib, endi avjiga kirib kelayotgan edi.

Umrlarida bir tup daraxt o'tqazmagan mo'g'ullarning ahmoqona mashqini ko'rganda kampirning yuragi alangalanib ketgan edi. O'z bolasidek parvarish qilib o'stirayotgan bu daraxtchani kesish uvol emasmi! U orqasi bilan daraxtchaga suyanib, uni ko'ksi bilan to'sib turarkan, ko'zlarida g'azab o'ti chaqnadi.

– Insof, diyonat bormi sizlarda? – dedi kampir titrab.

Tuqchor sheriklariga qarab dedi:

– Shu og'ochni kampir bilan qavatiga chovub tashlasam ne berursiz?

Uning hazilkash bir sheri:

– Oning oqargan kallasini berurmiz, – dedi.

Tuqchor kampirga yaqin kelib, kulib boqdi-da, birdan cho'qqaydi, shu ondayoq qilich havoda vizillab, kampirning boshini olxo'ri daraxti bilan kesib ketdi.

– Qotirding, – dedi hazilkash mo'g'ul, – endi bilsam, bu qorchiq yetmis yildan buyon o'z boshini sen uchun ko'tarib yurgan ekan. – So'ng oyog'i ostidagi oppoq sochlar qonga bulangan kallani ko'rsatib: – Endi manovi tarvuzni to'rvangga solib ol, – deb kulib qo'ydi.

– Shu tarvuzni senga siylov qildim, – dedi Tuqchor qili-chining qonini kampirning ko'ylagiga artib.

Mo'g'ullar bir-birlari bilan hazillashib, qo'rg'onchaga kirdilar-da, kampirning sandig'ini titkilab, bo'g'irsoqlari, to'qochlari bilan to'rvalarini to'ldirdilar, bisotidagi kiyimlari, tobutim ustiga yopilar, deb qo'yan mursaklarini oldilar, ayvon to'ridagi malla joynamozni yirtib, oyoqlariga payta-va qildilar.

XII

Mo'g'ullar tevarak-atrofdagi bog'larning uzumlari ni chug'urchiqdek talab, maza qilib yotganlarida, qamalda qolganlar bir shingil uzum, bir dona olmaga zor edilar. Ular qo'rg'on tepasidan uzoqdagi bog'larga qarab, ko'ngil-lari sust ketar, og'izlarining suvi kelar edi. Bir necha tavakkalchi yigit hokimdan beruxsat yarim kechada darvozadan chiqib, yaqin oradagi bog'lardan uzum, olma olib kelmoq-

chi bo'lishdi. Ular qoplarini to'ldirib, terilariga sig'may, olma-uzum olib kelayotganlarida mo'g'ullar ushlab oldilar-da, qulq-burunlarini kesib, o'zlarini qo'yib yubordilar.

Shundan keyin ishning ketini o'ylamaydigan tavakkalchilarning hafsalalari pir bo'lib, ikkinchi marta bu ishni qilmaydigan bo'lishdi. Ammo qo'rg'on ichida g'alla, suv hali mo'l-ko'l edi. Himoyachilar juda ko'p qo'y va qoramolni qo'rg'on ichiga haydab kirgan, sovuq tushishi bilan ularni so'yib, tuzlab, islab olishgan, askarlar ham oziq-ovqat, sur go'sht bilan yaxshi ta'minlangan edilar. Biroq otliq askarlarning yem-xashaklari borgan sari kamayib, yuraklariga g'ulg'ula sola boshladi. Mo'g'ullar dastlabki hujum vaqtida ichiga neft solingan ko'vachalar va yonib turgan o'qlarni otib, bir talay pichan g'aramlarini yondirib yuborgan edilar. Shundan keyin himoyachilar xashak va bedani ehtiyyot qilib saqlaydigan bo'ldilar.

Bir vaqtlar Abdumajid usta qo'lida xalfalik qilgan Qutluqxo'ja uzangisozlardan tuzilgan askariy qismga boshchilik qilardi.

O'z vaqtida u barvasta, xushchaqchaq, yurakli yigit edi. Yoshligida o'z mahallasidagi bolalarga bosh bo'lib, ularni qo'shni mahalla bolalariga qarshi „urush“ga olib borar, har vaqt burni qonab, peshanasi g'urra bo'lib qaytardi. Yuzboshi saylash kerak bo'lganda, uzangisozlar, bu mansabga Qutluqxo'ja munosib, degan edilar. Biroq yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa ham u quyulmagan, yoshlik g'ururi boshidan ketmagan edi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Qutluqxo'janing xushchaqchaqligi yo'qolib, yuragiga qil sig'maydigan bo'lib qoldi. Mamlakat boshiga kelgan falokatni u o'z boshiga tushgan falokat deb bilar, yuragini ezib turgan g'amdan o'zini hech chalg'ita olmas edi. Ovunish uchun boshqa vosita topolmay, zo'r berib o'chini maydan olar edi. Bora-bora ichmasa turolmaydigan bo'lib qoldi. Ba'zi bir g'alamis yigitlar uni uylariga chorlab, musallas quyib berishardi-da, navbatchilikdan qutulib, uylariga jo'nab qolishar va shundan so'ng haftalab g'oyib bo'lib ketishar edi. Qo'rg'onning Qutluqxo'ja qismi turgan joyida ba'zan sakson-to'qson kishi

o'rniga sakkiz-to'qqiz yigit qolar edi, boshqalar bozorlarda sanqib yurar, uylaridan beri kelmas edilar. Mo'g'ullar hujumni to'xtatib qo'yganlaridan keyin qo'rg'on himoyachilari beg'am bo'lib qolishgan edi. Qutluqxo'ja esa uzzukun mast bo'lib yurardi. Agarda ichishga may topilmay qolsa, yigitlaridan mehmon qilishni talab etar yoki musallas topdirib kelar edi.

Bir kun So'fi darvozasi ustida Qoracha Hojib, Temirtosh, Qutluqxo'ja uchovlon dushman jabhasini ko'zdan kechirib turishgan edi. Uzoqdagi bedazorda bir guruh piyoda mo'g'ul askari qo'rg'on tomon kelaverdi. Qo'rg'on ustidagilar o'q-yoylarini shaylab, ularning yaqinlashishini kutib turdilar.

– Shoshmanglar, men yigitlarim birla darvozadan chiqib alar birla savashurmen, – dedi Qutluqxo'ja Temirtoshga yaqinlashib. Uning og'zidan gurkirab may hidi kelardi.

– Qo'y, shu niyatingdan kech, – dedi Temirtosh xo'm-rayib. – Yaxshisi, alarni shu yerdan turib o'qqa tutgaymiz. Darvozadan chiqib savashmoq shart emasdir.

– Biz ham yovga mard ekanligimizni ko'rsatib qo'yaylik-da. Yuragi dov bermaganlar shunda qola bersin, ammo biz chiqurmiz.

– O'q va qilich zaxmi va zARBINI ko'rMAGAN yigitning maqtanishini qarang, – dedi Temirtosh Hojibga istehzo bilan.

– Mayli, chiqib savashib ko'rsin, – dedi Hojib beparvolik bilan.

So'fi darvozasi Qoracha Hojibning buljori bo'lib, Qutluqxo'ja qo'l ostidagi qism unga tobe edi.

Darvozabon otning kallasidek keladigan burama qulfga uzun kalitni solib anchagacha buradi-da, darvozani ochdi.

Ellik-oltmishtacha yigit o'qlarini yoy ustiga qo'yib boraverdilar. Kech kuz bo'lsa ham yupun kiyangan yigitlar yengil qadam tashlab, mo'g'ullarga yaqinlashaverdilar. Yuz qadamcha qolganda baravariga o'q uzdilar, mo'g'ullardan uch-to'rt kishi yiqildi. Mo'g'ullar ham o'q otib, o'trorlikdan uch-to'rttasini qulatdilar-da, orqalariga qaramay qochdilar. Qizishib ketgan hunarmandlar, dushmanning hiylasini payqamay, ularni quva ketdilar.

Qo'rg'on tepasida turgan Temirtosh tipirchilab qoldi.

– Voy, tentaklar-ey, hozir pistirmaga duch keladurlar!

– Voy, ahmoqlar, to'g'ri o'limning og'zina kirib ketayotganlarini payqamaydurlar, – dedi kulib Hojib.

Temirtosh shoshib pastga tushdi-da, darvoza yaqinidagi karvonsaroyda turgan otliq askarlar oldiga bordi. O'z bo'lukidagi yigitlarni otlantirib, darvozadan chiqdi. Askarlarning oldiga tushib olib, qilichini yalang'ochladi. Shu payt Qutluqxo'ja yigitlari ustiga bir guruh suvori mo'g'ul ot qo'yib kelayotgan edi. Temirtosh otning boshini qo'yib yubordi. Ot jang hidini payqab, qattiq kishnadi-da, qulog'i-ni chimirib, o'qdek uchib ketdi. Mo'g'ullar uzangisozlarni qurshab, ularga hamla qila boshladilar. Temirtosh yaqinidagi bir mo'g'ulni mo'ljalga olib, o'ng tomonidan ot soldi, yetib borib uning chap yelkasiga qilich urdi, mo'g'ul ikki nimta bo'lib, otining oyog'i ostiga tushdi. Temirtoshning askarlari kamonday egilib, mo'g'ullarni chap tomonidan o'rabi, chopqilay boshladilar. Mo'g'ullar biroz chopqilashib, otlarning boshini orqaga burdilar. Temirtosh ularni quvmasdan, darhol chekinishga buyruq berdi. Ko'zlarini moshdekk ochilgan uzangisoz yigitlar yaradorlar va o'lgnalarni ko'tarib, shosha-pisha darvoza tomon yugurdilar. Qutluqxo'ja boshidan qilich yeb o'lgan, bosh suyagi ikki palla bo'lgan edi.

Tashqarida qor bo'ralab yog'ib turar, ammo Bug'roho-jining darchasi qiya ochiq, mehmonxonasi issiq, uyning to'rt burchagiga qo'yilgan to'rt manqalda hidsiz saksovul ko'mir bozillab yotar, mehmon bilan mezbon dasturxon us-tida o'tirardi. Hoji qo'lidagi qalamtaroshi bilan olma artib, mehmon oldidagi likopchaga palaxsa-palaxsa qilib to'g'rab qo'yardi. Olmaning xushbo'y hidi mehmonxonani to'ldirib yuborgan edi.

– Hay, hay, bo'stonlarning hidi kelib ketdi, – dedi Badriddinxo'ja bir bo'lak oppoq olmani og'ziga solib. – Tangri ning qudratiga aql bovar qilmaydi.

– Yerto'lada olma ko'p, tortinmay olavering.

– Bu yanglig' noz-ne'matning hozir bahosi yo'q, oltung'a topolmaysen. Mening sandiqdagi olmalarim tamom bo'ldi.

Gap aylanib bozordagi narx-navo ustiga ko'chdi.

Hoji arpa-bug'doyning narxi oshib, tilla-kumushning qadri tushib ketganini gapirdi.

– Hademay elda qahatchilik bo'lgay, – dedi qalamtaroshini yonchig'iga solar ekan. –Anga yeturkim, faqir va miskinlar it-eshak go'shtin yegaylor.

– O'tror qal'asi ichida oziqa ko'p. Cheriklar ham bir yillik oshlig'in g'amlab olgan, – dedi Badriddin go'yo oziq-ovqatning ko'pligidan norozi kishiday tumtayib.

Mezbon qip-qizil yuzini o'rab olgan oppoq chanbar soqolini silab, o'ylanib qoldi.

– Qamal cho'zilib ketsa, qoon qo'shini oshliqsiz qolur, – dedi u tashvishlanib. – Har nima qilib bo'lsa-da, Hojibni tezroq qo'lga olib, taslim bo'lmoqqa da'vat etmoq lozim.

– Hojib kuni kecha kaminadan ikki yuz oltun qarz so'ragan erdi, ertaga berurmen deb va'da qildim, – dedi Badridin qora miyiqlari ostida kulib.

– Qancha tilasa bering, mening hisobimdan beravering.

– Albatta, amringizni bajo keltirurmen, – dedi xo'ja bosh egib. – Kecha Hojib mening uyimda mehmon edi. Gap ustida shu mahalgacha hech kimarsaga aytmagan, hatto Inolchiqdin ham pinhon tutgan bir sirini menga aytdi. Inolchiq o'ldirtilgan elchilar orasida Hojibning tog'ayvachchasi Berdiniyoz Xivaqiy ham bor erkan.

– E, Xivagiy aning qardoshi erkanmu? Qiziq! Ammo lekin bu shundog' bir kashfiyotki, andin foydalanmoq zarur.

– Men aning yuragiga o't solib qo'ydim. Qonga qon olmoq ham farz, ham qarzdur, deganimda, aning ko'zlarini yonib ketdi. Bilishimcha, o'zi kaltafahmroq yigitga o'xshaydur.

– Qancha kaltafahm bo'lsa, biz uchun shuncha yaxshidur, – deb uning gapini bo'ldi mezbon, – Qo'lg'a qo'ndirib olmoq osonroq bo'lur.

– Kaltafahmligin andin bildimki, bu yerga qoon lashkari yetib kelmasdin uch kun burun ikki yuz oltunga bozordan

ikki cherkas qizni sotib olmish. Falokat quyuni kelayotganda qayu aqlli odam bul ishni qilur? O'zi Gurganjdan ikki mulozimi, uch xizmatkori, oshpazi, bakovulin olib kelmish. Qamal vaqtida bularni boqib yotmoq osonmu?

– Mayli, qo'yavering. Agar ani o'z izmimizga solsak, novkar-chokarlari va joriyalarini boqmoqqa ko'maklashur-miz, – dedi Hoji miyig'ida kulib.

– Yana qiziq bir gap bor, – dedi mehmon muhim bir narsani aytayotgandek shipshib: – Munajjim Abdusafiy o'z do'stlariga: hozir Mirrix yulduzi g'arb soridir, g'arbdin urush qilg'onlar yengilur, deb aytibdur. Savdogarlar orasida aning so'zi shoye bo'l mish.

– Bu yaxshi gap. Imkonni boricha ani xalq orasida tarqatmoq lozim.

Bug'rohoji aytgandek, qo'rg'onne qamab yotgan mo'g'ullarning ahvoli kundan kun og'irlashardi. Ular uch oy ichida tevarak-atrof qishloqlardagi g'allani yeb, sigir-qo'y-larini so'yib tamomladilar. Mo'g'ullar o'rdugohida oziq -ovqat, yem-xashak tanqis bo'lib qoldi. To'g'ri, Ars va Sir daryolari-da baliq mo'l, qirg'oqlardagi to'qaylarda ilvasin ko'p edi. Bi-roq mo'g'ullar baliq va ov qushining go'shtini yemas, ularni makruh deb hisoblar edilar.

Chig'atoy o'z askaridan ko'ra shahar ichidagi xiyonatchilarga ko'p umid bog'lar edi. Bug'rohojining odamlari uning xatlarini o'qqa o'rabi, belgili joyga otar edilar. Mo'g'ullar bu xatlardan shahar ichida bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turardilar.

Temirtosh ba'zan o'z yigitlari bilan darvozadan chiqib, dushmanqa tashlanar, goho mo'g'ullardan asir ham olib qaytar edi. Dushmanning niyatidan xabardor bo'lib turish uchun asir olish kerak-da. Mo'g'ullar ham shaharga kirolmay qolgan mo'tabar odamlardan bir nechtasini garov tariqasida ushlab turishardi. O'sha mahal odatiga muvofiq, har ikki tomon asirlarni o'z odamlariga alishtirib olar edilar.

Alishtirilganlar orasida Temirtoshning bog' qo'shnisi – savdogar Buzrukxo'ja ham bor edi. Shahar darvozasi yonida Temirtosh u bilan salomlashib:

– Qanday qilib mo'gul ilkiga tushib qoldingiz? – deb so'radi.

– Sotiq-savdo qilayin deb Xo'jand borgan edim, – deb gapga tushib ketdi oppoq soqoli kir bo'lib ketgan rang-par savdogar. – Bag'oyat foyda ko'rdim, vale kech qoldim. Mo'g'ullar mendin oldinroq bu yerga kelib yetibdurlar. O'z bog'imda berkinib yotdim, ammo qutulib bo'lmasdi, yog'iy ilkiga tushdim. Meni o'ldirmoqchi bo'ldilar. „Yarmog'im bor, oltun bergayman“, dedim. „O'trorda oltuning bormu?“ dedilar, „bor“, dedim. Meni o'ldirmadilar, izzat-hurmat birla soqladilar. Yarmog'i, kuch-quvvati yo'q odamlarni mo'g'ul o'ldirdi...

Ko'pdan beri tanish-bilishlarini uchratmagan savdogar tinmay gapirar, ko'nglini bo'shatishga shoshilardi. Birroq Temirtoshning xayoli parishon, savdogarning gaplari u qulog'idan kirib, bu qulogidan chiqib ketar edi. Uning es-hushi onasida, onasini bog'da qoldirib kelgani uchun doim pushaymon yer: „O'z holiga qo'ymay, shaharga olib kirsam bo'lar ekan“, deb xafa bo'lardi,

– Mening kampir onam dunyoda bormu? –deb so'radi u yuragini hovuchlab.

Savdogar ikkilanib turib:

– O'lim barchaning boshida bor, o'g'lim, – dedi. – Mo'g'ul badbaxt kampirni chopib tashladi. Men janozasini o'qib, yerga berdim.

Keyingi so'zlar Temirtoshning qulog'iga kirmadi. U sochlarini yulqib yig'lay boshladi. Savdogar uh tortib, sherkilariga yetib olish uchun yugurdi.

Shu kundan boshlab Temirtosh kamgap bo'lib, yuragi toshga aylandi. U o'z yigitlarini boshlab kechalari darvozadan chiqib mo'g'ullar bilan chopqilashar, asir olib kelib, qisqacha so'roq qilardi. Javob berishni istamagan mo'g'ul-larni ayamay chonib tashlayverardi.

XIV

Inolchiq qabulxonasida munajjim Abdusafiyni sabrsizlik bilan kutardi.

Uch oy ichida hokimning ko'zlarini kirtayib, rangi ketib qolgan. U ba'zan tong otguncha qo'rg'on tepasida aylanib, navbatchilarga ko'z-qulqoq bo'lib yurar edi. O'qtin-o'qtin qo'shin sardorlari va jang ko'rgan oddiy askarlarni, shahar ulug'lari, hunarmand oqsoqollarni to'plab kengash o'tkazardi. Bugun shu xonada katta kengash o'tkazilgan, har darvoza va minora, qo'rg'on qismlari sardorlarining ma'ruzasi tinglangan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatilgan, buljor ahli o'rtasida qattiq nizom va tartib o'rnatish haqida gapirilgan edi. U hozir ham o'zini kengashda o'tirgandek his etib, ba'zi muhim masalalar ustida bosh qotirar: „Hay attang, xotirdin faromush bo'libdir“, deb qo'yari edi.

„Asli shahar yigitlariga bir kishini bosh qilib qo'yilsa, yaxshi bo'lar edi, – deb o'yldi u, – bu ishga Temirtoshday kishi munosib. O'zi hunarmandlardan chiqqan, ularning tilini biladi, bir yog'i qattiqko'l yigit, hunarmand yigitlar o'rtasida tartib joriy qilib, beboshlarni jilovlab ola biladi“.

Mulozim kelib munajjimning kutib turganini aytgach, xayoli tarqalib o'ziga keldi-da, qilich osgan kamarini to'g'rilab qo'ydi.

Eshikdan tishlari tushib, lablari ichiga kirib ketgan, kampirdahan, zog'cha ko'z bir chol kirib ta'zim qildi. Inolchiq o'rnidan turib, u bilan qo'l berib ko'risharkan:

– E, keling, munajjimboshi, sog'-salomat yuribdirlsizmu? Ko'pdan buyon ko'rmoqqa mushtoqmiz, – dedi haddan ziyod sertakalluflik bilan.

– Alhamdulillo, soyayi davlatlarida... sog'-salomat yuribdurmiz, duoyi jonlarini qilib...

– Salomat bo'lgaylar. Qani, marhamat, to'rga chiqsinlar.

Dasturxon ustida u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdilar. Munajjim tinchib, o'zini bosib olgandan keyin Inolchiq to'satdan:

– Mirrix yulduzi bu ayyomda g'arb soridur, – deb qoldi. – Kimiki g'arb tomondin urush qilsa g'olib bo'lur, – dedi shumnafas munajjimga ko'zini qattiq tikib, Abdusafiy uning ko'zidagi ifodani, toshdek qotib qolgan yuzini ko'rib kapalagi uchib ketdi. „Mening gaplarim hokimning qulog'iga yetibdi. Xalqni sarosimaga solganim uchun meni

jazolaydiganga o'xshaydi. Hozir jallodni chaqirib qolsa ajab emas, yo Rabbiy!" dedi ichida.

– Albatta, hm, – deb tomog'ini qirib qo'ydi u murdadek oqarib ketgan yuzini Inolchiqqa o'girib, – albatta... Masa-lan... Mirrix osmonning g'arbiy ufqida... albatta mo'g'ullar yengilgusidur. – U dag'-dag' titrar, tili kalimaga kelmas edi.

– Bu so'zingiz hikmatlidur, – deb uni tinchitmoqchi bo'ldi hokim. – Rost aytdingiz, Mirrix g'arb soridur...

Munajjim hokimning qo'lidan bir piyoła sharob ich-gandan keyin o'zini bosib oldi. Xayrlashib chiqib ketayot-ganda hokimning bir mulozimi unga yangi tulki po'stin kiygizib qo'ydi.

– Janoblariga arzimas sovg'amiz, – dedi Inolchiq kulim-sirab. – Duoyi jonimizni qilib, kiyib yursinlar.

– Mingdan ming rahmat. Boshim osmonga yetdi, siz-ning har bir so'zingizni qulog'imga isirg'adek taqib oldim.

Shu voqeadan keyin xalq orasida, yulduzlar g'alaba-dan bashorat beribdi, munajjim shundog' aytibdurlar, de-gan xushxabarlar tarqala boshladi.

Kechga yaqin Inolchiq Qoracha Hojib bilan birga qo'rg'on tepasida aylanib yurardi. Ikkovlari po'stinga o'ra-lib olgan, shimal tomonidan sovuq yel esib turar edi. G'arb tomonga og'ib, sovuq nurlarini sochayotgan quyosh yo-rug'ida mo'g'ullar yasov tortayotgan edilar. Ular borgan sari ko'payib borar, yasovning bir uchi ufqqa borib taqal-ganday ko'rinaldi. Mo'g'ullar orasida boshlangan harakat qo'rg'on tepasidagilarning diqqatini jalb etdi. Uzoqdan tu-rib qaragan kishi ular yuz elliq mingtacha bordir, deb gu-mon qilishi mumkin edi. Aslini surishtirilsa, Chig'atoy buy-rug'i bilan mo'g'ullar namatdan o'n minglab „odam“ yasab, ularni otlarga mindirgan edilar. Yasovdag'i cheriklarning qariyb yarmini shu namat askarlar tashkil qilardi. Bu – g'a-nimni qo'rqtish, lashkarlarni ko'p qilib ko'rsatish, yuragiga vahima solish uchun ishlatiladigan nayranglarning biri edi.

Mo'g'ul saflari oldida ikki otliq paydo bo'lgach, ular shunday qattiq suron ko'tardilarki, yer-ko'k larzaga kelgan-day bo'ldi. Bu suron qo'rkoq, qarorsiz bo'lgan kishilarning-gina yuragiga g'ulg'ula solardi, ammo u Inolchiqqa hujum

da'vat qiluvchi burg'u ovozidek eshitildi. Biroq u mo'g'ullarning bu nayrangini bilmagani uchun: „Rostdan ham mo'g'ullar behisob ekan,” – deb o'yldi. – Shunchalik katta qo'shinni bu yerda band qilib turishning o'zi katta gap. Son-sanoqsiz qo'shin biz bilan ovora bo'lib tursa, sulton bilan Manguberdi Mavarounnahr va Shimoliy Eronda talay qo'shin toplash imkoniyatig'a ega bo'ladi. Dushmanni shu yerda mumkin qadar uzoqroq band qilib turish, uning safini siyraklashtirish bizning burchimiz. Har bir odamning boshida bir o'lim bor, bas, shunday ekan, mardlik bilan o'lish kerak“.

Mo'g'ullarning suroni Qoracha Hojibning xayolxonasida bunga zid bo'lgan fikrlarni uyg'otdi: „O'ho',.. Mo'g'ulning lashkari son-sanoqsiz, kuch-qudrati benihoya ekan-ku! Shunday katta qo'shinga qarshi urushib bo'ladimi? Bizni ular chuvalchangdek ezib tashlaydilar. Bas, shunday ekan, qarshilik ko'rsatishning nima ma'nosi bor?”

Shu payt tutun chiqarib sasib kelayotgan yondiruvchi o'q ularning oyog'i ostiga kelib tushdi. Inolchiq upuka etigining poshnasi bilan yona boshlagan o'jni ezg'ilab o'chirdi. Ko'p o'tmay, qo'rg'on tagidagi uy ustiga piligi sasib kelayotgan kuvacha tushib yorildi-da, ichidagi nefti har yoqqa sochilib yona boshladi, tomdagi pichanni o't oldi. Uy egasi – soqoli oppoq chol o'tni arang o'chirdi.

– Mo'g'ul zang'ar tek yotmay, xitoydin ko'p narsa o'r-gangan ekan, – dedi Inolchiq o'ylanqirab. – Biz esa quruq lof urib yurgan ekanmiz.

– Rost, – deb Hojib uning gapini tasdiqladi, – mo'g'ul bizdin kuchli, cheriki biznikidan ko'p erkan.

– Ko'p bo'lsa dog'i urushamiz, oz bo'lsa dog'i! Qul bo'lib yashamoqdin o'lgan yaxshi.

„Bu mutaassib odamga so'z uqtirib bo'lmaydi. O'lsa ham taslim bo'lmaydi, o'zi ham nobud bo'ladi, bizni ham juvonmarg qiladi“, deb o'yldi Hojib bosh chayqab.

Oradan ko'p o'tmay, mo'g'ullar qo'rg'onni toshbo'ron qilishga kirishdilar, uzoqqa otadigan og'ir kamonlardan o'qlar yog'ila boshladi. Toshlarning qo'rg'on kunguralariga tegib gumburlashi, sarosimadan foydalanim darvoza osti-

ga kelib qolgan mo'g'ullarning dahshatli suroni, nog'orarning taraklashi, karnaylarning g'at-g'ati havoni larzaga keltirdi. Qo'rg'on himoyachilariga mo'g'ullarning jang rusumi tanish bo'lib qolgan edi. Ular darvoza tagiga to'planib, himoyachilarini chalg'itishlarini, pusib yotgan hujumchilar boshqa joyda qo'rg'on tepasiga chiqib olishga urinishlarini bilar edilar. Shu sababdan, hamma joyda mudofaa-chilar mo'g'ullar hujumini qaytarishga shaylanib turdilar. Ba'zi joylarda qo'rg'on tepasiga chiqib olgan mo'g'ullar bilan qo'l jangi boshlandi, har ikki tomondan bir talay odam o'ldi. Mo'g'ullarning bir qismi pastga qulatib tushirildi. Birroq darvozalar oldida suron to'xtamadi.

Inolchiq pastga tushib, darvoza oldiga keldi. Shu payt uning oldiga rangi za'faron, yuz-ko'zi chang, kiyimlariga tuproq tekkan bir yigit kelib, salom berdi-da, hovliqib:

– Yer ostidan dukurlagan ovoz eshittdik, – dedi. – Bozor boshi tomonidin.

– A? Dukurlagan ovozlar? Buni qarang-a? Shu narsani xotirdan faromush etibman.. Hoy, Temirtosh, bu yoqqa!

Darvoza oldida yigitlari bilan turgan Temirtosh uning oldiga chopib keldi.

– Darhol darvozalar yaqinidagi mahallalarda navbat-chilik qilayotgan yigitlarga xabar qil, uxlamasinlar, sergak bo'lib tursinlar! Sen o'zing yigitlaringni boshlab, shahar aylanib yur. Qayerda ko'rsichqon ko'rinsa, o'ldiraveringlar!

Inolchiq darvozalar yaqinida chuqur yerto'lalar qazdirib, u yerga navbatchilar qo'ygan edi. Bularning vazifasi doim qulq solib o'tirish, agar yer ostidan biror ovoz eshitilsa, chiqib darhol xabar berishdan iborat edi. Mo'g'ullar aksari yer ostidan naqib (lahim) qazib, shaharga kirib olar, o'z askarlariga darvozani ochib berar edilar. Xitoy ustalari beldorlarga ishboshilik qilar, qo'llaridagi qiblanomaga¹ qarab, qayoqqa qarab qazishni ko'rsatib turar edilar...

Darvoza yaqinidagi bozor maydonida yigirma chog'lik qurolli yigit katta to'nkani yoqib, uning atrofida isinib o'tirishardi. O'n to'rt kunlik oy osmonda jilmayib turar, yangi

¹ Qiblanoma - kompas.

yog'gan qor tomlarda ko'kish tusga kirib tovlanardi. Chitirlab yongan olovning qizil shu'lalari yigitlarning betlari, o'tga tutilgan kaftlarida aks etar, ularning og'zidan chiqqan bug' esa gulxandan ko'tarilgan tutun bilan qo'shilib ko'kka yuksalardi. Qalin kiyinib, yonlariga qilich osgan, soqollari qop-qora bo'lib chiqqan hunarmand yigitlar har vaqt yoshlarini qiziqtirgan mavzu ustida: qizlar, qalliq o'yini, yangi uylangan yigitning rohati to'g'risida gaplashib o'tirar edilar. Faqat o'rta yoshli, mosh-birinch soqolli odam – ularning o'nboshisi suhbatga aralashmas, go'yo: „Mayli, gapiraveringlar, mening yoshimga yetib, to'rtta bolali bo'l-gandan keyin boshqacha sayraydigan bo'lib qolasanlar“, degandek miyig'ida kulib qo'yar edi.

Shu payt ulardan yuz qadamcha narida, maydonning qorong'i burchagida katta o'raning og'zidek keladigan joy qimirlab o'pirilib tusha boshladi, keyin o'ra paydo bo'ldi. Oldin aft-angori sarg'ayib ketgan bir mo'g'ul alanglab, har yoqqa qaradi-da, keyin boshini ichkari tortdi. To'lin oy bulut orqasiga yashirinib oldi, atrofni qorong'ilik bosdi. Mo'g'ul askarlari birin-ketin naqibdan chiqa boshlashdi, qilichlarini qo'lga olib, gulxan agrofida bamaylixotir o'tirgan yigitlar tomon pusib kelaverishdi. Shu payt oy bulutlar orasidan chiqib, tevarak-atrofni yoritib yubordi, mo'g'ullar esa yerbag'irlab yotib olishdi. Gulxan yonida o'tirgan o'nboshi bir narsani sezganday orqasiga o'girilib qaradi-yu, yigirma qadamcha narida ilondek sudralib kelayotgan mo'g'ullarni ko'rib, qilichini qinidan oldi, g'alati ovoz bilan:

– Turinglar, yov keldi, qilich yalang'ochlang! – deb baqirdi.

Yigitlarning ba'zilari shoshib, nima qilishlarini bilmay qoldilar, qushyorroqlari qilich yoki kistanlarini¹ ko'targan holda suron ko'tarib yov ustiga yopirildilar. Bulutlarga yastangan oy bir-biriga pala-partish qilich solayotgan, urushayotgan, bo'g'ishayotgan odamlarni hayrat bilan tomosha qilayotganday edi. Borgan sari ko'payayotgan mo'g'ullar birpasda besh-o'n kishini yer tishlatib qo'ydilar. Hech

¹K i s t a n – temir cho'qmor.

narsadan xabari bo'lмаган mahalla aholisi ko'chaga chiqib, nima qilishini bilmay turar, xotinlar dod-voy qilardi. Hamma, mo'g'ullar darvozalardan shaharga kiribdi, deb o'yagan edi.

Temirtosh shovqin-suronni eshitib, qilich yalang'ochla-di-da, bo'lukni ergashtirib, jang bo'layotgan yerga ot chop-tirib keldi. Uning yigitlari mo'g'ullarni o'rabi olib, boshla-rida qilich o'ynata boshladilar. O'rtada qolgan o'n chog'lik kosib yigitlar ham o'zlarini o'nglab olib, sarosimaga tush-gan mo'g'ullarni urib yiqita berdilar.

Bu orada mahalla aholisi naqibning og'zini topib, u yer-dan bosh chiqargan mo'g'ullarni urib yiqitaverishdi. Bir taqachi chol gulxan qaladi-da, uyidan katta bir temirchi damini olib chiqib, naqibning ichiga tutun yubordi.

– Mo'g'ul badbaxt endi bo'g'ilib o'ladi, – deb kuldii u xirillab. Biroq ayyor mo'g'ullar dud yo'lini to'sgan bo'lsalar kerak, tutun qaytib chiqa boshladili.

Oqliqlar va hunarmand yigitlar mo'g'ullarni birpasda qirib tashlashdi, faqat bittasigina omon qolgan, u orqa-sini devorga tirab, uzun qilichi bilan o'zini himoya qilar edi. Temirtosh otdan tushib, uning oldiga keldi. Aftidan, yuzboshiga o'xshagan bu novcha mo'g'ulga tikilib, o'ng qo'lining mushtini biqiniga tiraganicha qop-qora soqolini chimdib turib:

– Kel, qilichbozlik qilaylik, – dedi.

Uning ko'zlaridan nafrat va adovat uchqunlari sach-rar edi. Qilichbozlikda tengi bo'lмаган Temirtosh birinchi to'qnashishdayoq raqibining kuchli va chapdast ekanini payqadi. Biroq mo'g'ullarga qarshi yuragida yongan adovat o'ti uning kuchiga kuch qo'shar edi. U har safar bি-rrata mo'g'ulni chopib o'ldirganda: „Ehtimol, onamni o'l-dirgan shu ablaha'dir“, deb o'ylar, yuragidagi alam o'tining tafti pasaygandek bo'lardi. Novcha, qo'llari uzun mo'g'ul yigitga birinchi qarashdayoq: „Onamni shu ablaha o'l-dirgan chiqar“, degan fikr Temirtoshning xayolidan o'tdi.

Yuzboshi tisarilib turib, Temirtoshning boshiga qilich soldi. Temirtosh ustalik bilan bu zarbani daf etib, qilichi-ning uchi bilan uning yuzini yaraladi, mo'g'ulning yuz-ko'zi qonga bo'yaldi. Mo'g'ul xuddi yaralangan yo'lbarsdek

ingrab, tishlarini g'ichirlatib, raqibi ustiga tashlandi. Dunyoda o'ch olishdan boshqa narsani unutgan Temirtosh o'zini bosib olib, safrosi qaynab ketganidan yanglish harakat qilayotgan dushmanini devorga tirab qo'ydi. Tevarak-atrofini o'rab olgan yigitlar qiyqirishib, tomoqlaridan turli tovushlar chiqarib, uni olqishladilar. Har gal Temirtosh mo'g'ulning zARBASINI ustalik bilan qaytarganda, do'stlari yengillanib nafas olishardi. Sheriklarining xayrixoh nazarlari Temirtoshning yuragiga dalda berar, ammo bu ma'naviy kuch mo'g'ulning yuragini bo'shashtirar, ruhidagi olovni so'ndirardi. Temirtosh qulay payt topib turib, bir zarba bilan raqibining qo'lidagi qilichini yerga tushirib yubordi-da, do'stlarining olqishlari ostida uning kallasini shartta tanidan judo qildi.

Bu vaqtida mahalla aholisi hovuzdan ko'za-ko'za suv keltirib, naqibga quyaverdi, mo'g'ullarni u yerdan qochirib yubordi.

XV

Qish qartayib, o'z o'rmini bahorga tashlab ketgisi kelmay, zahrini sochar, ayniqsa, kechalari quturib, kunduz kuni sal-pal erigan yerni muzlatib chiqardi. Sovuq ochlik bilan birgalashib, kambag'al-bechoralarning yostig'ini quritar, butun boshli uylarini huvullatib qo'yari edi.

Savdogarlar, qallob odamlar yerda yotib mog'or hidi urib qolgan ortiqcha don-dunlarini, hatto hovuzlaridagi sarg'ayib qolgan suvlarini kosalab sotar, xalqning boshiga tushgan falokatdan foydalanib, davlat orttirar edilar.

Temirtosh bu ochko'z qallob odamlarni ko'rganda qoni qaynab ketar, ularni chopib tashlagisi kelardi: „Biz jon berib, jon olayotganimizda bu odamlar donlarini marvaridga, qurtlagan suvlarini kumushga aylantirayotirlar, bo'yniga qilich urish kerak bularning!“ deb g'ijinardi. Biroq unda hech qanday huquq yo'q, tirsagini tishlashga og'zi yetmas edi.

Bir kuni qal'a burchidan turib, boshlig'i Qulnazар bilan birga dushman jabhasini ko'zdan kechirayotganda:

– Tashqaridagi yovdin ichkaridagi dushman xatarliroq,
– deb qoldi. – Mo'g'ullarning ne ish qilayotganini ko'rib turamiz, ammo ichimiddagi yovning ne ish qilayotganini bilmaymiz.

– Rost aytasen, – dedi Qulnazар unga o'girilib. – Molning olasi tashida, odamning olasi ichida, deb bekorga aytmag'onlar. Sendan yashiraturgan sirrim yo'q: Hojibdin gumonim bor. Zohirda bizga sodiq ko'rinsa dog'i qo'yinda tosh olib yuraturganga o'xshaydur. Sen mayda qalloblarни, savdogarlarni aytasen. Alarni hozircha qo'yib tur, avval ilonning boshini yanch, dumi likillay bersa-da, ko'p zarar yetkazolmaydur.

– Qoracha Hojibning xiyonat ko'chasiga kirganini qaydin bildingiz?

– Men, bildim, deb aytg'onim yo'q. Gumonim bor, dedim. Aning oyoq tashlashidin shubhalanamen. Kechalari qayerlargadir borib, kimlar birla og'iz o'pishib yurg'onin bilurmen...

– Andoq bo'lsa, hokim janoblariga bul haqda xabar bermoq lozim...

Izg'irinda unniqib ketgan, tomog'i qo'shdan chiqqan ho'kizning bo'ynidek burishib, osilib-osilib tushgan Qulnazар horg'in ko'zlarini ko'tarib, Temirtoshga qaradi:

– Bu fikr mening ham aqlimg'a kelgan erdi, ammo urinib bir ish chiqara bilmadim...

Bundan ikki kun ilgari Qulnazар mingboshi hokimning oldiga borib, o'ziga tegishli buljorda ishlar qanday ketayotganidan hisob bergandan keyin Qoracha Hojib to'g'risidagi shubhalarini unga aytgan edi.

– Mening odamlarim Hojibning Bug'rohoji evina tun qorong'isida borib, bir necha bor mehmon bo'lib kelgani ni aytdilar. Niyati yaxshi bo'lsa, qorong'ida, kishi bilmas birovnikiga boradurmu? Qo'rqamenki hojinikida xiyonat o'rmaguchlari xiyonat to'rin to'qib, bizlarni domlarig'a ilintirmoqchilar...

Qulnazar Qoracha Hojib va Bug'rohoji to'g'risida eshitgan, bilganlarini gapirib xiyonatning oldini olish uchun bior tadbir ko'rishni hokimdan iltimos qildi.

Sultondan madad kelmagani uchun xunobi oshib yurgan Inolchiq Qulnazarga kirtaygan ko'zлari bilan qattiq tikilib, ichida: „Tashqi dushman yetmaganidek, endi sarkardalar o'rtasida ichki nizolar boshlanadigan ko'rindi, – deb o'yadi. – Bu odam rostdan ham bir narsaning daragini bildimi yoki Hojibga qarshi ig'vo qilib, uning o'rnini egallamoqchimi? Yo'g'-e, Qulnazar sofko'ngil odam, ammo uyqusizlik va mag'lubiyatlar uning asablarini bo'shashtirib, har narsaga shubha ko'zi bilan qaraydigan qilib qo'yan. Rost, Hojibdan har narsa kutsa bo'ladi, lekin shuncha jang-jadal qilib, bir talay dushmanning qonini to'kdi, endi taslim bo'lsa, mo'g'ullar uning boshini silamasligini yaxshi biladi“.

– Bul ishni menga qo'yib bering, siz o'z vazifangizni bajarmoqdan boshqa narsani o'ylamang, – dedi u nihoyat.

Qovog'i osilib ketgan Qulnazar o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, boshini quyi solganicha orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Temirtosh uning hikoyasini eshitib tutaqdi:

– Birinchi ko'rishdayoq xo'ppasemiz, bir tuki yo'q, lablari qalin Hojibni yoqtirmog'on erdim. Andin har narsa kutsa bo'ladur. Menga ruxsat bering, otish-tutish vaqtida bir o'q birla ani jo-bajo qilay!

– Yo'q, emdi fursat o'tdi, – deb xo'rsindi Qulnazar. – Hojibni o'ldirsang, mendin ko'radurlar. Asli Inolchiq olig'a bormay, shul ishni o'zimiz bartaraf qilsak bo'lar erkan, Attang! Nachora, o'tgan ishga salavot!

XVI

Chig'atoy bilan O'qtoy issiq o'tovning to'rida to'rtburchak kimxob to'shak ustida o'tirib, Chingizzon yuborgan choparning hikoyasini tinglashardi. O'rtadagi katta manqalda issiz saksovul ko'mir lang'illab yonib turar, pakanganina, chertsa ikki betidan qon tomadigan yuzboshi eshik

oldida turib, Buxoroning ishg'ol qilinishi¹, qo'lga kiritilgan hisobsiz o'ljalar to'g'risida og'iz ko'pirtirib gapirardi.

– Otlarimizni machitlarga bog'lab qo'yib, Buxoroni uch kun taladik. Cheriklarimizning qo'yni-qo'nji to'ldi, – der edi u buxorolik bir savdogarning ustidan shilib olgan savsar po'stinning oldini ochib qo'yib. So'ngra kepchikday yuzi tirjayib turgan xushchaqchaq O'qtoya qarab: – Oltin-kumush, yana qimmatbaho buyumlar... – deb gapira boshlagan edi, Chig'atoy sabrsizlik bilan uning so'zini bo'ldi:

– Menga qara, oltin-kumushlarni inimizga keyin so'y-lab berarsan. Sen Buxoro urushidan gapir.

– U yerda ikki ming chog'liq cherik bor erkan. Urush ko'pga bormadi, lekin shahar kosiblari qattiq savashdi, anchagina sheriklarimizni o'ldirdi. Ha, aytmoqchi, Buxoro olingach, Xorazm shohi o'z ulusi va qo'shinini tashlab, Amu bo'yiga qochibdur. Hozir Kelifda chiqar. Ha, aytgan-dek...

– Hoy, menga qara, – dedi Chig'atoy sarg'ish ko'zlarni chaqnatib. Ichida: „Otam shunday ahmoq bir odamni nega chopar qilib yuboribdi?“ deb o'yladi. – Bu tomonga kelayotganda otamiz, ulug' qoon nima dedilar?

– Ulug' qoon: „Suv bir yerda uzoq turib qolsa sasiydir, cherik harakatsiz yotsa buziladur“, deb aytdilar, – dedi yuzboshi tirjayib. Bu gapning ma'nosiga tushunmagani uning aftidan bilinib turardi. Chig'atoy boshini quyi solib o'yga toldi. Chingizzon shu chopar orqali yuborgan maktubida ham zud harakat qilishni, bir oyga qoldirmay O'torni ishg'ol etib, Samarqandga yetib kelishni buyurgan edi.

Besh oydan beri shu yerda turib qolganidan, yuz mingga yaqin askar bilan bir ish chiqarolmaganidan o'zi ham xafa edi. Ammo shu bugun ertalab Bug'rohojidan olingan maktub uning ruhini ko'tardi.

„Qoracha Hojibni taslim bo'lmoqqa ko'ndirdik, – deb yozgan edi Bug'rohoji, –Hojib, agar bir tuman otliq askarimni o'z ixtiyorimda qoldirsalar, qoon qo'shini safida xizmat qilmoqqa tayyormen, deb aytdi. Men sizning nomin-

¹ Buxoro 1220-yil, fevral oyida ishg'ol qilingan edi.

gizdin aning shartlarini qabul qildim. Har holda shu hafta ichida So'fi darvozadin chiqib taslim bo'lsa ajab emas".

Xoin o'z xatini: „Qoon qo'shinlarig'a Ollohdin madad tilab yotibmiz, tez kunda diydor ko'rishmoqni nasib va ro'ziy qilsin!“ deb tugatgan edi.

Darhaqiqat, oradan uch kun o'tgach, O'tror tarixida eng dahshatli bir voqeа yuz berdi.

G'ira-shira tong qorong'isida darvoza yaqinidagi maydondasovut ustidan po'stin kiyib olgan Hojib bir necha mulozimi bilan turardi. U o'zini har vaqtdagidek sokin tutishga urinib, ot ustida viqor bilan o'tirar, lekin yonidagi mulozimi Qutlimurod Hojibning rangi o'chib, quyi jag'i titrayotganini payqadi. Rostdan ham Hojib o'zini suvga tashlash uchun yalang'ochlangan kishidek his etardi. Yalang'ochlandingmi, albatta o'zingni suvga tashlapping kerak, bo'lmasa boshqalar seni itarib tushirib yuboradi.

Hojib Gurganjdan kelgan bir tuman askarning, xususan, mingboshilar va yuzboshilarning o'ziga sodiqligini yaxshi bilardi. Shu vajdan u qo'rqlmay, shu bugun taslim bo'lishga ularni ko'ndirgan edi.

Oradan ko'p o'tmay, darvoza yaqinidagi saroylardan ming otliq askar chiqib, katta maydonda saf tortdi. Yaqin o'rtadagi qo'ralardan otliqlar chiqaverdilar.

Darvozaning ikki tavaqasi lang ochilgach, suvorilar odatga xilof ravishda, otlarini sekin-asta yurgizib, dalaga chiqa boshladilar. Askarlarning ko'pchiligi taajjublanib, bir-birlariga qarab, lablarini jiyirib qo'yari, chunki darvozadan ot choptirib chiqib, g'anim bilan chopqilashamiz, deb o'ylagan edilar.

Darvoza tagida shaylanib turgan mo'g'ul qo'shini qipchoqlarni o'z oralaridan indamay o'tkazib yubordi, so'ngra to'g'lonni buzib ketgan suvdek tez sur'at bilan shahar ichiga oqib kira boshladi.

Dushman shahar ichiga kirib olgandan keyin qo'rg'on tepasidagi askarlar (qo'shining asosiy qismi qo'rg'on te-pasida edi) ikki olov o'rtasida qolib, hech nima qilolmadi. Ular ustiga ham tashqaridan, ham ichkaridan, o'q yog'ilaboshladi.

Shu paytda shahar aylanib yurgan Temirtosh yuzta askari bilan darhol ichki qal'aga boradigan katta ko'chaning og'zini to'sdi-da, qarshisidan bostirib kelayotgan mo'g'ul-larga o'q yog'dirib, ularni tutdek to'ka boshladi. Biroq mo'g'ul otliqlari yon ko'chalardan orqasiga o'tib, ularni o'rabi oldi-yu, qilichlarini ishga soldi. Qurshovda qolganlar kamondan o'q otib, o'zlarini himoya qilmoqchi bo'ldilar, sadoqlari bo'shab qolgach, qilichlarini yalang'ochlab chopqilasha boshladilar. Dahshatli qo'l jangi bir necha daqiqa davom etdi. Temirtosh boshliq yuz yigitning hech biri dushmanga taslim bo'lmay, oxirgi nafasigacha urushib halok bo'ldi...

Bolalik chog'ida shu katta ko'chani changitib o'ynab yurgan Temirtosh o'z qoniga belanib, uning tuprog'iga yuzini qo'yib yotib qoldi.

Janub darvozasi Qulnazarxo'janing buljori edi. Shahar ichida mo'g'ullarning paydo bo'lganini eshitgach, u o'z askarlarini to'plab, ichki qal'a tomon ot surdi. Biroq Bug'rohojiga sotilgan mulozimlardan biri orqasidan o'q uzib, uni ham qulatdi. Boshliqsiz qolgan askarlar har yoqqa to'zib ketishdi. Mo'g'ullar bu darvozaning qulfini bolta bilan urib ochdilar. Bu yoqdan ham mo'g'ullar toshqin suvidek oqib kiraverdi.

Inolchiq uch ming askari bilan ichki qal'aga kirib, darvozalarni berkitib oldi, himoyasiz qolgan shahar ichida esa qirg'in boshlandi. Mo'g'ullar podaga kirgan bo'rilardek qu turib, yashirinishga uringan odamlarni o'ldirar, qamish bilan yopilgan tomlarga o't qo'yar, xalqni talar edilar.

* * *

Qoracha Hojib askarlari darvozadan ancha uzoqlashganidan keyin ularni mo'g'ullar halqadek o'rabi olib, Hojibning o'zini Chig'atoyning oldiga olib ketdilar, eng oldin lopillab yonib turgan ikki gulxan orasidan o'tkazib, „ins-jins“ dan xalos qilganlaridan keyin, uni ikki mo'g'ul yigitni ikki qo'lidan ushlaganicha ziynatli oq o'tovga olib kirdi. To'rdagi to'shak ustida mushuk yuzli, targ'il ko'zli Chig'a-

toy tumtayib, qovog‘ini solib o‘tirar, barkashday yuzi yarqiran O‘qtoy esa uzun mo‘ylovlarini burab, tirjayardi.

Hojib eshik oldida o‘ng tizzasini yerga uch marta tekki-zib o‘rnidan turdi-da, ta’zim qilganicha qotib qoldi. Chig‘atoy esa o‘ng qo‘lining mushtini tizzasiga tirab, ko‘zlarini qisib boqdi:

- Qoracha Hojib degani senmusen?
- Oriy, men zoti oliylari qoshig‘a taslim bo‘lish shartlari to‘g‘risida muzokara olib borgani keldim.

O‘qtoy uning gapini eshitib, qah-qahlab kulib yubordi.

- Biz muzokara olib bormoq uchun emas, buyruq bermoq uchun bu yurtga kelganmiz, –dedi Chig‘atoy keskin.
- Men ham qoong‘a xizmat qilmoq niyatidamen.
- Xo‘s, ayt-chi, nechun sultoningga xiyonat qilib, biz tomonga o‘tding?

– Lashkari son-sanoqsiz qoong‘a xizmat qilmoqni omadi ketgan sulton xizmatidan afzal ko‘rganim uchun.

– Sulton Muhammad senga baland martaba berib, yersuv, mol-u dunyo in’om qildi, andin hech yomonliq ko‘r-mading. Rostmi?

- Oriy rost, – dedi Hojib shivirlab.
- Bas, anga, sultonga xiyonat qilmoqning sababi nedur?
- Qoonning omadi andin ustun, ilki uzun bo‘lg‘oni uchun.
- Faraz etaylik, seni xizmatga oldik. Mabodo, boshqa bir podshoning omadi balandroq kelsa, sen qoonga xiyonat qilib, aning xizmatiga o‘tgaymusen?

Hojib o‘ng‘aysizlanib:

- Dunyoda qoondan omadliroq podsho bo‘lmaydur, – deb g‘udrandi.
- O‘z podshosiga xiyonat qilgan kishi begona podshoga sodiq bo‘lolmaydur, – dedi Chig‘atoy ko‘zlarini chaqnatib. – Ko‘zimdan yo‘qoting buning nahn basharasini.
- Oborib O‘trorga hokim qilib qo‘ying, – dedi O‘qtoy kulib.

Hojibni o‘tovga olib kirib ketganlarida, bir mo‘g‘ul sarkarsi uning qo‘shiniga: „Otdan tushinglar“, deb buyruq berdi.

– Nega endi? Biz o‘z bo‘lukimiz bilan qoonga xizmat qilmoqchimiz.

– Sizlarni hech kim bir-biringizdin ayirmoqchi ermas. Hozir Chig‘atoy janoblari chiqib siz birla so‘ylashurlar. Siz ot ustida qurol bilan, u kishi oyoq ustida tursa yaxshi bo‘lmas, – dedi mo‘g‘ul sarkardasi.

Qipchoqlar istar-istamas otdan tushishdi, mo‘g‘ullar ularning otlarini yetaklab olib ketaverishdi.

– Endi qurollaringizni ham bir yerga qo‘ying.

Otdan tushib bo‘sashib qolgan askarlar qurollarini belgilangan joyga qo‘yib, bir chekkaga chiqib turdilar. Mo‘g‘ullar quolsiz askarlarning kiyimlari,sovutlarini yechib oldilar, ustlariga ot qo‘yib chopcha boshladilar. Hojib o‘tovdan chiqqach, shu dahshatli manzarani ko‘rdi-yu, tiz-zalari qaltirab, dunyo ko‘ziga tor ko‘rinib ketdi. Yonidagi yigitlardan biri ro‘paradan qilich o‘ynatib ustiga kelaverdi, ikkinchi mo‘g‘ul esa orqadan kelib, kallasini sapchadek uzib tashladi.

Shahar ichi achchiq tutun hidiqa to‘lgan, yonayotgan qamish tomlarning alangasi osmonga ko‘tarilar edi. Mo‘g‘ullar xalqni dahshatga solish uchun uylarga neft sepib o‘t qo‘yar edilar. Hamma yoqni dodlagan ayollar, chinqirgan bolalarning tovushi bosib ketgan edi. O‘tror shahri bunyod bo‘lgandan beri bunday qirg‘inni, bunday xunrezlikni, bunday yong‘inni ko‘rmagan edi.

Temirtoshning qallig‘i Minglioy mo‘g‘ul yigitlarining diqqatini jalb qilmaslik uchun yangasining maslahati bilan eski kiyim kiyib, yuzining u yer-bu yeriga qorakuya surtib qo‘ydi. Biroq na juldur kiyim, na qorakuya payvasta qoshlar, loladek yuzlarning go‘zalligini yashirolmasdi. Afsuski, yangasi uni panaroq joyga yashirishga ulgurolmadi, ularning uylariga ikkita mo‘g‘ul yigitni bostirib kirdi. Ayollar nima qilishlarini bilmay, turgan joylarida qotib qolishdi. Qisqa bo‘yli, ko‘zlari qisiq bir mo‘g‘ul to‘g‘ri kelib qizni qo‘lidan ushladi-da, yuzini yorug‘ga solib ko‘rib:

– Mana bu go‘zalni qara, yuziga qora surtib, bizni aldamoqchi bo‘libdi-ya, – dedi.

Shu payt Minglioy mo'g'ulning qo'lini tishlab oldi-yu, chopib narvondan tomga chiqib ketdi, ikkinchi yigit uning ketidan yugurgan edi, qizning yangasi oyog'iga yopishdi, chap qo'li qonab ketgan pakana yigit ijirg'anib, o'ng qo'li bilan qilichini qinidan sug'urib oldi-da, yerda yotgan ayolni chopib tashladi. Minglioy esa qo'shnilarining yonib turgan tomiga o'tdi. Birozdan keyin olov ichida qolgan qizning chinqirig'i eshitildi-yu, so'ng jimib qoldi...

Mo'g'ullar talab olgan buyumlarini boshliqlari ko'rsatgan joyga uyib tashlayverdilar. Kumush yo oltin bilaguzuk, yoki uzuk singari narsalarni ham boshliqlaridan yashirish-dan qo'rqqan cheriklar qo'llariga tushgan hamma qimmat-baho buyumlarni ularga topshirardilar.

Oradan uch kun o'tgach, o'lja taqsimlandi. Uning yar-mi qoon bilan o'g'illariga ajratildi. Bir qismi boshliqlar o'r-tasida, ularning mansablariga yarasha teng taqsimlandi. O'ljaning o'ndan birigina oddiy cheriklarga ulashib berildi. Oddiy cheriklarning xalqdan tortib olib ustlariga kiygan kiyimlari, poyabzallari yoki qo'lga kiritgan egar-jabduq, uy-ro'zg'or asboblariga boshliqlar tegmadilar. Uy-ro'zg'or asboblari oddiy cheriklarning qo'shin orqasida ergashib ke-layotgan oilalariga kerak edi.

Mo'g'ul jarchilar: „Kimki yashirinsa, o'ldiramiz, hamma ko'chaga chiqsin“, deb ko'chama-ko'cha baqirib yurishi-di, shuning uchun hamma, Chig'atoyning buyrug'iga bi-noan shahar tashqarisiga chiqdi. Mo'g'ullar ular orasidan o'z qo'shinlari uchun kerakli qurolozlar, uzangisozlar, taqachilar, temirchilar, aravasozi, to'quvchilar va boshqa kasb egalarini bir chekkaga ajratdilar. Bug'rohoji bilan Badriddin katta savdogarlar bilan ruhoniylarni o'limdan qutqarib qolishdi. Boylar o'zlarining bola-chaqalari, yaqin odamlarini mo'g'ullardan tilla barobariga sotib olishdi. Qolgan hamma erkaklar va bolalar qilichdan o'tkazildi.

Xotin-qizlar boshqa yerga to'plangan edi. Mo'g'ullar o'zlariga yoqqan ayollarni tanlab, qolganlarining kiyim-boshlarini yechib olishdi. Qip-yalang'och ayollar uyalgan-laridan yerga kirib ketgudek bo'lib, qo'llari bilan ko'krakla-rini, sonlarini to'sib turishar, yoshroqlari turtinib-surtinib,

to'daning o'rtafiga kirib olishga urinishardi. Bir chekkada turgan novcha ayol mo'g'ullarga qarab:

– O'ldirsalaring tezroq o'ldiringlar, juvonmarglar! – deb baqirdi.

– Bu sharmandalikdan o'lgan yaxshi!

– Yer yutkurlar, nima qilib irjayib turibsizlar, huv, ko'zlarining teshilsin!

– Benomus battollar! – degan g'azabnok tovushlar eshitildi ayollar orasidan. Otliqlar qilichlarini yalang'ochlab, qiy-chuv ko'targan ayollarni chopacha boshladilar.

– So'ng har qaysi kasb egalarini alohida-alohida guruhlarga ajratib, ularni Samarqandga qarab haydadilar.

Hunarmandalor oppoq bo'lib uyilib yotgan ayollar yonidan o'tayotganlarida, allakim:

– Ablahlar, ayollarni yalang'ochlab chopib tashlabdur-lar-a! – deb yubordi.

Abdumajid usta:

– Axiylar, shahid bo'lgan opa-singillarimizning yalang'och badanlariga qaramanglar, alarning hurmati uchun ko'zingizni yumib o'tinglar, – dedi-da, shivirlab duo o'qib, yuziga fotiha tortdi. Kosiblar ham duvullab yosh oqib turgan yuzlarini qadoqli qo'llari bilan siypadilar. Allakim ho'ngrab yig'lab yubordi. Shu mahalgacha ko'zlariga yosh olmagan erkaklar ham yoshsarini tutib turolmadilar. Ustanning yonida ketayotgan yoshgina bir yigit uning shogirdi piqillab:

– Usta, bu kundan o'lgan yaxshiroq erdi, – dedi.

O'lish uchun oshiqma, hali yoshsen, ozodlikka chiqib yana yaxshi kunlarni ko'rarsen.

– Onam o'ldi, qallig'imni mo'g'ullar tortib oldi, endi yorug' dunyo ko'zimga ko'rinxaydur. Vallohi, o'zimni o'ldi-rurmen. Bir...

– O'lim har kimarsaning boshida bor, – dedi usta uning gapini bo'lib. – Ammo kishi bir martabagina berilgan hayotdan o'zini xalos etmoqqa haqqi yo'q. Yashamoq payti kelganda g'animdandan o'ch olmoq zarur, – Usta sekin gapirar, hayajonga kelgan sobiq shogirdini tinchitishga urinardi.

Kiyimlari eskirgan, ranglari bir holatda kosiblar boshlanini egib, asta qadam tashlab borar edilar.

„Xayr, jonajon O'tror, kindigimiz qoni to'kilgan qutli o'lka! Biz seni asray olmadik, yovuz dushman qo'liga berib qo'ydi. Yovvoyi mo'g'ul seni oyoqosti qilib, bag'ringni choc-chok etadi. Maktab-madrasalaringni, hammom-laringni otxonaga, ekinzorlaringni o'tloqqa aylantiradi, ammo bu zulmi vahshat uzoqqa bormas. Xalq o'z kuchini to'plab, axir bir kun dushmanni uloqtirib tashlar, bo'sh qolgan dalalarni yashnatib, shaharni yana tiklar.

Biz ketyapmiz, alvido, ona shahar! Bizga nasib qilmasa, bolalarimiz qaytib kelib, seni ozod qiladilar. Boshlanini quyi solib ketayotgan g'amboda kishilarning ko'ngillaridan shunday fikrlar o'tar edi.

XVII

Shahar ichidagi qal'a o'z himoyachilaridan o'n-o'n besh hissa ortiq dushman bilan yana bir oy olishdi. Mo'g'ullar manjaniqlardan tinmay tosh otib qal'a devorlarini, burchlarini yemirar, g'altakli chorpojalarni g'ildiratib kelib, qo'rg'onne buzar, qamaldagilar esa jon-jahdlari bilan ularning hujumini qaytarib turar edilar. Lekin borgan sari ularning safi kamayib borardi.

Qal'a, bamisol, dengiz o'rtasida buyuk oroldan ajralib qolgan qoyatoshga o'xshardi. Mo'g'ul qo'shini bo'ronda quturgan dengiz kabi hayqirib, o'zini bu qoyatoshga urar, lekin uni yemirolmay, har safar qonli izlar qoldirib, orqaga chekinardi. Ammo dengiz o'rtasida qolgan qoya qanday metin bo'lmasin, to'lqinlar zarbi bilan axir bir kun nurab tushadi. Xuddi shu singari, bir oylik muttasil hujum natijasida kunguralari, burchlari o'pirilgan qo'rg'on dengiz to'lqinlari singari sanoqsiz bo'lgan mo'g'ul askarlarining zarbidan yiqildi. Qal'aning ko'chalarida yakkama-yakka jang boshlandi. Omon qolgan mudofaachilar tomlarga chiqib olib, g'animni o'qqa tutdilar. Inolchiq tiriklayin qo'lga tushishni istamay, xotini Oysuluv bilan ikki oshyonali saroy tomiga chiqib olib, o'q ota boshladi. Orqalaridagi

ko'priklarga o't qo'yib, dushman bilan oxirgi nafasgacha urushishni qasd qilgan jangchilargina shunday sovuqqonlik bilan urishadilar. Inolchiq ham bir vaqtlar Chingizning elchilarini o'dirtirib, o'z ixtiyori bilan chekinadigan hamma ko'priklariga o't qo'ygan, uning uchun qahramonlarcha o'lishdan bo'lak najot yo'li qolmagan edi.

Chig'atoy esa Inolchiqni tiriklayin ushlab olishni buyurdi. Shu vajdan uning cheriklari o'q otishni to'xtatib qo'yib, tomga chiqib olishga urindilar, Inolchiq bir necha marta tom labiga qo'yilgan shotilarni tepib tushirib yubordi. Uning sadog'idagi o'qi tamom bo'lganini ko'rgan O'qtoy tom tagiga kelib:

– Hoy azamat, botirligingga tan berdik. Kel endi, taslim bo'lib qo'ya qol. Seni o'ldirmaymiz, otamiz ulug' qoonga tortiq qilib oboramiz, – deb baqirdi.

Inolchiq javob o'rniga oyog'i tagida yotgan bir g'ishtni olib uloqtirdi. Agar O'qtoy darhol o'zini orqaga olmasa, boshi majaqlangan bo'lur edi.

– Voy ablah-e, oz bo'lmasa boshimni yer edi-ya, – deb kului O'qtoy. Shu payt ikkinchi g'isht, tomga shoti qo'yayotgan bir mo'g'ulning kallasini yordi.

Uzun sochini beliga tang'ib olgan Oysuluv tom ustiga yotqizilgan g'ishtlarni ko'chirib, eriga tutqazardi. Ko'zlari o't sochib, yuzlari lovullab yonayotgan bu ayol shu topda go'zallik, mardlik va sadoqat timsoli edi. Buni ko'rib, O'qtoyning zavqi kelib ketdi:

– Mundoq suluv va botir ayolni umrimda ko'rмаган edim. Tiriklayin qo'lga tushirsam, xotin qilib olamen, – dedi iljayib.

Birozdan keyin cheriklar besh-oltita narvon keltirib tomga tarmashdilar. Charchab, boshi aylangan Inolchiq qay tomonga tosh otishni bilmay qoldi. Oysuluv tomga chiqib olgan haybatli badbashara bir mo'g'ulning chopib kelayotganini ko'rib, o'zini ko'chaning narigi betida yonib turgan tom ustiga tashladi...

To'rtta barvasta yigit chopib kelib Inolchiqqa yopishgan edi, u bir silkinib ikkitasini tomdan uloqtirib yubordi. Narvondan chiqib ulgurgan mo'g'ullardan yana to'rttasi kelib, Inolchiq ustiga tashlandi-yu, qo'l-oyog'ini bog'lab tomdan tushirdi.

– Oyog‘ini yechib, turg‘izib qo‘ying, – dedi O‘qtoy Inolchiqqa hurmat ko‘zi bilan qarab. Navkarlari Inolchiqning oyog‘idagi arqonni yechib, turg‘azib qo‘ydilar. O‘qtoy qad-dini rostlab, atrofga g‘azabli nazar tashlayotgan qo‘li bog‘liq bahodirning ko‘kragiga sekin urib qo‘yib, cheriklariga:

– Botirlikni mana shulardan o‘rganing. Biz yurakli odamlarni o‘ldirmaymiz, jasorat har kimga tuyassar bo‘la-vermaydi, – dedi.

Mo‘g‘ullar Inolchiqqa ham hayrat, ham hurmat bilan qarab qoldilar.

* * *

Chingizzon Samarqanddagi Ko‘ksaroyning naqshinkor salomxonasida oltin taxt ustida Chig‘atoy bilan o‘tirar, beliga qalamdon qistirgan ko‘k sallali bitikchi Xo‘ja Ismoil pastroqda chordana qurib, chap tizzasidagi juzdon ustiga qo‘yilgan qog‘ozga qoonning farmonini yozar edi.

– Yoz, Jaba no‘yon va Subutoy bahodir uch tuman che-rik birla Turshiz tomon qochgan sulton Muhammadni qu-vib borib, tiriklayin qo‘lga tushirsinlar, so‘ngra Tabriz ila Ganjaga o‘tib, Darband orqali Dashti qipchoqqa, andin Rus yerlariga ot qo‘ysinlar...

Bitikchi Chingizzonning farmonini yozib bitirgach, qog‘ozni naycha qilib o‘radi-da, sallasiga qistirib o‘rnidan turdi va qoonning ruxsati bilan chiqib ketdi.

Chingizzon bu ishni bitirgandan keyin kayfi chog‘ bo‘lib, mushuknikidek targ‘il ko‘zlarini qisdi-da, qizg‘ish soqolini siypab o‘yga toldi. So‘ngra qars urib eshik og‘asini chaqirib:

– O‘tror hokimini kiritting, – dedi.

Ikki qurolli navkar Inolchiqni ikki qo‘lidan ushlab, salomxonaga olib kirdi va qoondan o‘n qadamcha berida to‘xtadi. Ko‘zlar kirtayib, rangi ketib qolgan Inolchiq keng ko‘kragini kerib, jahongirga tikilganicha qotib qoldi. Uning yenglari ostida do‘ppaygan mushaklari bilinib turar, yuzining go‘shtlari lip-lip uchardi.

Qoon ro‘parasida turgan mag‘rur kishining kimligini bilsa-da, Chig‘atoya o‘girilib:

– Bu kim? – deb so'radi jo'rttaga. – E, Inolchiqmi? Sav-dogarlarimizni o'ldirib, molini talagan Inolchiq shu ekan-da. Ha-ha! – Chingizzon o'zining shaxsiy dushmani bilan ko'z urishtirib qoldi. Inolchiq ko'zini yummay baqrayib qa-rab turardi, buni ko'rgach, Chingizzxonning safrosi qaynab ketdi, lekin o'zini bosib olib: „O'ch olishdan oldin bu nu-fuzli odamdan foydalaniib qolish kerak. Qasos olish hech qachon qochmaydi“, deb o'yladi. Inolchiq esa yer ostidan qarab, uning fikrlarini peshanasidan uqishga harakat qilar-di. Chingizzon boshini ko'tarib:

– Menga qara, bahodir, – dedi. – Sen bizga ko'p zi-yon-zahmat yetkazding, elchilarimni o'ldirding, O'trorni qamal qilgan cheriklarimdan o'n mingini qirib tashlading. Bu qilmishlaring uchun boshqa bir hukmdor tiriklayin te-ringni shilib oldirtirgan bo'lur edi. Lekin men gunohingdan o'tdim. Sen dog'i eski xusumatlarni unutib, mening xizma-timga kir. Senga tuman og'asi degan unvon berayin. Men birla Gurganj borib, aholisini taslim bo'lmoqqa...

– Men o'z ulusimga xiyonat qilmasmen, – dedi Inolchiq uning gapini cho'rt kesib. – Dushman xizmatiga kirmasmen!

– Senga oltin va kumushlar in'om etayin...

– Oltining-da kerakmas, kumushing-da. Meni sotib ola bilmassen!

Qoon uning gaplariga emas, so'zini bo'lib qo'yaniga jahli chiqdi. G'azablanganini bildirmaslik uchun o'ng qo'lli-ning kafti bilan yuzini siypadi-da, o'zini qo'lga olib:

– Mening so'zim hech qachon yerda qolgan ermas, sen-ga atagan in'omimni qabul qilg'aysen, – dedi. Keyin qars urib eshik og'asini chaqirdi-da: – Do'stimiz Inolchiq uchun atab qo'yan kumushlarni olib kirsinlar, – deb ko'zini qisdi.

Eshik og'asi orqasi bilan yurib chiqib ketgach, o'rta ga dahshatli sukunat cho'kdi. Birozdan keyin Chingizzxon-ning ishorasi bilan eshik yonida haykaldek qotib turgan ikki yigit Inolchiqni yiqitib, qo'l-oyogini bog'lashdi, o'ng yonboshiga yotqizib, bosib turishdi. Qizil to'n kiygan bir mo'gul qo'lida xokandoz bilan kirib, eritilgan kumushni Inolchiqning chap qulog'iga quyib yubordi...

ZULMAT ICHRA NUR

YOSHLIK AYYOMINING ILK BAHORI

Alisher cho'kkalab olib xontaxta ustidagi kattakon bir kitobni varaqlab, surat ko'rib o'tirar edi. Ov va jang manzalari uni shu qadar qiziqtirgan, xayolini shu qadar o'g'irlagan ediki, otasi kelib eshik oldida kavush yechayotganini ham payqamadi. Kichkina Bahodir deb nom chiqargan G'i-yosiddin endi to'rt yoshga kirgan o'g'li Alisherga kulimsirab qarab turdi. „Shul yoshdin kitobg'a muhabbat qo'y-sa, ulg'aygach, albatta kitobni ilkidan ayirmay o'zi bila as-rab yurg'ay“, deb o'yladi ota shiringina, do'mboq o'g'lidan ko'zini uzolmay.

— Ha, bul yerga yoshurunib olib ne qiladur, desam, kitob ko'rayotgan ekanlar-da, — dedi G'i-yosiddin piching aralash mehr bilan.

Otasi bu gapni sekingina, kulib turib aytgan bo'lsa-da, Alisher sho'xlik qilib kattalardan dashnom eshitishdan qo'rqqan boladek olazarak bo'lib:

— Dada, mana bul suratni ko'ring, — dedi. Uning xiyol qiyiq ko'zлari mo'ltirar edi, — mana bul cherik shotidan chiqayotib qulab tushmoqda, qo'rg'on ustinda turganlar o'q otib qulatg'on chiqarlar. Mana bunisi pastdan turib, qal'a ustidagilarga o'q uzmoqda.

Otasi o'g'lining gapini tasdiqlagandek, bosh irg'atib, uning qo'lidan kitobni asta oldi-yu, tokchaga, boshqa kitoblar yoniga qo'ydi.

— Bul kitobning o'rni tokchada, — dedi u yasama jiddiylik bilan, — ammo siz kitob ko'rmoqqa yoshlik qilursiz, yirtib qo'ysangiz yaxshi bo'lmas. Ani ikki qo'y bahosiga sotib olg'onmen.

– Men kitobni yirtmaymen, avaylab ko'ramen.
– Aqlli bolasan-da. Tentak bolalarg'ina iliklariga tush-gan kitoblarni pora-pora qiladurlar. Katta bo'lg'oningda senga ajoyib kitoblar sotub olg'oymen. Hozircha... mana buni o'ynab yur, – G'iyo'siddin kulib, cho'ntagidan „sopol qo'chqor“ chiqarib berdi. Bola bu g'alati o'yinchoqni ko'r-gach, ko'zları o'ynab ketdi. – Qara, o'g'lim, aning muguzlari qayrilg'on, suzib olmoqqa hozirlanib turadur.

Menga bering, – deb bola sakrab o'yinchoqni uning qo'lidan tortib oldi, – ani Husaynning qo'chqori birla urish-tirgaymen.

G'iyo'siddin devonxonadan kelib, dam olgandan so'ng ba'zan qo'liga kitob olib mutolaa qilar, shunday kezlar Alisher yoniga kelib o'tirib olar va ovoz chiqarib o'qishini so'rar edi. Otasi esa: „Yaxshisi, hikoya aytib beray“, deb kitobni yig'ishtirib qo'yar va qiziq bir ertakni aytib berardi.

Alisherning tog'alari: Mirsayid – „Kobuliy“ va Muhammad Ali – „G'aribiy“ o'qimishli yigitlar bo'lib, forsiy va turkiy tilda she'r yozar edilar. Ular pochchalari G'iyo'siddin-nikiga kelganlarida ilmiy, adabiy mavzularda qizg'in bahs boshlanar va ba'zi kunlari suhbat g'azalxonlik bilan tugar edi. Alisher xuddi kattalardek tog'alari yonida o'tirib, ularning gaplariga quloq solar, she'r tinglar edi. Garchi, u kitobiy so'zlar va majoziy she'r larga yaxshi tushunmasa ham, g'azallarning ohangi, musiqiysidan zavqlanardi.

Katta tog'asi Mirsayid jiddiy, kamgap, sipo odam edi, kichigi Muhammad Ali esa xushchaqchaq, gapdon yigit bo'lib, tor va tanburni yaxshi chalar, o'z suhbat bilan majlisga jon kirgizar edi. Bir kuni u yaqindagina yozgan bir g'azalini o'qib berayotganida jiyani Alisherning diqqat bilan quloq solayotganini ko'rib, hayratda qoladi.

– Nechun ajablanursiz? – deydi G'iyo'siddin shoir qaynisiga. – Alisher ko'cha-ko'yda bolalar bila o'ynab yurib, tojik tilini o'rganib olg'on, onasi forsiy, turkiy g'azallarni o'qig'onda quloq berib o'tiradur va ba'zi matla'larni yoddan o'qib beradur. – U o'zining o'tkir ko'zlarini tog'asiga tikib o'tirgan Alisherga yuzlanib, dedi: – Qani, o'g'lim, shoir Qosim Anvor ne debdur?

Alisher qo'ng'iroqdek ovozi bilan dona-dona qilib shu matla'ni o'qidi:

*Rindemu oshiqemu jahon so'zu joma chok,
Bo davlati g'ami tu fikru jahon chi boq?*

(Biz beparvo oshiqlarmiz, yirtiq chopon, o't nafas, Jahon g'ami sening g'amingga arzimas.)

Muhammad Ali ko'zlarini katta ochib jiyanining she'r o'qishiga quloq solib turdi-da, keyin kulib yubordi.

– Ofarin, kichkina darvesh, – dedi u jiyanining orqasiga qoqib qo'yib. – Beeparvo, rind oshiqlardanmiz degin. O'tnafas bo'lsang dog'i, yirtiq chopon bo'lma.

Qosim Anvorning she'rlari mag'zini bola ermas, kattalar ham chaqa bilmaydurlar, ammo ulug' shoirning otashin nafasidin bul go'dak bolaning yuragiga bir alanga tushibdir, –dedi Mirsayid. –Iloyo, yomon ko'zdin asrasin.

So'z aylanib shoir Anvor ustiga kelib to'xtadi.

– Mavlono Qosim Anvor asli ozarbayjonlik erurlar, – dedi Mirsayid. – Sarob otlig' kentda tavallud topibdurlar. Yigitlik ayyomida Sadriddin Ardabiliyga murid bo'lib, so'fiya mazhabiga dohil bo'lmishlar. Pirining maslahati bila Xuroson keldilar. Uzoq muddat Samarqand borib turdilar. El alarga ixlos qo'yib, she'rlarin o'qimoqqa rog'ib bo'ldi. Umrlarining oxirida Jom viloyatig'a kelib qoldilar. Bundan o'n ikki-o'n uch yil muqaddam vafot toptilar.

Navoiy katta tog'asining ba'zi gaplariga uncha tushunmasa ham, uning gapini diqqat bilan tinglab o'tirar edi. Samarqand shahrining nomini eshitganda: „Ul ulug' shahar bo'lsa kerak“, deb o'yldi.

– Sen ulg'ayg'onda Jom viloyatig'a borib, Mavlono Qosim Anvorning maqbaralarini tavof qilib, qabri poklarini supurib kelmog'ing lozim, – dedi Muhammad Ali.

– Albatta, borg'aymen, ilkimga kichik bir jorub olib, qabrlarini supurib kelgaymen, – dedi Alisher ko'zlarini chaqnatib¹.

¹ Alisher katta bo'lganida Qosim Anvorning maqbarasini ziyorat qildi: „...Ul harzatning muborak marqadi Jom viloyatida Xarjurd qasabasidadur va faqir ul ostona jorubkashlaridinmen“.

– Nechun kichik jorub, sen ulg‘ayganingda borg‘oysen axir.

Doimo kichikligimcha qolaman deb o‘ylagan norasida bolaning gapidan tog‘alari miriqib kulishdi.

– Yazna, har kim oldida Mavlononing o‘shul she’rini Alisherga o‘qitmang, ko‘z tegadur, – dedi Muhammad Ali.

Kiçhkina bahodir bid’at va xurofotdan yiroq, sog‘lom fikrli kishi edi, shu sababdan qaynisining bu gapiga parvo qilmadi. Uyiga yaqin do‘stlari kelganda u Alisherga Qosim Anvorning o‘sha she’rini o‘qitar, mehmonlar esa hayratda qolib, bosh chayqaganlarida zavqlanib kulardi.

Bir kuni G‘iyosiddin beshik quchoqlab o‘tirgan xotiniga:

– Alisher to‘rt yoshg‘a to‘lib, beshga qadam qo‘ydi, ani mактабга berali, – deb qoldi.

– Hali yoshlik qilmasmikin? – dedi Alisherning onasi kirtaygan, horg‘in ko‘zlarini ko‘tarib. Uning emizikli bolasi Darvishali juda yig‘loqi bo‘lib, tinka-madorini quritar edi.

– Bola o‘tkir zehnli, tez idrokli. Bekor yurgandin ko‘ra harf o‘rgansin. Erta shanbadin boshlab Husayn biла birga maktab borsin.

– Ixtiyor sizda, menga qolsa... – ayol gapini tugatolmadi, beshikdagи Darvishali chirqirab, ona suti talab eta boshladi.

Husayn Temurning avarasi Mansur binni Boyqaroning o‘g‘li edi. Husaynning bobosi Mirza Boyqaro zamon podshosi Shohruhga qarshi isyon qilgani sababli qatl ettiligan, uning o‘g‘li Mansur ham keyinchalik nazardan qolib, davlat ishlariga aralashmay qo‘yan edi. Lekin Husayn g‘ayratli va zehnli ekanini ko‘rib, otasi qo‘lidan ketgan davlat qushini qaytarib olishni umid qila boshladi. Mansurning o‘g‘li haqiqatan ham yurakli, kattalardan ko‘p tortinmaydigan, sog‘lom, shijoatli bola edi.

O‘g‘lingiz axir bir kun yurtg‘a bosh bo‘ladur, ko‘zlaridin ma‘lum, – der edilar Mansurning yaqinlari, xipcha bel, yag‘rini keng, qirg‘izqovoq Husaynga qarab.

– Iloyo, aytganingiz kelsin, yaxshi niyat – yorti mol, – derdi otasi.

Alisher arab harflari yozilgan taxtani qo'ltiqlab, o'zidan ikki yosh katta Husayn bilan birga maktabga borib-keilib yurdi. Tez orada harflarni yod olvoldi. Maktabdan ozod bo'lgandan keyin, ba'zan Husaynning uyiga borib o'ynab kelardi. Hirotliklar Boyqarolarning Xiyobon mahallasidagi ikki qavatli uyini, negadir, „Davlatxona“ deb atar edilar, holbuki, uy egasi Hirotda xususiy kishilar qatorida yashar edi.

Alisher ba'zan Husaynga ergashib, shahar tashqarisida-gi Gozurgohga chiqardi. Tog' etagida bir talay bolalar qator tizilib, baravariga o'q otar edilar. Alisher bu manzarani ko'rib, kitobda ko'rgan suratlarni eslardi. Qayerda bo'lmasin uning es-hushi kitoblarda edi.

YAZD CHO'LI

Askariy kiyim kiygan otliq anhor yoqasidagi katta bir qo'ranning darvozasini qamchisining dastasi bilan taqillatdi. Boshiga oq namat qalpoq, egniga kalta yeng kamzul kiygan mo'g'ul bashara suvori darvozaning ochilishini sabrsizlik bilan kutib turdi.

Zamona notinch, kechalari ko'chada yurish xavotirli bo'lgani uchun Hirot aholisi qosh qorayishi bilan ko'cha eshiklarini ichidan zanjirlab olishar edi. Amaldorlar yashaydigan „Injil“ yoqasidagi bu chekka mahalla ahli kechasi bosh suqib ko'chaga chiqa olmas edi. Hozir ham ozoda ko'chalar, sahniga gul va sarv daraxtlari o'tkazilgan shinam hovlilar suv quygandek jimjit edi.

Otliqning toqati toq bo'lib, yana darvozani qoqdi. Oradan bir necha daqiqa o'tgach, katta darvozaning so'l tavaqasidagi kichkinagina eshik qiya ochilib, past bo'yli, qiyiq ko'z bir kishi burnini suqib, ko'chaga qaragan edi, otliqni tanib, yuzi yorishib ketdi.

– E, keling, Mirsayid, qadamlariga hasanot, – dedi va katta darvozani ochdi.

Kelgan kishi Alisherning tog'asi edi. U xuddi o'z uyiga kelgandek betakalluf ichkari kirdi...

Dasturxon ustida Mirsayid so'nggi kunlarda ro'y bergan muhim bir hodisa – Temurning o'g'li podshoh Shohruxning o'limi to'g'risida hikoya qilib berdi. Endigina besh yosha to'lib, oltiga qadam qo'yan do'mboqqina Alisher, chordana qurib o'tirgan dadasingin tizzasiga tirsagini qo'yib, tog'asining gaplariga diqqat bilan qulq solardi.

– Men o'shul kuni Ray shahri yaqinidagi lashkargohda erdim, – dedi Mirsayid aka chaqchaygan ko'zlarini pochchasiga tikib. – Mirza Shohrux janoblari ham o'shul yerda qishlog'an erdilar. Navro'z kuni podshoh hazratlari xachirga minib, Tabarak sari borib, ulug'larning mozorini ziyyarat qilib kelmoqchi bo'ldilar. Men ham navkarlari orasida erdim. Ammo, xachir mozorlar ustiga qadalgan tug'lardan cho'chib, oyog'ini tirab oldi. Bir qamchi bosgan erdilar, harom o'lgur, shataloq otib, podshohimizni yiqitayozdi. Agar bizlar ul kishini suyab qolmosoq, egardan uchib ketgan va o'shul joydayoq jon taslim qilg'on bo'lur erdilar.

Tog'asining imo-ishoratlar bilan gapirgan hikoyasiga diqqat bilan qulq berib o'tirgan Alisher beixtiyor kulib yubordi. Mirsayid aka shunday jonli gapirar ediki, dikanglab ketgan xachir ko'ziga ko'rinish ketganday bo'ldi. Biroq, bolaning kulgisiga otasi ham, tog'asi ham e'tibor berishmadi.

– Bizlar Shohrux janoblarini suyab, egardin tushirdik va avaylab taxtiravonga soldik. To'rt mulozim taxtiravonni yelkalab, lashkargohdag'i bir chodirga eltib, Shohrux janoblarini yotqizdilar. Ul janob shu yotganlaricha qaytib o'rinalidan turmadilar. Bachchag'ar shahzodalar bobolarining boshida turib, alar bilan rozi-rizolik so'rashmoq o'rniga, burchak-burchakda o'z odamlari bila pichir-pichir qilur erdilar. Ulug'bekning valadi Abdullatif bir yoqda, Boysunqurning o'g'li Sulton Muhammad bir yoqda, aning inisi – sharobxo'r Abulqosim bir chekkada o'z mulozimlari va askarboshilari birla maslahat qila boshladilar. Avzoyilaridan, alar odam ermas, baayni murda ustiga yopirilg'on o'limtik qushlarga o'xshar erdilar.

Alisher osmonda parvoz qiluvchi katta, tumshug'i qon, xunuk o'limtik burgutlarni tasavvur qilib, seskanib ketdi.

– Mirzo Shohruux janoblari yetmish ikki yoshda dunyodin o'tdilar, zulhijja oyining yigirma beshida, yakshanba kuni erdi¹. Men Rayda qolmay, to'g'ri Hirot sori ot soldirdim.

Alisherning dadasi bilan tog'asi bu o'limning oqibati ustida bosh qotirar edilar.

– Bir-birlarig'a kushanda bo'lg'on shahzodalar va qonga tashna, o'ljatalab beklar emdi bir-birlarining boshlari ni chaynaydurlar, xalqning bor-yo'g'ini yag'mo etadurlar, ko'chib ketmoq kerak Xurosondin, – dedi Mirsayid gapini cho'rt kesib. – Mabodo, telba Mironshohning haromzodalaridan biri taxtga o'ltirsa bormi, siz bilan mening boshimizda yong'oq chaqadur.

– Bir joydin ikkinchi joyg'a ko'chmoq oson gap ermas, – dedi G'iyosiddin xo'rsinib. – Kambag'alman desang, ko'chib boq, degan maqol bor. Shuncha mol-holni tashlab ketib, qayg'a boramiz.

– E, yazna, shundog' zamonda mol-hol ko'rindurmi kishining ko'ziga, – dedi shartta Mirsayid. – Jon omon qolsa, mol topiladur!

– Biroz kutib turayik, zora zamona tinchib ketsa...

– Ixtiyor o'zingizda, men hammadin burun manovi jiyanchamga achinamen, – dedi tog'asi Alisherning yelkasiga qoqib. – Ko'zlari o'tkir, peshanasi keng, odam bo'ladur bu bola!

G'iyosiddin kutgandek zamona tinchimadi. Temurning nevara-evaralari, qonga tashna bo'rilardek, bir-birlari bilan g'ajishib, xalqning qonini suvdek to'ka boshladilar. Ulug'bekning o'g'li Abdullatif askar to'plab, o'ziga teskari bo'lgan amaldorlardan ko'pining kallasini kestirdi, o'z buvisi Gavharshodni zindonga soldirdi. Shohruhning nabirasi, Boysunqurning o'g'li Abulqosim Bobur esa, o'z akasi Sulton Muhammad bilan urusha boshladi.

Shunday tartibsizliklar ro'y bera boshladiki, xalq kimning kim bilan urushayotganini aniq bilmas edi. Ammo, Afandiga o'xshab, ko'chaga bosh suqib, janjalga aralashgan

¹1447-yil, 12-mart.

kishi chophonidan, mol-holidan, ba'zan jonidan ayrilar edi. Hamma janjal xalqning moli ustida ketayotgani aniq edi.

G'iyosiddin Kichkina Xurosondan ko'chib ketish payti kelganini payqadi. Bir kuni tong qorong'isida besh-olti soyabon arava va bir necha otliq shahar darvozasidan chiqib, kun botish tomonga yo'l oldi. G'iyosiddin bilan birga uning qarindosh-urug'lari G'arbiy Eronga ko'chib ketmoqda edilar.

Otlarga minib olgan katta kishilar qovoqlarini solib indamay borar, ammo bolalar yo'lda tog', daryo, bog' va dala-larni hamda shahar va qishloq manzaralarini tomosha qilib, terilariga sig'may, shovqin ko'tarib ketishardi. Ot minib o'rganib qolgan olti yashar Alisher ham goh arg'umog'ini qamchilab, karvondan o'zib ketar, goh sekin haydab, orqa-da qolib ketardi. Birorta manzilga borib yetganda u bolalar-ga bosh bo'lib, o'yin qilar edi.

Yo'lovchilar Hirot vodisidan chiqib, Yazd vohasiga-cha cho'zilgan katta sahroga qadam qo'yishlari bilan safar og'irlashdi. Odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan bu sahroda faqat kechalari yo'l bosish mumkin edi. Yo'Ichilar har yer-har yerda bo'lgan sho'r quduqlardan suv chiqarib, meshlarini to'ldirib olar edilar. Bepoyon qum sahrosi hammaning joniga tekkan edi.

Karvon bir necha kundan keyin Yazd vohasidagi Taft qishlog'iga yetib keldi, vaqt yarim kechadan og'gan edi. Yo'Ichilar karvonsaroyga tushib, orom olishdi.

Sho'x Alisher ertalab turib, o'z o'rtoqlarini boshlab ko'chaga chiqdi. Karvonsaroyning yonida katta bir xona-qoh bor edi. Bolalar ikki tavaqasi lang ochiq darvozadan kirishdi. Xonaqoh hovlisining bir chekkasida keksa odam ko'zini yumib, pichirlab o'tirardi.

– Yuringlar, o'shul quduqning charxini aylantirurmiz, – dedi Alisher ko'zlarini chaqnatib.

– Yo'q, anovi kishi koyib beradur.

– Uriishmaydur ul kishi, o'zi yuvosh odamg'a o'xshaydur.

Bolalar qo'raning o'rtasiga kelib, quduqning yonida to'xtashdi. Burchakda o'tirgan kishi ko'zlarini ochib, ular-ga maroq bilan qaradi va:

– Hoy bolalar, bu yoqqa kelinglar, – dedi kulib.

Bolalar, bir narsadan hurkigan jayronlardek duv etib o'zlarini darvoza tomon urdilar. Faqat Alisher qo'rqlmay, cholning oldiga borib salom berdi.

– Vaalaykum assalom, katta bo'ling! Sizlar bizning qishloq bolalariga o'xshamaysizlar. Qoydin keldinglar?

– Hirotdin Iroqqa ko'chib ketayotirmiz, – dedi Alisher cholning ko'kragigacha tushgan oppoq soqoliga qarab.

– Nega ko'chib ketayotirsiz?

– Iye, hech gapdan xabaringiz yo'qmi? Xurosonda urush boshlanib ketdi-ku. Podshohzodalar bir-birlarining kallasini kesmoqda, yurtni talamoqda, mundog' zamonda...

Chol og'zini ochib, o'ng qo'lini qulog'iga qo'yib, Alisherning gapiga qulqoq soldi.

– Mabodo telba Mironshohning merosxo'rlaridin biri taxtga o'tirsa bormi, naq kallamiz ketadur-a...

Chol qiqirlab kulib yubordi.

– Ne sababdin?

– Bizlar Boyqarolarg'a xizmat qilib kelganmiz. Boyqarolalar Mironshoh avlodi bilan it-mushuk.

– Rost aytding, bolam. Farosatli ekansan. Bobongning ismi nedur?

– G'iyosiddin, laqabi kichkina bahodir.

– Ofarin, ul kishini taniydurmen. Shohrux vafotidin besh-olti yil avval Sabzavorda hokim erdi. Ul kishini bilurmen. Xo'sh, o'zing maktabga borurmisen?

– Ha, taqsir, men to'rt yosh-u to'rt oylik bo'lg'onimda ota-onam maktabga eltib bergenlar. Hozir taborak surasiga tushdim.

– Borakallo. Bul jamoat bolalaridin biz choqirg'onda sen kelib, men bila oshno bo'lding. Kel, sening uchun fotiha o'qli...

Shu payt Alisherning otasi G'iyosiddin va bir necha kishi kirib, cholga salom berishdi va uning qo'lidan o'pib, yuzlariga surtishdi. Alisher hozirgina o'zi bilan gaplashib turgan chol ulug' bir odam ekanini payqab, xonaqohdan chiqib qochdi.

Kechqurun karvonsaroy hujrasida ovqat yeb o'tirganlari-da Alisherning otasi xonaqohda o'tirgan cholning Sharafidin Ali Yazdiy degan ulug' tarixchi ekanini so'zlab berdi.

– Ul kishi Shohruxning yonida yurib, ko'rgan voqealarni bitgan, Temur tarixi „Zafarnoma“ni bitgan, – dedi G'iyo-siddin hurmat bilan. – Shundog' olim bir kishi umrining oxi-rida qashshoqliqqa tushib, do'stlarga xor, dushman-g'a zor bo'libdur, hay darig'!

G'iyo-siddin Kichkina o'z oilasi bilan G'arbiy Eronda uch yilcha turdi. Xuroson tinchibdi, urushlar to'xtabdi, degan xabarni eshitib, Hirotga qaytib ketish taraddudiga tushdi. Bu vaqtida Abulqosim Bobur o'z akasi Sulton Muhammadni o'ldirib, poytaxtni egallagan, mamlakatda tinchlik o'rnat-gan edi.

Hirotliklar yana soyabon aravalarga o'tirib, yo'lga tushishdi. Alisher ot minib, kattalar bilan karvonning keti-da borar, yo'ldagi ajoyib tog', daryo, shahar va qishloqlarni tomosha qilar edi.

Yo'lovchilar ba'zan yalanglikda tunab qolar, ba'zan kar-vonsaroylarga tushib, bir-ikki kun dam olar edilar. Biroq, Yazd cho'liga qadam bosishlari bilan ahvol o'zgardi. Kar-von salqin kechalari yo'l bosib, kunduzlari quduqlar bo'yida orom oladigan bo'ldi.

Bir kuni kechasi ot ustida borayotgan Alisherni uyqu bosib, ko'ziga qum tiqila boshladи. Kunduz kuni salqin bir buloq bo'yida chodir tikib, hamma orom olgan paytda, Alisherni onasi „uxlab ol“, deb yotqizib qo'ygan edi. Bi-roq, sho'x bola o'rinda yotolmadi, o'ziga o'xhash bir-ikki bola bilan sahrodagi katta kaltakesaklarni quvib yurib, juda charchadi. Mana endi yarim kechada uyqu bosib, boshi garang bo'lib qoldi. Hammani ham mudroq bosganidan Alisher-ning holiga hech kim e'tibor bermadi. Kichkina chavandoz-ning egar ustida uxbol qolganini sezgan ot esa yurishini se-kinlatib, karvondan orqada qolib ketdi. Tong payti Alisher-ning oti nimadandir hurkib ketib, uni yiqitib yubordi, o'zi pishqirib, boshi oqqan tomonga qochdi. Alisher gup etib, yumshoq qum ustiga tushdi-da, ko'zlarini ishqay boshladи. U qayerdaligini, nima hodisa yuz bergenini payqamay, an-

cha vaqtgacha qum ustida bo'zrayib o'tirdi. Nihoyat, hushi o'ziga kelgach, hamrohlaridan ayrib, bepoyon cho'lida bir o'zi qolganini ko'rib juda qo'rqi, dodlashini ham, yig'las-hini ham bilmadi. U uvishib qolgan kuchsiz oyoqlariga bo-sib, o'rnidan turdi-da, atrofga qaradi. Hamma yoqni bepo-yon quruq cho'l enlab yotar, kun chiqish tomon yorishib kelmoqda edi. Alisher otasidan, Iroq viloyati – kun botish tomonda, Hirot – kun chiqishda, degan gapni eshitgan edi. Aqli bola kun yorishib kelayotgan tomonga qarab yu-rib ketdi. Saldan keyin atrof yorishib, quyosh bosh ko'tardi. Alisher biroz o'tirib dam oldi-da, yana o'rnidan turdi. Kun ko'tarilgan sari uning badani qizir, tomog'i qaqrar edi. Afsonaviy hayvonlarni eslatuvchi qum uyumlari xuddi uni yutib yubormoqchiday bo'lar, qizib ketgan havo qum tepalar ustida jimirlab ko'zini tindirar, issiq shamol labini qu-ritardi. Biroq, yosh yo'lovchi bularga parvo qilmay, hamon yurib ketmoqda edi. Boshi aylana boshlagach, o'tirib biroz orom olmoqchi bo'ldi. Qani endi, shu topda bir qultum, bir qultumgina suv bo'lsa! Bu yerda o'tiraversa, suv qidirmasa, tashnalikdan o'lib qolishini payqab, inqillab o'rnidan turdi va bitta-bitta yurib ketdi.

Ko'p o'tmay uzoqdan ko'ziga gumbazga o'xshash bir narsa chalindi. „Iye, bu nima ekan, borib ko'ray-chi!“ deb o'yladi u. Bu fikr Alisherga quvvat bag'ishlaganday bo'ldi. Yurgan sari gumbaz kichrayardi. U battar qiziqib qoldi. Bo-rib qarasa, gumbaz degani suv soladigan oddiy to'rsiq ekan. Shoshib-pishib to'rsiqning og'zini ochib, to'yib-to'yib suvdan ichdi, ichdi-yu, birdan ko'zi ravshanlashib ketdi. „Tep-tekis cho'lida kichkina narsa ham uzoqdan katta bo'lib ko'rinar ekan, – deb o'yladi u. – Tunda yo'lovchilardin biri uyqusirab, to'rsig'ini tushirib yuborgan bo'lsa ajab ermas, yaxshi bo'ldi“.

Uyqu bosgan yo'lovchilar kun chiqmasdan oldin qu-duq yoniga borib yetgach, oralarida Alisherning yo'qligi-ni payqab qolishdi. Birdan hammaning uyqusи o'chdi. Ali-sherning onasi: „Voy bolam, qayda qolding!“ – deb yig'lay boshladidi. Otasi dokadek oqarib, turgan joyida shamdek qo-tib qoldi.

– Yig‘lamang, hozir borib topib kelgaymiz, – deb yupa-tishdi Alisherning onasini hamrohlari.

Fursatni o‘tkazmay, tezda bolani qidirib topish kerak edi.

– Qani, otlaninglar bo‘lmasa, – dedi G‘iyosiddinga jon kiri...

...Alisher ro‘parasida bir necha otliqning kelayotgанини ко‘риб, о‘зиди ўо‘қ сувунуб кетди, qadamini tezlashtirdi. Uzoqdan otasini tanib, negadir o‘pkasi to‘lib, hijillab yig‘lab yubordi. G‘iyosiddin kela solib, Alisherni yerdan ko‘tarib oldi-da, otiga mingashtirdi.

QUSHLAR TILI

Anhor ustiga solingan g‘isht ko‘prikning panjarasi yonida bo‘yniga jild osgan ikki bola suvning oqishini tomosha qilib turishardi. Ularning biri baland bo‘yli, qirg‘izqovoq, bo‘liqqina, o‘n bir-o‘n ikki yashar. U qizil shoyi ko‘ylak ustidan yashil baxmal kamzul kiygan, xipcha beliga zarrin kammar bog‘lagan, qiyofasidan zodagon bir oilaning arzandasigi ekanligi bilinib turibdi. Yonidagi sherigi esa ko‘rinishda undan ikki-uch yosh kichikroq, past bo‘yli, yumaloqqina, qizil yuzli, sherigiga qaraganda soddaroq kiyingan. Bu ikki mактабdoshning kattasi Mansur binni Boyqaroning o‘g‘li Husayn, kichigi Alisher edi.

Alisher o‘zi tug‘ilgan shahri Hirotg‘a qaytib kelgach, maktabga qatnab o‘qiy boshladi.

Husayn panjaradan osilib suvgaga bir parcha qog‘oz tashladi-da, uning oqishini kuzatib turib:

– Alisher, – dedi, – nechun o‘shul kitob ilkingdin tushmaydur? Sabog‘ingni hech takrorlamaysen! Bugun maktabxonada senga diqqat qilib qarab turdim. Yana „Mantiq ut-tayr“ni taxta ostina qo‘yib, takror-takror o‘qiding. Yaxshiki, domla ko‘rib qolmadilar; bo‘lmasa naq boshingga tayoq kelib tushgusi erdi.

– O‘sru ajoyib kitob-da. O‘qimaymen desam ham o‘qig‘im kela beradur, – dedi Alisher qoshini chimirib. –

Qushlar haqidagi hikoyalar fikr-u xayolimni chulg'ab olg'on. Boshqa kitoblarga hushim yo'q.

– Men Sa'diyning „Guliston“ini afzal ko'rurmen. Ko'p bama'ni va ibratomuz hikoyalar bor, – dedi Husayn dimog' bilan. – Har qalay „Mantiq ut-tayr“ din o'lsa, o'ligi ortiq.

– Sen „Qushlar tili“ni qunt bilan o'qib chiqg'oningda bu gaplarni aytmog'on bo'lur erding.

– Rosti bila aytsam, men bu kitobni o'qidim-u, lekin ma'nisini chaqolmadim, –dedi Husayn chin ko'ngildan. – Hud-hud qushining hikoyalaridan bir narsani anglab olmoq juda mahol. Men ravshan va ibratli sodda hikoyalarni yoqtirurmen.

– Men esa kishining xayolin o'g'irlayturgan ajoyib-g'a-royib afsonalarni sevamen. „Mantiq-ut-tayr“ni yozg'on Farididdin Attor to'g'risida tag'oyimdin ajoyib bir hikoyat eshitdim. Balki ul kishining kitobiga qiziqsing'o-nimning sababi shuldir. Ayturlarkim, Nishapur shahriga mo'g'ul-totorlar kirgach, aholisin qilichdin o'tkaza beribdur. Bir cherik qartayib qolg'on Attorni o'ltirmoqchi bo'libdur. Shul aroda bir dehqon qop orqalab kelur erkan, to'xtab mo'g'ulg'a debdurki: „Hoy yigit, ani o'lturma, qonin bag'ishla“. Mo'g'ul aytibdur: „Yarmog'ing bo'lsa sotib ol“. Dehqon debdurki: „Orqamdag'i bir qop somondin o'zga hech nimam yo'q“. Mo'g'ul: „Mayli, shul bir qop somon cholning bahosi bo'lsin, ber somoningni, ol cholni“, debdur. Shu yo'sinda Mavlononing jonin qutqarib qolibdur.

– Ajoyib hikoyat erkan, men ham ul zotning dostonlarin o'qimog'im kerak erkan. Ammo sening aqling joyida. Agar men yurtg'a podsho bo'lsam, seni o'zimg'a vazir qilib olg'oymen. – Alisherning ishonqiramay turganini ko'rib, gapida davom etdi: – Men albatta ulug' bobomiz taxtiga o'tirgaymen. Temurlangning sevikli nabirasi bo'lg'on bobom Mirza Boyqaro serg'ayrat va shijoatli yigit ekan. Temurlang qazo qilg'och, Shohrux ani qatl ettirgan. Men Shohrux avlodidin bobomning o'chin olg'usidurmen. Tog'i, bu gaplarni birovga aytga ko'rma!

– Kim aytadur sening gaplaringni birovg'a, – dedi Alisher noxushlanib.

Devorlari ganch suvoq bilan o'ymakor qilib ishlangan mактабхона qiy-chuvga to'lган. Yumshоq namat ustida tiz cho'kib o'tirgan bolalar chuvvos ko'tarib oldilaridagi taxta ustiga qo'yilgan kitoblarini o'qishadi. Kichikroq bolalar alifbe va „Abjad“ yozilgan taxtalarga qarab: „Alif, be, te, se“, deb qichqiradi, ba'zilari „Haftiyak“ni hijjalaydi.

Domla uzun-qisqa bir necha tayoqni devorga suyab qo'yib, bolalarga ho'mrayib o'tiradi. Agar biron ta bola o'qishdan to'xtab, yonidagi sherigi bilan gaplashib qolsa, tayoqlardan birini olib, uning boshiga tushiradi, Shundan keyin bolalar chuvullahib, maktabxonani boshlariga ko'taradilar.

Alisher esa taxta ostiga Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ini qo'yib zavq bilan o'qiydi.

Bu kitobni o'qiganda ko'z o'ngida ajoyib bir manzara hosil bo'ladi:

Mana, o'rmon va dasht qushlari bir yerga to'plangan, lekin ularning o'tirishida tartib yo'q: qarg'a bulbuldan, quzg'un tovusdan yuqori o'tiribdi. Qushlar o'rtasida o'rin uchun janjal boshlanadi. Hud-hud (popishak) ularni tartibga chaqiradi. Biroq qushlar uning gapiga qulqoq solmaydi, shunda u: „Bizlarga, bir rahnamo kerak ekan, biz Simurg' qushini topib, o'zimizga podsho qilib olaylik“, – deydi. Qushlar uning so'zini ma'qul ko'rib, Simurg' turgan vodiy tomon parvoz qiladi. Bir qancha vaqtidan keyin qushlar charchab qoladi. Tovuq, bulbul, kaklik, kaptar va hokazolar o'z uzrlarini aytib, izlariga qaytmoqchi bo'ladi. Popishak umumiy maqsad yo'lida jon fido qilishga chorlaydi. Qushlar uning gapini ma'qul ko'rib, yana parvoz qiladi. Simurg'ni axtarib, cho'l va sahrolar, baland tog'lar oshib uchib ketaveradi. Parrandalar o'lib-o'lib, qolgan o'ttiztasi bir vodiya borib yetadi. Simurg' qushini bunda ham topolmaydilar. Nihoyat, ular Simurg' o'zlari ekanini, ya'ni tojikcha „simurg“ o'ttiz qush ekanini anglaydilar. Charchamay, hormay bir maqsadga intilishlari ularni Simurg' darajasiga ko'targan.

Bolalarning qiy-chuvlari Alisherning qulog'iga galaga bo'lib uchayotgan qushlarning chug'ullashiga o'xshab

eshitiladi. Domlaning yonida turgan uzun behi tayog'i bo'lsa, ko'ziga sarv daraxtiga o'xshab ko'rindi, uning quyuq shoxlari orasida to'ti bilan qumri o'zaro suhbat qura boshlaydi. Biroq domlaning qattiq tovushi uning xayolini buzib yuboradi.

– Alisher, xayol surmay sabog'ingni takrorla, hali seni qoshimg'a chorlag'oyman.

Alisher „Qushlar tili“ni berkitib qo'yib, taxta ustida ochiq turgan Qur'on kalimalarini takrorlay boshlaydi. Kecha domla „Yosin“ surasining bir qismini yod olib kelishni topshirgan edi. Oradan bir soat o'tar-o'tmas domla uni o'z oldiga chaqirdi.

Alisher qo'l qovushtirib kelib, ustod oldida tiz cho-kadi va sabog'ini o'qiy boshlaydi. Biroq ikkinchi mubindan o'tmasdan tutilib qoladi. Domla luqma tashlagandan keyin yana o'qib ketadi. Nariroq borib, yana tutiladi:

– Bo'lmaydi, sabog'ingni o'qimabsen, – deb o'shqiradi domla. Biroq uni savashga qo'li bormaydi. – Bilamen se ning nima o'qiyotganiningni. Qushlar so'zidin ko'ra Ollohning so'zlarini ko'proq takror et! Sen hali ul kitobni o'qimoqqa yoshlik qilursan. Kichkina bahodirning o'g'li bo'l mog'oningda toza kaltak yer erding, bor, sabog'ingni o'qi!

Maktabdoshlari jimb, bir-birlariga qarab qo'yishadi.

Kechqurun G'iyosiddin bahodir o'z o'g'lini mehmonxonaga chaqirib:

– Qani, o'g'lim, nima o'qiyotirsiz? – deb so'rab qoldi.

– Men „Yosin“ni yodlamoqdamen va savodim ravon bo'lsin deb, „Mantiq ut-tayr“ni o'qimoqdamen.

– Eshitamenki, siz sabog'ingizni takrorlamay, doim bu kitobni yodlar va maktabdin ozod bo'lg'ondin so'ng ham do'stlaringiz bila o'ynamay, har go'shada qushlar so'zini aytib, o'z-o'zingiz bila gaplashar va kulib qo'yar emishsiz. Bul kitob sizni jinni qilib qo'ymasaydi...

– Otajon, mening to'g'rimdag'i har xil bo'limg'ur gap larga qulq sola bermang, es-hushim joyida. Qo'rqmang, jinni bo'lmaymen.

G'iyosiddin o'g'lining kinoya aralash ma'noli jilmayishini ko'rib: „Es-hushi joyida, aqldin ozadir, deb qo'r-

masa ham bo'ladir", deb o'yadi va ko'ngli taskin topti. Shunday bo'lsa ham o'g'lining qo'lidan „Mantiq-ut-tayr" ni tortib olishga urinib ko'rdi.

– O'shil kitobni menga bering, evaziga sahof bozordin istagan kitobingizni olib beray.

– Yo'q, ota. Yana bir hafta ilkimda tursin, so'ngra...

Ota-bola shu xilda tortishib turganlarida maktabdor domla kelib qoldi. Alisher ta'zim qilib, qo'lidagi sevikli kitobni qo'ltiqqa urib, mehmonxonadan chiqib qochdi.

Sallasi qozonday, qip-qizil yuzli domla uning orqasidan kulib:

– O'z aybini sezgan takaning qochishini qarang, – deb qo'ydi.

G'iyosiddin bahodir mehmon bilan salomlashib, uni to'rga solingan ko'rpa chaga o'tirg'izdi. Dasturxon yozib tokchadan yasog'liq bir barkashni olib, mehmon oldiga qo'ydi va non sindirib, mehmonni dasturxonga taklif qildi. Maktabdor domla oqko'ngil, yaxshi odam bo'lsa-da, shogirdlarga nisbatan qattiqqo'l edi. O'z zamonasidagi ta'lim-tarbiya talablariga rioya qilib, maktabda tishining oqini ko'rsatmay, bolalarni kaltaklab turardi.

Uy egasi kulib:

– Xuddi o'z vaqtida kelib qoldingiz-da, domla, – dedi.
– So'z Alisher ustida ketmoqda erdi. Aning savodi ravon bo'lubdur, rahmat, domla.

Maktabdor domla bu gapni eshitib, xursand bo'lganini yashira olmadi.

– Rost aytdilar. Alisherning zehni o'tkir, savodi ravon. Ammo achchiq bo'lsa dog'i bir haqiqatni aytmoxdin o'zni tiya olmaymen.

U Alisherning „Qushlar tili" ga qiziqib ketib, Qur'onne bir chekkaga yig'ishtirib qo'yganini aytdi.

– O'g'lingizning ilkidin bu kitobni tortib olib, ani o'qimoqni man etmoq kerak, – dedi u qovog'ini solib. – Bul kitob aning xayoliga ta'sir etib, telba qilib qo'ysa ajab ermas.

Bu gap Alisherning otasini o'ylatib qo'ydi. „Ilkidin bu kitobni tortib olib, ani qattiq xafa qilsam, tezroq telba bo'lib qolmasmikan?“ Domla uni xafa qilib qo'yanini ko'rib, o'rnidan qo'zg'aldi:

– Menga javob bersalar.

– O'tiring, domla, ovqat tayyor.

Uy egasining qistashiga qaramay, o'rnidan turgan mehmon „ovqat“ so'zini eshitgach, yana o'tirishga majbur bo'l-di.

Domla ovqatlanib chiqib ketgandan keyin G'iyosiddin bahodir chuqur o'ya toldi.

Kitobni hozir o'g'lining qo'lidan tortib olish yaxshi emasligini payqab, indamay qo'ya qoldi.

Biroq Alisher ertasiga ertalab mактабга borganida jildini axtarib, sevikli kitobining yo'qolib qolganini payqadi. „Kechasi uyquda yotg'onimda otam olib qo'yibdilar-da“, deb o'yladi u nihoyatda xafa bo'lib. O'zining eng yaqin do'stini yo'qotgan kishidek ko'ziga yosh oldi. Taxta ustiga Qur'oni qo'yib, go'yo uni o'qiyotgan kishidek bosh chayqab, „Mantiq-ut-tayr“dan ba'zi parchalarni yodaki o'qiy boshladij va o'z xotirasiga hayron qoldi. Sevikli kitobidan qaysi parchani boshlab o'qisa, oxirigacha yod bilar edi. Nihoyat, butun kitobning ko'ngliga yod bo'lib qolgani ni payqab, o'zida yo'q xursand bo'ldi.

YIGITLIK FASLINING TIKANLI GULLARI

Shohruxning nabirasi podsho Abulqosim Bobur Mashhad shahriga kelishi munosabati bilan uning sharafiga Hoximning shahar tashqarisidagi chorborg'ida katta ziyofat berildi. Marmar hovuz atrofiga solingan gilam, shoyi ko'r-pachalar ustida shahar a'yonlari, beklar, sarkardalar yalpayishib o'tirar, bellarini mahkam bog'lab, etaklarini bar urgan epchil xizmatkorlar yelib-yugurib, ularga turli-tuman ovqatlar tashib turardilar. Belbog'lariga qirqtadan qo'ng'i-roq osgan chiroyli yigitchalar – payklar oltin xumlardan sharob suzib, kumush qadahlarda podshohga va uning mehmonlariga tutar edilar.

Lunji osilgan, bodomqovoq, qiyiq ko'z podshoh oldi ochib qo'yilgan ipak chodir ichidagi taxt ustida o'tirib, payklar qo'lidan ustma-ust sharob ichardi. Sharobxo'r, yengiltabiat, ishratboz Abulqosim tabiblarning man etishlariga qaramay, ichkilikni sira qo'ymas, xalqdan tushgan soliqning ko'pini ziyofatlarga sarf etar edi.

Biroq, shu nuqsonlariga qaramay, u yaxshi she'rlar ijod qilar, saroyiga shoirlarni to'plab, yozgan narsalarini o'qib berar, Navoiy singari yosh shoirlarni qanoti ostida asrar edi.

Maktabni endi bitirgan, o'n olti yoshga chiqqan Navoiy Husayn Boyqaro bilan birga uning xizmatiga kirgandi, u qayerga borsa, bir talay mulozimlar bilan birga orqasidan ergashib yurishardi. Hozir ham ular shu ziyofatda bo'lib, bir chekkada anvoyi tur noz-ne'matlar bilan bezalgan das-turxon yonida o'tirishardi.

Navoiy podshohning avzoyiga qarab tashvishga tushib qoldi. Abulqosim qadah ustiga qadah ko'tarsa-da, chiroyi ochilmas, rangi borgan sari bo'zarardi. Uning yuziga o'lim o'z ko'lankasini tashlagandek edi.

– Mirzamizning rangi bir holatda, bir kori hol ro'y bermasaydi, deb qo'rqaman, – dedi Navoiy Husaynga asta.

Shu vaqt Abulqosim Bobur, negadir o'zining eng yaqin beklaridan Abduvali tarxonga qattiq-qattiq gapirib, uni koymoqqa boshladи. Ziyofatdagilarning kayfi qochib, birdan jimb qoldi,

– Shohimizning xumori oshdi, – dedi Husayn shivirlab.
– Ajal kelib bo'g'zidin oldi, shul sababdin safrosi qaynab ketdi.

Husayn Boyqaro bu vaqtida o'n sakkiz yoshga to'lgan, qizilmag'iz, barvasta yigit edi. Abulqosim uni ham himoya-ti ostiga olib parvarish qilar, o'z o'g'lidek tarbiyalar edi.

Navoiyga Husaynning gaplari yoqmadi shekilli, qovog'ini solib gapirdi:

– Birov o'lay desa, birov kulay deydur. Nahotki, Mirzo Boburning o'limini istasangiz? Axir siz bila bizdin ilkidin kelganini ayamaydir-ku!

– E Navoiy, sodda yigitsiz-da, – dedi Husayn qosh o'y-natib, – nima, yaxshilik qildi, deb toj-u taxtdan voz kechaymi? – So'ngra zaharxanda qilib kuldi, – Abulqosimning o'li-mi, yo'limdag'i bir g'ovni olib tashlaydur!

Navoiy ko'rnamaklik qilayotgan sobiq mактабdoshiga g'ijinib qaradi:

– Bas qilaylik bul suhbatni, birovning qulog'iga yetsa yaxshi bo'lmas. Til yugurugi boshg'a, ilk yugurugi oshg'a! Tilga ehtiyot bo'lsangiz, maqsadg'a erishasiz!

Ziyofatdan keyin podshohning holi og'irlashib qoldi. Uni ko'tarib to'shakka yotqizdilar. Kechasi tildan qolib, ko'nglidagi gaplarni atrofdagilarga ko'z va qo'l ishorati bilan tushuntirishga urindi. Biroq hech kim nima demoqchi ekanini tushunmadi, oradan ikki kun o'tgach, Abulqosim Bobur yorug' dunyodan ko'z yumdi. Uning sarkardalari, mingboshi va yuzboshilar taxtga da'vogar bo'lgan shah-zodalar orasidan o'zlariga homiy izlay boshladilar. Husayn Mirzo ham bu lochinlardan bir nechasini o'z tomoniga og'dirib oldi: u taxt uchun kurash boshlash payti kelganini payqagan edi. Bir kuni Navoiyni chodiriga chaqirib, o'zi bilan birga safarga chiqishni taklif qildi.

– Men qazoqliqqa chiqib keturmen, – dedi Husayn xipcha belidagi kamarga qilich qinini osar ekan. – Yuring men bila Simurg' qushini izlamoqqa!

Uning izlagan Simurg' qushi panjasи va tumshug'i qon, odam go'shtiga o'ch yirtqich parranda ekanini Navoiy yaxshi bilardi, shu sababdan sobiq mактабdoshining taklifi rad etib:

– Men Mashhad shahrida qolib, madrasada o'qimoq niyatidadurmen, – dedi.

– Afsuski, siz qilich ermas, qalam bila mashq qilib kelgansiz, bo'lmasa menga ergashib ketgan bo'lur erdingiz. Mayli, siz ilm xazinasidin durdonalar tera bering, yurt uchun yarab qolar. Men ersam ko'kragimni shamolg'a berib, Simurg' qushini izlaymen.

– Sizga baxt-saodat, ishingizga kushoyish tilaymen. Agar aqlli odamlar maslahati bila ish qilib, navkarlariningi rozi qilib yursangiz, albatta, murodingizga erishgaysiz,

- dedi Navoiy sobiq maktabdoshi bilan xayr-xo'shlashar ekan.

Oradan ko'p o'tmay, Alisher Imom Rizo maqbarasi yaqinidagi xonaqohdan bir hujra olib, madrasada tahsil ko'ra boshladi.

PAHLAVON MUHAMMADNING HAZILI

Alisher uyqudan ko'zini ochganda nim qorong'i hujra o'rta sidagi xontaxta ustiga panjaradan tangadek oftob tushib turardi. Tobi qochib, ko'rpa-to'shak qilib yotgan shoir oyog'ining og'rig'i to'xtaganini sezib, tabiat ravshan tortdi. Ustidagi ko'rpani olib tashlab, o'rnidan turdi-da, devorni ushlab dahlizga chiqdi. Obdastadan suv quyib, yuz-qo'lini chaydi, belbog'iga artinib, tag'in o'rniga kelib yotdi-da, oriqlab ketgan rangsiz qo'lini cho'zib, yonidagi tokchadan qog'oz, qalam oldi va baland qo'yilgan yostig'i-ga suyanib yoza boshladi. Qalami yo'rg'alagan sari yumaloq yuzi xiyol yorishib, qiyiq ko'zlari parpirar edi. Kechasi bedorlik mahalida o'ylab qo'ygan fikrlari vazn qolipiga tushib, qofiyalar osongina bir-birlari bilan topishib olar edi.

Shoir yozgan she'ridan xursand bo'lib, qog'ozni to'rt bukladi, qoziqda osig'liq turgan chonining cho'ntagiga solib qo'ysi-da, yana o'rniga cho'zildi.

Ota-onadan yetim, homiysiz qolgani yetmagandek, musofir yurtida u masofil (suyak sirqirashi) kasaliga mutbal bo'lib qoldi. Turgan pastak hujrasi nim qorong'i, zax. Erталаб birpas tushgan oftob hujradagi rutubatni daf qilolmasdi. Yaxshiki Mashhadda baxtiga pahlavon Muhammad bor, bo'lmasa holi nima kechar edi! U har kun bir martaba kelib, osh-suvidan xabar olib turadi, shaharning mashhur tabiblarini boshlab kelib, muolaja qildiradi.

Alisher kechasi uyg'onib, allamahalgacha xayol surib yotgani uchun hozir uni uyqu elta boshladi. A'zoyi badani bo'shashib, qanday uxlab qolganini o'zi ham sezmay qoldi...

Peshanasi keng, chorpahildan kelgan, qorasоqol Muhammad pahlavon hujra eshigini ochib, ichkari kirganda

shoir uqlab yotar edi. Pahlavon uning oromini buzmaslik uchun oyoq uchida yurib kelib, xontaxta yoniga cho'kdi. Birpas o'tirib, qoziqqa osilgan jomaning yengi yirtilgani ni ko'rdi-da: „Chatib qo'ymoq kerak erkan, mixga ilintirib olg'onga o'xshaydur“, deb o'yladi va o'rni dan turib, uni qoziqdan oldi va chophonining bariga qadab qo'yilgan ipli ignasini olib tikishga boshlagan edi, cho'ntagida bir narsa shitirladi. Olib qarasa, to'rt buklangan qog'oz. Unga ko'z yogurtirib: „Yangi bitgan bo'lsa kerak“, deb o'yladi va zavq bilan o'qiy boshladidi. She'r unga juda yoqqan edi. Uch-to'rt o'qishdayoq ko'ngliga jo bo'lib qoldi. So'ngra qog'ozni yana avvalgidek buklab joyiga solib, jomani qoziqqa osdi.

Pahlavon Alisherga qaraganda ancha katta bo'lsa ham ahli fozil o'rtasida nom chiqargan yosh shoirni kattalar-dek hurmat qilar edi. Ular Abulqosim Bobur saroyida uchrashib, do'stlashgan edilar.

Yolg'iz kushtigirlik¹ emas, mushoirada ham raqiblari pahlavon Muhammadning kuragini yerga tegizolmagan edilar. U fors tilida „Kushtigir“ taxallusi bilan ajoyib rubo-iylar, masnaviyalar yozar, musiqiyidan ham xabardor bo'lib, bir qancha kuylar ijod etgan, bundan tashqari u diniy va dunyoviy ilmlardan ham bahrador edi. U qaysi ishga qo'l ursa, uddalay olar va iste'dodining har taraflamaligi bilan odamlarni hayron qoldirar edi. O'zi mard, tanti bo'lgani uchun boshiga kulfat tushgan tanishlari, oshna-og'aynilarini unutmas, topganini ular bilan baham ko'rар edi.

U bugun yosh shoirning g'amini yeb, patir non, qatlama, sharbat olib kelgan edi. Hozir tong uyqusi elitgan falokatzada do'stining sarg'aygan yuziga qarab, uning uyg'onishini kutib o'tirardi. „Tuz totmay uqlab qolgan bo'lsa, yaxshi ermas“, deb o'yladi u va sabrsizlanib yo'talib qo'ydi. Uyquda ziyrak bo'lgan shoir uyg'onib ko'zini ochdi va o'rni dan turib o'tirarkan, salom berdi.

– Vaalaykum assalom! Sog'liqlari nechuk? Mavlono Abdusalom bergen hab doru kor qildimu?

– Ayog'imning og'rig'i biroz bosilg'ondek.

¹ K u s h t i g i r – yakkama-yakka kurash.

– Mavlono zamonning mohir hakimi erur. Zora maraz zoil bo'lsa. Alar buyurib erdilarki, bemor sog'oyg'ondin so'ng teri ostida qolg'on maraz unsurlarini daf qilmoq uchun xodim qilmoq zarur, deb. Avval nonushta qilib olali, so'ngra..

Alisherning ishtahasi bo'lmasa ham, patir non va qatlamadan bir-ikki burda yeb, shaftoliqohi suvidan bir piyola ichdi.

Nonushtadan keyin pahlavon uning oyog'ini uqalay boshladi va odati bo'yicha she'r dan gap ochdi:

– Siz turkiy tilida she'rni yaxshi aytadursiz. Marhum Abulqosim mirza ham sizni maqtaydurlar erdi. Xo'sh, emdi sizga bir savolim bor, javob bering.

– Bilsam, javob beray, savolningizni ayting.

– Savolimiz budurki, – dedi pahlavon shoirning oyog'ini uqalab turib, – turkigo'y shuarodin qaysi biri yaxshiroq aytur va siz qay birini beganursiz.¹

– Yaxshi aytilgan she'rning barini beganurmen.

– Xolis turib ayting, turkigo'y shoirlarning qay birisini so'z mulkining podshohi deb bilursiz?

– Mavlono Lutfiy holo barhayotdurlar, ul kishi turkigo'y qavmning ustozи tururlar, alarni malikush-shuaro, deb topurmen.

– Nechuk Mavlono Sayd Nasimiyni demadingiz?

– Aning uchunki, – deb kulib javob berdi Navoiy, – Mavlono Lutfiyni podshoh deb bilsak, Sayd Nasimiy ul kishiga vazirlikka arziydurlar.

Yo'q, mavlono Nasimiydek otashnafas shoir turgan yerda Lutfiyni pisand qilg'oningizga ajablanurmen. Sayd Nasimiyning har bir she'ri hikmat xazinasi bo'lib, zohirda bir jonong'a aytilgan she'rg'a o'xshab ko'rinsa dog'i, botinda koinotning birligi va butunligina oshiq bo'lg'on shoirning nidosidur, ul har bir juz'in nimarsada ulug' birlikning tahozirotin ko'radur. Mana, qulqoq bering, – u uqalashdan to'xtab, yosh Navoiyning shu bugun ertalab yozgan she'rini zavq bilan o'qiy boshladi:

¹ Begannmoq – yoqtirmoq.

*Har qayon boqsam yuzumga ul quyoshdin nur erur,
Har sori qilsam nazar ul oy menga manzur erur.*

She'rning so'nggi ikki misrasini o'qiyotganda „Navoiy“ so'zi o'rniga „Nasimiy“ so'zini qo'yib o'qidi:

*Gar Nasimiy simbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchunki xom¹ etgan kishi ranjur² erur.*

Taajjubdan ko'zları qinidan chiqib ketayotgan yosh shoir pinagini buzmay, she'r o'qiyotgan pahlavonga tikilganicha qotib qoldi.

– Qani ayting, zohiran majoz tariqig'a mansub ersa dog'i, ma'no yuzidin haqiqat tariqig'a doxil ermasmu, – dedi pahlavon she'rni o'qib bo'lgach. – Iya, nega javob bermaysiz?

Navoiy: „Bu she'rni shu bugun men yozdim-ku!“ – demoqchi bo'ldi-yu, o'zini tutib oldi.

– Bul she'rni qachon yod tutib erdingiz? – deb so'radi, u tilga kirib.

– Mundin o'n ikki yil burun. Bobur Mirzoning bir majlisida Sayd Nasimiy o'qib erdilar, Mirzoga bag'oyat xush keldi. Men ani bitib olib yod tuttim.

– Ehtimol, siz yanglishayotgandursiz, bu boshqa shoiring...

– Yo'q, yo'q, men yanglismadim. Guvohlarim bor. So'zimg'a bovar etmasangiz, alarni boshlab kelayin. – Shuni deb pahlavon tashqariga chiqib ketdi va o'z hazilidan zavqlanib, ko'zidan yosh chiqquncha kului.

Navoiy esa qo'lini cho'zib jomasining cho'ntagini timiskiladi, yozgan she'ri joyida, to'rt buklog'ligicha turibdi. Pahlavon uni qachon olib o'qibdi-yu, qachon yod ola qopти? Qiziq! Yo o'zi adashyaptimikin? Bir vaqt o'qigan g'azali xotirasida saqlanib qolgan-u, she'r yozishga boshlaganda yuzaga qalqib chiqqanmikin? Yo'g'e!

Navoiy shularni o'ylab boshi qotib turganda pahlavon yuziga jiddiy tus berib, yana hujraga kirdi va u yoqdan, bu yoqdan gapirib, Alisherning diqqatini chalg'itmoqchi bo'l-

¹ X o m - xayol.

² R a n j u r - kasal.

di. Ammo shoirning xayoli hamon parishon, ko'ngli alag'da edi.

– Rosti bila ayting, shul she'rni Sayd Nasimiyning o'z og'izlaridan eshitganmu erdingiz?

– Iya, nega menga ishonmaysiz. O'shul majlisda men bila ikki shogirdim ham bor erdi. Alar ham mazkur she'rni yod tutib erdilar. Inonmasangiz, alarni tongla boshlab kelurmen.

„Yo pahlavon meni kalaka qilayotir, yoki xastaligim tufayli zehnim zaiflashib, Nasimiyning xotirimda qolg'on she'rini qaytadan yozganmen“, deb o'yładi shoir hayron bo'lib.

Pahlavon esa o'z takyasiga borib shogirdlaridan Sultonali bilan Muhammad Alini oldiga chaqirib oldi-da, ularga Navoiyning she'rini yodlatdi. Ertasiga ular kelib, pahlavonning so'zlarini tasdiqladilar va go'yo o'n ikki yil burun eshitgan she'rni qiroat bilan o'qib berdilar. Pahlavon esa „Ana ko'rdingizmi?“ degandek qoshi, ko'zi bilan imo qilib qo'ysi. U hazilni haddan oshirib yuborganini payqab, gapni qisqa qildi-da, yosh shoirni hayratda qoldirib, shogirdlari bilan jo'nab qoldi. Ertasiga Navoiyning holidan xabar olish uchun shogirdi Sultonalini yubordi. O'zi oradan bir kun o'tkazib keldi-da, qo'lidagi tugunchani dahlizga qo'yib, xayol og'ushida yotgan shoir bilan salomlashdi. Yoniga o'tirib sog'lig'ini so'raganda Alisher:

– Yomon ermas, ayoq og'rig'i bosildi, ammo aning o'rning'a boshim og'rimoqda, – dedi norozi ohangda.

Pahlavon hamdardlik bildirish o'miga xaxolab kulib yubordi:

– Masofil ayoqingizdin boshingizga chiqibdur-da. Ha! Buning iloji oson, bir piyoladan may ichib olsak, bosh og'rig'i qoladur, – shuni deb o'rnidan turdi-yu, dahlizdan ikkita non orasiga qo'yilgan yaxna go'sht bilan bir shisha musallas keltirib xontaxta ustiga qo'ydi.

Ikkovi bir piyoladan ichib qizishib olgandan keyin pahlavon kulib hamma voqeani gapirib berdi.

– Egningizni uloydurg'onda kissangizdin bir qog'oz topdim. Ohistaliq bila ani chiqarib ko'rdim. Ma'lum bo'l-

diki, ushbu yaqinda aytilg'on she'rdur. Ani yonimda qo'yib, uch-besh karra o'qib yod tuttim va joyig'a qo'ydim. Siz uyg'ong'och, ushul so'zlarni arog'a soldim.

– Xotiringizg'a balli! Uch-besh karra o'qib yod olibsiz. Ammo meni hayrat va taajjubda qoldirib, xayolimni parokanda qilmoqdin maqsud ne erdi?

– Boshingizni og'ritib, ayoqingiz og'rig'ini unuttirmoq erdi, – deb javob berdi kulib pahlavon Muhammad.

YAXSHINING SHAROFATI

– Tobakay musofirlikda rangingizni sarg'aytirib yurgaysiz, – dedi bir kuni Alisherning hujrasiga tashrif buyurgan pahlavon Muhammad. – O'z shahringiz Hirotg'a keting. Mashhad havosi sizga yoqmadi. Rangingizga qarab bo'l-maydur, za'faron.

– Rost, Hirotni sog'inib rangim za'faron bo'ldi. Qanot bog'lab uchgim kelib turibdur. Borib marhum atomning chirog'in yoqmog'im kerak.

– Bas, nechun jo'nab ketmaysiz?

– Hirot taxtin olg'on Abu Saiddin qo'rqa durmen. O'zingizga ma'lum, mening tag'oylarim aning g'animi bo'lg'on Husayn Boyqaro xizmatidadurlar. Tag'oyisini ko'rarga ko'zi bo'lmos' on podshoh jiyanining boshin silamas.

Pahlavon ketmon soqolini tutamlab, bir lahma fikr-mulohaza daryosiga cho'mdi-da, keyin boshini ko'tarib, do'rillagan ovoz bilan dedi:

– Albatta, bir ishga bel bog'lamoqdin avval aning oqibatin o'ylamoq kerak. Ulug'bekning onosi Gavharshodbegimdek tabarruk xotunni jallod ilkiga topshurg'on, begunoh bek, shahzodalarni qatl ettirgan podshohdin yaxshilik kutib bo'lmaydur. Kimiki tutun chiqarib yonayotgan bu alangaga yaqinlashsa, etagi kuyadur. Shul sababdin siz Hirot borg'oningizda anga yaqin yo'lamang. Faqir kishi panada, deganlaridek zolimning ko'zidin yiroqda yuring. Men dog'i yaqin aroda Hirotg'a ko'chib ketmoq niyatidamen. Bul yerda ishim yurishmay qoldi.

– Mashhadda menga sizdin o‘zga mehribone yo‘q. Yol-
g‘uz qolsam, musofirlik boshimg‘a yetadur.

– Andog‘ bo‘lsa, ikki o‘t-olovdin birin tanlang. Men ket-
sam, bul yerda holingizdin xabar oloturg‘on kimarsa yo‘q.
Hirotda ersa yor-do‘stlaringiz bor. Mavlono Abdurahmon
Jomiy va Sayid Hasan Ardashер janoblari har vaqt sizni hi-
moya qiladurlar. Siz sipohi ermas, shoirsiz. Ilkingizda nay-
za ermas, qalam tutib kelgansiz. Nahot, Abu Said tag‘oyila-
ringizning qasdin sizdin olsa?

– O‘zi ham Hirotni sog‘inib, butun vujudi bilan u yerga
intilib turgan yosh shoirga pahlavonning so‘zi yog‘dek yoq-
di. Abu Said o‘z dushmanlarini yengib, Xurosonda bir qadar
tinchlik o‘rnatgan edi. Shoир oldiga qo‘yilgan qaynoq sho‘r-
vani ichishdan qo‘rqan kishidek, yana bir necha kun sabr
qilib turdi, keyin tavakkal otiga minib, o‘z shahri Hirotga
jo‘nadi.

Endi yigirma-yigirma birga kirgan tajribasiz yigit-
lar singari Alisher ham pulni rasamadi bilan sarf qilishni
bilmas edi. Qo‘li ochiqligi tufayli ko‘p o‘tmay, otadan qol-
gan uncha-muncha pul hamsovurilib ketdi, birovdan pul
so‘rashdan u or qilardi.

Bir kuni shoir Hasan Ardasherni yo‘qlagani borganda, u
ishdan gap ochdi.

Bekor yurgandin bekor ishla, degan gap bor. She‘r bi-
lan qorin to‘yg‘ozib bo‘lmaydur. Ishlamasangiz dog‘i och
qolmaysiz, men bor, oshno-og‘aynilar bor. Ammo sizning
sirkangiz suv ko‘tarmaydur. Riyozat bila topilg‘on bir tish-
lam nonni birov bergen semiz qo‘y etidin yaxshiroq deb
o‘ylaysiz.

– Ko‘nglimdagini topdingiz, otaxon, – dedi qizarib Navoiy.

– Shul sababdin sizga loyiq bir ish topoyiq. Agar she‘r
muxlisi bo‘lg‘on insoqli bir amaldor sizni o‘ziga mulozim
qilib olmoqqa rozilik bersa, xo‘p dermi erdingiz?

– Munosib bir kishiga mulozim bo‘lmoqdin or etmay-
durmen. Birovning xizmatin qilmoq ayb ermas.

– Rost aytdingiz, bu nomus qilaturgan ish ermas. So‘zi-
ma qulqoq bering. Men bir kun Sulton Hasanbekning uy-
laridagi majlisda sizning bir she‘ringizni o‘qib erdim. Ul

kishiga bag'oyat xush keldi. Burunroq menga, bir pokiza, fahm-farosatli yigit bo'lsa, navkar qilib olur erdim, deb erdilar. Men sizni aytib ko'ray. Qo'li ochiq odam, yaxshi mosh bersa kerak.

- Sulton Hasanbek mayxo'r, deb eshitamen. O'g'li dog'i ko'p ichadur erkan, - dedi Navoiy.

- Mayxo'r bo'lsalar dog'i ko'ngli oq odamlar. Yaxshi odam mast bo'lsa ham o'zgaga yomonliq sog'inmaydur.

Navoiy ikkilanib turib, uning taklifini qabul qilishga majbur bo'ldi. Yosh bo'lsa ham she'r muxlislari orasida dong'i chiqqan Navoiydek shoirni mulozim qilib olganidan Hasanbekdek kishi faxrlanar edi.

Mulozim yoki navkar xizmatkorlik lavozimidan bir pog'ona baland bo'lib, u bek bilan xizmatkorlar o'rtasida turadi, xo'jayinning buyruqlarini xizmatkorlarga yetkazadi, dasturxon yozib, xo'jayin oldiga ovqat qo'yadi, u bilan birga o'tirib ovqatlanadi, suhbat quradi. Bundan tashqari Navoiy jangovar bek bilan safarga birga chiqish, sahro, tog'-toshlarda yurish, harbiy safar qiyinchiliklarini u bilan baham ko'rishga majbur edi.

Navoiy Mirzabekni ichkilikdan qaytarishga, unda she'r va musiqiyga havas uyg'otishga harakat qilardi. Musiqiyga havas uyg'otish qiyin emasdi, ammo ichkilikdan ko'ngli ni sovitish mumkin bo'lmasdi. Biroq shunga qaramay, Mirzabek ko'ngli oq bo'lib, mast bo'lмаган vaqtlarida juda xushmuomala va rahmdil yigit edi. Kunlardan bir kuni yuz bergen bir hodisa buni tasdiqladi.

Husayn Boyqaro Xorazmda kuch to'plab, doimo Xurosonga hujum qilib turardi. Uning bir to'da askarlari Jah-Jah degan joydagagi jangda mag'lub bo'lib qochib qutuldi, bir qismi o'rovda qolib, asir tushdi. Bu jangda Abu Sayidning yosh askarboshilaridan Mirzabek o'zining usta jangchi, mohir qilichboz ekanini ko'rsatdi. O'sha vaqtning odatiga ko'ra asirlarni askarboshilar va navkarlarga ikkitadan uchtdan bo'lib berar, ular bu asirlarning kallalarini olib, o'z hukmdorlariga yuborar edilar.

Mirzabek qarorgohga jangdan charchab keldi-da, qurol-yarog'ini chodirning o'rtasidagi ustunga osdi va o'zi-

ni yerdagi namat ustiga tashladi. U hali o'ziga kelmagan, harsillab nafas olar, ko'zlar bejo edi.

– Tomog'ingizni ho'llab olsangiz o'zingizga kelardingiz,
– dedi Alisher.

Mirzabek o'rnidan turib o'tirib, bir piyola sharbat ichib, mo'ylovini artdi-da:

– Shukur, – deb qo'ydi entikib. – O'zi dog'i... hazilakam jang bo'lmasdi, Ahmad Hojibek... o'z cheriki bila... yetib kelmasa... ishimiz xarob erdi.

U harsillab jang tafsilotlarini gapirib berayotganda, tashqaridan oyoq tovushi, ot pishqirig'i eshitildi. Qurol-yarrog'li tavochi (xabarchi) bek chodir ichiga kirib salom berdi-da, xirillab:

– Mirzabek, ulushingizni keltirdim, ikki bandi, – dedi. – Darhol kallalarini olib, Mirzaga yiborg'aysiz!

Darhol quollarini taqib olgan Mirzabek bilan Navoiy tashqari chiqib, qurolli soqchilar yonida turgan, kiyimlari yechib olingan ikki asirni ko'rishdi. Ularning biri novchagina, qop-qora soqolini turkmancha qirdirgan yigit edi. U boshini g'oz ko'tarib, mag'rur boqib turar, ko'zlarida qo'rquvdan asar yo'q, uning yonida o'rta bo'yli, kallador sherigi xayol ichida yerga tikilganicha qotib qolgan edi.

Tavochi bek ikkala asirning kallasini hukmdorga yuborish kerakligini yana bir bor uqtirib, otiga mindi, soqchilarini uning oldiga tushib, bosh qarorgoh tomon jo'nashdi. Navoiy kallasi hozir olinishi kerak bo'lgan yigitlarga achinib qarar, ularni qutqarish yo'lini qidirar edi.

– Bek, bul ikki bandini qatl etib baraka topmaymiz, – dedi. – Jangda odam o'ldirmakning yo'li boshqa. Siz jangda yovni o'ldirmasangiz, ul sizning boshingizni olur, ammo qurol-yaroqsiz asir yigitlarni bejon qilmoq ulug' gunoh.

– Na qilay, farmoni oliyg'a qarshi bormoq mumkin emas.

– Biz podshohning farmonini ham yerina keltirurmiz, bularni dog'i o'ldirmaymiz. – U savol nazari bilan qarab qolgan Mirzabekka uzoqdagi bir chinorni ko'rsatdi. – O'shal og'och tubinda bir o'q yeb o'lgan askarni ko'rib edim. Boshi butun. Yarmoq berilsa, bir askar aning kallasini

keltirgay. Biz bir bandining kallasi o'rniga ani yiborg'oymiz. Ammo ikkinchisini qandoq xalos eturmiz, bilmayman. – Navoiy negadir, birinchi navbatda, novcha askarni qutqarmoqchi edi.

Mirzabekning yuzi yorishib ketdi.

– O'sha chinordin yuz qadamcha narida, soy bo'yida-gi xarsangtosh yonida men Mirza Husaynning bir navkari-ni yelkasidin chopib tashlog'on erdim. Aning dog'i boshin keltirsinlar, – shuni deb Mirzabek cho'ntagidan bir dinor chiqarib, Navoiyga tutqizdi. Navoiy qo'shni chodirga kirib, tanish bir askarni boshlab keldi va qo'liga tilla pulni tutqizib, voqeani tushuntirdi.

Oradan chorak soat o'tmay, kesib kelingan ikki kallani surjunga solib, tavochi bekka jo'natdilar, joni omon qolgan ikki asirni kechgacha chodirda olib o'tirib, qorong'i tushganda qo'yib yubordilar. Navoiy ular bilan xayrlasharkan, har biriga bittadan non berdi.

Sulton Hasanbek Mirzabekning qilgan xayrli ishini eshitib, xursand bo'ldi va unga shunday dedi:

– O'g'lim, Navoiyning sharofati bila savob ish qilibsen. Men ikkingizdin ham behad xursandmen. Ammo tilingizga ehtiyoj bo'ling, agar birov bul ishdin xabardor bo'lib, Abu Saidga yetkazsa, holingizga voy!

BADARG'A

Bir kuni shoir o'z hujrasida ishlab o'tirganida saroydan farrosh kelib, podshoh uni o'z huzuriga chorlayotganini aytdi.

– Hozir. Andak sabr qilib turing, – dedi rangi o'chinqiragan Alisher, shoshib-pishib qog'ozlarini yig'ishtirib, juz-donga solar ekan. „Nega chorladi erkan? Ishqilib, yaxshi-likqa bo'lsin“, deb o'yladi u gangib. Biroq sir boy bermasdan, shoshilmay boshiga ko'k shoyi sallasini o'radi va havorang to'nini kiyib, farroshga:

– Qani, yursinlar, – dedi.

Shoirning yuragi bezovtalanib, bir falokatdan darak berayotgandek dukullab urar edi. Axir, qo'rmasdan bo'ladi-mi!

Abu Saidning amri bilan har kuni ko'shkning qarshisi-dagi maydonda begunoh odamlarning kallasi kesilib turar, ba'zan shu maydonda qurilgan katta qozonda jallodlar suv qaynatib, mahkum qilingan kishilarni tiriklayin qozonga tashlar edilar.

Podshoh „hujrayi xos“ida zar to'shak ustida, yumaloq yostiqla tirsagini qo'yib, vaziri Sulton Hasanning ma'ruza-sini tinglar edi.

Keng peshana, jussador, qovoqlari shishinqiragan Sulton Hasan Koshg'ar chegarasidagi ahvol to'g'risida ma'lumot berar edi:

– Sulton Muhammadning kenja o'g'li, darakchilarimizning xabariga ko'ra, Koshg'arda qo'shin to'playotgan ermish, – dedi u ma'nodor qilib, –Badaxshong'a qo'shin yubormoq kerak. U yerda tahlikali ahvol yuz berdi.

Abu Said chakkasiga qo'lini tirab, o'nga toldi. So'ngi vaqtarda mamlakatning har tomonidan kelayotgan noxush xabarlar uning safrosini qo'zg'atardi. Xorazm va Marv viloyatidan bir talay askar to'plagan Husayn Boyqaroning ilg'orlari Xuroson chegarasidan o'tgan, uning askarboshilaridan Mirsayid – Navoiyning tog'asi ozgina askar bilan Seraxs qo'rg'onini ishg'ol qilgan edi. Ana shu vaqtda Koshg'ardan kelgan xunuk xabar dard ustiga chipqon bo'l-di.

– Farmoni oliv hozirlang, – deb amr qildi Abu Said, – Shayx Ali bahodir Balx viloyatidan uch ming cherik olib Badaxshon borsin!

– Bosh ustiga, mirzam.

– Seraxs qo'rg'onini qamab yotgan cheriklarimizga oziqa yuborilsin!

– Xo'p, taqsir.

– Mirsaidning jiyani bul yerda ne ish qilib yuribdir, boxabar bo'linsin.

– Mirzam, Navoiy shoir va darvessifat yigit. Aning si-yosat va rayosat birla ishi yo'q. Men doim Alisherni nazorat ostida saqlaydurmen. O'zingizga ma'lum, shoir mening o'g'lim Mirzabekning mulozimi erur, aning har bir bosg'on qadami bizga ma'lum.

– Hammasidin boxabarmen. Jah-Jahda yuz bergen voqeadin ham.

Bu gapni eshitib, vazir bir seskanib tushdi.

– Tog‘alari kim erdi-yu, jiyani kim bo‘lardi, – deb po‘n-g‘illadi Abu Said. – Har narsa asliga qaytadur.

Oradan ko‘p o‘tmay, farrosh Navoiyni boshlab kelganini ma’lum qildi.

– Kutib tursin!

Oradan yarim soatcha vaqt o‘tgandan keyin u shoirni o‘z huzuriga chaqirtirdi. Navoiy eshikdan kirishi bilan ta’zim qilib tiz bukdi va ijozatdan keyin poygahda cho‘kka tushib o‘tirdi. Bu vaqtida shoir yigirma uch-yigirma to‘rt yoshlarda bo‘lib, qizilmag‘iz, qiyiqko‘z, yumaloqqina yigit edi. Podshoh undan ahvol so‘raganda:

– Soyayi davlatingizda, alhamdulillo, sog‘-salomatmiz va zoti oliylariga uzoq umr tilab yotibmiz, – dedi. Shoир o‘zini yarador bo‘lgan yirtqich hayvonning g‘origa kirib qolgan kishidek his etardi. Og‘zidan birorta nojo‘ya gap chiqsa, boshiga o‘lim kelishi aniq edi. U tavoze bilan o‘trib, podshohning bergen savollariga ehtiyyotlik bilan javob qilardi.

– Sizning xo‘p g‘azallaringiz ko‘p va lekin ba’zilari g‘ashimga tegadur, – dedi Abu Said va yostiq tagidan bir varaq qog‘oz olib, tutila-tutila quyidagi satrlarni o‘qidi:

Meni ishqdin man’ etar soda shayx,

Dema soda shayx, it kabi loda shayx!

– Bu yog‘ini o‘qimaymen, o‘zingiz bilursiz. Bu g‘azalni siz bitdingizmi?

Abu Saidning qisiq ko‘zlarida, iljaygan go‘shtdor yuzida g‘azab aralash istehzo alomati ko‘rindi.

– Men bitdim, – deb dadil javob qildi shoir.

Abu Said og‘ir xo‘rsinib, so‘l qo‘lining bosh barmog‘i va yon barmog‘i bilan miyiqlarini siladi, ko‘zlaridan g‘azab uchquni chaqnadi.

– Qanday jur‘at etding, – dedi sansirab. – Shayxlar, qalandarlar, eshonlar avom xalqni din va diyonat yo‘liga boshlovchi rahnamolardir. O‘n nafar olimni bir nafar shayxning harom tukiga olmaydurmen.

– G'azalning zoti shohonalariga topshirilg'on nusxasida xato bor, – dedi Navoiy boshini ko'tarib. – Bitikchi „aytkim“ so'zin „it kabi“ qilib g'alat yozibdur.

– *Meni ishqdin man' etar soda shayx*
 Dema soda shayx, aytkim loda shayx!

Abu Said, bu safar ham shoир meni mot qildi, degan-dek vaziri Sulton Hasanga qarab qo'ydi. Shu vaqtgacha shoирning hayoti uchun qo'rqib, ichini it tirnayotgan vazir yengil nafas olib, javob o'rniga bosh egib qo'ydi.

– Gap bir so'z ustida ermas, – dedi Abu Said. – G'azal g'arazgo'ylik va yamon niyat bilan yozilg'on. Adolat, xalq-parvarlik haqida, shayxlar haqida g'azal yozib ne qilursiz? Siyosat va rayosat doirasiga kirmoqning na hojati bor? Sanamlarning qosh va ko'zi to'g'risida she'r bita bering, hech kim hech narsa demaydur.

U nasihatomuz gapirar ekan, shoирni yana sizsirashga boshlagan edi. Navoiy indamay hurmat bilan uning so'zlariga qulqoq soldi. Abu Said shoирning ichki nur bilan yorishgan, insof, muruvvat, kamtarlik aks etgan yuziga tikelib, uning ilm, ma'rifat shaydosi ekanini, qo'lda qilich bilan shuhrat va boylik orttirishni afzal ko'radigan tog'alariga o'xshamasligini payqadi. „Mayli, shayxlarg'a qarshi she'rlar yozaversin, ammo rayosat ishlariga aralashmasin. Har holda andin ko'z-qulqoq bo'lib turmoq kerak“, deb o'yadi.

Abu Said bir vaqtlar Badaxshonni bosib olganida, uning podshohi Sulton Muhammadni va uning to'ng'ich o'g'lini asir qilib, Hirotg'a olib kelgan edi. Badaxshon shohining kenja o'g'li Koshg'arga qochib qutuldi. Asirlar Hirotda nazorat ostida, oddiy kishilar qatorida yashar edilar. Asir shoh La'li taxallusi bilan tojik tilida yaxshigina g'azallar yozar edi. Asli badaxshonlik bo'lgan shoир Abdusamad uning yaqin do'sti edi.

Bir kuni kechqurun uning uyiga Sulton Muhammad mehmon bo'lib keldi. Sobiq podshohning rangi o'chgan, ko'zları bejo, qo'llari qaltirar edi. Abdusamad asir podshoh bilan salomlashib, to'shakka o'tirg'izdi-da, undan ahvol so'radi.

– Dushmanimizdin o'ch oladirgan payt yaqinlashmoqda, – dedi soqoli ko'kragiga tushgan barvasta La'li. – Yo o'lamiz, yo ozod bo'lamiz.

– Ne gap, taqsir? Ochiqroq gapiring!

Shunda La'li Koshg'ardagi kenja o'g'lining Badaxshonga o'tib, Abu Saidga qarshi jang ochishga hozirlanayotgani va Husayn Boyqaroning Marv tomondan bostirib kelayotgani to'g'risida olgan ma'lumotlarini gapirib berdi.

Ikkala do'st shivirlashib, ro'y bergan voqealarning oqibati va tutadigan xatti-harakatlari to'g'risida uzoq maslahatlashdilar. Shu orada eshik tiqillab qoldi.

– Alisher kelgandur, ani ham chorlog'on erdim, – dedi uy egasi olazarak bo'lgan mehmonga.

Navoiy uy ichiga kirishi bilan majlisga ruh kirdi. Uyga chiroq yoqqandek, do'stlarning yuzi tabassum bilan yorishdi. Shoир uy egasi va La'li bilan yaqin do'stlar singari hazilomuz hol-ahvol so'rashib, dasturxon yoniga o'tirdi.

– Majlis ahli hozir va lekin o'rtada majlis sadrini ko'rmaydurman, – dedi Navoiy.

– Hozir ul janoblari ham o'z o'rinalarini ishg'ol qiladilar, – deb Abdusamad xontaxta ostidan bir shisha chiqardi. – Sizni kutib turgan edik.

Navoiy to'ldirilgan piyolani qo'liga olar ekan, La'liga qarab:

– La'li Badaxshonning tojingizdin o'rinni olishi uchun! – deb piyolani ko'tardi, so'ngra bitikchi xato ko'chirgan shayxlar to'g'risida yozgan so'nggi she'rini o'qib, podshoh bilan bo'lgan muloqotini gapirib berdi.

– Kotibning ham shayxlarni ko'rarga ko'zi yo'q erkan, – dedi Badaxshiy kulib, – ammo shayxlarg'a adovati siznikidin zo'r erkan, aning uchun „aytkim“ so'zin „it kibi“, deb bitibduri. Ajib, Abu Saidga bu so'z yoqmabduri.

– Laqabi it bo'lg'oni uchun yoqtirmog'on, – dedi zaharxanda qilib La'li.

Do'stlar hazil-mutoyiba, she'rxonlik bilan yarim kecha-gacha o'tirdilar.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Sulton Muhammadning o'g'li Badaxshonga bostirib kirdi, ikkinchi tomondan Husayn Boyqaro Abu Saidning yoqasiga yopishdi.

Riyokor mullalar, shayxlar yordami bilan Hirotni egal-lagan zolimning taxti larzaga keldi. Abu Said baayni dumidan qopqonga ilingan yirtqich hayvondek, tishlarini irjaytirib, tevarak-atrofini qon bilan bo'yardi. Jallodlarning pi-choqlari qayroq ustida, ko'shk maydonidagi doshqozonlar tinmay qaynab turar edi.

Badaxshonda qo'zg'olon boshlanishi bilan Sulton Muhammad, uning katta o'g'li va ularning yaqinlari qamoqqa olindi. Abu Said ularni qiy nab so'roq qilgandan keyin saroy oldidagi katta maydonda kallalarini kestirdi.

Oradan bir necha kun o'tgandan keyin Sulton Hasan Alisherni o'z huzuriga chorlab, dabdurustdan shunday dedi:

– Ikki kundan so'ng Samarqand ketgaysiz. Hozirdanoq yo'l hozirligini ko'ravering.

Bu gap shoirni tomdan boshga tushgan tarashadek gan-gitib qo'ydi.

– Bu qandoq gap, begin? Axir...

– So'zni ko'p cho'zmang. Farmoni oliy bu, erta ermas, in-dinga Ahmadhojibek karvoni yo'lg'a chiqadur, birga ketgaysiz:

„Farmoni oliy bu“, degan gapni eshitib, shoirga hamma narsa ravshan bo'ldi: „Badaxshonliklar bila do'st bo'lg'o-nim uchun podshoh meni jazolamoqchi, badarg'a qilmoq-chi“, deb o'yladi u. Keyin vazirning chakka tomirlari bo'rtib chiqqan jigarrang yuziga qarab dedi:

– Axir menda zodi rohila yo'q.

– Menda xizmat haqingiz bor, – deb uning so'zini bo'l-di vazir, – sizga ikki-uch dinor berasim bor. Ahmadhojibek muruvvatli odam, aning himoyatida siz Samarqandda xor bo'lmaysiz.

Shoir taqdirga tan berib, o'rnidan turdi...

SAMARQAND BO'SAG'ALARIDA

Alisher mingan ko'rimsizgina qalmoqi ot boshini chayqab, karvon ketidan bir maromda yo'rtib boradi. Otliq esa xomush, o'qtin-o'qtin otning jilovini asta siltab, „chu, jonivor“, deb qo'yadi. Yuragi g'ash, har xil fikrlar boshiga kelib ketadi.

O'z ixtiyoring bilan yor-do'stlar hamrohligida yo'lga chiqish boshqa-yu,adolatsiz podshohning amri bilan tug'ilgan shahrin ni tashlab safarga chiqish boshqa.

Alisher yuragini ezayotgan og'ir xayollardan qutulish uchun hayotida yuz bergen bironta quvонchli hodisani eslashga urinadi. Ustiga og'ir yuk ortilgan tuyalar esa kichkinagina bir eshak ularni boshlab ketayotganidan norozidek, bo'kirishib istar-istamas qadam tashlaydi. Kun qiyomga yaqinlashgan, sahar turib yo'lga chiqqan yo'lovchilarining ba'zilari mudrab boradilar. Ammo Navoiyning ko'zida uyqu yo'q. Yurakni ezadigan mudhish xotirotlardan ko'ngli behuzur bo'lib, miyasi lo'qillab og'riydi. Hamrohlariga eshitirmasdan ingrab qo'yadi. Tog'asini eslarkan, ko'zlarini jiqqa yoshga to'ladi, barmoqlarining uchi bilan ko'z yoshlarni artib, birov payqab qolmadimi, degandek tevarak-atrofga qarab qo'yadi.

Alisher yo'lga chiqmasdan tog'asi Mirsayid to'g'risida dahshatli bir xabar eshitgan, Seraxs qal'asini qamal qilib olgan Abu Saidning askarlaridan biri – Mirzabekning navkari Mirsayidning fojiasi to'g'risida gapirib bergen edi:

– Bu kunga degincha tag'oyingizdek mard odamni ko'r-magan erdim, –deb hikoya qilgan edi u. – Ozg'ina cherik bila Seraxsdek berk qo'rg'oni oldi. Ming chog'liq cherik bila qabab tushtik, harchand urinsak dog'i ola bilmadik. Ani och qoldirib, taslim qilmoqchi bo'ldik. Mirsayid Husayn Boyqarodin madad keladur, deb umid qilg'on bo'lsa kerak, taslim bo'lmadi. Anga chetdin madad kelmagach, qo'rg'on ahli och qoldi. Shunda podshoh janoblari Mavlono Muhammad Tobadogoniy hazratlarini Mirsayid bila so'zlashuv uchun vakil qilib yibordilar. Mavlono Tobadogoniy qo'rg'onga kirib, Mirsayidg'a: „Agar taslim bo'lsan-

giz, podshohi zamon siz va barcha navkarlaringiz qonidin kechadur", deb va'da bergandan so'ng tag'oyingiz taslim bo'lmoqqa qaror beribdur va darvozadin chiqib, yaroqlarin topshiribdur... Podsho hazratlari aning cheriklarin tarqatib yiborib, o'zini jallod ilkiga topshirdi.

Navoiy bu dahshatli xiyonat to'g'risidagi xabarni eshitib, ho'ngrab yig'lab yuborgan edi.

Abu Said Mirsayidni o'ldirgandin keyin uning inisi Muhammad Ali G'aribiyyidan ham qattiq o'ch oldi. G'aribiy dunyo ishlaridan qo'l yuvib, Samarqandda darveshona umr kechirardi. Zolim podshoh uni ham tutdirib, azob bilan o'l-dirtirdi.

Navoiy shularni o'ylab, beixtiyor oh tortib yubordi, yonida ketayotgan bir navkar, hayron qolib yalt etib unga qaragan edi, shoir uyalib poshnasi bilan otini niqtadi, jonivor bir yulqinib yo'rtib ketdi. Karvonning boshida ketayotgan Ahmadhojibek bilan yondashib asta yura boshladi.

– Ha, na bo'lli sizga? Birov xafa qildimu? – deb so'radi Samarqand hokimi shoirning yoshdan qizargan ko'zlariga qarab.

– Yo'q, o'zim, esimga bir narsa tushib, xafa bo'lib ketdim.

– Siz g'am lashkarin o'zingizga yovutmangiz. Sabr-matonat qalqoni bila alarni daf etingiz.

– Sizning yoningizga kelgach, yengil tortdim, – dedi shoir egar ustida qaddini rostlab o'tirgan xushsurat Ahmadhojibekka qarab.

– Musofir yurtig'a ketayotirmen, deb qayg'urmang.

Albatta, Vatanni tark etmak oson ermas. Ammo beixtiyor oliga safar tushgan kishi, tavakkal otig'a minib, sabr-matonat kamari bila belini bog'lab olmog'i zarur. Katta boshingizni kichik qilib, har yerga sig'ib ketaverasiz. Muqarrar maoshim yo'q, deb qo'rmang, Samarqandda mendek do'stlaringiz bor erkan, xor-zorlig' ko'rmagaysiz.

Ahmadhojibek asli qashqarlik bo'lib, o'sha zamonning mashhur fuzalolaridan Sulton Malikning o'g'li edi. Ota-si o'lgandan keyin Xurosonga kelib, tahsil ko'rdi. Haddan tashqari qobiliyatli, xushmuomala, g'ayratli, uddaburon yi-

git bo'lgani uchun katta-kichikning hurmatiga sazovor bo'l-di. Xalq oldida uch pulchalik e'tibori bo'lmanan g'addor Abu Said faqat Ahmadhojibekdek odamning obro'sidan foydalanib, Samarqand elini itoatda tutib turishi mumkin edi.

– Samarqand ahli mehmondo'st, musofirparvar. Ul yerga Toshkand, Andijondin kelib tahsil ko'rayotgan yigitlar ko'p. Samarqand – olamning sayqali, ilmning koni...

– Rost, Ulug'bek zamonida shundog' erdi. Ulug'bek, Qozizoda bu dunyodin o'tdilar, Ali Qushchi Rumg'a ketib qoldi, Samarqand egasiz, huvullab qolg'on uyg'a o'xshasa kerak.

– Qatig' to'kilsa yuqi qolur, degan maqolni eshitmagan-musiz? Alar dunyodin o'tgan bo'lsalar dog'i, qurib ketgan binolari, madrasalari, hammom, karvonsaroylari o'z o'rnila turibdur, shogirdlari, suhabatdoshlari barhayot... Rost, ilm, riyoziyat va falakiyotdin ta'llim beradurganlar yo'q, ammomantiq, falsafa, faroiz (yer o'lchov) ilmi ravnaq topg'on. Hirotg'a boqa bul yer tahsil olmoq uchun tinch va qulay. Bu yil necha yoshg'a kirdingiz?

– Yigirma beshga.

– Hali yoshsiz, vaqt g'animatda o'qib qoling! Sizni hazrat Abullays madrasasiga joylashtirib qo'yamen.

– Og'oliq qilg'oningiz uchun ming rahmat.

Samarqand yosh shoirni kulib qarshi oldi. Koshinlari of-tobda yarqiragan madrasalar nurdan uning oyog'iga poyandoz solayotganga o'xshardi. Samarqand tuprog'iga oyoq bosishi, ajoyib jome va madrasalarni ko'rishi bilan Navoiyning ko'ngli ko'tarilib, tashvishlari unutilganday bo'ldi.

Mudarris Xoja Fazlullo Abullays Alisherni ochiq yuz bilan qarshi olib, madrasasiga qabul qildi. Arab tili, sarf nah-visini arabablarning o'zidan ham yaxshi biladigan bu olim – fozil va shoir odamga Navoiyning hurmati zo'r edi. Alisher zavq bilan undan arab tili, falsafa, mantiq ilmini o'rgana boshladi. Yonidagi hujrada andijonlik ikki yigit – Yusuf Safavi bilan Yusuf Andijoniy turar edi. Bir kuni ular osh qilib, Alisherni mehmonga taklif etdilar.

Yusuf Andijoniy xushchaqchaq yigit ekan. Dasturxon yozib, osh keltirgandan keyin „oling, oling“, deyaverib,

mehmonni to'yguncha ovqat yeishga majbur etdi. Qo'llarga suv quyilib artilgandan so'ng, biroz suhbatlashib o'tir-dilar. Navoiyning Hirotdagi hayoti, oshna-og'aynilarini so'rab-surishtirdilar.

– Hirotg'a boqa bu yer tinch, – dedi Yusuf Alisherni yupatmoqchi bo'lgandek, – Samarqand bahavo, jannat-dek makon, Zarafshon suvi boldin shirin, yetmish yetti xil dardga davo. Bu yerda hayot qaynaydur, Hirotda esa ajal-ning bozori chaqqon, eshitishimga ko'ra, har kun Hirotda oldidagi doshqozonlar tagiga o't yoqilib, suv qaynatilar ekan, mahkumlarni shul qozong'a tashlar ekanlar, rostmi?

– Rost, – deb uning gapini tasdiqladi Alisher. Ammo she-riklarining kimligini bilmagani uchun ehtiyyot bo'lib, gapni cho'zib o'tirmadi. „Agar Hirotda qolsam, mening boshim ham xatar ostida bo'lar edi“, deb o'yadi. Oraga sukunat cho'kdi.

– Alisherni shahar aylantirib tomosha qildirsoq yaxshi bo'lur erdi, – dedi Safoiy sherigiga qarab.

– Men jome, madrasalarni, Ko'ksaroyni tomosha qildim. Ulug'bek soldirgan hammomga dag'i tushdim, – dedi Alisher kulib. – Ammo Rasadxonani borib ko'rolmadim. Yiroq...

– Yiroq ermas, – dedi uning gapini bo'lib Yusuf. – Obi Mashhad bo'ylab borilsa, o'n besh daqiqalik yo'l. Istan-sangiz, juma kuni borayik.

Oradan ikki kun o'tgach, ikki do'st Mashhad arig'i yoqa-lab Rasadxona tomon yo'l olishdi, gap bilan bo'lib, u yerga qanday qilib yetib borganlarini payqamay qolishdi.

Ko'hak tepaligi ustiga qurilgan uch qavatli ustuvona¹ shaklidagi, balandligi qirq gazdan oshiq bo'lgan bino o'zi-ning hashamati, ulug'vorligi bilan Alisherni hayratda qoldirdi. Pishiq g'ishtdan ishlanib, sirti marmar tosh bilan qoplangan yoy shaklidagi kuzatish asbobining bir uchi binoning o'rtasidan chiqib osmonga qarab turar edi.

Egasiz qolgan Rasadxona eshigiga qulf solingan, en-di bu asbobdan hech kim yulduzlar sayrini kuzatmas edi. Pastda, Obirahmat soyi yaqindagina bu yerlarni obod qil-gan ulug' olimlarni xotirlab shuvullardi. Ko'm-ko'k tu-

¹ Ustuvona – silindr.

man qo'ynidagi Zarafshon tizma tog'laridan esgan shamlar bog'larning xushbo'y hidlarini keltirardi. Rasadxonani pastroqda ekinzorlar, bog'lar uch tomondan o'rabi olgan. G'arb-janub tarafdan Samarcand madrasalari, saroylar, jomelarning koshinkor peshtoqlari, minoralar ko'zni qamashtirardi. Shahar ustini yengilgina qo'ng'ir chang qoplab olgan, bu yerning esa havosi musaffo, osmoni chang-to'zondan xoli, yulduzlarni kuzatish uchun qulay edi.

„Dunyo Ulug'bek yanglig‘ olimlar podshosini va podsholar olimini ko'rmagan. Hirotday yerdin kelib, shu yerlarni ziyorat qilg'onim uchun tadirdan minnatdormen“, deb o'yadi Alisher, ko'ngli tog'dek ko'tarilib, u ko'pdan buyon o'zini bunday baxtli his qilmagan edi.

XUROSON SARI

Abu Saidning Samarcanda hokim bo'lib turgan to'ng'ich o'g'li Sulton Ahmad otasidek shijoatli emas, aksincha, dangasa, mayxo'r, pirlarga sig'inuvchi nodon yigit edi. O'zining aqli noqisligini, Movarounnahrdek ulug' diyorni idora qilishga aqli yetmasligini bilgani uchun u hamma idora ishlarini o'zining tog'asi Darveshalı Muhammad taxxon bilan Ahmadhojibek va uning amakisi pahlavon Jolibek Do'lboy qo'liga topshirib qo'yan edi.

Bir kuni Sulton Ahmad haramda o'zining suyukli xotini Qutibika bilan maishat qilib o'tirgan paytida Hirotdan chopar kelib qoldi. Devonxonada Muhammad taxxon Do'lboy va Ahmadhojibek davlat ishlari to'g'risida bosh qotirib o'tirishardi. Taxxon choparning qo'lidan yorliqni olib, unga ko'z yogurtirdi-yu, rangi oqarib ketdi. Abu Said o'z yorlig'ida G'arbiy Eronga – Ozarbayjonga qo'shin tortib ketayotganini ma'lum qilib, o'g'li Sulton Ahmadga darhol qo'shin bilan Xurosonga yetib kelishni buyurgan edi. Husayn Boyqaro Abu Saidning Ozarbayjonga ketib qolganidan foydalanib, Xurosonga bostirib kirishi mumkin edi.

– Farmoni oliyni bajo keltirmoq uchun darhol atrof-javonibdag'i qal'a dorug'alarig'a chopar yibor, o'z cherikla-

ringiz bila yetib keling, deb buyurmoq darkor, siz Ahmad-hojibek shul ishga kirishing, – dedi Muhammad tarxon.

– Zudlik bilan mulk dushmani daf'ining chorasin ko'r-mali, – dedi Do'ldoy, – darhol bul ishlardin sohibi davlat Sulton Ahmad Mirzani ogoh etmali.

Muhammad tarxon gapni cho'zib o'tirmay, qo'lida yor-liqni ushiq'an holda ichkariga – haramga yo'l oldi. Eshik og'osi orqali jiyanini xabardor qilib, ichkari kirdi.

Mulk posboni mast-alast, yurtining ahvoldin bexabar, – dedi u qovog'ini uyib.

Bo'g'zi ingichka may ko'zasini yoniga olib o'tirgan qal-moq bashara, oq yuzli go'zal Qutibika qiyiq ko'zlarini yerga qadab o'rnidan turdi, uyalib, noz-ne'matlar to'la das-turxonga boqqanicha qotib qoldi.

– Tag'oyi, ayting, yurtg'a ne bo'ldi? Tinchlikmi? – deb so'radi o'rnidan turib gandiraklab ketgan hukmdor. U tog'asidan bir qarich baland, ikki beti qip-qizil, novcha yigit edi, iyagidagina o'sgan qora soqoliga yopishgan non ushog'ini olib tashlab: – Ne bo'ldi yurtg'a? – so'radi yana, – Samarqand eli mendin rozi, nohaq qon to'kmaganmen...

– Sen nohaq xun to'kmaysen, Samarqand ahli sendin rozi, – dedi tog'asi, – hozir boshqa bir ish chiqib qoldi.

– Ayting, ne ish?

– Men usruk kishi bila so'zlashmaymen.

– Andog' bo'lsa, o'sha ishni mensiz, o'zingiz putkara bering. Men mutakabbir ermasmen, odmi odammen, sizga va beklarga inonamen. Nima to'xtamg'a kelsangiz, hammasiga rozimen.

– Yo'q, sensiz putmayturgan ish chiqib qoldi... Hoy kelin! – deb murojaat qildi Muhammad tarxon Qutibikaga, – bir piyola qatig' keltiring, mirza uyub¹ oyilsin².

Darhol keltirilgan qatiqni ichib olgandan keyin Sulton Ahmad xotini solib bergen o'ringa yotdi va ko'p o'tmay, xurrak otib uxbay boshladi.

G'arbiy Eron va Xurosonda o'limning bozori qizib, dalar, qirlarni lola o'miga qon dog'lari qopladi. Ikki poytaxt-

¹ U y u b – uxbay.

² O y i l m o q – hushyor bo'lmoq.

ni – Samarqand va Hirotni ikki changalida ushlab turgan Abu Said Eron Ozarbayjoni poytaxti bo'lgan Tabrizga ham chang soldi, ammo o'zidek yirtqich hukmdor bo'lgan Hasanbegi uning qo'shinini tor-mor keltirib, o'zini u dunyoga jo'natdi. Abu Said askarlarining ko'pi qirilib, qolganlari qochgani joy topolmadi.

Qoraqum dashtida javlon urib yurgan yosh Husayn Boyqaro ikki kuchli raqibning olishayotganini yaqinroq-dan turib kuzatayotgan edi. Abu Said qo'shinining parokanda bo'lganini ko'rib, u yashin tezligida Xurosonga bositirib kirdi va Hirot taxtini egalladi. Amudaryodan endi o'tgan Sulton Ahmad chekinishga majbur bo'ldi. Alisherni o'zi bilan birga olib kelgan Ahmadhojibek uni huzuriga chorlab, shunday dedi:

– Biz Movarounnahrga qaytib ketmoqdamiz. Emdi sizga ruxsat, ona shahringiz Hirotg'a boring. Sulton Abu Said menga: „Alisherni senga topshirdim, anga ko'z-quloq bo'lib yur“, deb buyurgan erdilar. Alar dunyodin o'tdilar, farmonlari dog'i o'z kuchin yo'qotdi. Emdi erkingiz o'zingizda.

Alisher unga minnatdorchilik bildirib, vidolashdi va Hirot sari yo'l oldi.

– Siz bila Hasan Ardasherga beklik martabasini berib, butun davlat va moliya ishlarin ikkovingizga topshirmoq niyatidadurmen, – deb qoldi Husayn Boyqaro hujrayi xo-sida Navoiy bilan suhbatlashib o'tirarkan. Alisher Hirotga yetib kelgan kuniyoq saroyga kelib, eski do'stini zafar bilan qutlagan va „Qasidayi hiloliya“ni o'qib bergen edi. O'shanda Husayn Boyqaro zavqlanib ketib:

– Ma'ni keliniga hech kishi bu yanglig' ajoyib turkona libos kiydurmag'an erdi, – deb maqtagan va Navoiydek fazl ahillarini davlatni boshqarish ishiga jalb etish zarurligini ko'nglidan o'tkazgan edi.

– Sizlarga baayni o'zimga inongandek inonurmen. Podsholiq uchun sizlardek sadoqatli, halol odamlar zarur, – deb gapini davom ettirdi Husayn Boyqaro.

– Iltifotingiz uchun ming rahmat, boshim osmonga yetdi. Ammo menga daf'atan beklik unvonin berib, mol, davlat ishlarin topshursangiz, barlos, orlot urug' oqsoqollari, Alisher tayyor oshga bakovul bo'lib keldi, deb aytmasmikinlar.

– Nechun undoq desinlar. Axir siz Abu Saiddin jabr ko'rgansiz, Samarcandg'a surgun etilgansiz.

– Mening tariqcha gunohim yo'q erdi, ul bekorga meni jazoladi. „Kalila va Dimna“ kitobining muallifi: „Begunoh kishilarni qo'rqtib, alarg'a jazo bergen podshoh o'lgandin so'ng badnom bo'lq'ay“, debdurlar...

– Borakallo, hikmatli so'z aytibdurlar, – dedi Husayn Navoiyning so'zini og'zidan olib. – Darvoqe, Abu Said badnom bo'ldi, hech kim ani yaxshiliq bila tilga olmaydur. Hay, mayli. Bir hisobda sizning so'zingizda ham jon bor. Sizga hozircha kichikroq bir vazifa beray. Xizmat qilib o'zingizni ko'rsating, saroy ahlining ko'zi sizga o'rgansin, – u qiyiq ko'zlarini yumib, peshanasini ushlaganicha o'ylab qoldi. – Sizga hozircha muhrdorliq martabasini beray. Podsholiq muhri ilkingizda turadur. Mening farmonlarimg'a muhr bosg'aysiz. Muzaffar barlosning husni tavajjuhini qozonmoqqa harakat qiling. Mirzo Bobur vafotidin shul damg'acha amir Muzaffar mening yonimda yurib, jahd-u jadal ko'rgazdi.

Muzaffar barlos o'zini yarim podsho deb o'ylar, chunki uning yordamisiz Husayn taxtni ololmasligini bilar edi. „Aning rozilig'in olmay, bir qadam ham bosolmaymen. Ayoqqa kishan bo'lgan do'st dushmandin yamon. Payt poylab, bul kishini parchalab tashlamasam, ishim olg'a bosmas“, deb o'ylar edi Husayn.

Islom barlos haddidan oshgani uchun sultonning nazaridan qolgan edi. Xususan, Navoiy muhrdor qilib tayinlangandan keyin u har yerda po'ng'illab, „o'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir bo'lganlar“ sha'niga tosh otib yurdi. Ammo Navoiy „tosh bilan otganlarga osh bilan ot“ qabilida ish qildi. Bir kuni u sulton huzuriga kirganda Islom barlosning shijoatli, tadbirli askarboshi, siyosatli ma'mur ekanligini aytib, uni Balx qal'asiga dorug'a qilib yuborishni taklif etdi.

Sulton shoirga iltifot bilan qulq solib, shu to'g'rida o'ylab ko'rish zarurligini aytdi. Devonda Husayn Boyqaroning so'l tomonidagi sharaflı o'rinda o'tirgan Muzaffar barlos hayratda qolib, Navoiyga qarab qo'ydi.

„Nahotki, Alisher o'ziga badxoh bo'lgan bir kishi to'g'risida shuncha g'amxo'r bo'lsa!“ deb o'yladi. U sultonning shoir so'zini yerda qoldirmasligini yaxshi bilardi.

Oradan ikki kun o'tgandan keyin Navoiy saroyga kelganda, sultonning farmonini olib Balxga ketish taraddudi-da yurgan Islom barlos yasovulxonada yonida Navoiyni uchratib, salom berdi.

– Men nodon, sizning qadringizni bilmagan ekanman, yaxshilikka yaxshilik har kishining ilkidan keladur, ammo yomonliqqa yaxshilik sizdek oliyanob, er kishining ilkidan keladur. Men o'la-o'lgunimcha sizning sodiq qulingizmen, – dedi.

– Men dog'i sizning do'stingizmen, – dedi shoir, – imonim komildurki, siz sultong'a sodiq, cheriklarga g'amxo'r vaadolatli bo'lursiz.

Ular gaplashib turganda yasovulxonadan chiqib kela-yotgan bir navkar shoirga salom berib, ta'zim qilganicha turib qoldi. Navoiy bu qorasqol, novcha odamni allaqayerda ko'rgandek edi.

– Tonimadilarmu? Abu Said zamonida Jah-Jah mavzeida bo'lg'on jangda biz asir tushgan erdik, janoblari meni bir do'stim bila o'limdin qutqorg'on erdingiz, – dedi.

Navoiyning yuzi yorishib ketdi.

– Sizni yana sog'-salomat ko'rib behad quvondim.

– Do'stingiz qayda? Boshi omonmu?

– Boshi omon. O'shal kuniyoq mendin ayrlilib qishlog'i Fayzobodg'a ketdi, men yana o'z cheriklarimizga borib qo'shildim.

– Barakallo, mirzaga sodiq erkansiz.

Jahongir barlos ularning gapiga diqqat bilan qulq solib turib, shoirning naqadar bag'rikeng odam ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qildi.

SALTANAT OSMONIDA ESGAN SOVUQ YELLAR

Majdiddin shahar tashqarisidagi bog'iga reja bilan har turli mevali daraxtlar o'tqazgan, qo'rg'oncha orqasida hovuz qazdirib, tevaragiga va ostiga marmar tosh terdirgan edi. Shabada esganda lojuvard osmon aks etgan tiniq suvda hovuz atrofidagi sarv daraxtlarining soyasi jilvalananar, shaf-toli, o'rik gulining yoqimli hidi har yoqqa taralar edi.

Ustiga taka turkman gilami to'shalgan shohsupaning o'rtasiga qo'yilgan xontaxta yonida ikki kishi sekin gap-lashib o'tirar, kichik piyolalarda oz-ozdan may no'sh qilib, gazagiga g'alvirak bodomni barmoqlari bilan sindirib og'iz-lariga tashlar edilar.

Bog' egasi o'rta bo'y, miqtidan kelgan mosh-birinch soqolini mirzoyi qilib qirdirgan Majdiddin qarshisida tavo-ze bilan o'tirgan qotmaroq Nizomulmulkni saroydagagi yan-giliklar bilan tanishtirmoqda edi.

— Kuni kecha yana mirzaga qulluq qilib, navkarlik ma-shaqqati, beklik martabasidan o'zini xalos qilmoqni so'radi. Ikki yil burun ham shul iltimosini podshohning arziga yet-kurgan edi. Podshoh uchun bu amri mahol ko'rinish, hech nav bilan alarga maqbul tushmagan erdi. Bu safar mirza aning iltimosini qabul aylab, uzlatga chekinmoqqa ruxsat berdilar.

Bu gapni eshitib, mehmonning yuzi yorishib ketdi.

— Issiq o'rinni bo'shatib qo'yg'oni yaxshi bo'libdur, — dedi u osti qirdirilgan mo'ylovini boshmaldog'i va yon barmog'i bilan silab qo'yib. Nizomulmulk devonda moliya ishlari bilan shug'ullansa-da, yuqori doiralarda yuz bera-yotgan hodisalardan ko'pincha bexabar qolar edi. Saroya bo'layotgan gaplardan xabardor bo'lish uchun bugun ataylab Majdiddinni yo'qlab kelgan edi.

Gap Hasan Ardasher ustida ketayotgan edi. Navoiy tillado'zi chopon, navro'ziy kuloh kiyib, Xuroson mulki-ning kulli ixtiyorini qo'lga olgan yili Ardasher ham beklik martabasiga ko'tarilgan, Navoiy ikkovi yurtning tinchligi, ma'murgarchiligi yo'lida qo'lni qo'lga berib ishlagan edilar. O'sha yili Majdiddin parvonachi qilib tayinlangan bo'lib,

uning vazifasi podsho ostonasiga bosh urib kelganlarning arznomalarini ko'rib chiqib ajrim qilish, ba'zi mushkul mojarolarni podshoga havola qilish, moliya devonini nazorat qilishdan iborat edi. Navoiy iste'fo berib, davlat ishlaridan qo'l yuvGANidan keyin parvonachi uning o'mnini egallashga urinib ko'rdi-yu, lekin bo'ldirolmadi. Alisher o'miga uning shogirdi Xoja Afzal tayinlandi. Majdiddin esa Navoiy va uning do'stlarini ig'vo tutuni bilan zaharlashga qasd qildi. Nizomulmulk xuddi ovga chiqqan sirtlon ketidan ergashgan tulkidek dumini o'ynatib, bu xatarli ig'vo yo'lidan borar edi. Ardasherning iste'fo bergenini eshitib, terisiga sig'may qolgan bu tulki:

– Yo'limizdag'i chaqir tikanning biri tag-tomiri bilan sug'urib olinibdur, ming qatla shukur, – dedi. Eshitmadin-gizmi, Ardashe r emdi nima ish qilmoqchi?

– Nima qilardi, qo'liga tasbeh olib u dunyo to'g'risida o'ylashdan boshqa ish qolmadi anga. Eshitishimcha, mavlono Shamsiddin Muhammad Tobadogoniya murid bo'lib, ul buzrukning xonaqohida istiqomat qilmoqchi.

– Emdi o'z o'min topibdur. Darveshvash odamg'a amadorliqni kim qo'yibdur! Yetti-sakkiz yil shundog' biyik mansabda bo'lib, boylik orttirmadi. O'z foydasin bilmayturan odam erdi. Otam rahmatlik, o'z manfaatin bilmagan kishi devonadur, deb aytar erdilar.

– Ammo aning do'sti Alisher boshqacha odam. Ul dehqonchilikdin zo'r daromad olib, kundan kun boyimoqda. Xizmati evaziga podsho anga suyurg'ol qilg'on qishloqlarda zirotchilik rivoj topmoqda. Alisher aqli odam. Ot-ulovi yo'q dehqong'a ot sotub olib beradur, urug'liq beradur. Albatta, dehqon minnatdor bo'lib, yaxshilikni ikki hissa qilib qaytaradur. Aqli odam. Ammo ul dog'i davlat ishlarida ulug' xatoga yo'l qo'ydi. – Nizomulmulkning savol nazari bilan qarab qolganini ko'rib davom etdi: – Yurtni, xalqni o'ylab, saroy talablarini unutdi. Xazinaga tushgan yarmoqning ko'pini karvonsaroylar, rabotlar, hammomlar, ko'priklar qurmoq, anhor-ariqlar qazimoq uchun sarf qildi. Hozirg'i damda davlat xazinasida sichqonlar aso tayanib yuradurlar. Podsho va shahzodalarning xarajati – ziyofat,

chog‘ir majlislari uchun yarmoq yo‘q. Xoja Afzal o‘z ustozining chizig‘idin chiqmaydur.

– Nechun mirzamizning manglayi tirishib, qovoqlaridin qor yog‘aturgan bo‘lib qoldi desam, sababi bor ekan-da. Kishining hamyonи bo‘sab qolsa, mashqi pasayadur, – dedi Nizomulmulk labini qiyshaytirib. – Siz hariflarning zaif joyini topibsiz. Ustomonliq bilan harakat qilsangiz g‘a-labangizga inonurmen. Men sizning ko‘makchingiz. Menga o‘zingizga inongandek inona bering. Ichida esa: „Men dog‘i sening zaif tomoningni biladurmen, – deb o‘yladi. – Boy va mo‘tabar arzgo‘ylardin pora olib, kundan kun boyimoqda-sen. Uyingda qancha javohir, oltin, kumush asboblar borlig‘i menga ma’lum. Mayli, hozircha mansab pog‘onasidin yuksala ber, sening etokingdin ushlab men dog‘i yuqori martabag‘a chihib olay, keyin bir gap bo‘lar!“

ASTROBOD

Husayn Boyqaro sahar uyqudan turib, sharobdorini chaqirdi-da, bir kosa mayi nob keltirishni buyurdi. Uning a’zoyi badani karaxt, boshi sirqirab og‘rib turardi. May no‘sh qilib olgandan keyin sal o‘ziga kelib, muhokama yur-gizish qobiliyatiga ega bo‘ldi. U yuqori doiradagi mansabdorlarning ikki guruhga bo‘linib, ba’zan zimdan, ba’zan oshkora suratda kurash olib borayotganlari ustida o‘ylay boshladi. Bir-biri bilan olishayotgan hariflarni tarozining ikki pallasiga qo‘yib, qaysi birining toshi og‘ir ekanligini chamalab ko‘rdi: „Vazir Xoja Afzal insofli, diyonatli amal-dor. Shahar mayda savdogarlari, hunarmandlar, dehqonlar undan nolimaydi, boj-xirojni insof bilan undiradi, ammo... xazina kundan kunga bo‘sab, tushum chiqimdan orqada qolmoqda. Axir zarur bo‘lib qolganda, ikki tuman dinor topib berolmasa-ya! Podshoh degan dabdabali ziyofatlar berib turishi, chig‘atoj ulusining beklari va ulug‘ darajali mansabdorlarga qimmatbaho sovg‘alar berib, ko‘nglini olib turishi kerak-ku.

Majdiddin esa makkor va olg'ir odam, agar hukumat jilovi unga tutqazilsa, xazinani diram va dinor bilan to'ldiradi. Qip-qizil tilla bilan to'ldiradi, ammo o'zini ham unutmadi, xalqning qonini ichib, zulukdek semiradi... Mayli, semira bersin, bir kuni qustirish hech gap emas“.

Husayn Boyqaro dilida allaqachon Majdiddinni tanlab, Xoja Afzalning dumini tugib qo'ygan edi. Ammo ba'zi bir mulohazalar bu qarorini amalgaga oshirishga to'sqinlik qilardi. Majdiddinning hukumat tepasiga kelishiga Alisher Navoiy boshliq arboblar, olimlar, qolaversa, butun xalqtish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatishini bilardi, shu sababdan sulton qanday qilib Alisherni poytaxtdan uzoqlashtirish chorasini izlardi. Shoir Hirotda bo'lmasagina Majdiddinga tillado'zi chopon kiygizish mumkin. „Navoiy mening ahvolimni tushunmaydur, mayga ko'p ruju qilma, deb nasiyat qiladur deb o'yladi u. – Axir men barlos, orlot, qiyot, qo'ng'iroq urug' oqsoqollari, sort amaldorlarining dillaridagi gapni bilmog'im uchun olarni ichirib, mast qilib qo'yib, so'zlariga kishibilmas qulq solmog'im zarur!“

U ikki kun shu to'g'rida bosh qotirib, uchinchi kuni Navoiyni o'z huzuriga chorladi. O'z hujrayi xosida kimxob to'shakka oyog'ini cho'zib, inak jildli yumaloq bolishga chap tirsagini tirab yonboshlagan holda shoirni kutdi. Uning go'shtdor yuzida bilinar-bilinmas tashvish alomati ko'rinaldi.

Navoiy eshikdan kirib ta'zim qilishi bilan, inqillab, arang o'rnidan turib o'tirdi. Shoirning salomiga alik olib:

– Oyog'im sog' bo'lg'onda turib ko'rishar edim, – dedi. – Xo'sh, sog'-salomatligingiz qalay? Yaxshi uxbab turdingizmi? Qani, yaqinroq kelib o'tiring.

Sulton Husayn tizzasini uqalab, ingrab, sog'ligining borgan sari yomonlashayotganidan shikoyat qildi.

– Ichkilikka ko'p ruju qilinmasa. Xususan, erta bilan ichmoqning zarari ko'pdir, – dedi shoir. Sultonning og'zidan gup-gup kelayotgan sharobning hidi uning ko'nglini ozdirayozgan edi.

Husayn Boyqaro shoirning gapidan xafa bo'lmasdi, aksincha, asta bosh silkib, uning so'zini ma'qullaganday bo'ldi.

Besh-o'n daqqa u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirgandan keyin sulton ko'ngil yorib, dardini izhor qila boshladi:

– So'nggi kunlarda Astrobod ko'nglimni tinchitmayotir, – dedi u xo'rsinib. – Ul viloyatning hokimi Mo'g'ulbek ikki yildin buyon boj-xiroj yibormay qo'ydi, taxminimcha, yig'ilg'on pulni qimorga boy berib qo'yg'onga o'xshaydir. Mamlakat gulzorining o't bosib ketgan bul go'shasin obod qilmoq kerak, yo gapim noma'qulmi?

– Juda ma'qul gap, – dedi Navoiy ko'zlarida chaqnagan istehzoli kulgini yashirish uchun yerga qarab. O'z ichida, u shul vaqtgacha esingizga kelmagan Astrobod viloyati ne uchun emdi sizni tashvishga solib qo'ydi, bunda bir balo bor, deb o'yldi.

– Eshitishimcha, Mo'g'ulbek xalqqa zulm qilib, mening sha'nimga dog'tushirayotg'on ermish.

– Andog' bo'lsa, Mo'g'ulbekni aldab, Hirotg'a chorlab olmoq va aning jazosini bermoq, o'rnig'a mo'tabar bir odamni yubormoq kerak, – dedi Navoiy yerdan ko'zini olmay.

– Barakallo, o'ylaganimni topdingiz, Astrobodg'a siz kabi tadbirli bir hokim kerak.

Navoiy tilini tishlab qoldi. Sultonning niyati unga oy-nadek ravshan bo'ldi. Aftidan, Majdiddin uni Hirotdan uzoqlashtirishni talab qilgan bo'lsa kerak.

– Ishonchingiz uchun rahmat, ammo sog'lig'im safarga chiqmoqqa imkon bermaydur. Bu vazifaga bir odamni mo'ljallab qo'yibmen.

– Astroboddag'i ishlarni sizdin bo'lak odam yo'lga sololmaydur, – dedi Husayn Boyqaro qat'iy qilib.

– Mirzam, iltijo qilurmen, ul yerga boshqa odamni yuboring. Men siyosat va rayosat ishlariga aralashmay, parokanda g'azallarimni yig'nab, devon tartib etmoq fikrida erdim.

– Devon tartib etmoq uchun albatta Hirotda bo'lmoq shart emas, bul ishni Astrobodda qilsa ham bo'lur.

Navoiy uchun e'tiroz qilishga yo'l qolmagan edi. Dili og'rib:

– Men boyta aytdim, yana takrorlaymen: siyosat va rayosat ishlarig'a aralashmaymen. Kimning ustidin tillado'zi

choponni olib, kimga kiygizasiz, bu bila ishim yo'q. Ammo meni Hirotdin uzoqlashtirmang! – dedi.

– Ko'nglingizga yomon gap kelmasin dog'i, – dedi Husayn, – sizni Astroboqdiga yubormoqdin murod – bu uzoq viloyatni obod etmoqdur, ammo boshqa xil mulohazalar ko'nglimizning ko'chasidin ham o'tgani yo'q.

Uning gapiga e'tiroz bildirish uchun o'rinn qolmagan edi, shoir buni payqab, indamay bosh egib qo'ydi.

Safarga otlanmoq uchun sizga uch kun ruxsat berilur, – dedi podshoh gapni qisqa qilib. Shoir o'rnidan turdi.

Darvozabon shoshib-pishib, katta darvozani ocha bosh-laganida so'ri ustida o'tirgan suhbatdoshlar irg'ib o'rinnidan turdilar. Shoirning sodiq mulozimi Behlul yugurib borib, otning jilovini ushladi. Sohibdoro uzangini tutib turdi. Navoiyning rangi biroz oqargan, qoshlari chimirilgan edi. Do'stlari undan hol-ahvol so'raganlarida:

– Biroz boshim og'rib turibdur, – dedi va otdan tushib, hujrasiga kirib ketdi. Uning ko'ziga dunyo qorong'i, miyasi zirqirab og'rir edi.

Yapaqigina oddiy bir hujrada ikki kishi qarama-qarsi o'tirar edi. Ust-boshi, gap-so'zlariga qarab, ularning biri katta amaldor, ikkinchisi esa oddiy bir navkar ekanligi bilinib turardi. Birinchisining egnida zarbof chophon, belida oltin kamar, boshqasi esa ustiga oddiy tugmador, boshiga papax, oyog'iga qo'pol sag'ri etik kiygan edi. U cho'kka tushib ro'parasida viqor bilan o'tirgan amaldorning gaplariiga diqqat bilan qulq solardi.

– Yalangto'sh bahodir, sening sadoqatingni yana bir marta sinab ko'rmoqchimiz. Muhim bir topshiriq bor.

– Har xizmatingizga tayyormen, sinab ko'ring.

– Astroboqdagi oningda ham avvalgicha ish olib bor-gaysen, ya'ni Alisherbekning har bir diqqatga loyiq so'zini tumorg'a yozib, bakovulg'a topshir, – dedi.

– Bosh ustiga.

– Amaldor yonidan nay qilib o'ralgan bir qog'ozni chiqarib:

– Ushbu maktubni Mirhoji bakovulg'a topshir, – dedi. Yalangto'sh xatni olib, shoshilmay qo'yniga solib qo'ydi. –

Bakovul nima ish buyursa, yo'q demay bajo keltir. Aning farmoni – bizning farmonimiz, angladgingmi?

– Angladim, taqsir, – dedi Yalangto'sh.

– Agar xizmatingni yaxshi bajarsang, maoshingni oshirurmiz, keyin borib zo'r mansab egasi bo'lg'aysen. Kelgusidagi xizmating evaziga boshlab manovini olib qo'y.

Yalangto'shning oldiga tanga to'ldirilgan kichik bir xalta shiqirlab kelib tushdi.

– Rahmat, og'a, – dedi navkar sipolikni qo'ldan bermay, xaltani sekin cho'ntakka sola turib.

– Emdi senga javob. Kishibilmas o'z xo'jangning uyiga yong'il¹. Hech narsadan qo'rqma, orangda men bilan xalifayi zamon bor.

Yalangto'sh o'midan turib ta'zim qildi-da, boshini eganicha pastak eshikdan hovliga chiqdi.

Navoiyni Astrobod xalqi zo'r tantana bilan kutib oldi.²

Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida, Dimovand tog'inining etagida yastanib yotgan bu shahar juda obod, karvonsaroylari va do'konlari bisyor edi. Xurosandan Kavkazga va Kichik Osiyoga boradigan karvon shu shahar orqali o'tar edi.

Viloyat hokimining noibi Xo'ja Shamsiddin va kadxudo (shahar boshlig'i) o'z mulozimlari va a'yon-amaldorlari bilan shaharning Mashhad darvozasidan chiqib, Navoiyni kutib olishdi. Xo'ja Shamsiddin otdan tushib, dabdabali so'zlar bilan yangi hokimni qutladi.

Aholisi kurd, fors, ozarbayjon va turkmanlardan iborat bo'lган Astrobod arining inidek g'uvullar, kimxob, shoyi to'n kiygan a'yonlar, boylar va qirq yamoq bo'z choponga o'ralib, kavushini zo'rg'a sudragan hunarmandlar, hammollar, xizmatkorlar ko'chalarni to'ldirgan edi.

Mashhad darvozasi ustida nog'oralar taraklab, surnaylar chiyillar, ora-sira karnay na'ra tortib shaharni boshiga ko'tarar edi. Otliqlar shaharga kirishlari bilan ot boshini Ne'lband ko'chasiga burishdi. Xaloyiq chuvvos ko'tarib,

¹ Y o n m o q – qaytmoq.

² Navoiy 1487-yili Astrobodga yetib keldi.

yangi hokimni olqishlardi. Boshlariga jingila mo'y papax kiygan bahaybat yasovullar oldinga tushib, qo'llaridagi uzun arg'uvoniy tayoqlarni o'ynatib, otliqlarga yo'l ochishar edi.

Navoiy o'z navkarlari, shahar amaldorlari, olimlar, shoirlar qurshovida devonxonaga yetib kelib, otdan tushdi. Bu yerda Alisherga zarrin chopon va kuloh kiygizib, chuvullashib yangi mansab bilan muborakbod qilishdi. Rasta oqsoqollari, hunarmandlar, bo'luk¹ boshliqlari va boshqa amaldorlar sovg'alarni keltirib, yangi hokimning oyog'i ostiga qo'ya boshladilar. Ko'p o'tmay, ipaklar jo'ra-jo'ra shoyi, atlas, kavush-mahsi va boshqa buyumlar o'ralgan bo'xcha va tugunchalar tog'dek uyilib ketdi. Bularni ko'rib, noqulay ahvolga tushgan Navoiy iymanib, sovg'a keltirganlar ga minnatdorchilik bildirdi. Xo'ja Shamsiddin bilan yolg'iz qolganlarida o'zining noqulay ahvolga tushganini aytdi:

– Taqsir, ota-bobodin qolg'on taomil bu, axir odatg'a qarshi borib bo'lmaydur, – dedi Xo'ja Shamsiddin.

– Afsus, ming afsuski shul odat bor. Axir sovg'a peshkash mehnat ahlining bo'yniga og'ir yuk bo'lib tushadur, amaldor, a'yonlarni buzadur, alarni harislik, tamagirlikka o'rgatadur. – Xo'ja Shamsiddin uning gapini ma'qullagandek bosh irg'ab qo'ydi.

Shoir yangi joyga kelgandan beri asablari joyiga tushib, tinch uxbaydigan bo'lib qoldi. Oradan ikki hafta o'tgach, u odati bo'yicha barvaqt turdi. Oftob daraxtlar ustiga hovuchlab oltin tangalar sochmoqda. Dimovand sirtining yonbag'ridagi o'rmondan salqin shamol esmoqda, xalqning e'tiqodiga ko'ra Zuhok, Jamshid va Rustam kabi afsonaviy qahramonlarga maqbara bo'lgan bu tog'ning tepasidan tutun chiqib turadi. Shahar atrofidagi bog'lardan aflisun, limu hidlari anqirdi. Childuhtaron darvozasidan kirayotgan tuya karvonining qo'ng'irog'i, tuyalarning faryodi hamma yoqni to'ldirgan.

Bu yerga kelib biroz dam olgan shoir sharbat ichib, nonushta qilar ekan, qovoq-tumshug'i osilgan Behlulga hazil qildi:

¹ Bo'luk - mavze, daha.

– Dimog‘ingizdin eshak qurti yog‘ayotir, maxdum, yo Hirotda yetim qolg‘on eshagingizni sog‘indingizmi?

Navoiyning kayfi Behlulg‘a ham ta’sir qildi shekilli, kulisirab dedi:

– Topdingiz, taqsir. Ammo eshagim egasidin ko‘ra baxtliroq ekan, zero, u o‘zi tug‘ilg‘on shaharda rohat qilib yotibdur, men esa bu yerlarda musofir bo‘lib yurbdurmen.

– Rost, sultanat sahrosidin esgan sovuq shamol sizni bul yerga uchirib keldi, ammo eshagingizga kuchi yetmadi. Majdiddin aning terisini shilib olmasaydi, deb qo‘rqamen.

– Mening eshagim terisini shildiradigan eshaklardin ermas, oldidan kelsa tishlaydur, orqasidin kelsa – tepadur.

Behlul o‘zining gapi o‘ziga nash‘a qilib, kulib yubordi. Navoiy ham kulgidan o‘zini tiyolmadi, dimog‘i chog‘ bo‘lib, o‘rnidan turdi-yu, devonxonaga yo‘l oldi.

Sohibi devon Xo‘ja Shamsiddin uni bo‘sag‘ada ta’zim bilan qarshi olib, hol-ahvol so‘rashdi. Navoiyning yuziga qizil yugurganini ko‘rib:

– Xayriyat, Astrobod havosi sizga yoqubdur, – deb qo‘ydi.

Devonxonaga kirib, har qaysilari o‘z o‘rinlariga o‘tirganlaridan keyin Navoiy o‘z odati bo‘yicha, devon boshlig‘ining bajargan ishlari to‘g‘risidagi ma’ruzasini tinglab, bosh mustavfiyning (hisobchining) daftarini ko‘zdan kechirdi. U ishlarning yurishib ketganini, boj-xiroj batartib tushayotganini ko‘rib, ko‘ngli biroz taskin topdi.

Tushdan keyin arzgo‘ylarning shikoyatini tinglay boshladi. Bir-ikki kishidan keyin yelkasiga katta yamoq tushgan bo‘z yaktakli, novcha, rangpar bir yigit chorig‘ini sudrab kelib, Navoiyning o‘ng tomonida o‘tirgan Xo‘ja Shamsiddinga engashib ta’zim qildi. Jussasi katta, ko‘rkam, vajohati zo‘r bo‘lgan devon boshlig‘ini, aftidan, u hokim deb o‘ylagan bo‘lsa kerak. Yigit unga ro‘baro‘ bo‘lib:

– Taqsir, janoblarig‘a bir arzim bor, – dedi.

Quyiroqda qo‘liga qalam va daftar olib o‘tirgan bitikchi uning xatosini ko‘rib, „piq“ etib kulib yubordi. Arzgo‘y yigit gapdan to‘xtab, unga qaradi. Xo‘ja Shamsiddin bitikchiga bir o‘grayib qo‘yib, yigitga o‘shqirdi:

- Ahmoq, ko'zing ko'rmi? Alisherbek janoblari qarshingda o'tiribdilar-ku!

Dehqonlarni odam ornida ko'rmaydigan devon boshlig'ining bu qo'pol muomalasidan Navoiy qattiq ranjidi. Begona odamlar oldida o'z yordamchisiga tanbeh berishni ep ko'rmay, qip-qizarib o'tiraverdi.

Bo'z yaktakli arzgo'y Navoiyga ta'zim qildi-da, devon sohibiga piching qilib dedi:

- Ko'zimiz ko'r bo'lmasa, shuncha jabr-u sitamg'a chidab yotarmidik!

Xo'ja Shamsiddin g'azabnok bo'lib, „yo'qol, bu yerdan“, deb baqirmoqchi bo'lib turganida, Navoiy muloyimlik bilan:

- Mayli, arzini aytsin, - deb qoldi.

- Taqsir, meni Maryamobod kent jamoasi dargohingizza elchi qilib yibordi...

- Kentingizda elchilikka sendin durustroq bir odam topilmadimi? -deb piching qildi devon boshlig'i.

- Tuzukrog'i, savodxon men... Ishonmasangiz o'zingiz Maryamobodg'a boring, qashshoqlikdin dehqonlarning kiyishga kiyimi, qashishga tirnog'i qolmog'on... - Qo'ynidan bir qog'oz chiqarib, boshini g'oz ko'tarib dedi: - Hamma gap shu arznomada bitilgan.

- Savodxon bo'lsang, o'qib ber! - dedi Xo'ja Shamsiddin istehzo aralash.

Qishloqi yigit qog'ozni chap qo'liga olib, boshini ko'tarib o'qiy boshladi:

Arznama

Astrobod viloyatining ulug' hokimi Alisherbek janoblariga, biz Sadanrustoq bo'luki Maryamobod kent ulusi bosh urib arz qilurmiz: bundan to'rt yil muqaddam qaroqchilar kentimizni bosib, aholining yarmidin ko'pini bandi qilib olib ketib erdil. Ammo ijador o'lponchilar, kent aholisining ikki baravar kamayganiga qaramay, avvalgi miqdorda boj-xiroj olurlar. Hammamiz xonovayron bo'ldik, dalalarni o't bosib ketdi. Ittimos qilurmizkim...

Navoiy bu uzundan uzoq arizaga qulqolar ekan, uning nuroniy yuzini ko'lanka bosib, ko'zlariga g'am cho'kdi. Sodda til bilan yozilgan bu arizada nohaq ezilgan xalqning faryodi eshitilardi.

– Kentingizda avval necha yuz xonadon bor erdi, qaroqchi urgandin so'ng qancha qoldi? – deb so'radi Navoiy arznomani oxirigacha tinglab.

– Avval ikki yuz chog'lik xonadon bor erdi, hozir to'qsonta qolgan.

– Demak, to'qson uylik ikki yuz uylikning xirojini to'laydur.

– Ha, taqsir, shundog'.

Shoir bosh chayqab, uh tortib qo'ydi. Mamlakatning har bir burchagida shunday nohaqliklar yuz bermoqda.

– Yaxshi, biz bul ishni haqiqat qilib, dodingizga yetkaymiz, emdi sizga javob.

Yigit ta'zim qilib chiqib ketdi. Navoiy uning orqasidan qarab kulimsiradi. Dehqonlardan chiqqan shunday savodxon, farosatli yigitlarni u yaxshi ko'rар, ulardan yordamini ayamas edi.

– Sadanrustoq bo'lukining boj-xirojini kim ijara olg'on?

– Bo'luk boshlig'i Ahmadali bila Muhsinbek olg'onlar, – dedi devon boshlig'i bo'zarib.

– Agar arznomadagi gaplar to'g'ri bo'lsa, u zolimlarg'a jazo bermoq kerak, toinki boshqa zolimlarg'a ibrat bo'lsin. Dushanba kuni bul haqda ma'ruzangizni tinglaydurmen.

Poygahda chordana qurib o'tirgan bitikchi chap tizzasi ustiga qo'yilgan daftarga Navoiyning buyrug'ini darj etdi.

Shoir yana bir necha kishining shikoyatini tinglab, horib-charchab, kayfi buzilib uyiga qaytganida Behlul ta'zim qilib, Xo'ja Afzalning Hirotdan kelganini bildirdi.

– Xo'ja Afzal? Qaysi shamol ani bul yoqqa uchiribdur?

– Falokat shamoli, – deb javob qildi o'rta bo'yli, qorachadan kelgan bir yigit ro'paradan kelib.

Ikki do'st quchoqlashib ko'rishib, hol-ahvol so'rashdilar. Dasturxon yonida o'tirib, uzoq gaplashdilar.

– Hirotda nima gaplar bor? Batafsil so'zlab bering.

– So'rab ne qilursiz, taqsir. Sho'bon haydalib, qo'yalar bo'rig'a topshirilg'ondin so'ng, ne bo'lur erdi. Majdiddin tillado'zi chopon va navro'ziy kuloh kiyib vazir bo'lg'ondin so'ng, boshlab shahar kosiblari va hunarmandlarig'a, chakana mol sotuvchi savdogar, boqqollarg'a tamg'a solig'ini soldi, dehqonlardin kelgusi yilning xirojini undirib oldi, xazinaga dinorlar kelib tusha boshladi.

Jo'nashimdan ikki kun oldin Bog'i Zog'onda shundog' katta ziyofat bo'ldiki, Jamshid zamonidin buyon bundog' bazmni hech zot ko'rghan ermas. Bog'ning o'rtasidag'i marmar hovuz suv o'rniga sharbat bilan go'ldirildi. Xushsurat yigitlar a'yonlar va mullalarga oltin piyolalarda sharbat va sharob tutar erkanlar, hofizlar sizning g'azallaringizni o'qib xonish qilur erdilar. Men ham shul ziyofatda hozir erdim, quyiroqda o'tirar va g'am otashini so'ndirmoq uchun ustma-ust chog'ir ichar erdim. Bir vaqt qarasam, tepamga bakovul kelib: „Xo'ja, sizni mirzamiz chorlaydurlar“, deb qoldi. Men o'rnimdan zo'r-bazo'r turib, mirzaning huzurlariga gandiraklab bordim. U zot ham shirakayf ekanlar, men faqirg'a bir kosa chog'ir uzatib: „Xoja, bizga qilg'on xizmattingiz badalig'a minnatdor ilkimizdan bir kosa sharob ichsalar“, dedilar. Tiz bukib, ikki ilkim birla kosani oldim. O'rnidin turib, orqag'a ikki qadam tashlab, chog'irni sipqordim va kosani ayoqchiga uzatdim. Podshohimiz ko'zimga ikki nafar bo'lib ko'rinish, ro'yi zamin chayqala boshladi. Men gup etib yiqilib tushibmen. Mirzamiz birla Majdiddinning xaxolab kulganlari qulog'imda qolibdur, boshqasi esimda yo'q, aytishlaricha, mulozimlar meni ko'tarib bir hujraga yotqizib qo'yib-durlar...

Navoiy uning hikoyasini tinglar ekan, ko'zlar o't sochar, tishlari g'ijirlar edi:

– Mayli, istaganlaricha mayxo'rlik qila bersinlar, xalqning molin bazm-ziyofatlarg'a sarf eta bersinlar, nohaq tortib oling'on bir igna bag'irlarig'a olmos xanjar bo'lib qadalur, ayollarning ilkidin tortib oling'on bir quloch ip aj-daho bo'lib alarga chang solur!

Xo'ja Afzal shoirning bu jonli so'zlariga indamay qulog solib turdi, keyin yana gap boshlab:

– O'shal ziyofatda meni shu qadar tahqirlog'onlaridin so'ng, Hirotdin jo'nab ketmoqqa jazm qildim, – dedi. – Poytaxtda turmoq men uchun xatarli bo'lib qoldi. Shul sababdin Astroboddin boqimonda boj-xirojni undirib kelmoq bahonasida yo'lga chiqdim.

– Yaxshi qilibsiz, – dedi Navoiy o'ylanqirab. – Bu yerda ham qolishingiz yaxshi ermas.

– Ne qilay, qayg'a boray?

– Haj bahonasi bila Hijozga safar qiling. Mirzaga bu borada ikki enlik xat yo'llag'aymen. Men sizga ikki navkarimi ni berurmen.

Ular allavaqtgacha gaplashib, maslahatni bir joyga qo'ydilar.

Oradan ikki kun o'tgach, sobiq vazir safar otiga minib Hijozga jo'nab ketdi.

Sohibi devon Maryamobod kenti jamoasining arizasini tekshirib, unda bayon qilingan voqealarning to'g'ri ekanligini aniqladi. Navoiy xalqqa zulm qiluvchi amaldorlarni ko'rarga ko'zi yo'q edi. U g'azabga kelib, bo'luk boshlig'i Aqmadalini ishdan bo'shatish va butun mol-mulkini xazina foydasiga musodara qilish to'g'risida buyruq berdi.

– Muhsinbekni-chi? – deb so'radi Xo'ja Shamsiddin pusibgina.

– Ani yotqizib, yalang'och badaniga o'n besh tayoq urdiring, Astrobod viloyatidin badarg'a qilinsin. Maryamobod kentiga inoyatnoma berilib, ikki yilgacha boj-xirojdin ozod qilinsin.

– Bosh ustiga, – dedi yangi hokimning siyosatidan badanini titroq bosgan amaldor.

Shu voqeadan keyin amaldorlar, ijaradorlar nafslarini tiyib, har qadamlarini o'lchab bosadigan bo'lib qoldilar.

O'z qirg'og'idan chiqib mamlakatni bosgan zulm-vahshat daryosini qamchi bilan urib, o'z sohiliga chekintirish mumkin emasligini Navoiy yaxshi bilardi. Lekin qo'lidan kelganicha mehnat ahliga yordam qilib, uning ustidagi zulm yukini yengillashtirishga bor kuchi bilan urinardi. Faqir-fuqarolar ham uning bu niyatini payqab, har qadamda unga minnatdorlik bildirardilar.

Kunlardan bir kuni Navoiyning oldiga, doddxoh¹ vaqtida maryamobodlik yigit kirib keldi, chog'gina bir gilamchani shoirning oyog'i ostiga qo'yib:

– Sizdin minnatdor bo'lg'on jamoamiz shul arzimas tuhfani yibordilar, – dedi. – Kent ayollari bu gilamchani sizga atab o'z qo'llari bila to'qig'onlar.

– Nima qilardingiz ovora bo'lib, chiqimdon bo'lib? – dedi shoir qishloqilarga yuragi achib. Ammo tuhfani qaytarib yuborish noo'rin ekanligini bilib, qabul qilganini bildirdi va qishloq ahvolini surishtirdi.

– Inoyatnomani olib barcha xursand bo'ldi, katta-kichik duysi joningizni qilib yotibdurlar. Hatto kentimizni tashlab ketgan ba'zi dehqonlar ham o'z yerlariga qaytib keldilar.

Navoiyning ko'ziga o'z qishlog'iga qaytayotgan juldur kiyimli dehqonlar, yalangoyoq, usti yirtiq rangpar bolalar, boshiga chopon yopingan, ko'zlariga g'am cho'kkan dehqon ayollari ko'rinish ketdi va chuqur xo'rsinib qo'ydi.

– Emdi sizga javob, kentingizga yonib², sovg'amizni mamnuniyat birla qabul qildilar, deb aytin.

– Men sizning eshicingizda qolurmen, – dedi yigit qat'iy qilib. – Jamoamiz meni sizning xizmatingizga yubordi.

Navoiy o'ziga xizmatkor kerak emasligini harchand tushuntirmoqchi bo'lsa-da, yigit o'z aytganida turib oldi: „Men kentga qaytsam dehqonlardan so'kish eshitamen“, dedi. Navoiyga bu yurakli dehqon yigit yoqib qolgan edi. Uning ota-bobosini surishtirib, otini so'radi:

Otim O'g'onberdi, bobom Xudoyerdi, asli shul qishloqlidur, rahmatlik otam o'z mehnati bila yaxshi kun kechirgan baobro' odam erdi, istagan odamdan so'rab bilsalar bo'lur...

Navoiy uning gapiga qulqolar ekan, afti boshiga tiki-lib o'ylanib qoldi. Keyin bakovulni chaqirib, O'g'onberdini ishga olishni buyurdi.

¹ Shikoyat tinglash.

² Y on i sh – qaytish ma'nosida.

– Oshxonada ishlab tursin, keyin unga bop bir vazifa topib bergaymiz, – dedi.

Umrida qorni to'yib ovqat yemagan O'g'onberdi yangi ishdan juda xursand. Har kuni ertalab turib, oshxonadagi katta xumlarni suvga to'ldiradi, o'tin yoradi, so'ngra kechki ovqat uchun so'yilgan g'ozlarning patini yulib, tozalaydi. Bo'sh vaqtlarida Behluldan dars oladi, tap tortmay, Navoiyning oldiga kirib, kerakli kitoblarni so'raydi...

Bir kuni qosh qoraygan paytda O'g'onberdi chashmadan katta che'laklarda suv keltirib xumga quyayotganda, oshxona ichida bakovul, Yalangto'sh va oshpazning sekin gaplashib o'tirganlarini eshik tirqishidan ko'rib qoldi. Bakovul jahlini bosishga urinib, bosiq ovoz bilan so'zlar, xomush bo'lib o'tirgan oshpazga gap uqtirmoqchi bo'lardi:

– Sen bola-chaqali, ayolmand bir odamsen, bilamiz. Shul sababdin senga rahmimiz keladur. Biz bila birga bo'lsang, hech mahal xor bo'lmaysan. Nega endi tixirlik qilursesn!

– Bola-chaqam ozmi-ko'pmi o'z rizqini ko'rар, ammo bu dunyoda ortiqcha gunoh orttirishga tobim yo'q. Jon aka, meni bu ishga aralashtirmanglar.

– Bizning orqamizda ulug' martabali odamlar turadur, u yog'ini o'ylab, qo'rqib-netib o'tirma. Senga, falon ishni qil, deb buyurganimiz yo'q-ku! So'roq vaqtida biz o'rgatgan gapda qattiq tursang, bas, u yog'ini o'zimiz to'g'rilaymiz.

– Bilmadim, qandog' bo'larkin? – dedi ikkilanib oshpaz. – Mundog' o'ylab qarasang, yuraging orqangga tortib ketadur. Axir, u zot sultonning noibi-ya!

– Ey, tog'i gapni aylantiradi-ya, – deb po'ng'illadi Yalangto'sh sabrsizlik bilan. – Bizning xo'ja andin ham zo'r, dasti uzun, mansabi ulug'roq.

Bakovul yonchog'ini kovlab:

– Senga atab qo'yg'on bir narsam bor erdi, – dedi oshpazga. – Manovi besh oltinni cho'ntagingga solib qo'y. Vaqt kelganda yana qo'limiz quruq bo'lmas...

– O'g'onberdi bakovulning gapini oxirigacha tinglab o'tirmay o'zini tashqariga urdi. To'g'ri Navoiyning hujrasи-

ga borib eshikni taqillatdi. Hayajondan uning nafasi tiqilgan, ko'zları qinidan chiqayozgan edi. Navoiy uning rangi qum o'chganini ko'rib, oldidagi xontaxta ustida turgan kosadan suv ichirdi. O'g'onberdi biroz o'ziga kelgach, eshitganlarining hammasini birma-bir gapirib berdi:

– Taqsir, ehtiyot bo'ling, sizni zaharlamoqchilar. Alarning bergan ovqatlarini sira yemang. Sizga o'z qo'lim bila osh pishirib beramen.

– O'g'onberdi, men ham alardin shubhalanib yurar erdim, bejiz emas ekan, lekin bu sirni hozircha hech kimga aytmay turing. Alarni jinoyat ustida ushlab, jazolarini berurmiz. Siz borib o'rningizga yoting.

Bu gapdan keyin shoirning qo'li ishga bormay qo'ydi. Qog'ozlarini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, bog'ga chiqdi. Dimovand tog'ining etagidagi o'rmondan salqin havo, xushbo'y islar kelib turar, mayin shabada bog'dagi yosh aflisun, limu daraxtlarining barglari bilan o'ynashar edi. Bi-roq bu manzara baxsh etgan zavqni Temurlang vaqtidan qolgan vayronalardan eshitilgan boyqush ovozlari buzib turardi.

Alisher qo'lini orqasiga qilib bog' ichida yurar ekan, ming xil fikrlar kapalaklar singari uning boshi uzra aylanib yurar, hech biri miyasida qo'nish topmasdi. Ko'nglini shubha, g'azab, pushaymon hislari talar edi: „Shuncha xizmati badaliga endi uni zaharlamoqchilar! Shubhasiz, bunda Majdiddinning qo'li bor, u mirzaning roziligesiz bunday qabih va xatarli ishni qilishga jur'at etolmaydi. Navoiyning o'rnila boshqa odam bo'lsa, sadoqatga xiyonat qilgan sultonga qarshi isyon bayrog'ini ko'tarar edi. Darhaqiqat, isyon uchun qulay payt kelgan. Xuroson davlatining dushmani bo'lgan turkman sultonı Yoqubbekning yordam berishi aniq. Majdiddinning hukumat boshiga kelishidan norozi bo'lgan Balx hokimi Darveshali – Navoiyning inisi, akasining ishoratini kutib yotibdir. Otasidan norozi bo'lgan shahzoda Badiuzzamon bu isyonni qo'llab-quvvatlashi turgan gap“.

Agar Navoiy o'sha vaqtda isyon ko'tarsa, muvaffaqiyat qozonishi aniq edi. Biroq chuqur mulohazalardan keyin bu niyatdan voz kechdi. „Hey Alisher, – deb xayolan o'z-o'zi-ga xitob qildi shoir. – Nafsing aqlindan g'olib kelmasin! Sen nojo'ya bir qadam tashlasang, hozir mustahkam bir qo'l ostida yashab turgan mamlakat parchalanib ketgusidir. O'z viloyatlarida hukmdor bo'lmoqni istagan hokimlar bir-birlari bilan urishmoqqa boshlaydilar. Xalqning boshiga ming xil kulfatlar keladur. Yana shaharlar vayron, ekinzorlar payhon bo'lur! Qo'y, Alisher, bu niyatingdan voz kech! Alam va o'chning achchiq mevalari bo'lgan bu fikrlarni boshingdan hayda!”

Shoir o'z hujrasiga qaytib, xontaxta ustidagi chashma suvidan bir qultum ichdi. Uning asab tomirlari biroz tin-chib, yuragi sekin ura boshladi.

Shu kundan boshlab Navoiy bakovul keltirgan taomni yemay, o'zi Behlul bilan O'g'onberdining ovqatiga sherik bo'ldi.

Shoir bir kuni kechasi shiyponda ishlab o'tirganda, bog'ning narigi chekkasidagi supa tomonda shovqin-suron eshitildi. Ora-sira bakovulning bo'g'iq ovozi, Behlulning ya'linib-yolvorishi eshitilardi. Nima gap, bir balo bo'ldimi deb, shoir ishini yig'ishtirib qo'yib, supa tomon yugurdi.

Navoiy shiyponda o'z mashg'uloti bilan band bo'lgan mahalda, quyidagi voqealar ro'y bergen edi: Behlul bilan Navoiyning tog'avachchasi – Abu Said qo'lida shahid bo'lgan Mirsayid oqanining o'g'li Mirhaydar supa ustida o'z ona shaharlari Hirot to'g'risida, uning atrofidagi bog'lar, qishloqlarning go'zalligi to'g'risida so'zlashib o'tirar edilar. Gapdan gap chiqib, Behlul bakovulning shubhali ishlari, O'g'onberdining eshitgan gaplarini aytib qo'ydi. Lekin darrov o'z xatosini anglab, bular hammasi tagi yo'q gaplar bo'lishi ham mumkin, deb ming'irladi. Mirhaydar o'ttiz beshlarga borib qolgan yengiltabiat, hovliqma, asabiy bir yigit edi. Yoshligida ot minish, qilich urish, o'q otishning mashqini olgan bu xipcha bel, keng yag'rinli yigit keyin-

gi vaqtarda maishatga berilib, asablari bo'shashib qolgan edi. U Behlulning so'zlarini eshitishi bilanoq, irg'ib o'rni-dan turdi-da, bog'da yurgan navbatchi bir navkarga bakovulni darhol o'z oldiga keltirishni buyurdi. Behlul og'zi bo'shligidan xunob bo'lib, bu ishni qilmang, Mir janoblari xafa bo'ladilar, deb yalinib-yolvordi, biroq gapi kor qilmadi.

Har yelkasiga ikkitadan odam o'tirsa sig'adigan norg'ul navkar bakovulni sudrab keltirdi. Rangi bo'zarib, ko'zları chaqchayib ketgan Mirhaydar bakovulni soqolidan tutam-lab, yuziga bir urdi va yerga yotqizib, to'g'ri kelgan joyiga tepe boshladı. Har tepganida: „Senmi hali og'amg'a og'u bermoqchi bo'lg'on“, – deb baqirar edi. Shovqin-suronga bir necha xizmatkor yugurib keldi, biroq ular Mirhaydardan qo'rqqanlaridanmi yoki voqeani tushuna olmaganlaridan-mi, o'zlarini yo'qotib, nima qilishlarini bilmay turardilar. Shu asnoda Navoiy yugurib kelib, tog'avachchasining qo'li-dan ushladi. Og'asini ko'rgach, Mirhaydarning hovuri pasayib, (jinni kishidek u yoq-bu yoqqa alanglab qaradi, so'ngra yerda yotgan bakovulni soqolidan ushlab, oyoqqa turg'azib qo'ydi.

Navoiy Mirhaydarning baqirib aytgan gaplarini eshit-gan, voqeaneing nimadan iboratligini payqagan edi. U Beh-lulga ma'nodor qarab qo'ydi-da, janjal ustiga kelgan kishi-larga qarab, joy-joylaringga ketinglar, deb buyurdi. Bu mo-jaroning bosh aybdori Behlul hammadan oldin ko'zdan g'o-yib bo'lgan edi.

Supada Navoiy bakovul bilan yolg'iz qolgach, unga tiki-lib, anchagacha nima deyishini bilmay turdi, ishning vaqtidан oldin ochilib qolganidan u afsuslanardi. Endi bakovulning jinoyatini nima bilan isbotlash mumkin? Uni jazoga tortish uchun vaj yo'q! Shunday bo'lsa ham, Navoiy sir boy bermay, qat'iy qilib dedi:

– Sening qora niyating bizga ma'lum, har bir qada-mingni sanab, qilg'on ishlaringni bilib yuribmiz. Bekorga ovora bo'lib, jinoyatingni yashirmoqqa urinma. To'g'risini o'z tiling bilan aytsang, gunohingni kechirurman.

Kaltak yeb, es-hushini yo'qotayozgan bakovul darrov eshila qoldi. „Oshpaz sirmi ochib qo'ydi shekilli“, deb o'yladi.

– Gunohimni kechiring, taqsir. Bir qoshiq qonimdin kechsangiz aytamen. – U Alisherning oyog'iga yiqilib, yer o'pdi: – Bilgan ekansiz, gunohimdin keching, bir qoshiq qonimni bag'ishlang!

G'azabdan a'zoyi badani titrab turgan Navoiy boshda uni o'ldirtyrib yubormoqchi bo'lgan edi, keyin o'ylab-o'y lab, bu qaroridan qaytdi. Uning butun vujudi, g'alayonga kelgan hislari qasosni talab etsa-da, biroq aqli bunga ko'nmas edi. „Oyog'ingga yiqilib, tuproqqa belanib yotgan qurolsiz dushmandin ne qilursen o'ch olib? – der edi aqli. – Qasos olmoqchi bo'lib, bakovulni jallod qo'liga bersang, Hirotda qanday shov-shuv ko'tarilishini bilasenmi?! Dushmanlar, Navoiy odam o'ldirayotir, xalqqa jabr qilayotir, deb gap tarqatgusidir. Yolg'iz sultonni emas, eski do'stlarni ham o'zingga teskari qilib qo'yasen. Qo'y, bu galcha o'ch olish lazzatidin voz kech!“

Alisher alamini qult etib yutib, aqlining so'ziga kirishga jazm qildi. O'sha paytda u o'ch olishga huquqsiz, ming turli ko'zga ko'rinxan zanjirlar uning erkini o'rab olgan edi: „Qaynab turgan qozonni yopiqlig'icha qoldirish kerak“, deb o'yladi u.

– Tur o'mingdan, – dedi hali ham oyog'ini o'pib yotgan bakovulga nafrat bilan qarab. – Bir qoshiq qoningni bag'ishladim, ammo bir shart bor: bo'lib o'tgan bu mojarolarni hech kimga aytmay, sir saqlag'usidursen.

Bakovul bu yengil shartni jon deb qabul qilib, umrining oxirigacha Navoiyning quli ekanini qayta-qayta gapirdi. Keyin yig'lab chap qo'li bilan soqolini tutamlab, o'ng qo'li bilan yuziga urdi: „Nega Navoiyning qadrini bilmagan ekanman“, deb ko'z yoshi qildi.

Alisher o'z mulozimlari, xizmatkorlarini chaqirib Mirhaydarning yanglishganini, uning bakovul haqidagi shuhulari tagi yo'q gap ekanini aytdi. Hamma boshini quyi solib, indamay joy-joyiga tarqaldi.

Oradan bir oy o'tmay, to'plangan boj-xirojlarni Hirotg'a olib borgan Mirhaydar Navoiyning pishiqtirishiga qaramay,

bir ichkilik ziyoftida Astrobod voqeasini do'stlariga so'zlab berdi. Sulton Husayn bu gaplarni eshitib, tashvishga tushib qoldi. Gapning zo'rayishidan qo'rqb, Mirhaydarni yolg'onchilikda ayblab, Ixtiyoriddin qal'asiga qamatib qo'ydi. Navoiyga xat yuborib: „Hirotg'a qaytib keling, hargiz bu yanglig' yomon fikrlar aqlimga kelgani yo'q erdi“, deb yozdi. Shu bahona bilan Navoiy Astrobod surgunidan qutulib, sevikli Hirotg'a qaytib keldi va Sulton Husaynga Astrobod ishlari to'g'risida hisobot bergandan so'ng dedi:

– Mirzam, iltifotingizni darig' tutmay, osiy va gunohkor Mirhaydarning qonidan keching, o'zi devonasifat yigit tili ni ixtiyorida asray bilmaydur.

Navoiy sultonning hujrayi xosida hukmdorning ro'parasida bosh egib o'tirar edi. Hukmdorning rangi o'chgan, qiyiq ko'zlari chaqnar, harsillab nafas olar edi.

– Agar bu lodon yigit Mirsayid oqaning o'g'li bo'l-mog'onda qonidin kechmagan bo'lur erdim. Aytg'on so'zina boqing: sultonning bakovuli Alisherni zaharlamoqchi bo'lg'on ermish. Bu yanglig' yolg'onne aytmoqqa qandog' tili bordi erkan? – Husayn oldidagi kosadan bir ho'plam sharbat ichib, yengil nafas ola boshladi. – Do'stlarining tashvishga tushgan. Shul sababdin sizni darhol Hirotg'a chaqirtirdim, toinki alar sizning sog'-salomat erkaningizni o'z ko'zlari bila ko'rsinlar.

– Mirhaydar saroy ahli oldida mastlig' chog'ida aytg'on so'zlari yalg'on erkanin aytib, mendin uzr so'rasin. Bo'l-mag'ur ovozalarg'a xotima bermoqning yagona yo'li shuldirlar. Men farmon berdim. Ixtiyoriddin qal'asining dorug'asi Mirhaydarni ozod qilib yiborg'usidur.

– Xudog'a ming qatla shukurki, saltanat gulshandin muruvvat yeli keldi, –dedi yuzi yorishib ketgan shoir. Yaxshi odam yomonlarg'a ham yaxshilig'in unutmas. Siz yaxshi muomala bila dushmanlarni ham o'zingizga yor qilib olg'on podshosiz. Doim iltifotingiz bulutidin himmat yomg'uri yog'sin!

Navoiy sulton Husaynga qayta-qayta tashakkur bildirib, o'mnidan turdi.

Ertasiga Mirhaydar qal'adan chiqib keldi. Saroy ahli, urug' oqsoqollari, shahar ulug'lari oldida, sultonning bakovuli to'g'risidagi hamma gaplari tuhmatdan iborat ekanini aytib, mirza Husayndan kechirim so'radi.

DARVESHALINING FITNASI

Navoiy Hirotning shimol tomonidagi Gozurgoх mavzeyidan o'ttiz tanobcha quruq yer sotib olib, obod qildirgan edi. Pistazor tog'larning etagidagi do'nglik yerga suv chiqartirib anor, anjir, o'rik, tok ektirgan, bog'ning o'rtasida chiroyli bir shiypon soldirgan edi.

Salqin va jimjit kuz kechasi... Tunyoq tomondan xushbo'y, mayin shabada esib turadi, mevalarning ko'pligidan boshlari egilgan daraxtlarning barglari bir-birlari bilan shivrlashadi.

Issiq guppi kiyib olgan shoир shiyponda o'tirib, oldidagi xontaxta ustiga bir kosa buloq suvi qo'yib, qandil yorug'ida ishlaydi. Ahyon-ahyonda bir qultum suv ichib, bir nuqtaga ko'zini tikib o'ylab qoladi, bemahal sarg'ayib yerga tushayotgan barglarning shitir-shitiriga qulq soladi.

Navoiy shunday ilhombaxsh, sokin va salqin kuz kechalarini sevar edi. Bugun ham uning savag'ich qalamidan ajoyib satrlar quyilib tushardi. Shoирning yumshoq bir tabassum bilan yorishgan yuzida musaffo qalbi oynadek aks etib turardi. U faqat ish ustidagina o'zini baxtli his etardi. Biroq zulm, vahshatni o'z shiori qilib olgan zamona bunday tinch va osoyishta mehnatning dushmani ekanini ubilar edi.

Tinch va ko'm-ko'k vodiylargacha ba'zan garmsel bostirib kirib, yashil barglarni xazon qilgandek, o'qtin-o'qtin beklar, hokimlar qo'zg'olon ko'tarib, xalqning osoyishtaligini buzar, yongan chiroqlarini o'chirardi.

Shoir bugun yarim kechagacha ishlashni mo'ljallagan edi, biroq vahshat cho'lidan kelgan xunuk bir xabar ilhomini qochirib yubordi. Behlul uning oldiga kelib, og'zi muhrli bir xatni uzatdi.

- Kim berdi buni?

– Darvoza oldida turgan bir otliq Balxdin keldim, deb aytdi.

Navoiy xatni ochib, shoshib-pishib o'qiy boshladi:

„Duoyi benihoya va salomi mushtoqonadin so'ng, sihat-salomatligimni bildirib, siz birodarimning ham eson-omonligini tilab yotmoqdamen. Qolg'on so'zlarni ushbu maktubni eltgan kishidan eshitgaysiz. Bul kishi mening eng sodiq mulozimlarimdin bo'lib, hech bir sirni andin yashirmasangiz ham bo'lur.

Iningiz Darveshali“.

Bu mujmal va sirli maktub Alisherni gangitib qo'ydi: „Ahmoq ukam, yana bir baloni boshlamoqchiga o'xshaydi shekilli“, deb o'yladi u.

– Maxdum, otliq kishini bul yerga chorlang, tokzor ichidan olib o'ting, navkarlardin hech kim ko'rmasin.

Navoiy tungi mehmonni qabul qilish uchun shiyponning chetidagi hujraga kirdi. Oradan besh-olti daqiqa. o'tgach, qora shoyi chopon kiygan jikkak kishi kirib ta'zim qildi va Navoiyning qo'lini olib ko'rishdi. Behlul dasturxon yozib, yasog'liq bir barkash bilan non keltirdi, so'ngra indamay chiqib ketdi.

Navoiy hayajonlanganini yashirishga urinib:

– Balxdin ne xabarlar keltirdingiz, tinchlikmi? – deb asta so'radi.

– Tinchlik, hokim janoblari, ya'ni birodari azizingiz Darveshali janoblari sog'-salomat yuribdurlar, sizga behad salom yubordilar.

– Salomat bo'lsin.

– Men siz uchun muhim bir xabar keltirdim. Hisor hokimi Sulton Mahmud askar to'plab sultonga urush ochmoqchi...

– A? Sulton Mahmud-a?

– Ha, biz ham fursatdin foydalanib, mirza Husaynga qarshi isyon tug'ini ko'tarmoqchimiz.

– Ha, ha, shunday deng!

– Shundog'. Iningiz Astrobod voqeasini eshitib, darg'a-zab bo'ldilar. Majdiddin bir kuni mening ham boshimg'a yetadur, deb xavotir oladurlar. Majdiddinning borg'on sari

qo'li baland bo'lib, barcha ishlarni egallab olayotir. Bu hol bizni tashvishga solmay qo'ymaydur. Sizning Astrobodda isyon ko'tarmaganingiz bizni hayrat ichida qoldirdi.

– Xalqning tinchligini, mamlakat manfaatini men o'z nafsimdan ustun qo'ydim, shul sababdin bu ishni qilmadim, – dedi Navoiy asta.

– Ammo Darveshalibek bu haqda boshqacha fikrdadurlar. Ul janob tavakkal kemasiga o'tirib, muxolifot daryosiga kirmoqqa bel bog'ladilar. Va lekin ishni boshlamasdan burun sizning maslahatingizni olmoqchi bo'ldilar.

– Mening beraturgan maslahatim boyta aytgan gapim-din ma'lum bo'lg'ondir, – dedi Navoiy qat'iy qilib. – Men sizlarning bul noma'qul ishingizni yoqlamaydurmen. Siz shuni yaxshi bilingki, hozirg'i paytda podshohga qarshi isyon ko'tarmoq o'zi shundog' ham azob ichida kun ke-chirayotgan xalqning tinchligini buzmoq demakdur. Siz qo'zg'alsangiz, Qunduz hokimi ham bosh ko'targusi, Mo'g'ulbek ham, Badiuzzamon ham. Mamlakat yana qong'a belanib, ulusning osoyishtaligi buzulg'usidir. Bir zolim o'rniha o'nlab zolimlar xalq boshida yong'oq chaqmoqqa boshlaydurlar. – Navoiy o'z fikrini tushuntiraman, deb ter-lab-pishib ketgan, yuzi lovullab yonar, ko'zlar chaqnar edi.

– Bilmadim, mening aytmoqchi bo'lg'on fikrimni tushun-dingizmi, yo'qmi, ammo har qanday isyon va muxolifotga qarshi erkanini anglagandursiz.

– Angladim, taqsir.

– Inimiz Darveshal Majdiddinga achchiq qilib o't bilan o'ynashmasin, burgaga achchiq qilib ko'rpa kuydirmasin. Bilishimcha, Majdiddindan podshohning ko'ngli sovigan, yaqinda vazifasidan haydalsa ham ajab emas. Yana takror ayturmen: mojaroni tinchlik yo'li bilan hal etmoqqa uring. Hisor hokimini qo'llamang. Agar sizlar isyon ko'tar-sangiz, men podshoh tarafini olurmen.

Navoiy allavaqtgacha mehmon bilan suhbatlashib o'ti-rib, unga gap uqdirishga harakat qildi. Tongotarga yaqin mehmon otini egarlar ekan:

– Mentin inimga ko'pdan ko'p salom aiting, – dedi. – Ba'zi mulohazalarga ko'ra, ilkingizga xat bermadim, mening gaplarimni og'zaki yetkazsangiz bas.

– Xotirjam bo'ling, hammasini yetkazgaymen.

– Sizni bu yerda hech kimarsa tanimaydurmii? – bezovtalaniib so'rab qoldi Alisher.

– Yo'q, tanimaydur.

Navoiy biroz tinchlanib, mehmonni yo'lga uzatar ekan: „Yalangto'sh uni ko'rmadimi ekan?“ deb o'yladi, yuz berishi mumkin bo'lgan bir falokatni sezganday yuragi orqasiga tortib ketdi. Yalangto'sh sultonning ishonchli odami, uni haydab yuborish yoki jazoga tortishga Navoiyning haddi sag'mas edi.

Darvoqe, oradan ikki kun o'tgach, mash'um bir xabar eshitildi.

Mish-mishlarga qaraganda, Balx yo'lida, Hirotdan ikki tosh narida yasovullar bir kishining o'ligini topibdurlar. Qotillar u kishining egnidagi qora shoyi to'ni, oyog'i-dagi arabiy etigiga tegmabdilar. Bozorda mish-mish gaplar zo'rayib ketdi. Ba'zilar o'lgan kishi Hisor hokimining ayg'oqchisi ekan desa, boshqalari podshoning maxfiy choperi ekan, yaqinda katta urush bo'larmish, der edilar. Ehti-yotkor savdogarlar mollarini, dehqonlar g'allalarini yashira boshladilar. Ko'p urushlarni boshidan kechirgan xalq yana bezovtalaniib qoldi.

Navoiy o'z hovlisida qo'lini orqasiga qilib aylanib yurar, o'qtin-o'qtin birovga e'tiroz bildirganday bosh chayqar, lablari pichirlar edi. Darveshalining mulozimi o'ldirilgandan keyin Balxda ro'y berishi mumkin bo'lgan vaziyat ustida bosh qotirardi: „Ne qilsam ekan, falokatning oldini qanday olsam ekan? – deb pichirladi u – ko'riniib turibdurki, raqiblar izimga tushib, menga chuqur qozimoqdalar. Mabodo, Balx bosh ko'tarsa, boshimg'a yana balo toshlari yog'ilal boshlar. Inimning huzuriga bir odam yuborsammikin? Yo'q, buni payqab qolsalar, Balxda yuz berishi mumkin bo'lg'on voqealardan xabardorlig'imni bildirib qo'yg'on bo'lurmen. Dushmanlar ig'vo qilib, Navoiy inisi bilan bir yoqadin bosh

chiqarmoqchi, deb podshohning ko'nglida shubha ilonini uyg'otadurlar. Nima qilsam ekan? Qanday qilib, inimga o'z fikrimni yetkazsam ekan?"

Navoiy chuvalib ketgan kalavaning uchini topolmay garang bo'lib turganida, saroydan farrosh kelib, Bog'i Zog'onda bo'ladijan katta ziyoftga Navoiyni podshoh nomidan chorladi.

Ertasiga namozi jumadan keyin mehmonlar Bog'i Zog'onga to'plana boshladilar. Kimxob, zarbof, shoyi to'n kiygan mutakabbir akobirlar, a'yonlar, qaysilari taxtiravonlarida, qaysilari ot minib, oldilariga bir gala xizmatkorlarini solib, birin-ketin saroy bog'iga yetib kela boshladilar. Ularning har birlari podshoh o'tirgan ravoqning ro'parasiga kelib, uch marta tiz bukib-qo'l qovushtirar, so'ngra farrosh ko'rsatgan joyga borib o'tirar edilar. Ustiga yashil ipak kiyim kiygan, boshiga olmos va la'l toshlar qadalgan toj qo'ygan Husayn taxt ustida mag'rur o'tirar, mehmonlarning ta'zima jilmayib, sekingina bosh qimirlatish bilan javob qilardi..

Mezon oyi bo'lsa ham havo ochiq, kun issiq edi. Bu vaqtida Bog'i Zog'onda katta kurash boshlanardi, Xurosonning mashhur pahlavonlari bu yerda o'z kuch va mahoratlarni ko'rsatar edilar.

Mehmonlarga ovqat tortilgandan keyin kurash boshlandi. Boshlab pahlavon Abusaid bilan pahlavon Mahmud bel bog'lab kurashga tushdilar. Ular bir-birlarini sinash uchun hadis qilib, uzoq aylanib yurdilar. Sulton zerika boshladi. Shu paytda u mehmonlar orasidan kelayotgan Majdiddinni ko'rib, sergaklanib qoldi.

– Mirzam, – deb shivirladi taxt oldiga kelib Majdiddin, – noxush xabar keltirganim uchun g'azab qilmang.

– Tezroq aytинг, na bo'ldi?

– Ushbu soatda shahzoda Ibrohim Balxdin Hirotg'a yetib kelibdur. Shahzodaning chopari bilan hozir gaplashdim.

Husayn Boyqaroning tusi o'zgarib, ko'zlarini javdirab qoldi:

– Shahzoda ne uchun mendin ruxsatsiz kelibdur?

– Choparning so'ziga boqa shahzoda janobingizdin, tezda Hirotg'a yetib kel, degan mazmunda bir maktub olishish.

- Men bu yanglig' maktub yozmog'on erdim.
- Bilurmen, siz shahzodaga xat yubormog'on erdingiz. Maktub qalbaki bo'lsa kerak.
 - Qalbaki? - Husaynning yuzi cho'zilib ketdi.
- Ba'zi a'yonlar podshohning avzoyi o'zgarganini ko'rib, kurash tomoshasiga qiziqmay qoldilar.
- Ha, qalbaki xat, - deb takrorladi makkor va hushyor vazir. Bu - yosh shahzoda nomidin Balxni idora qilib tur-gan Darveshalining ishi.
- Olloh, olloh, - dedi ko'zları ola-kula bo'lib ketgan sulton. - Ne sababdin ul nobakor mening nomimdin xat bitib, Ibrohimni Hirotg'a chaqirtirg'on? Buning ma'nosi nima?
 - „Ichkilikni ko'p ichib qo'yib, aqlini yedimi bu tentak tojdar“, deb o'yladi Majdiddin, ammo muloyimlik va hur-mat bilan bosh egib dedi:
- Buning ma'nosi shulkim, Balx hokimi isyon tug'ini ko'tarmoqchi bo'lg'on, bul ishga to'siq bo'laturgan shah-zodani hiyla bilan Balxdin jo'natgan. Oradin ko'p zamon o'tmay, Darveshali Hisor hokimi bilan Hirot ustina yurish qilsa ajab ermas.
- Sulton bosh barmog'ini tishlab, o'ylaganicha qotib qol-di. Tomoshabinlar ham kurashga qaramay qo'ydilar. Podshoh buni payqab, kurashni to'xtatib, mehmonlarga javob berib yuborishga amr qildi.
- Kechhurun sulton mastlikdan es-hushini yig'ishtirib ol-gandan keyin, Majdiddinni xilvatxonaga chaqirtirib, shun-day dedi:
 - Mavlono, Darveshalining ne sababdin fitna qila-yotg'oni menga ma'lum. Sizning hukumat tepasida tur-mog'ingizdin ul ham, og'asi ham qattiq norozidurlar. Maq-sadlari sizni o'rindan tushirib, davlat ishlaridin uzoqlash-tirmoqdur. O'zingiz ham yaxshi bilursizkim, alarning firqa-si kuchli, xalq oldida e'tiborlari zo'rdur. Men o'ylaydur-mankim, biz oldinroq harakat qilib isyonning oldini olsak, yaxshiroq bo'lur. Sizga iste'fo berib, o'rningizga Hijozdin qaytib kelgan Xo'ja Afzalni qo'ysak... - Majdiddinning o'y-lanib qolganini ko'rib, sekin qo'shib qo'ydi. - Sizni mukofot va izzat-hurmat bilan bo'shaturmiz.

– Men rozi, har bir so'zingiz men uchun qonun, amrin-gizga mutedurmen.

– Andog' bo'lsa, bul haqda farmoni oliy hozirlang, ertaga e'lon qilurmiz.

Biroq podshohning bu tadbiri ham foyda bermadi. Darveshali Majdiddinning iste'fosi bir hiylayi nayrang ekanligini payqagan edi, shu sababdan podshohning taslim bo'lish haqidagi taklifini rad etdi.

Navoiyning boshiga og'ir kunlar keldi. Sulton, Majdiddinning qutqusiga uchib, Darveshalining gunohini og'asining bo'yniga yuklar, har kimga uning orqasidan shikoyat qilib gapirar edi. Boshiga tuhmat toshi yog'ilayotgan shoir ruhiy azob chekmoqda, bir-biriga qarshi bo'lgan fikrlar boshini og'ritmoqda edi.

Navoiy uh tortib hovli sahnida aylanar, o'zini qayerga qo'yishni bilmas edi. Uning sodiq mulozimi Behlul bu holni ko'rib:

– Taqsir, shu besh kunlik dunyoda muncha azob chekasiz, – dedi. – Ulus arosida e'tiboringiz zo'r, podshohga va hokimlarg'a muhtojligingiz yo'q. Shundoq bo'la turib, nega muncha azob chekasiz? Darveshali o'z boshig'a chorlog'on baloni o'zi daf etsin, sizga nima?

– So'z birgina Darveshalining ustida bo'lsa g'am yemas erdim, – dedi shoir yurishdan to'xtab. – Balx va Hirrot bir-biri bilan to'qnashsa, xalqning holi nima kechadi, deb o'ylaydurmen. Hamma fojia shundakim, bu falokatning sababchisi o'z inimdur. Afsuski, bu noma'qul harakatning oldini olib bo'lindi. Ba'zan eng yaqin kishilaring ham yaxshilik qilmoqchi bo'lib, – boshingga falokat keltirganlarini o'zlarini bilmay qoladurlar.

– Afsuski, sizga yaxshilik qilish mening ilkimdin kelmaydur, – dedi Behlul shoirning holiga achinib. – Lekin do'stlar bilan kengashib ko'rmoq zararli bo'lmas.

– Rost aytdingiz, maxdum, – dedi Navoiy yuzi yorishib. – Siz darhol Xoja Dehdorni chorlab keling, zarur ishlari bor ekan, deb aytin.

Xoja G'iyosiddin Dehdor asli ozarbayjonlik bo'lib, Navoiy yordami bilan saroy xizmatiga kirgan edi. O'zi xush-

ovoz ashulachi, askiyaboz odam bo'lib, qo'lidan kelmagan ish yo'q edi. Iste'dodli kishilarni o'z atrofiga toplashni yaxshi ko'radigan sulton ham uni o'ziga yaqinlashtirgandi.

Navoiy o'ziga sodiq va podshohning ishonchini qozongan bu odamni o'rtaqa qo'yib, janjalni tinchlik yo'li bilan bartaraf qilish ustida bosh qotira boshladi.

Oradan biror soat o'tgach, boshiga kichkinagina salsa o'ragan, chertsa, ikki betidan qon tomadigan, qizil soqol bir odam kelib, Navoiyga ta'zim qildi.

– Kelsinlar, kelsinlar, kamnamo bo'lib ketdilar, – deb mehmonxonaga taklif qildi shoir. – Boshingga kichik bir ish tushganda do'stlar ham oyog'ini tortar ekan-da.

– Yo'q, taqsir, bu yanglig' so'zlarni aytmang. Men andog' do'stlardin emasdurmen, – dedi Xoja Dehdor ko'rpachgaga o'tirib.

Yuzlariga fotiha tortib, hol-ahvol so'rashganlardan keyin shoir dardini ochib, dedi:

– Inimning noma'qul harakati soyasida boshimg'a kelgan falokat sizga ma'lumdur. Siz bu mojaroni tinchlik bilan bartaraf etmoqqa yordam bersangiz...

– Olloh, olloh, bu kabi og'ir vazifa mening ilkimdin kelmas.

– Kelmasa, men sizni chaqirtirumi erdim, – dedi Navoiy qoshini chimirib. – Mirzadin ijozat olib, Balxga elchi bo'lib borsangiz va Darveshalini mening nomimdin itoatga da'vat etsangiz. Agar ul taslim bo'lmasa, mening Darveshali degan inim yo'q. Mabodo, ul ilkidagi tig'ni ishga solsa, bizning baxt yulduzimiz zabun bo'lg'usidir. Shoyad, inim so'zingizga kirsa-yu, urush tinchlik bilan mubaddal bo'lsa... Men ilkingizga maktub bermaydurmen, fikrlarimni og'zaki aytинг, Darveshali sizga inonur. O'rtamizda bo'lg'on bu suhbat oramizda qolsin.

– Bosh ustiga. Iltimosingizni mammuniyat bilan bajargusimen. Hamma gap podshohning ijozatig'a bog'liq. Agar ruxsat bersalar, ertagayoq qirchang'i otimni teskari minib, ilonni qamchi qilib, Balx sari ravona bo'lg'aymen.

– Sizga eng yaxshi arg'umog'imni in'om qildim, – dedi Navoiy uning imosini anglab. – Podshoh taklifingizni

rad etmas. Sizning suhbatingiz ul kishiga manzur, har bir so'zingiz ma'qul. Bir-ikki so'z bilan ko'nglini ochsangiz, olam guliston.

– Xo'p, emdi menga ijozat bering, harakatga tushayin.

Behlul otxonadan egarlog'liq bir arg'umoq chiqarib, hofizga ro'para qildi. Og'zi qulog'iga yetgan Xoja Dehdor bir irg'ib otga mindi-da, Navoiyga tashakkur bildirib, saroy sari jo'nadi.

Balx voqeasidan keyin Husayn Boyqaroning ko'ngli qorong'i, chiroq yoqsa yorimas edi. Mamlakat endi tinchidi deganda yana yuz bergan bu hodisa oshiga tushgan pash-shadek uning tabiatini xira qildi. Tantanali marosimlar, ziyofatlarga, tinch rohatga o'rganib qolgan Husayn uchun yana safarga otlanish malol kelar edi.

Sulton o'zining hujrayi xosiga chekinib xayolga botdi, og'ir fikrlar achchiq tutun kabi uning borlig'ini zaharlar edi. Ichida Darveshalini so'kar, uni saroy kitobxonasi dorug'aligidan beklik darajasiga ko'targaniga o'kinar edi:

„Qadimg'i hukamolar so'zin unutdim. Alar, podshoh bir odamni o'ziga vazir yoki bek qilib olsa, aning qarindoshlarig'a martaba bermasligi kerak, deb aytg'on edilar. Men esa Alisherning inisiga beklik unvonin baxsh etdim, jiyani Mirhaydarg'a qo'shinda ulug' lavozim berdim. Natijasi men uchun ham, Alisher uchun ham yamon bo'ldi“. U o'ylagan sari siqilib, joni halqumiga kelardi. Vaqtini chog' qilish uchun sharobdorini chaqirib, bir kosa may ichib oldi. Biroq ichkilik ko'nglini battar g'ash qildi.

Shu vaqtida Xoja Dehdor podshohning dargohiga kelib, uning huzuriga kirishga eshik og'asidan ruxsat so'radi.

– Mayli, kirsin, – dedi Husayn, – bir-ikki latifa aytib, zora ko'nglimni ochsa...

Dehdor eshikdan kirib, ta'zim qildi-da, kavush yechadigan joyga o'tirdi.

– Beriroq kelib o'tirsinlar, – dedi Husayn yonidan joy ko'rsatib.

– Yo'q, taqsir, menga shu joy munosib.

– Eshagiga yarasha tushovi, deng.

- Ha, taqsir, shundog', qirchang'i eshak bilan jangda miniladigan otni bir oxurga bog'lab bo'lmaydur.

Sulton Xoja Dehdorning bu gapidan dimogi chog'bo'lib ko'zlar yaltirab ketdi.

- Ot topadur, eshak yeydur, degan maqol bor. Qani ayting, sizga nima kerak? Tilang tilagingizni.

- Menga bir ish topib bering. Bekor qoldim.

- Xo'sh?

- Biror hokimning olig'a elchi qilib yuboring.

- Iye, nima munosabat bila bir hofizni elchilik martabasiga ko'taray.

- Bir kitobdor qul beklik martabasiga ko'tarilganda, kamina elchilik mansabiga erishsam nima qilibdur?

- Borakallo, - dedi Husayn jonlanib ketib. - Bir hofizni elchilik martabasiga ko'tarmoqning savobi bir kitobdorga beklik unvoni bermoq bila barobardir. Ammo ko'rib turibsizkim, bunday savobning tagi teshik ekan. Mayli, bir karra sinagan narsamni ikkinchi qatla sinab ko'ray. - Sizni qaysi mamlakatga, qay bir hukmdorning huzuriga yuboray?

Kitobdorlikdin beklik mansabiga ko'tarilgan Darvesh alining olig'a.

- Yo'q, - dedi podshoh birdan qovog'ini solib. - Ilkig'a yarog' olg'on kitobdorni qilich kuchi bilan itoatga keltirgaymiz.

- Ruxsat eting, aning ilkidagi qilichni men xamirdan qil sug'urgandek tortib olayin. Janoblari, raqs etmoqqa o'rgatilgan Misr podshohi maymunlari haqidagi masalni eshitganmilar?

- Qani, so'y lasinlar, - dedi Husayn maroqlanib.

- Luqmoni hakim naql qilurlarkim, - deb gap boshlandi Xoja Dehdor imo-ishora bilan bosh irg'ab, - Misr podshohining raqsga o'rgatilgan bir necha maymuni bor ekan. Maymunlar askariy kiyim kiyib, qilich bilá o'ying'a tushar ekanlar. Ba'zi odamlar, maymunlar, hayvonlik holatidan chiqib, tabiatlarini o'zgartiribdurlar, deb o'ylar ekanlar. Bir olim va donishmand kishi alarning fikri xato ekanini ko'zlariga ko'rsatmoqchi bo'libdur, maymunlar raqs etib turganlarida, qo'ynidan to'rt yong'oqni chiqarib o'rtaga tash-

labdur. Raqqoslar qilichlarini tashlab, yong'oqqa yopishib-durlar, bir-birlari bila urishib, ustilaridagi kiyimlarini pora-pora qilibdurlar. Shu yanglig¹, ilkiga qilich olg'on kitobdor maymun ham mening qo'ynimda bo'lg'on yong'oqlarni ko'rgach, ilkidin qilichini tashlagusi va asliga qaytg'usidur. Men ani zanjirband qilib, huzuringizga keltirurmen.

– Magar bu yong'oqlarni qo'yningizga Alisherbek solib qo'yg'on bo'lmag'ay, – dedi Husayn kulib.

– Topdingiz, a'lo hazrat, – dedi hofiz o'zini yo'qotmay, – sizdin ham uch-to'rt yong'oq olsam yaxshi bo'lur erdi va lekin puch bo'lmasa.

Husayn barmog'i bilan tahdid qilib, kulib qo'ydi va ketish uchun ruxsat berdi.

– Agar Darveshali so'zsiz taslim bo'lsa, moli va jonig'a qasd qilmag'aymen, yana buning ustiga istagan bir qishloqni suyurg'ol etgaymen, mening va'dam puch yong'oq emas.

Xoja Dehdor shu tariqa hazil-huzul bilan Balxga ketishga ijozat oldi. Fursatni qo'ldan bermay, jabdug'ini tayyorlab, ikki navkar bilan yo'lga chiqdi.

Sulton Husayn ham janjalni tinchlik yo'li bilan bartaraf qilishni istar edi. Biroq Xoja Dehdorning bu ishni uddalashiga ko'zi yetmasdi. Har ehtimolga qarshi Balx ustiga askar tortib borishga jazm qildi. U Balx qo'shini bilan Hisor qo'shinining orasiga ponadek suqilib kirib, har qaysisi yakka-yakka urishni mo'ljallab qo'ydi.

Podshoh jangovar beklarini chaqirib, qiladigan xatti-harakatini muhokamaga qo'ydi. Beklar uning maslahatini qo'lladilar. Keyin o'z askarlarining qurol-aslahasi urushga qanchalik yararli ekanini tekshirib chiqa boshladilar, ishdan chiqqan qurollar o'rniga davlat aslahaxonasidan yangi yarog'lar oldilar. Taqachilar jang otlariga taqa qoqar, o'qchilar tinmay o'q yasar, yurtchilar chodir-o'tovlarni yamar, ustalar o'q sochadigan qozon¹ quyar edilar.

¹ Q o z o n – misdan quyilgan ibtidoiy to'p.

Nihoyat, hamma tayyorgarlik ko'rilib bo'lgach, askalar podshohning ko'riganidan o'tish uchun saf tortdi. Podshoh otini sekin haydab, askarlarning kiyim-bosh, aslahalarini ko'zdan kechirib chiqdi, so'ngra yurishga amr berdi. Nog'ora chalinib, ot dumidan yasalgan tug'lar baland ko'tarildi. Qo'shining ketidan podshohning o'zi bevosita boshchilik qiladigan og'ir qurolli askarlar jo'nadi.

Qo'shin Murg'ob daryosi bo'yiga yetib kelgach, baland bir tepalikning yonbag'riga lashkargoh qurildi. Uning atrofiga xandaq qazilib, burchak-burchaklariga qorovullar qo'yildi. Lashkargohning o'rtasiga gir atrofi amirlar, beklaning chodiri bilan qurshalgan ipak chodir tikilgan edi.

Husayn Boyqaro bu chodir ichida o'tirib, Balxga yuborilgan Dehdorning qaytib kelishini sabrsizlik bilan kutardi. U serhasham ipak chodirning to'riga solingan zarbof to'shak ustida chordana qurib, o'ng qo'lining mushtini chakkasiga tiragan.

Ikki chakkasi oqarib qolgan Navoiy ham o'z chodiri ichida og'ir boshini quyi solib o'tiradi. Balxdagi muzokalarlar nima bilan tamomlanar ekan, deb xavotir oladi. Ichni tirnayotgan fikrlardan o'zini chalg'itish uchun Navoiy o'z ustodi Jomiyning „Bahoriston“ini qo'lga olib, o'qishga urinib ko'rdi. Biroq lablari pichirlab talaffuz etgan so'zlar uning ongiga borib yetmas edi. Nihoyat, kitobni sekin yopib, avaylab lavh ustiga qo'ydi-da, havo olish uchun dalaga chiqdi. O'ttiz qadamcha naridagi ipak chodirni qo'llarida oyboita, kistan ushlagan soqchilar qo'riqdab yurar edilar.

Ikki qirg'og'ini to'qay qoplagan Murg'ob daryosi bu yer dan yaqqol ko'rinish turardi. Tushki ostobning tik tushgan nurlari ostida daryo suvi jimmima qilardi. Murg'obning nar-yog'idagi bepoyon qirlar afsonadagi hayvonlarning o'ligidek cho'zilib yotar, kech kuz bo'lishiga qaramay havo issiq, osmon beg'ubor, tip-tiniq edi.

Navoiy yuragi bir narsani sezganday daryo bo'yiga tushib, murzdek suvga yuzini yuvdi-da, narigi qirg'oqqa, osmon bilan yerni tutashtirgan chiziqqa tikilib qoldi. Nihoyat, ufqda bir nuqta paydo bo'ldi va sekin-sekin yaqin-

lashib kela berdi. Bora-bora bu nuqta chang-to'zon buluti bilan o'ralgan otliqqa aylandi.

Navoiy otliqlarning solga o'tirib, bu tarafga o'tishlarini sabrsizlik bilan kutdi. Yuz-ko'zini chang bosgan, ikki yuzi bo'rtib ketgan Xoja Dehdor soldan qirg'oqqa sakrab tushib, Navoiyga tomon yugurdi va uning qo'lini yuziga surtib:

– Xushxabar, – dedi entikib. – Suyunchini beravering, tinchlik parisi g'olib kelib, Azroilning bozori kasod bo'ldi.

– Suyunchisiga bir ot in'om qildim, – dedi Navoiy o'zida yo'q suyunib. – O'zingiz hormay-tolmay, eson-omon keldingizmi?

– O'g'onga¹ shukur, otdek sog'men.

Elchi daryo suviga yuz-qo'lini yuvib, belbog'i bilan artindi-da, Navoiy bilan birga tepalikka chiqib, ipak chodirga kirdi.

– Shoho, – dedi tiz bukib, – saodat quyoshi doim boshingiz uzra porlasin. Bu safar ham omad va zafar sizga yor bo'ldi. Kitobdor qulingiz qilichini tashlab, bo'yin egib keldi, o'zi bu yerdin to'rt tosh narida farmoningizni kutib yotib-dur. Afsuski, Balxda ani bog'lag'oni zanjir topa olmadim.

– Agar Darveshali isyon qilichini itoat qinig'a solg'on bo'lsa, biz gunohidin kechdir, – dedi sulton iljayib. – Aning uchun bu yerda ham zanjir topilmas. Biz o'ch olmoqni ayb, afvni o'zimizga hunar, deb bilurmiz.

Ertasiga ertalab Darveshali podshohning oldiga kelib tiz cho'kib, qilgan ishlari uchun so'radi.

Husayn Boyqaro ikki yovning biridan shu tariqa osongina qutulganidan keyin, ikkinchi yovni bartaraf qilish rejasini tuza boshladi. Biroq qish erta tushib qolganidan, bu ishni bahorga qoldirmoqchi bo'ldi.

Beklar qishni Balxda o'tkazib, erta bahorda Hisor qal'asini hujum bilan ishg'ol qilishga maslahat berdilar. Sultan Balxga yetib kelganidan keyin o'z va'dasiga vafo qilmay, Darveshalini shahar qal'asiga qamatib qo'ydi. Qish chiqqach, Alisherni Balxga muvaqqat hokim qilib, o'zi Hisorga jo'nadi.

¹ O'g'on - Xudo.

O‘z inisi qamoqda yotgan qal‘ada hokim bo‘lib turish shoirni juda noqulay ahvolga solib qo‘ydi. Axir podshoh Navoiyni xo‘rlash uchun uni o‘z inisining zindonchisiga aylantirgan edi-da.

Shoir qorong‘i va umrida oftob ko‘rmagan aylanma zi-nadan bosib, qal‘aning tunyoq tomonidagi burchiga chiqdi. Bu joydan Balxning shimolidagi keng voha ko‘zga tashlanib turardi. Yam-yashil dalalar, rango-rang lolalar bilan bezal-gan qirlar, paxtadek gullagan olmazorlar har qanday kishi-ning bahrini ochib, ko‘nglidagi chigillarni yozar edi. Biroq bu ajoyib go‘zal manzara uning xo‘rligini keltirdi. Shun-day ko‘rkam, ajoyib tabiat qarshisida bu odam o‘zini battar baxtsiz his etdi. Shoir oyog‘i ostida yotgan Balxga qarab, xayolan: „Ey Kaykovusni ko‘rgan ko‘hna shahar, ikki yarim ming yildan beri menday baxtsiz bir hokimni ko‘rdingmi?!” deb xitob qildi.

Navoiy zanjirga bog‘lab qo‘yilgan sher kabi qo‘rg‘on ustida u yoqdan bu yoqqa yurar, alamiga chiday olmay ing-rar edi.

Kun botib, qosh qoraygandan keyin qarshidagi bog‘-lardan, dalalardan sovuq yel esa boshladi. Shoir xuddi qo‘rg‘oshinday og‘irlashgan oyoqlarini arang bosib aylan-ma zinadan pastga tushdi. Zindonchidan kalit olib, bir hujra eshigiga solingan burama qulfni ochdi. Og‘ir eshik g‘irchillab ochilishi bilan zindonxonadan rutubatli hid burqsab, uning nafasini qaytarib yuborayozdi. Bir qu-choq poxol ustida yotgan Darveshali zanjirlarini shiqirlatib o‘rnidan turib o‘tirdi. Navoiy sham tutib, inisining murda-dek sarg‘ayib ketgan yuzini ko‘rgach, beixtiyor orqasiga bir qadam tashladi.

– Meni afv et, inim, zanjirdin ozod etmoqqa hozircha ojizmen, – dedi u. – Sening jisming azobda bo‘lsa, mening ruhim qiyonoqda. Ne qilayik, qismatimiz shul erkan.

– Sizda ayb yo‘qligini bilurmen, og‘a, lekin va’daga xi-yonat qilib, egilgan boshga musht urgan zolimdan xafa-men. Boshimg‘a qilich kelmasaydi...

- Qo'rqma inim, senga hech narsa bo'lmaydur. Podshoh meni tahqirlash uchungina seni shu ko'yga solib qo'yg'on.

- Bunday xo'rlikdan o'lgan yaxshiroq erdi. Og'a, nima uchun meni yo'ldan urdingiz?

Miltirab yongan sham yorug'ida aka-uka ancha vaqt-gacha hasratlashib o'tirdilar. Zindonxonaning devoridagi tuyrukdan oy mo'ralab, bu ikkala g'amzadani hayrat bilan tomosha qildi.

Husayn Boyqaro Hisor qal'asini bir necha oy qamab yotsa-da, bir ish chiqara olmadi. Nihoyat, u Sulton Mahmud bilan sulh bitim tuzib, Balxga qaytib keldi va Darveshalini qamoqdan ozod qilib, qo'shini bilan Hirotg'a jo'nadi.

PAHLAVONNING SHA'NIGA TUSHGAN DOG'

Sulton Husayn zamonida pahlavon Muhammadning ishlari yurishib ketib, Ne'matobodda o'ziga takya soldirdi, yosh yigitlarni kushtgirlikka o'rgata boshladи. Uning shogirdlari ham o'ziga o'xshab adabiyot va san'atga qiziqar, ba'zilari she'r yozar edilar. Biroq shunday baobro' olim va fozil pahlavon Muhammad avvalgi hazilkashligi va yosh-larga xos sho'xligini tark etmadi, uning ba'zi bir bachkana qiliqlari Navoiyni hayratda qoldirardi. Bu xususiyati bir kuni uni butun poytaxt oldida sharmanda qilayozdi.

Sulton Husayn „Bog'i Jahon oro“da ziyofat berayotgan edi. Sharbat bilan liq to'ldirilgan marmar hovuzning atrofidagi supalarda shahar a'yonlari, beklar, olimlar, shoirlar, sozandalar o'tirishar, bog'ning har yer-har yeriga mash'allar yoqilgan, supalar ustidagi chilchiroqlar nur sochib turar, bog' kunduz kundagidek yorug' edi. Kuz payti bo'lsa ham kun issiq, tashna bo'lib kelgan mehmonlarga yosh yigitlar jonon piyolalarda hovuzdan sharbat olib berib turishardi.

Sultonning o'zi alohida supa ustiga qurilgan ipak chodirda, zarbof to'shakda chordana qurib o'tirar, egnida-

gi ko'k shoyi to'ni, misqoli sallasidagi gavhar chilchiroq yog'dusida ko'zlarни qamashtirar edi.

So'l tomonida tugmador kiygan beklar, o'ng tomonida salla-choponli a'yonlar, mullalar... Pahlavon Muhammad quyiroqda o'tirib, shayxulislom bilan qozi o'rtasidagi mu-nozaraga qulq solardi.

Taklif qilingan mehmonlarning hammasi kelib, marta balariga ko'ra farrosh ko'rsatgan joyga o'tirganlaridan keyin bakovullar kumush tovoqlarda qovurma, qirg'ovul, g'oz kabobi torta, yosh soqiylar bir chekkada turgan katta xumdan mehmonlarga may quya boshladilar. Boshda gap uncha qovushmay tursa ham, bir-ikki piyoladan so'ng suhbat gulxani gurullab ketdi. Ko'p o'tmay, askiyachilarning shang'illagan ovozi hammaning diqqatini jalb qildi. Hovuzning u tomonidagi bir askiyachi bu tomonda o'tirganiga gap otib, uning jag'ini ochdi. Qahqaha sadolaridan sarv daraxtlarining igna barglari titray boshladi.

Pahlavon Muhammad shohsupaning orqasidagi sarv daraxtlari ostiga solingan gilamlarda besh-o'n yigitning chaqchaqlashib o'tirganini ko'rib qoldi. Soqollari qop-qora bo'lib chiqqan, ingichka mo'ylovli bu yigitchalar podshohning payklari, jilovdorlari edi. Podshoh ko'chaga chiqqanda ular otning jilovida, oldinda va ikki yonida yurar edilar, kiyimlarining yaltiroqligi, bellariga qadalgan qirqta qo'ng'i-roqning jarang-juringi shohning yurishiga tantanali tus berar edi.

Anchadan beri podshoh huzurida qisilib o'tirgan pahlavon xushchaqchaq yoshlari oldiga borib, ularning hazil aralash suhbatiga qo'shilgisi, ovozining boricha kulib, ko'ngil chigilini yozgisi keldi. Payt poylab turib, u asta o'midan turdi-yu, yo'rg'alaganicha yosh jilovdorlar yoniga borib o'tirdi.

- E, keling, polvon ota, biz bila ulfat bo'ling...

- Avval boshlab sog'lig'imiz uchun mana bu kosani sipqaring, - deb chuvullashdi yigitlar.

Pahlavon chordana qurib olib, o'ziga uzatilgan qadahni oxirigacha ichdi-da, osilib tushgan mo'ylovini, mosh-birinch

gardish soqolini siypab qo'ydi va oldidagi chinni tovoqdan bir jaz olib gazak qildi.

- Ming yashang, polvon ota. Yana bir quyib berayikmi?
- Ko'plik qilmasmikan?
- Qo'rqmang, ichib mast bo'lib qolsangiz, sizni og'och tubina yotqizib, dastoringizni boshingiz ostig'a yostiq qilib qo'yurmiz.
- Andog' bo'lsa, mayli.

- Agar yo'q deganingizda boshingizdin quyib yiborur erdim, - dedi novchadan kelgan bir yigit, belbog'i va tizzasiga qadalgan qo'ng'iroqni shing'irlatib, unga may kosasini tutar ekan.

Birozdan keyin askiya to'xtadi. Sulton Husayn kulgidan ko'ziga chiqqan yoshini dastro'molining uchi bilan artib, yoni-veriga qaradi. Muhammad pahlavonga qiziq bir gap aytmoqchi edi, o'rnida ko'rmay, uni ko'zi bilan qidira boshladi. Podshohining alanglayotganini ko'rgan Muhammad Valibek:

- Mirzam, birovni axtarayotg'ang'a o'xshaydurlar, amr eting, ani chorlab kelay, - dedi.
- Pahlavon hozirgina shul yerda o'ltiradur erdi, qayon ketdi?

Muhammad Valibek kulimsirab, ko'zi bilan payklar o'tirgan tomonga ishora qildi:

- Pahlavon ulug' yoshini kichik qilib, payklar qoshig'a borib, alar qatida o'ltiradur.

Sulton Husayn bo'ynini cho'zib, jilovdorlar bilan chaq-chaqlashib o'tirgan pahlavon Muhammadni ko'rdi.

- Bizning suhabatimizdin alarning ulfatin afzal ko'rib-dir-da, - dedi u g'ijinib. - Soch-soqoli oqarg'onda aqlini yeb qo'ydimu?

- Yosh bo'lg'usi kelgandur.
- Andog' bo'lsa, ani yoshlarg'a qo'shib qo'ygusimizdir. Farroshg'a ayting, anga payklar egnini eltib bersin.
- Bosh ustina, - dedi Muhammad Valibek xursand bo'lganini yashirolmay, labini qiyshaytirib.

Pahlavon qiziq bir gap aytib yoshlarni kuldirayotgan paytda, zarbof bo'xcha ko'targan farrosh ro'parasida paydo bo'ldi.

– Zoti oliv lutf-karam aylab, janoblarig'a sovg'a in'om etadurlar, – dedi u bilinar-bilinmas tirjayib.

– Biz ham sherik, – deb chuvullashdi jilovdorlar.

Pahlavon mastona mag'rurlik bilan bo'xchaning og'zini ochdi-yu, rangi o'chib ketdi. Zarbof chorsi ichida payklar kiyadigan yaltiroq joma bilan qirqta qo'ng'iroq taqilgan belbog' bor edi.

– Menga yubordilarmi? Yo'g'-e, yanglishayotgandursiz? Boshqa odamg'adur?..

– Yanglishayotg'onim yo'q. Sizg'a yubordilar. Darhol ki-yib olinsin. Podshohi zamonning so'zini ikki qilib bo'lmaydur.

Pahlavon hushyor tortib, gapning tagiga yetdi. U ruxsatsiz shoh huzuridan ketib qolgani, u bilan emas, jilovdorlari bilan suhbatlashib o'tirganidan sultonning g'azablanganini anglatdi.

– Qani, menga ko'maklashing, – dedi u yonida jilmayib turgan jilovdlarga, yaltiroq jomaning o'ng yengiga qo'lini tiqar ekan. Bir yigit so'l qo'lini yengga to'g'riladi. Pahlavon jomani yelkasiga tortib kiyayotganda orqa choki „tarr“ etib so'kilib ketdi. Atrofidagilar o'zlarini tutolmay, qattiq kulib yubordilar.

Bu kulgi hammaning diqqatini o'ziga jalb qildi. Pahlavonning atrofiga odamlar yig'ilal boshladi.

– Agar soqolingiz bo'lmasa, payki paykar suratiga kirgan bo'lur erdingiz, – dedi allakim.

– Andog' bo'lsa qaychi keltiringlar, – dedi pahlavon va birpasda qayqdandir topib keltirilgan qaychi bilan o'z soqolini qirqa boshladi.

Bir jilovdor pahlavonning qo'lidan qaychini olib, soqolini qisqartirib tekisladi.

– Mana emdi payk suratig'a kirdingiz, – dedi jilovdor baland ovoz bilan sulton Husaynga eshittirib.

Pahlavon jilovdorlar libosini kiyib olgach, sultonning ro'parasiga kelib ta'zim qildi. Hukmdor uning qiyofasini ko'rib iljaydi, buni ko'rib, amaldorlar yana kulib yubordilar.

– Sizni yangi sarupo va yangi martaba bilan muborak-bod etgali ijozat etgaysiz, – dedi podsho kinoya bilan.

– Qulluq.

– Pahlavonning ishi ulug' bo'ldi, – dedi sulton Husayn yon-veridagilarga qarab. – Emdi ani olimizg'a solib shahar tushayiq, nima deysiz?

Uning atrofidagilar:

– Xo'b ish bo'lur!

– Ko'cha aylanib, g'am-u anduhdin forig' bo'layiq!

– Ming yashang, mirzam! – deb uning gapini ma'qulla-dilar.

Kayflari taraq saroy ahli, pahlavonning ot jilovida, beli va tizzasidagi qo'ng'iroqlarni shing'irlatib yurishini ko'z oldilariga keltirib, o'zlarini kulgidan to'xtata olmas edilar.

Pahlavon Muhammadning shogirdlaridan Sultonali Kushtgiriya navkarlar qatorida bir supada o'tirgan edi. U ustozining jilovdorlar kiyimini kiyganini, o'z soqolini qirqqanini ko'rdi-yu, mastligi tarqalib ketdi. Pahlavonni sharmandalikdan faqat Navoiygina qutqara olishi mumkin, degan fikr boshiga keldi. Afsuski, Navoiy bu yerda yo'q, ichkilik bazmi bo'ladigan yerdan u oyog'ini tortar edi.

„Hozirning o'zida ot choptirib borsam, chorak soatda Navoiyning chorborg'lariga yetishim mumkin, agar yuguruk tubichoq bo'lsa“, deb o'yładi u o'rnidan turarkan.

Mast-alast mehmonlar va mezbonlarning diqqati pahlavonda, ko'zlariga boshqa narsa ko'rinas mas edi. Shu sababdan Kushtgiriyning o'rnidan turib ketgani, otini minib jo'nab qolganini hech kim sezmay qoldi.

Navoiy bog'inining o'rtasidagi shiyponda, beshta sham qo'ndirilgan bezakli qandilning yorug'ida ishlab o'tirar edi. Uning mulozimi Behlul rangi o'chgan qorasоqol Sultonali ni boshlab keldi.

– Madad!.. Ustozim... pahlavonni xalos eting! – dedi Kushtgiriya harsillab.

– Ne bo'ldi pahlavong'a? Xasta yiqildimu?

– Koshki erdi... xasta yiqilg'on bo'lsa, sharmandayi sharmsor bo'ldi.

– A? Sharmanda bo'ldi?

Alisherning ko'zлari ola-kula bo'lib ketdi. Kushtgiriy shoshib-pishib, shohidi bo'lgan voqealarni gapirib berdi.

– Axtachig'a buyuring, darhol otimni egarlasin, – dedi Navoiy, hech narsani tushunmay, ag'rayib turgan Behlulga.

Shoir chophonini kiyar ekan, mehmonga tikilib qoldi. Bundan o'ttiz yilcha ilgari uning she'rini yod olib, Navoiy so'zi o'miga Nasimiyl so'zini qo'yib o'qib bergen yosh pahlavonlarning biri shu kishi edi. Alisher o'sha gapni qo'zg'a-moqchi bo'ldi-yu, lekin mavridi emasligini sezib, indamay qo'ya qoldi. „Pahlavon Muhammaddin kishini hayratda qoldiraturgan ajib ishlar sodir bo'ladur, tabiatи hazilg'a moyil, lekin bul safargisi obro'sini bir pul qilmasaydi. „Hazil – hazilning tagi zil“, deb bekorga aytmaganlar. Soch-soqolling oqarganda yoshlar bilan sharob ichmoqning oqibati shu. Hay, mayli, eng oldin uni mast-alast saroy ahli ilkidin qutqarib olayik-chi, keyin u bilan gaplashamiz“, deb o'yladi u.

Ko'p o'tmay, Behlul kelib ot egarlog'liq ekanini bildirdi. Navoiy bilan Kushtgiriy „Bog'i Jahon oro“ tomon ot soldirib ketishdi. Chorak soat o'tar-o'tmas saroy bog'i darvozasi oldida otdan tushishdi. Bog' ichidan xushchaqchaq ovozlar, qahqahalar eshitilardi. Navoiy otini hamrohiga berib, dadil ichkari qadam qo'ydi. Amaldorlar, a'yonlar egarlab taxt qilingan otlariga minishga hozirlanib, podshohning chiqishini sabrsizlik bilan kutib turar, pahlavon Muhammad esa boshqa payklar bilan birga tojdorning tipirchilab turgan oti yonida depsinib turardi. U shoirning shaxdam yurib kelganini hammadan oldin ko'rib, esi chiqib ketdi va u bilan salomlashishga botinolmay, yerga qaraganicha qotib qoldi. Alisher esa o'zini ko'rmaganga solib, uning yonidan o'tib ketdi. Kulgilar birdan to'xtab, hamma jimb qoldi. Alisherning salobati shu qadar zo'r ediki, uni ko'rganlar hushyor tortib, o'zlarini chetga ola boshladilar. Bu vaqtda sulton Husayn kiyimlarini almashтирib, ko'shordan chiqib kelayotgan edi. Navoiy to'g'ri uning oldiga borib ta'zim qildi:

– Mirzam, – dedi u hayajon bilan. – Eshik oldida pahlavon Muhammadni ko'rdim. Zoti oliy anga yangi martaba beribdurlar. Pahlavon kaminaning eski qadrdonidur, falokat ayyomida meni yolg'iz tashlab qo'y may, mehribonliq ko'rsatgan erdi. Ul vaqt biz, boshimizga xoh kulfat tushsin, xoh baxt qushi qo'nsin, birga bo'lg'aymiz, bir maviz topsak, bo'lib yegaymiz, ikkovimiz bir ko'nda yurgaymiz, egnimiz ham bir xil bo'l sin, deb ahd qilg'on erdik. Inoyat aylab pahlavong'a payklar egnini kiydiribdurlar. Buyuring, menga ham o'shmundoq sarupo in'om qilsalar, sartaroshni chorlab, soqolimni oldirsam va mirzamning jilovlarida yursam...

Bu gap podshohga boshidan quyib yuborilgan sovuq suvdek ta'sir qildi. Birpasda es-hushi joyiga kelib, qilayotgan ishi bema'ni ekanligini angladi. U bir narsani o'layotgandek, ta'zim qilib turgan Navoiyning soqoliga tikilib qoldi-da, keyin baland ovoz bilan:

– Otimning ustidin egari olinsin. Ko'cha sayriga chiqmag'oymiz, – dedi. – O'yin-kulgi bas qilinsin, shuncha xursandchilik qildik, yetar. Hazil-mutoyibaning dog'i, haddi-hududi bor...

Mehmonlar bu gapdan ketishga ijozat berilganini anglab, xayr-ma'zurdan so'ng birin-ketin jo'nay boshladilar. Sulton pahlavon Muhammadni chaqirib, unga egar-jabdug'i bilan bir ot in'om qilganini bildirdi va darhol ustidagi yaltiroq kiyimni yechib tashlab, o'z kiyimini kiyib olishni iltimos qildi.

– Sizdek og'ir yuklarni pisand qilmaydurgan pahlavon bizning yengil hazilimizni ko'targaysiz, deb o'laydurmen. Har nimaiki shul kecha sodir bo'ldi, unutgaysiz, – dedi u so'zini tamomlab.

Pahlavon undan rozi ekanini bildirish uchun o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qildi.

Kecha qorong'i, dala yo'llari kimsasiz. Podshoh in'om qilgan otni minib olgan pahlavon Muhammad va uning shogirdi Navoiy yonida borar edilar. Ular otlarini asta yo'rttirib ketishar, Navoiy bir gap bilan pahlavonning yarasiaga tegib ketishdan qo'rqqanday „mum tishlab“ olgan edi. Ammo u ba'zan do'stining chala-chulpa soqoli olingan se-

miz yuziga achinganday qarab qo'yar, pahlavon esa uyal-ganidan yerga kirib ketgudek bo'lar edi. Navoiyning chor-bog'iga yetganlarida shoir pahlavonni ichkariga taklif qilmay, xayrlashdi-da, dedi:

– Soqol-murt o'smaguncha ko'cha-ko'yga chiqilmasa, chilla o'ltirib tavorix va mashoyixlarning kitoblarin muto-laaj qilinsa!

– Xuddi ko'nglimdagi gapni aytdingiz, o'la-o'lgunimcha sizdin minnatdormen, – dedi pahlavon titroq ovoz bilan.

HIROT DORUG'ASI

Shoir qo'lini orqasiga qilib, hovlisidagi „binafshazor“ atrofida boshyalang aylanib yuradi. G'ir-g'ir esgan shabada o'z qanotida shaharning shimol tomonidagi pistazor tog'lardan ajoyib xushbo'y hidlarni olib keladi. Havo iliq, osmon beg'ubor, kapalaklar binafshalar ustida qanot qoqadi.

Shoirning taram-taram qizil yuzi mayin tabassum bilan yorishib, xiyol qiyiq ko'zлari kulimsiraydi. Balxda ko'r-gan-kechirganlari qo'rqinchli bir tushdek o'tib, unut bo'lib ketgan, turmushi tekis yo'lga tushgan, sog'lig'i ham yomon emas. Navoiyning sodiq mulozimi Behlul uning xayolini bo'lib, quvonchiga xalal bermaslik uchun o'zini uning nazaridan olib qochadi.

Oradan ko'p o'tmay, ko'cha tomondan: „Meni qo'yib yiboring, Mir hazratlarig'a arzim bor“, degan ovozni eshitib, shoir to'xtadi. Allakim yig'lamsirab gapirar, Behlul bosiq ovoz bilan tinchitishga urinar, ora-sira uning: „Andak sabr qilinglar, istirohatlari buzilmasin, biror soatlardan so'ng keling“, degani eshitilardi.

– Maxdum, kim ul? Nechun ichkari qo'yiamsiz? – deb so'radi shoir qoshini chimirib.

Yoshi qirqqa yaqinlashgan, xipchadan kelgan, yosh yigitlardek chayir Behlul shoirning oldiga shipillab keldi.

– Bir odam arz-dod bila kelibdur, ozroq sabr qilib turing, desam unamaydur.

– Ayting, kirsin, – dedi Navoiy mehmonxona tomon yo'1 olib. U to'rdagi to'rt qavat ko'r pachaga o'tirdi. Yumaloq bo'lishga tirsagini qo'yib, sabr bilan mehmonni kutdi. Ikki-uch daqiqadan so'ng gavdasi biroz bukchaygan, bo'z chopon kiyan o'rtaloshli kishi kirib, ta'zim qildi va kavush yechadigan joyga o'tirdi. Shoir uning salomiga alik olib:

– Xo'sh, xizmat? – dedi, kelgan kishining qizargan ko'zlariga qarab, muloyim ovoz bilan.

– Faqir-fuqaroning shaharda sizdin o'zga pushtipanohi yo'q. Boshimg'a og'ir ish tushib, qoshingizg'a keldim. Yordam ilkini uzating, – shuni deb, u belbog'inining uchi bilan ko'z yoshlarini artdi.

– Ayta bering, boshingizg'a nima ish tushdi?

– Muhammad Chinor qizimni olib ketib, uyida saqlab o'lтирадур. Mahkamasiga borib, qizimni ber, desam, ilkimi orqamga bog'lab, tayoq bila urdi: „Sen o'z mahallang-dagi Pirnazar o'g'ri ni tutib bermasang, o'zingni zindonga solib, uyingni buzaman, aning bila oshnolig'ing bordir“, dedi. Dedim: „Pirnazar bila hammahalla bo'lsam dog'i oshnolig'im yo'qturur. Umrimda ul nobakor bilan bir martaba ham salomlashganim yo'q. Qizimni ber, nomusg'a o'lтir ding!“ – Yig'lasam, tayoq bila urdi. Dorug'a qorong'u tushguncha meni mahkamasida tutib turib, keyin qo'yib yubordi.

Navoiy peshanasini ushlab: „Mirza xizmatida bo'lg'on kishiga nomunosisib ish“, deb o'yladi ovoz chiqarib. U boshqa odamlardan ham shahar dorug'asining shu qabildagi qabih ishlar qilayotganini eshitgan edi.

– Muhammad Chinorning navkarlari bir hafsta avval qo'shnimizning o'n olti yoshli o'g'lonini olib ketib erdilar, – dedi mehmon gapida davom etib. – Porsoxon ko'chada ketayotgan erkan, yasovul ani to'xtatib: „Sen falon ibn falon ermasmuse, seni uch kundin beri izlaydurmen, yur men bilan dorug'a oliga“, deb Muhammad Chinorning hovlisiga boshlab olib boribdur. Fosiq amaldor uchun o'g'ri bahona bo'lib qoldi. El qizi, o'g'lonini ko'chaga yolg'iz chiqarg'oni qo'rqedur.

– Saroyg'a dod deb bormadingizmu?

- Borg'oni qo'rqa durmen. Saroyda dodxoh ishi mirza-ning eshik og'asi Muhammad Valibek ilkidadur. O'g'li usti-dan otasiga shikoyat qilib borsam, meni omon qo'ymas.

Muhammad Chinor Muhammad Valibekning asrandi o'g'li edi, shuning uchun sultonning eng yaqin va ishonchli ulug'beklaridan bo'l mish otasini orqa qilib, hech tap tortmay, ko'ngliga kelgan noma'qulchilikni qilar edi.

„Agar Valibekning arzandasini undog' qilayotir, bundog' qilayotir, deb mirzaga aytsam, Navoiy ulug' begimga va uning o'g'liga qarshi ig'vo qilayotir, degan xayolga borishi mumkin, - deb o'yadi Navoiy, - yo'q, bu ishga o'zim bosh qo'shmay, bu gapni boshqa odam vositasi-la qulog'iga yetkazay“.

- Yoshingiz uzun bo'lsin, dodimizga yetib, yaqomizni zolimning ilkidin xalos eting, o'la-o'lgunimizcha duoyi joningizni qilurmiz, - dedi kelgan kishi, Navoiyning o'yga tolganini ko'rib.

- Sizning ko'z yoshingizni oqizib qo'ymasmiz, bir ilojini qilarmiz, - dedi Navoiy.

Mehmon rahmat aytib, o'rnidan turdi va orqasi bilan yurib chiqib ketdi. Navoiy yolg'iz qolgach, peshanasini ushlab ko'zini yumdi. Chorak soat ilgari ko'ziga yorug' ko'-ringan jahon endi zimistonga aylangan, ko'ngli g'am-alam bilan to'lgan edi. Uning badani uvishib, ikki chakkasi siqib, boshi ogriy boshladi.

„Sulton shaharni Muhammad Chinor singari iflos bir odam ilkiga berib qo'yg'on, qo'lida may kosasi, qulog'iga xushomadgo'ylarning shirin so'zi yoqadur, eski sodlq do'stlaridin xiyonat kutadur. Bo'lmasa nega mening mu-lozimlarimdin birini o'ziga darakchi qilib olib, uyimda bo'lg'on gaplarga qulq soladur. Nahotki, anga xiyonat qiliш mening xayolimga kelsa, shoshma, - Navoiyning yuzi mushkul bir masalani yechish yo'lini topgandek yorishdi. - Topdim! Bul gapni shul darakchi vositasi-la shohning qu-log'iga yetkazgaymen!“

Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin shoir o'z mux-lislari bilan suhbatlashib o'tirganida, Behlul bir odamning kirish uchun ruxsat so'rayotganini bildirdi. Navoiyning

ijozatidan so'ng eshikdan o'rta bo'y, miqti, qo'ng'ir soqol, chag'ir ko'z bir kishi kirib, ta'zim qildi va qo'lidagi tugunni Behlulga berib, pastroqdan joy oldi. Fotihadan so'ng shoir undan nima xizmat bilan kelganini so'radi.

– Sizdek ulug' zotning xizmatlarig'a kirmoq orzusida keldim. Mendek odamni navkar qilib olsalar, jonlar huzur qilur erdi. Ot minmoq, o'q otmoqni bilurmen, yetmish xil taom tayyorlamoq sirridan voqifman.

Shoir uning vajohatiga qarab, qo'shinda o'nboshi yoki yuzboshi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa chiqar, ichki urushlar to'xtagach, ming bir go'laxga kirib chiqqan bo'lsa kerak, deb o'yaldi.

– Ko'rib turibmen, har ishning uddasidin chiqasiz, ammo menga na navkar kerak va na oshpaz. Xizmatimda bo'lg'on mulozimlar yetib ortadur.

– Hay, attang! Ne umidlar bila kelgan edim, toleyim past ekan, mayli. Mir janoblari, hech bo'lmasa keltirgan sovg'amni olib qoling.

Navoiy bosh irg'agandan keyin Behlul tugunni yechdi, ichidan bir kalla qand, hal bilan yozilgan Qur'on va bir kamon chiqdi.

Negadir bu kishining o'zi ham, sovg'asi ham Navoiyga yoqmagan edi. Bilinar-bilinmas peshanasi burishib ketdi, lekin mehmonni xafa qilmaslik uchun muloyimlik bilan:

– Ism-shariflari nedur? –deb so'radi.

– Ahmad.

– Padari buzrukvorlarining otlari Tojiddin emasmu?

– Yo'q, nomlari Abdulkose erdi.

– Men adashibmen, boshqa odam ekansiz. Xo'sh... boyamen sizga aytdim, bizga navkar kerak emas deb. Bizning eshikda baribir yilig'a uch yuz tangadin ortiq maosh ololmaysiz. Agar maqsadingiz yormoq topmoq bo'lsa, sizga mundog' maslahat berurmen. Menga keltirgan bu nimarsalarni sotib, o'n tangaga arabi tugmador, qirq tangaga zarbof kamar, o'n tangaga xanjar, yigirma tangaga jingila mo'y bo'rk xarid etib, ustingizni rostlang, dastingizga arg'uvoni yatoq olib, o'zingizni yasovul qiyofasig'a soling dog'i, bozor boshida turing. Qarshingizdin xushsuvrat bir yigitcha kela-

yotganin ko'rsangiz, ani to'xtatib: „Hoy yigit, seni tongdin beri izlab yuribmen, yaxshiki, o'zing ko'riniq qolding, seni shahar dorug'asi istagan erdilar, yur men bila“, deb bilakidin ushlang. Ul yigit yalinib-yolvorib, sizni bir go'shaga chorlar va kissasidin o'n besh-yigirma tanga chiqarib o'zini xalos aylar. Ani qo'yib yuborib, yana joyingizga borib turing. Oldingizdin bir sohibjamol qiz o'tsa, ani to'xtatib, yigitga aytgan so'zlarining anga ham aytin. Shoyad qizning otasi sizga oltmis-yetmis tanga berib, qizini nomusdan qutqarib olsa... Shu yanglig' yiliga besh-olti ming tanga daromad qilsa bo'lur.

Dasturxon ustida o'tirganlar shahar dorug'asining ishlarini yaxshi bilar erdilar, ular Navoiyning paytdan foydalaniq, dardlarini aytayotganini fahmladilar. Mehmon esa, Navoiyning kayflari yomon vaqtida kelib qolibman, birovning alamini mendan olayotirlar, deb o'ylab o'rnidan turdi. Behlul esa, qizim senga aytaman, kelinim sen eshit, qabili-da so'z qildilar, deb shoirga qoyil qoldi.

Sulton Husayn hujrayi xosida zarbof to'shak ustida o'ng tirsagini yumaloq yostiqqa tirab xayol suradi. Qovoqlari salqigan qiyiq ko'zlarida o't chaqnaydi, go'shtdor yuzida g'azab alomati, titrab turgan qo'lida naycha qilib o'ralgan qog'oz - Navoiyning uyidagi ayg'oqchisi yozib yuborgan ma'lumotnoma.

Butun shaharda Muhammad Chinor to'g'risida duv-duv gap yursa-yu, podshoh bexabar bo'lsa! Bu alam qilmaydim! Beklaridan biri oldinroq kelib, uni ogoh qilsa, podshohga isnod keltirgan fosiq amaldorning chorasi ko'rgan bo'lur edi. Valibekning o'g'lini esli-hushli yigit deb adashgan, qo'ylarni bo'riga topshirganini bilmay qolgan ekan.

Sulton Husayn g'azabiga chidolmay, Chinorni chaqirtirib kelib, jallod qo'liga topshirmoqchi bo'ldi. Biroq o'zini bosib olib, bu gaplarning qanchalik to'g'rilingini surishtirib bilmoqchi bo'ldi. Shahar dorug'asining uyidagi darakchisi uning buzuqligi to'g'risida bu mahalgacha lom-mim demagan edi. Bunga qisman o'zi ham aybdor: u arboblarning hayot kechirish tarzi, maishati bilan qiziqmagan, faqat ular-dan xiyonat sodir bo'lmasmikan deb qo'rqqan. Amaldor har

qancha sodiq bo'lsa ham, hukmdor ularning yurish-turishi-ni ko'zdan qochirmasligi kerak ekan.

Shularni o'ylab, darakchilar vositasi-la shahar dorug'a-sining maishati haqida ma'lumot toplashga jazm qildi. Oradan ikki kun o'tgandan keyin ular Navoiyning gaplarini tasdiqlovchi xabarlar keltirdilar. U darhol Muhammad Valibekni chaqirib, shunday dedi:

– Asrandi o'g'lingiz haddin o'tib, nomunosib ishlar qilib yuribdur. Siz jilovidin tortib, ani jinoyat yo'lidin qaytar-mog'ingiz va bizni bu ishlardin ogoh qilmog'ingiz lozim erdi. Ul nobakor diyonat ipini uzib, fisq-fujur vodiysida o'y-nab yuribdur. Agar zulm yelining oldini olmasak, fuqaro-ning yondirgan chirog'in so'ndirur...

Valibek sultonning og'zidan asrandi o'g'lining kirdi-korlarini eshitgach, hayron bo'lgandek ko'zini katta ochib, qotib qoldi. Keyin ertadan kechgacha uyida bo'lmagani uchun bu gaplardan bexabar qolganini, beparvoligi uchun o'zi ham javobgar ekanini aytib, uzr so'radi. Jinoyatkor o'g'li ham, uning jinoyatlarini payqamay qolgani uchun o'zi ham mustahiq ekanini izhor qildi.

– Amrimiz shul, – dedi sulton Husayn jiddiyat bilan, – Muhammad Chinorni yalang'och badanig'a yuz tayoq urib, Hirot viloyati xorijig'a chiqarib yiborilsin va podsholiq xizmatig'a kirmoq haq-huquqidin mahrum etilsin.

Bir chekkada chordana qurgan, o'ng tizzasiga qog'oz qo'yib, o'ng qo'lida qalam ushlab turgan munshiy farmoni oliyni darj etdi.

Muhammad Chinor ichkarigi xonada bir odamni so'roq qilayotganida yasovuli oldiga kelib, saroydan ikki kishi ke-lib, qabulxonasida o'tirg'anini bildirdi.

U qo'lini yuvib kelib, Do'lana bilan Bo'danani ko'rди-yu, devordek oqarib ketdi. Bu ikki odam sultonning jallodlari edi.

– Yuring, biz bila saroyg'a! – dedi g'o'labur Do'lana, taxta bo'lib qolgan shahar dorug'asiga.

– Yangi tugmadorimni kiyib olay, – dedi u etagiga qon sachragan eski kamzuliga qarab.

– Yo‘q, sizni kutib o‘tirmoqqa vaqtimiz yo‘q, yuring.

Muhammad Chinor noiloj ularning oldiga tushishga majbur bo‘ldi. Ko‘chada ularni soyabon arava kutib turardi.

Saroy darvozasi oldida arava to‘xtagach, ikki jallod uni kiraverishdagi yasovulkxonaga olib kirib yechintirdi. Muhammad Chinor indamay tirsaklarini yerga tirab, ko‘kragini yerga berib yotib oldi. Bo‘dana oyog‘idan ushlab turdi, Do‘lana esa uning yo‘g‘on bo‘yniga butun og‘irligini solib minib oldi-da, o‘ng qo‘lining tirsagini biqiniga mahkam tirab, behi tayog‘i bilan yalang‘och badaniga yuz martaba sanab urdi...

Muhammad Chinor poytaxtdan quvilgandan so‘ng xalq yengil nafas oldi. Kattadan kichik shaharni ofatdan qutqargani uchun Navoiyni duo qilar edi.

Shoir qilgan ishidan xursand bo‘lsa ham, lekin ko‘ngliga kichik bir bulut parchasi soya solib turgandek tuyulardi. Xizmat so‘rab eshigiga kelgan bir kishini xafa qilib yuborganidan xijolat tortardi: „O‘zi ham Muhammad Chinorning kirdikorlaridin g‘azablanib yurgen vaqtimda eshigimga keldi. Bo‘lmasa anga boshqacha muomala qilg‘on bo‘lur edim. Hay attang. Dorug‘aning qilmishlarini shoh qulog‘iga yetkazmoq uchun boshqa bir vosita topsam bo‘lmasmi erdi!“

Kechqurun ovqatdan so‘ng shoir o‘z mulozimini chaqrib:

– Maxdum, bundin ikki hafta burun xizmat so‘rab kelgan kishi qay mahallada istiqomat qiladur, bilurmisiz? – deb so‘rab qoldi.

– Ahmad binni Abulvosemi? – Behlul kulimsirab dedi. – Ani mening xizmatkorim tanir ekan, hammahalla emish...

– Yaxshi. Siz shu bugun anga sakson tanga eltib bering. Alisherbek yuboribdilar, deng. Hol-ahvolini so‘rang. Agar beish yurgen bo‘lsa, bir ish topib bergaymiz.

– Savob ish bo‘lur. Ijozat bersalar, hozir aning evipa borib sovg‘angizni berib kelayin.

– Shundog‘ bo‘lsin.

Qo‘l-oyog‘i chaqqon Behlul Navoiy bergen tangalarni bir hamyonga solib, binni Abulvosenikiga jo‘nadi.

HADDIDAN OSHGAN BAKOVUL

Navoiy qal'a tashqarisidagi chorbog'idan shaharga ba'zan piyoda kelar edi. Bir kuni u Feruzobod darvozasi-dan kirib kelayotgan edi, arabiylar mingan bir guruh otliq-ning shahardan chiqib ketayotganini ko'rib, o'zini chetga oldi. Kumush yugan urilgan, kejim solingan arg'umoqlarni gijinglatib kelayotgan yosh chavandozlarga qarab: „Mirza Husayn kelayotir shekilli“, deb o'yadi. Otliqlar ketidan eg-niga yengsiz tugmador, boshiga qorako'l terisidan papax kiygan yasovullar qo'llaridagi arg'uvoniy tayoqlarni o'ynatib, xalqni chetga surar va orqadan kelayotgan taxtiravonga yo'l ochar edilar. Darhol yo'l chetiga chiqishga ulgurolma-gan yoki qochib qololmagan odamlar boshiga tayoq kelib tushar edi.

Qimmatbaho toshlar bilan bezalgan va to'rt barno yigit yelkalab olgan taxtiravonda podsho emas, balki uning bakovuli Mirhoji Pir kelardi. Bakovulning egnida zar yoqali, etaklari gavharlar bilan bezalgan ajoyib to'n, boshida ming baxiya shaftoli gul taqya, qo'lida arg'uvoniy tayoq, ikki beti mosh yegan xo'rozdek qip-qizil. Taxtiravon ko'targan yigit-lar bir necha qadam yurib to'xtab qolishar, oldinda kelayot-gan ikki shoyi to'nli olifta yigit oltin qadahga sharob quyib, gerdayib o'tirgan Mirhoji bakovulga uzatar edilar. Bakovul qadahlarni bo'shatgandan keyin, taxtiravon yana xushsurat yigitlar yelkasi uzra asta suzib ketar edi.

Navoiy ko'zlariga ishonmay, hayron bo'lib, bosh bar-mog'ini tishlaganicha qotib qoldi. Birozdan keyin o'ziga kelib: „Olloh, olloh bu ne razolat, – dedi. – Kuppa-kunduz kuni Husayn mirzaning eng kichik mulozimi xaloyiq ko'z o'ngida sharob ichayotir. Bundan chiqadi-ki, mirzaning mulozimlari boyib, ostonalari oltundan bo'lib ketgan“.

.. Shoir bir to'da eski chopon, juldur kiyimli kishilar yonida siqilib turar edi.

– Mansabdorlar totlig'-totlig' yeb, turli-tuman kiyina-durlar, ichganlari sharob, – dedi Navoiyning yonginasida turgan yalpoq yuzli bir kishi.

– Sultonning xazinasiga tushgan yormoq va diramlarni mulozimlari zoye qilmoqdalar.

– Ilkidagi qadahda uzumning suvi ermas, ulusning qoni...

– Ilayo, ichgan mayi ani tamug‘ning to‘riga eltsun...

Shoir indamay odamlarning gapiga qulqolar, ichida ularning gapini ma’qullar edi, chunki ular shoirning dilidagi gapini aytayotgan edilar.

„Axir bu la’nati bakovul podsholiqni sharmanda qilmoqda, Husaynning obro’sini to‘kmoqda-ku. Yuqori tabaqa amaldorlar ichida boshlang‘on bu axloqiy buzg‘unlikning oldini olmoq kerak, sultonni bu rasvoliqdin ogoh qilmoq kerak!“ Shu fikr lip etib uning miyasidan o’tdi. U jahlini bosolmay, tez-tez yurib ketdi.

Bugun shoir saroya bormoqchi emasdi, uch kun ilgari Husayn mirza huzurida bo‘lib, u bilan suhbatlashgan edi. Bugun bakovulni ko‘rgandan keyin u bilan albatta uchrashish zarurligini payqab qoldi. Biroq saroya yaqinlashganda yurishni sekinlashtirib, qiladigan ishining oqibatini o‘ylay boshladи. Sultonga bu gap boshqacha ta’sir qilishi, „Navoiy mening mulozimlarim ustidin shikoyat qilib, alarni menga yomon ko‘rsatmoqchi“, deb o‘ylashi mumkin edi. Yo‘q, yaxshisi, uyg‘a qaytish kerak! Axir bu gaplar podshoning qulog‘iga yetar.

U orqasiga burilib, asta yurib ketdi. Xayol daryosida suzib, Saripulga yetib borganini ham bilmay qoldi. Bu ko‘chada Bobo Piriy degan bir devona turar, u o‘tgan-ketgan shoyi, zar choponlilarni ayamay so‘kar edi. Navoiy vazirlik vaqtida ham bir necha marta uning so‘kishini eshitgan va o‘zini eshitmaganga solib o‘tib ketgan edi. – Shu sababdan u Saripul ko‘chasidan yurmaslikka harakat qilardi. Bugun esa o‘z xayoli bilan bo‘lib, shu ko‘chaga kelib qolganini payqamadi.

Devona Navoiyni ko‘rishi bilan vaysab ketdi:

– Sen ham o‘tar erkansen ilayimdin. O‘zing haftum falakdin qaro yerga tushding, vale ayoqing ostidagi tamug‘ni payqamaysen. Ko‘zlaring ochiq bo‘lsa dog‘i, hech nimani

ko'rmaydur, qulqolaring hech nimani eshitmaydur, – Navoiy shartta burilib orqasiga qaytdi. Devonaning:

– Qayt, qayt, bu yo'lingdin qayt, he, seni... – deb so'kib qolganini eshitdi. Devonaning haqoratlari unga qattiq botgan edi. U alamiga chidolmay, mushtini qattiq siqb, sekin ingradi va saroy tomon yo'l oldi. Boya jur'at etmagan ishni endi qilishga qaror qildi. „Soxta andishani yig'ishtirib qo'y, Navoiy, – dedi u o'ziga. – Agar buzg'unlikning oldi olinmasa, bakovuldin ibrat olib, boshqa kichik amaldorlar ham shu noma'qulchilikni qilg'oylar!“

Sulton Navoiyni mammunlik bilan qabul qildi. Hol-ahvol so'rashgandan keyin, qo'l qovushtirib o'tirgan shoirning kirtaygan ko'zlariga, siniqqan rangiga sinchiklab qarab:

– Ahvollari parishon ko'rindur, yo bir yeringiz og'rib turibduri, yoki birov sizni ranjitgan, – dedi.

– Yo'q, sog'-salomatdurmey, kayfim yaxshi.

– Rosti bila aytin, bir narsadin xafa bo'lg'on ko'rindursiz, – dedi ziyrak va hushyor Husayn mirza.

– Bil'aks, bugun xursandmen, katta-kichik mulozimlar ringiz bari sizdin minnatdor, chunki inoyatingizdin sipohlarning davlati ziyoda, ishlari ulug' bo'ldi. Bu faqir Feruzobod darvozasidan kirayotganimda, buning shohidi bo'ldim.

Navoiy shoshmasdan Mirhoji Pir bakovulning dabdaba bilan shahar darvozasidan chiqib ketayotganini shunday batafsil bayon ettdiki, Husayn mirzaning ko'ziga yasovullarning tayoq bilan xalqni chetga surayotgani, sernaqsh taxtravon ustida o'tirgan bakovulning chiroyli yigitlar qo'lidan sharobi nob ichayotgani ko'rini ketdi.

– Kaykovus va Xisrav Parvez qilmog'on hashamat va dabdabani bizning shohimizning eng kichik bir mulozimlari qilg'onidin behad xursand bo'ldim, – deb gapini tamom qildi Navoiy.

Husayn bu gapni eshitib, ichiga chumoli kirib qolgan kishidek, sabrsizlanib qimirlab qo'ydi-da, Navoiyning so'zini ma'qullagandek bosh irg'atdi va rangi qum o'chib, gapni boshqa yoqqa burdi. Suhbat vaqtida o'zini xuddi cho'g' ustida o'tirgandek his qildi. U goh qizarar, goh bo'zarar, yu-

rak-bag'rini o'rtayotgan g'azab o'tiga zo'rg'a chidab turardi. Navoiy uning qay ahvoldaligini payqab, suhbatni tezroq tutgatishga shoshildi.

Shoir chiqib ketishi bilan Husaynning qo'r ostida yotgan g'azab o'ti alangalanib ketdi, baland ovoz bilan eshik og'asini chaqirib buyruq berdi:

– Bo'dana bila Do'lana darhol Mirhojini tutib keltirsinlar!

U harsillab gapirar, qo'llari titrar edi. Oradan chorak soat o'tar-o'tmas rangi qum o'chgan, ko'zları javdiragan bakovulni sudrab keltirdilar.

– Ha, zuluk! Xazinani so'rib semirib ketdingmi? Mol-dunyo quturtirib yibordimi seni? Yoshurg'on oltunkumushing ko'bmi deyman!.. Men bilmay bo'rini bakovul qilib olg'on erkanman... Yechib oling ustidagi jomasin!

Haybatidan odam qo'rqa digan devsifat Bo'dana tiz cho'kib turgan bakovulning ustidagi qimmatbaho jomasini shartta yechib oldi-da:

– Mirzam, to'nin so'yib oldim, ijozat et, emdi ayoqidan osib tiriklayin terisini ham shilib olayin! – dedi.

– Rahm eting mirzam! Bir qoshiq qonimdin keching! O'la-o'lgunimcha eshicingizda... it kibi poyloqchiliq qilay, – deb ingradi bakovul jon-jahdi bilan va sudralib borib Husaynning oyog'ini o'pdi.

Sulton Mirhojining bu pastkashligidan o'ng'aysizlanib, oyog'ini tortib oldi-da, peshanasini tirishtirdi. Chuqur bir nafas olib:

– Mayli, qoningni o'zingga bag'ishladim, – dedi. – Eavaziga yoshurg'on barcha oltun, kumush va javohirlaringni xazinag'a topshirg'oysen, keyin yana so'zlashurmiz.

– Jonim bila... butun mol-mulkimni topshirg'oymen, – dedi bakovul o'ziga kelib.

Sultonning navkarlari Mirhoji Pirning uyidan bir talay kumush tanga, zarb qilingan oltin, dastasi qimmatbaho toshlar bilan bezalgan pichoq, xanjar, qilich, la'l, zabarjad topdilar va o'zini qal'aga qamab qo'ydilar.

XOJA DEHDOR HANGOMASI

Bir kun juma namozidan keyin Xoja Dehdor salom berib kelib qoldi. Navoiy endi sallasini mulozimi Behlulga berib, gulzorning bir chetidagi supada dam olib o'tirardi.

– Vaalaykum assalom, Xoja! Yaxshiki, o'z oyog'ingiz bila kelib qoldingiz, sizga odam yubormoqchi erdim, – dedi shoir xiyol qiyiq ko'zlar bilan kulimsirab.

Misqoli sallasini peshanasining o'ng tomoniga dol qo'ygan, oyog'iga saxtiyon mahsi va eshak terisidan tikilg'an ko'k sag'ri kavush kiygan mehmonga boshdan oyoq razm solib, jiddiy qiyofada:

– Xoja, agar riyozat bila kun kechirsangiz, chindin ham sohibi karomat bo'lur edingiz, – dedi Navoiy.

– Riyozat va zuhd-taqvog'a kaminaning tobi yo'q. Men uchun yaxshi ulfat, shirin suhbat, sharob to'la jom va laziz taom bo'lsa, bas.

– Men sizning kelishingizni bilganday qo'y-u qo'zi so'ydirib qo'yg'on erdim, – dedi.

– Ulug' ish bo'libdur. Ijozat bersinlar, kamina quyruq moyi, qo'zi eti va piyozni qo'shib, murch-u bodiyon bila dimlab qozon kabobi pishiray, mazasi mehmonlarning og'zida qolsin.

– Janoblarini ovora qilmoqni istamaymen. Bu ishlarni oshpazga qo'ya bering. Siz mehmonlar bilan mashg'ul bo'ling. Men yosh qalamkashlardin uch-besh kishini chorlog'on erdim.

– Ulug' ish bo'libdur. Taqsir, mehmonlar kelgunicha dona surib tursak...

– Satranjni ertaga qo'yib turayiq. Mehmonlar kelish oldida xayolimizni asbga mindirib parishon qilmayiq.

Ular u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Yosh qalamkashlardan bir nechasi kelib, suhbatga qo'shildi. Oradan ko'p o'tmay, kutilmaganda sulton Husayn ulug' beklaridan Muhammad Valibek va uch-to'rt navkari bilan kelib qoldi. Navoiy shoshib qolib, ularni ko'chada emas, daryoza oldida kutib olishga zo'rg'a ulgurdi, shoirning ne-ne mehmon-

larni kutib o'rganib qolgan mulozimlari ham, yosh qalam-kashlar ham esankirab qolishdi.

Navoiy darhol o'zini tutib olib, podshoning salomiga alik oldi va qo'l qovushtirib, shahanshoh eski do'stlarini eslab, bandaxonaga tashrif buyurganlaridan boshi osmon-ga yetganini izhor etdi va tojdor mehmonni mehmonxona-ga boshlab, to'rga solingan to'rtburchak baxmal to'shakka o'tqazdi. Uning hamrohlari va Navoiyga tegishli odamlar o'z o'rinalarini topib o'tirganlarida, sulton fotiha tortib:

– O'z oyog'i bilan kelgan atoyi Xudo! – deb qo'ydi.

– Xonamg'a haqning rahmati yog'ilgan kun erkan. Yer yuzini sug'orib turgan bahor bulutlari orasidan go'yo qu-yosh chiqdi-yu, ko'nglimizda shodlik chechaklari ochildi. Qadamlarig'a hasanot!

Mirza Husayn uy egasidan minnatdor ekanini bildirish uchun bilinar-bilinmas bosh irg'ab qo'ydi.

Mulozimlar dastsho' va qumg'on keltirib, mehmon-lar qo'liga suv quydilar, keyin dasturxon yozib, non, tar meva, qand-qurs bila to'la barkashlarni keltira boshladilar. Mirza Husaynning o'ng tomonida o'tirgan Navoiy darhol non sindirib:

– Marhamat qilsinlar, – dedi.

Mehmonlar avval nonga qo'l cho'zib, keyin anjir, uzum, olmurud va boshqa mevalardan yeb o'tirdilar. Boshda gap gapga qovushmay turdi. Oraga cho'kkon og'ir sukunatni buzib, Husayn o'tgan shoirlar haqida gap ochdi:

– Janoblari mavlono Ansoriyning „Ilohiynoma“ otlig' kitoblarini sotib olibdurlar, deb eshittdik, – dedi u Navoiyga yuzlanib.

– Rost, bir kun kotib Xoja Abdullo mavlono Ansoriy-ning noyob kitobin qoshimg'a kelturib erdi. Mazkur Xoja kitob olib sotmoq bila mashg'uldur. Kamina ul risolaning avval sahifasin ochib, o'qimoqqa boshladim va tugaguncha ilkimdin qo'ymadim.

– Shundog' noyob kitobingiz bor ekan, siz ham mashg'ul bo'ling, deb bizga yubormabsiz, – ginaxonlik qildi sulton Husayn.

– Kamina munosib sovg'alar bila zoti oliylarig'a yubor-moqchi erdim, o'zлari kelib qoldilar.

Shu bilan gap bo'linib qoldi. Birozdan keyin Husayn shoir Qosim Anvor qasidalarini maqtay ketdi:

- Biz ba'zan aning ash'ori, alalxusus qasidalari bila mashg'ul bo'ladurmiz. Anvorni lisonilg'ayb desa bo'lur. Ma'ni arusini hech bir shoir Anvor kibi yasatmagan, rango-rang libos kiydira bilmagan.

Navoiy uning so'zini tasdiqlab, shu chog'gacha bunday otashnafas shoir bo'limganini aytdi. Ichida: „Afsuski, mavlono Jomiy bu yerda emaslar, bo'lsalar, o'z fikrlarini aytib, majlisga jon kirgizar edilar“, deb o'yadi, qulay fursat topib, mavlononing uylariga odam yuborishga Mirzo Husayndan ijozat so'ramoqchi bo'ldi.

Sultonning so'l tomonida o'tirgan, umrida bir kitobni qo'liga olib oxirigacha o'qib chiqmagan Muqammad Valibek bilan eshik og'asi esnashdan o'zlarini zo'rg'a tiyib o'tirishar, qachon suhbat mavzuyi jang va ov ustiga ko'char ekan, deb bezovta bo'lishardi. Podshoning nogahondan tashrif buyurganidan o'ng'aysizlangan Navoiyning mulozimlari va yaqin do'stlari ham qisilib-qimtinib o'tirishardi. Buni ko'rib Navoiy xijil bo'lar, tojdor mehmonning ko'ngli uchun zo'rma-zo'rakili boshlangan she'r bahsiga jon kirgizishga tirishardi. Biroq gapning qalovi kelmay, suhbat gulxani hadeb so'nib qolaverardi.

Oradan ko'p o'tmay, o'rtadagi barkashlarni olib keta boshladilar. G'oz kabobi, qovurma, kobiliy sho'rvaning xushbo'y hidi kelib dimog'ga urila boshladi. She'r, qasida to'g'risida gap ochib majlisga jon kirgizolmay qiynalgan sulton Husayn yengillanib nafas olib, eshik oldida turgan Behlulga qarab kuldi.

- Maxdum, sizni musallas solurg'a usta deb eshitamen, suzib qo'yilg'onidan bor chiqar.

- Oriy, mirzam. Kamina bu bobda maqtansa arziydur. Agar lutf-karam aylab, ahboblar bila bir-ikki piyoladin no'sh etsalar... o'zimni baxtiyor sanagaymen.

Navoiy sharobdan gap ochilganidan mustar bo'lib, yerga qarab qoldi. U Behluldan xafa bo'lindi, chunki sulton shu to'g'rida og'iz ochgandan keyin uning bir-ikki piyola sharob taklif qilishi juda to'g'ri edi. Biroq u endi mavlono Jomiyni

chorlab bo'lmasligini o'ylab, achindi. Sharob ichilgan joyga u kishini chaqirish o'taketgan beadablik bo'lardi.

Mirza Husaynning so'l tomonida zerikib o'tirgan Muhammad Valibek sharob haqida gap ochilganda jonlanib, qimirlab qo'ydi.

Saroy sharobdori dahlizda Behlul suzib qo'yan sharobdan bir qultum ichib: „Shohlar ichsa arzigudek erkan“, deb maqtadi. Behlul uning ko'z oldida bir piyola ichib oldi-da, chinni piyolani to'ldirib, podshoga yaqinlashdi, o'ng tizzasini yerga qo'yib, ikki qo'li bilan uzatdi. Husayn no'sh etib mo'ylovini artdi-da:

– Sharobi nob bo'libdur. Ota nasihatidek achchiq va foydali, ammo nasihatning ham ozi yaxshi, – dedi. Bu, bir piyola bilan bas qilaylik, degan gap edi. U Navoiyning bir piyoladan ortiq ichmasligini yaxshi bilardi. Qolganlar, shu jumladan, Navoiy, bir piyoladan ichib olganlaridan keyin sernaqsh tabaqlarda kabob va qovurmalarini keltira boshladilar. Ishtahasi ochilgan mehmonlarni „oling-oling“ deb qistashga hojat qolmadi.

Mirza Husaynning ikki beti qizargan, ustidagi ko'k shoyi choponi olov tekkanda ko'm-ko'k bo'lib yonadigan o'tkir araq shu'lasiga o'xshab tovlanardi.

O'rtadagi tabaqlar yig'ishtirilib, dasturxonga fotiha o'qilgandan keyin Navoiy:

– Boya mavlono Jomiy hazratlarining nasibalarini olib qo'yinglar, deb tayinlagan erdim, agar ruxsati oliy bo'lsa, bir kishi bila yuborilsa... – dedi.

– Yaxshi qilibsiz. Istar erdimki, mavlononing hissalarini Xoja Dehdor elitsa. Mavlono bir kun bizga, „Xoja Dehdorni ko'rsam, xursand bo'lurmen va menda hazil-mutoyibaga mayl paydo bo'lur“, deb aytib erdilar.

Quyiroqda o'tirgan Dehdor darhol o'rnidan turib, qo'l qovushtirdi.

– Xoja, ne sababdin boyadan beri uningiz chiqmaydur? deb so'radi Husayn.

– A'lo hazrat, taom yemak bilan mashg'ul erdim.

– Oldingizga taom kelganda ahboblarni unutasiz erkan-da!

- Kaminada shul qusur bor, ma'zur tuting.
- Darhol amrimizni bajo keltirsangiz, uzringizni qabul qilurmiz.
- Xizmat kamari doim belimda, - deb Xoja ta'zim qildi-da, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Mehmonlar kulib qolishdi.

Mavlono Abdurahmon Jomiy hassasiga tayanib mehmonxonadan tushib, ichkariga kirib ketayotgan edi. Dasturxonga o'rog'liq chinni tog'orani ko'tarib darvozadan kirayotgan Dehdorni ko'rib, hovli o'rtasida to'xtadi. Saksonga yaqinlashib qolgan mavlono Jomiy hali anchagina tetik, jikkak, nuroni chol edi. Qomati biroz bukchaygan, paxtalik chopon ustidan uzun belbog'ini besh-o'n martaba aylantirib bog'lab olgan, uzun hassasi boshidan bir qarich baland ko'tarilib turar edi.

- Qadamlarig'a hasanot, keling, Xoja, - deb kului u salomiga alik olgandan so'ng. - Nechuk Xudo yorlahadi?

Dehdor Navoiyning uyiga aziz mehmonlar kelganini gapirib:

- Janoblarining nasibalarini yubordilar, - dedi.
- Soz bo'libdur. Qani, mehmonxonaga marhamat. Xoja mezbonning orqasidan ergashib mehmonxonaga kirdi. Qarama-qarshi o'tirib yuzlariga fotiha tortganlaridan so'ng dasturxon ochishdi. Ziravorlar bilan pishirilgan taomning hidi mehmonxonani tutib ketdi.
- Qani, marhamat, - deb mezbon ovqatga qo'l cho'zdi. - Iya, nechun olmaysiz?
 - Taqsir, qornimni to'yg'izib kelgan erdim.
 - Yeganingiz yo'lda tushib qolg'on chiqar. Qani, oling, bo'lmasa men ham yemaymen.
 - Qornim ochmog'on bo'lsa dog'i, ko'nglingiz uchun tanovul qilermen. Siz bila bir tabaqdin ovqatlanmoq savob erur, - deb yesa toshni ham hazm qilib yuboradigan Xoja quyruq moy bilan biqin go'shtini tushira ketdi. Mavlono dumba moyni uning oldiga itarib, moysizroq go'sht parchasini tanlab yer va bir narsalarni o'ylab, xiyol jilmayar edi.

Dasturxonga fotiha o'qilgach, Xoja ketishga ruxsat so'radi.

– Andak sabr aylang, omonatni olg'onimga „tilxat“ yozib berayin, – deb kului mavlono va bir varaq qog'ozga bir narsalarni yozdi-da, ikki buklab, Dehdorga uzatdi.

Xoja „tilxat“ni olib ravona bo'ldi. Yo'lda bir necha marta olib o'qigisi keldi-yu, lekin o'zini bosdi. „Birovning maktubini o'qimoq odobdin emas, sabr qilay“, dedi.

Navoiy podshoni qasrigacha kuzatib qo'yib, uyiga qaytib kelgan, endi dam olib o'tirar edi. Xoja: „Men eltgan nimarsalarni olg'onlarig'a mavlono tilxat berdilar“, deb shal-diroq qog'ozni uzatdi. Shoir qog'ozga ko'z yogurtirib, kulib yubordi:

Mavlono bul ruboiyni menga ermas, sizga aytibdurlar, o'qing, – deb „tilxat“ni qaytarib berdi, Xoja Dehdor qog'ozni hurmat bilan o'ng qo'liga olib, boshini so'l tomonga, orqaroqqa tashlab o'qidi:

*E xoja, maro zi lutfi xud parvardi,
Zovardani pushti dunba farbeh kardi,
Pushti dunbaro ba rag'bat xo'rди,
Burdi ba shikam onchi bapushт ovardi!¹*

O'qib bo'ldi-yu, qornini silab kulib yubordi. Navoiy ham o'zini kulgidan tiya olmadi. U ko'pdan buyon bunday miroqib kulmagan edi. Xira bo'lib turgan ko'ngli g'ubordan to-zalanganday bo'ldi.

– Xoja, buni menga bering, ul hazratning muborak qalamlari tekkan bul varaqni asrab olib qo'yay.

– Jonim bila. Agar imkon topsam, yana ul kishini tavof qilib, shu yanglig' bir ruboiy keltirurmen.

Navoiy Abdurahmon Jomiy haqida xotirotlarini yozmoqchi edi, shuning uchun bu ruboiyni xuddi ko'z qorachig'iday asrab yurdi.

¹ Ey xoja, menga luft karam etdingiz,
Kart dumba ila siylab xurram etdingiz.
Qo'yning orqasin yeb, orgalab kelgan
Yukni qorningizda olib ketdingiz.

Oradan ikki-uch hafta o'tgach, yana Navoiyning uyi-ga mehmonlar keldi. Bu safar Dehdorning o'zi qo'zi eti va quyrug'ini piyoz bilan dimlab, ajoyib ovqat tayyorladi. Mehmonlar ketgach, Navoiy Xojaning bergan va'dasini esi-ga soldi.

– Bir tog'ora go'sht elitib, mavlonodin yana to'rt misra she'r olib kelsalar, – dedi kulib.

– Jonim bila. Sizdin bir ruboiy qarzdorlig'im xotirimda. Qarzimni uzmaguncha ko'zimga uyqu kelmas.

„Bu safar nafsimni tiysam, mavlono Jomiy nima deb yo-zarlar?“ deb o'yladi Dehdor yo'lida, dasturxonga o'rog'liq chinni tog'orani ko'tarib ketar ekan.

Mavlono Xoja Dehdorni xursandlik bilan kutib olib, kel-tirgan taomini birgalashib yeyishga taklif etdi.

– Taqsir, men qornimni to'yg'azib kelgan erdim, o'zları yeyaversinlar.

– E, bu safar ham qorningizda, ham yelkangizda yuk bila kelibsiz, sizga jabr bo'libdur. Ayting-chi, qayerlarda qorningizni to'yg'izdingiz?

Xoja bu savol nima maqsadda berilganini tushunol-may, ajablanib:

– Navoiy hazratlarining uylarida, – dedi.

– E! – deb qo'ydi mavlono miyig'ida kulib. So'ng-ra yog'siz yumshoq go'sht parchalaridan tanlab yeb, qor-nini to'yg'izgandan keyin o'g'llarini chaqirdi. Ichkaridan nimjon, rangpar bir yigit chiqib, mehmonga salom berdi va chinni tog'orani ichkariga olib kirib ketdi.

Xoja Dehdor, quruq ketmasin, deb ichiga non solingan tog'orani dasturxonga o'rab, o'rnidan turganida, mavlono kulimsirab:

– Shoshmang, bir qit'a yozib beray, – deb bir varaq qog'ozga ushbu to'rtlikni yozdi:

*Ba Dehdor guftam-ki bardor baxsh,
Az on sufra kaz vay bor afroshtam,*

*Zi insof dam zad kaz on baxshi man,
Hamon baski dar roh bardoshtam¹.*

Xoja Dehdor bir lahzada yozilgan bu qit'ani o'qib, qattiq kulib yubordi.

SANDIQ SOAT

Navoiyning kitoblari ko'payib ketgandan keyin ularni tartibda saqlash uchun bir kitobdor kerak bo'lib qoldi. Unga Muhammad naqqosh degan bir kishini tavsiya qildilar.

Muhammad naqqoshning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q edi. U tosh va yog'ochga o'yib naqsh solar, chilangirlik, duradgorlik, muqovasozlik va hokazolarni bilar edi. U Navoiyning taklifini jon deb qabul qildi.

Bir kun shoirning uyiga yaqin do'stlari kelgan edilar. Mehmonlardan Xoja Dehdor tokchaga tizilgan chinni lagan va ko'ralarni tomosha qilib:

– Chinni asboblar yasamoqda hech kim xitoylarga bas kelolmaydur, – dedi. – Alarning hunariga qoyil qolmasdin iloj yo'q...

– Rost, – dedi Navoiy unga boqib. – Xitoy fag'furi (chinnisi) olamg'a mashhurdur, ammo hafsalalar, bizning ustalar ham o'shandog' chinni asboblar yasay biladurlar. Bizda chinni yasamoq uchun kerakli oq loy, ohaktosh va hokazolar bor.

– Odam yasagan narsani odam yasay biladur; – deb gapga aralashdi quyiroqda o'tirgan Muhammad naqqosh.

– Borakallo, – dedi Navoiy kulib. – Men sizdin shul gapni kutgan erdim. Siz mohir bir kulol topib, shul ishga kirishsangiz, Xitoy ustalaridin o'tkazib chinni idishlar yasay bilar erdingiz.

– Keling, hoji Muhammadg'a oq fotiha berayik, Hirotning oq loyidin bizga fag'fur idish-oyoq yasab bersin, – dedi Xoja Dehdor.

¹ Ovqatni yeb bo'lib, dedim Dehdorga:
„Siz ham yeng, men oldim o'z nasibamni“.
Insofga kelib, u dediki menga:
„Yo'lida olgan edim tuz-nasibamni“.

Do'stlarning daldasi Muhammad naqqoshni g'ayrat-lantirib yubordi. U o'ziga o'xshagan ishchan va mohir bir kulolni topib, ishga kirishib ketdi. Ikkovlon yeng shima-rib, ohaktosh va allaqanday shaffof ko'k toshlarni hovon-chada yanchib, elakdan o'tkazdilar, ohanrabo yordami bilan uni temir zarralaridan tozalab, keyin suvga qorib, rosa pishitdilar. So'ogra bu loydan kulol dastgohida lagan, ko'ra, boshqa buyumlar yasadilar va ularni xumdonda pishirdilar. Muhammad naqqosh ko'kish toshlarni maydalab, elakdan o'tkazdi va unga allanimabalolarni qo'shib, „sir“ tayyorladi, idishlarni sirlab, shunday naqsh berdiki, ularni xitoy chin-nilaridan ajratib bo'lmas, chertsangiz jaranglar edi.

Muhammad naqqosh shu ish bilan ovora bo'lib yurganda ko'ngilsiz bir hodisa yuz berdi. U Navoiyga zarur bo'lib qolgan bir kitobni tokchadan olaman, deb uni devor tagidagi soat ustiga tushirib yubordi. Soat to'xtab qoldi. Navoiy bundan xabar topib, qattiq xafa bo'ldi-yu, lekin indamadi. Naqqosh uni tinchitish uchun:

– Ishlarimdin bo'shaganimdin so'ng soatni tuzatib ber-gaymen, – deb va'da qildi.

Oradan bir necha kun o'tgach, shoир naqqoshni chaqirib:

– Siz menga bir soat qarzdorsiz, – dedi hazil aralash.
– Kecha men Muborizbek evida mehmon bo'lg'on erdim. Farangistondin kelgan savdogarlar anga sandiq shaklidagi bir soat sovg'o qilibdurlar. Ilgari arablar bundin yaxshiroq soatlar yasar ekanlar, keyin bul hunarni xotirdin chiqorg'onlar. Ilm-u hunar qo'ydek adashib, faranglar qo'liga o'tib ketibdur, emdi yo'qolg'on qo'yni qaytarib olmoq lozim.

Navoiy „sandiq soatni“ batafsil tasvirlab, naqqoshga xuddi shunday bir soat yasashni taklif qildi. Muhammad naqqosh indamay yerga qarab qoldi.

– Ha, nega uningiz chiqmay qoldi? Bul ishga qo'l urmoqqa yuragingiz dov bermayotirmi? Ko'z qo'rqaq, qo'l botir, deganlar.

– Agar yaxshi bir temirchi bo'lsa, yasay bilamiz, – dedi naqqosh o'ylanqirab. – Bir usta bor, Sarbonali degan. O'zi

temir, po'lat, jezdan qilinaturgan jami buyumlarni yasay biladur, ammo o'lgudek pulga o'ch odam...

– Biz puldin qochmaymiz, shul ish bitsa bas, – dedi Navoiy. – Boring, o'shal temirchi bila kelishib, sandiq soatni ko'rib, andoza olib keling. Men sizga bir maktub yozib beray. Agar shuni uddalay olsangiz, tarixda nomingiz qolg'ay.

Navoiyning so'zi naqqoshning g'ayratiga g'ayrat qo'shdi. U bilagini shimarib, ishga kirishib ketdi...

Oradan ikki-uch oy o'tgandan keyin temirchi bilan naqqosh og'ir bir „sandiq“ni ko'tarib, Navoiyning mehmonxonasi to'riga tik turg'izib qo'yishdi. O'sha kuni kechqurun Navoiy naqqoshning hunarini ko'rsatish uchun o'zing yaqin do'stlarini taklif etdi.

Soat rappa-raso yetti bo'lg'onda sandiqning qopqog'i jaranglab ochildi. Sandiq ichida temirdan yasalgan bir haykal tik turar edi, u qo'lidagi temir tayoq bilan oldidagi yassi mis parchasiga yetti martaba urdi va eshik yopildi.

– Ofarin!

– Hoji Muhammad benazir usta, – deyishdi mehmonlar yoqalarini ushlab.

Har soat sandiq ochilib, ichidagi haykal, masalan, soat ikki bo'lg'onda ikki, uch bo'lg'onda uch martaba jom chaladur va hokazo, – deb izoh berdi Navoiy xursand bo'lib.

KITOBDORNING XATOSI

Navoiyning uyi suv quygandek jimgit, hamma oyoq uchida yurar, bir-birlari bilan shivirlashib gapirishar edi. Shoirning o'zi hech kimni ko'rishni istamay, hujrasining eshigini ichidan berkitib olgan, bugun huzuriga hech kimni kiritmaslikni buyurgan edi. Uning sodiq mulozimi Beh-lul har qancha ehtiyyot qilsa ham, goh bir narsaga turtinib ketar, goh biror buyumni qo'lidan tushirib yuborib, labini tishlab qolar edi.

Navoiyning kitobdori hoji Muhammad naqqosh o'z buyumlarini yig'ishtirib, bu uyni tark etishga hozirlanardi. U ayb ish qilib qo'ygan boladek yerdan ko'zini uzolmas, birovning betiga tik qaray olmas edi.

Bundan ikki oycha ilgari shunday hodisa ro'y bergan edi.
Navoiy kitobdorni huzuriga chaqirib:

– Xoja Dehdorg'a Jomiy hazratlarining devonlarini ber-
ring. Ani boshqa sovg'alar bilan Ya'qubbekka yubormoqchi-
miz. Dehdor bizdin Tabriz sultonina elchi bo'lib boradur,
– degan edi.

Kitobdor bosh egib chiqib ketdi. Keyingi vaqtarda
uning butun fikr-zikri yangi bir soat yasash bilan band edi.
Shuning uchun o'z xayoli bilan bo'lib, Navoiy aytgan kitob
o'rniغا boshqa bir kitobni – Ibn Arabiyning „Futuhoti Mak-
kiya“ degan kitobini elchiga berib yubordi, chunki Jomiy
devoni bilan Ibn Arabiy kitobining muqovasi bir xil, ustki
ko'rinishidan bu ikki kitobni bir-biridan ajratib bo'lmas edi.
Xoja Dehdor ham kitobni ochib qaramay, uni boshqa qim-
matbaho buyumlar orasiga joylab qo'ydi.

Sahrolar, vohalar, olag'ovur bozorli shaharlar, suv quy-
gandek jimgit qishloq ko'chalaridan o'tib, bir navkari bilan
Dehdor Tabriz shahriga yetib keldi. Turkman sultoni uni
uzoq kuttirmay qabul qildi.

Ya'qubbek hali yosh bo'lsa ham, eron va arab tillarini
yaxshi bilar, barcha turkiy tillarda yozilgan kitoblarni o'qib
tushunar edi. U o'zidan ilgari o'tgan turkman sultonlaridek
Hirotga qarshi dushmanlik siyosatini yurgizmas, aksin-
cha, Husayn Boyqaro bilan do'stlik shevasida so'zlashishga
urinardi. Navoiyning sharofati bilan Hirot va Tabriz o'r-
tasidagi aloqa iplari kundan kunga mustahkamlamoqda
edi. Ya'qubbek Navoiyga ixlosmand bo'lib, uning g'azalla-
rini yodlab yurardi. O'z poytaxtida shuncha mashhur shoirlar,
san'atkorlarni to'plagan sulton Husaynga havasi kelib,
u bilan yaqinlashishga, har qadamda unga taqlid qilishga
urinardi.

Husayn Boyqaro Alisher bilan turkman sultoni bir-bir-
lariga sovg'a-salom yuborib turishlaridan xabardor, ular-
ning do'stligidan o'z mavqeyini mustahkamlash uchun
foydalinishga harakat qilar edi. Shoир G'arbiy Eron bilan
Xuroson o'rtasidagi eski adovatlarning ko'tarilishiga yor-
dam qilayotgani unga ayon edi.

Ya'qubbek o'zbekcha, turkmancha so'zlarni aralashtirib, eng oldin Husayn Boyqaroning, keyin Alisherning sog'ligini so'radi va elchining yo'lda qanday kelganini surishtirdi:

– Yo'lda hormadingizmi? Yuragingiz siqlimadimi?

Dehdorning ikki beti qip-qizil, safar unga yoqqani bili-nib turardi.

– Yo'q, a'lo hazrat, charchamadim, zerikmadim ham, yo'lda hamrohim bor edi, – dedi sultonning turkmancha qilib qirdirgan qop-qora soqoliga qarab.

– Yo'ldoshlari kim o'ldi ekan, bilsak bo'lurmi?

– Mavlono Abdurahmon Jomiy hazratlari!.. Ya'qubbekning taajjublanganini payqab, qo'shib qo'ydi: – To'g'risi, ul kishining g'azallari. Ul zoti bobarakotning devonlarin Alisherbek janoblaridan sovg'a qilib keltirdim. Yo'lda zeri-kkanimda – ul muqaddas kitobni ochib, hikmat xazinasi bo'lg'on she'rlarni o'qir, ko'nglim bul foniy dunyo tashvish-larin forig' bo'lib, abadiyat shul'asi bila munavvar bo'lur erdi va...

Ya'qubbek uning tumtaroqli so'zlarini oxirigacha eshitib, qo'lidan kitobni oldi va birinchi sahifasini ochib, rangi o'zgarib ketdi, ko'zlarini javdiratib, shosha-pisha kitobni varaqlay boshladи. Yo'lда topib oлган hamyonidan tilla emas, mis chaqa chiqib qolgan kishidek lablari so'ljaydi. Keyin Xoja Dehdorga tikilib qarab qoldi: „Navoiyning elchisi meni kalaka qilayotir“, degan fikr keldi xayoliga va qoni qaynab ketdi. Boshqa odamning elchisi bo'lganda bu mahmadona kimsani zindonga yubortirardi. Lekin ulug' Navoiyning yuborgan elchisini hurmatsizlash shoirning o'zini hurmatsizlash. U fikr-mulohaza bilan o'z g'azabini so'ndirishga urindi. Ehtimol, elchi o'zining qanday kitob olib kelganidan bexabardir. Eng oldin bir sinab ko'rish kerak.

– Janoblari, yo'lda rostdan ham, mavlono Jomiyning g'azallarini mutolaa etib keldilarmi?

Ya'qubbekning avzoyidan katta bir xatoga yo'l qo'yganini payqab qolgan Dehdor shubhaga tushib:

– Tilkingizdag'i kitob mavlono Jomiy hazratlarining kuliyyotlari emasmu? – deb so'radi. Uning rangi o'chgan, ko'zlar ola-kula edi.

– Yo‘q. Ibn Arabiyning „Futuhoti Makkiya“si. Siz yo‘lda gazal dagul, tavorix kitobi o‘qib kelgansiz...

– Yo‘lda hech nima o‘qimadim... Zoti oliy meni kechir-sinlar. Vojab! Kitobdor hoji Muhammad ilkimga boshqa kitobni tutqizg‘on erkan. Ochib ham qaramabdurmén, – deb peshanasiga urdi Dehdor. – Buning ustina siza yolg‘on so‘zlarni aytdim. Befahmligim, yolg‘onchiligidan uchun har qanday jazoga mustahiqmen. Men eshak bo‘lmasam, kitobni ochib qaramasmu erdim. Axtachiga buyuring! Og‘zimga yukan solib, meni eshaklar yonig‘a bog‘lasin. Men huzurin-gizda beadablik qildim...

Ikki daqiqa ilgari ikki beti qip-qizil, ko‘kragi kerilgan, ko‘zlarida ishonch chaqnab turgan Xoja Dehdor birpasda suvga tushgan nondek bo‘kib qoldi. Ya’qubbek uning devordek oqargan yuziga, bukchaygan qomatiga qarab:

– Agar ulug‘ shoirning vakili o‘lmasaydingiz, – xuddi siz talab etgan jazoni berajak edim, siza boshqa bir jazo o‘ylab qo‘ydim... jazosina, – deb miyig‘ida kului-da, biroz to‘xtab, so‘zida davom etdi: – Olti oylik bir qo‘zining etini yegaysiz, terisidan janoblarina cho‘girma tikdirib berayin.

– Bu men uchun jazo ermas, ulug‘ mukofot. Kamining purishtaho ekanligidan xabarlari bor ekan-da. Shunday, siz aytg‘oningizdek bo‘lsin. Podshoning amri vojib...

Ya’qubbek kulib, kitobdorini chaqirtirdi. Novcha, oriq, echkisoqol kitobdor kirib ta’zim qildi-da, sulton uzatgan kitobni peshanasiga tegizdi va uni varaqlab, boshini ko‘tar-di. Uning chehrasida, „Bul kitob bizning kitobxonada bor-ku“, degan gap yozilgan edi. Ya’qubbek bu ifodani uqib, unga qattiq tikilib qo‘ydi. Chol bu qarashning ma’nosini anglab, aytadigan gapini yutib, bosh egdi-yu, chiqib ketdi.

Xoja Dehdor maqtanchoq bo‘lsa ham, tanti, mard, ichida sir saqlamaydigan odam edi. Tabrizdagи bema‘ni maqtanchoqligi esiga tushganda, uyalganidan yerga kirib ketgudek bo‘lsa ham, bu ishni Navoiydan yashirishni o‘ziga ep ko‘rmadi. Agar bu gaplarni shoir boshqa odamdan eshitsa, u vaqtida Hirotda bosh ko‘tarib yurolmasligini bilardi.

U Hirotga qaytgandan so'ng, Navoiyga Ya'qubbekning nomasi va sovg'alarini topshirar ekan:

- Hoji Muhammad huzurida sizga aytaturgan gapim bor, - deb qoldi.

„Bir ishkal chiqmadimikin?..“ - deb xavotir olgan Navoiy darhol kitobdorni chahirtirdi. Uchalalari bir yerga to'planganlaridan keyin Xoja Dehdor Tabrizda bo'lган gaplarni ipidan ignasigacha gapirib berdi. Navoiyning gapirishga ham majoli qolmay, yerga qarab qolganini ko'rgach:

- Men har qandog' jazoga loyiqlen. Buyuring, ylang'och badanimg'a elliq-ołtmish tayoq ursinlar, - dedi.

- Jazo bila bu sharmandalikni yuvib, tayoq bila qiling'on xatoni tuzatib bo'lmash, - dedi shoir tilga kirib. - Ikkiningiz bir bo'lib, mening shoximni sindirdingiz. Siz-ku mayli, lekin hoji Muhammad kabi serhafsala odamdin bu yanglig' ishning sodir bo'lg'onig'a hayronmen...

Shoir gapini tamomlay olmay, boshini ushlab qoldi. Uning yuzi bo'riqib, ikki chakkasi lo'qillab og'riy boshladidi, ko'zi tinib, atrofidagi narsalar charx urayotganga o'xshardi. Xoja Dehdor uning ahvolini bilib, darhol yostiq keltirdi, yotqizib, boshini asta uqalay boshladidi.

Hoji Muhammadning ko'ziga ham dunyo tor ko'rinish ketdi. Qani endi yer yorilsa-yu, kirib ketsa...

U kitobxonada uh tortib, u yoqdan bu yoqqa yurar ekan, hafsalasizligi uchun o'zini o'zi koyir, soqolining mo'yularini bittalab yular edi. „Men o'lgur, kitobni Dehdorga bermoq-din avval ochib qarasam o'larmi erdim. Hay, attang, emdi Navoiyning ko'zlariga qandoq qarayman. Bul uyda qandoq qilib bosh ko'tarib yuradurmen. Shoир har safar meni ko'rganlarida Tabrizda yuz bergan xunuk voqeа yodlariga tushib, ko'ngillari buziladur, yaxshisi, ul janobdin javob so'rab, o'zimga boshqa joy axtaray...“ deb o'ylar edi. Uzoq mulohazadan so'ng, u shu qarorini amalga oshirmoqchi bo'ldi. Ko'pdan buyon Badiuzzamon uni xizmatiga chorlayotgan edi.

Navoiy uning iltimosini diqqat bilan tinglab, uzri o'rinali ekanini payqadi va unga javob berib yubordi.

Mavlono Abdusamad juda xushxat kotib va mohir naqqosh edi. U yozgan xatni kishi tomosha qilib to'ymas uning qalami bilan ko'chirilgan devonlarni qo'lga olib varaqlash kishiga zavq bag'ishlar edi. Sahhoflar katta pul to'lab, ustozi shoirlarning devonlarini unga ko'chirtirar va foydasiga sotar edilar. Xullas, bu kotibning bozori chaqqon edi.

Abdusamad kotibning ta'rifini eshitgan Navoiy bir kuni uni o'z huzuriga chaqirtirib, mavlono Jomiyning devonlari ni ko'chirib berishni taklif etdi va har misraga bir tangadan pul va'da qildi.

Oradan uch oy o'tgach, kotib Abdusamad topshirilgan ishni bajarib, va'da qilingan pulni olib ketdi. Shoir devoni varaqlab o'zida yo'q xursand bo'ldi. Kotib har bir so'zni marvarid kabi satrlar ipiga mohirlik bilan tizgan edi.

Ustozini xursand qilish uchun shoir kitobni qo'ltinglangancha Jomiyning uyi tomon yo'l oldi. Mavlono odatdagidek, boshida oq do'ppi, egnida kiftaki yaktak, mehmonxonasida bir arabiylar kitobni mutolaa qilib o'tirardi. Navoiy eshikdan kirib salom berishi bilan kitobni xontaxta ustiga qo'yib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Shogird qartayib qolgan ustozning inqillab o'rnidan turishiga yo'l qo'ymay, borib ko'rishdi. Hol-ahvol so'rashgach, Navoiy joylashib o'tirib olib, devonni mezbonga ikki qo'llab uzatdi-da:

– Har nechuk bir ko'zdan kechirib chiqilsa, yaxshi bo'lur erdi, – dedi. – Iltimos shulki, agar fursatlari bo'lsa, muqobala qilinsa – asl nusxasiga solishtirsa... kotib g'alat ko'chirgan bo'lsa ajab ermas.

Kitobni qo'lga olib varaqlar ekan, mavlono Jomiyning ajin bosgan yuzi yorishib, nursizlangan ko'zlari yiltiradi.

– Mavlono Abdusamadni xushnavis der erdilar, aytganlaricha bor ekan. Agar tab'i xatig'a monand bo'lsa, muqobalag'a hojat qolmaydur, har qalay, bir-ikki kun munda turzin, ko'zdin kechirali, – deb u o'z suhabatiga xalal yetkazmasin degan maqsadda kitobni tokchaga qo'ydi va boshqa mavzuda so'z ochdi...

Ertasiga kechqurun Navoiy ustozinikiga borganda uning avzoyi boshqacharoq ekanini ko'rib, hayratda qol-

di. Jomiyning qoshlari chimirilgan, bir narsadan norozidek peshanasi tirishgan.

– Mavlono Abdusamad shakl uchun mazmunni qurbon qilibdur, – dedi u, ko'rpachaga o'tirib yuzlariga fotiha tortganlaridan keyin, – o'zi nihoyatda xushxat bo'lsa dog'i, ko'p yerlarni g'alat ko'chiribdur. Xatosiz misra, g'alatsiz matla yo'q. Ba'zi yerlarda bir-ikki misrani tushirib qoldirib-dur.

Navoiy o'ng'aysiz ahvolga tushib, „Mavlono Abdusamaddin bul ishni kutmagan erdim“, deb g'o'ldirab qo'ydi va ustozи uzatgan kitobni varaqlab, uning kiritgan ba'zi bir tuzatishlariga ko'zi tushdi.

– Agar sizning muborak qalamingiz bila isloh topsa, bul kitob kamina uchun noyob bir yodgorlik bo'lur erdi, – dedi u jilmayib.

– Agar tilagingiz shu bo'lsa, devonni boshdin ayoq ko'rib chiqib, isloh qilayin, – dedi Jomiy, eng qadrli do'stining so'zini yerda qoldirmay.

Oradan bir necha kun o'tdi. Navoiy o'z binafshazorida aylanib yurgan vaqtida Jomiyning o'g'li salom berib kir-di-da, qo'lidagi kitobni uzatdi. Shoir o'z ustozining qo'li bilan isloh qilingan devonni olib, varaqladidi-yu, jilmayib qo'ydi. Jomiy har bir misraga deyarli tuzatish kirgizgan, tushib qolgan satrlarni kitobning hoshiyasiga yozib qo'yan edi. Garchi uning xati xattotlikni o'ziga kasb qilib ol-gan Abdusamadning xatidek bejirim bo'lmasa-da, Navoiyning ko'ziga juda chiroyli ko'riniib ketdi. Kitobning eng oxirgi varag'ida mavlono quyidagi hazilomuz qit'ani darj etgan edi:

*Xushnavise chu orazi xo'bon
Suhanamro ba xatti xub orost.
Lek harjo dar o'zi sahv qalam
Goh chizi fuzudu, gohi kost.
Kardam islohi on man az xati xesh
Garchi nomad chunonchi dil mexost.*

*Har chi o' karda bud bosuxanam
Ba xati o' qusur kardam rost!*

Navoiy bu parchani zavq bilan o'qib kulib qo'ydi. Ya'qubbek bir oycha ilgari yozgan xatida Navoiydan eng yaxshi ko'rgan kitoblaridan birini yuborishni iltimos qilgan edi. Shoир unga sovg'a uchun mavlono Jomiyning o'z muborak qalami bilan isloh etilgan shu devondan bo'lak kitob topolmadi. Xoja Dehdorning qo'liga bu kitobni topshirib, yana uni Tabrizga jo'natdi. Navoiyning elchisi suvsiz cho'llar, ko'kalamzor vohalar, xaroba qishloqlar, olag'o-vur shaharlarni bosib, Tabrizga yetib keldi. Dam olib o'ziga kelgandan keyin yuvinib-taranib, sultonning dargohiga qadam ranjida qildi. Ya'qubbek uni uzoq kuttirmay qabul qildi. Ro'parasida yana chertsa ikki betidan qon tomadigan Xojaning ta'zim qilib turganini ko'rgach, uning o'tgan safargagi maqtanchoqligini eslab, kulgidan o'zini arang tutib qoldi. Navoiyning nomasini o'qigach, elchiga yaqinroq kelishni buyurdi. Xoja Dehdor yukunib, uning taxti oldiga bordi va qo'lidagi kitobni uzatdi. Sultan kitobni olib varaqlar ekan, yuzida iliq tabassum paydo bo'ldi, viqorli jiddiyligidan asar qolmadi. Ayniqsa so'nggi varaqdagi qit'ani o'qib, o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi, uch martaba o'qib, uni yod olvolgandan keyin Jomiyning qo'li bilan yozilgan satrlarini ko'ziga surtib: – Men umrimda hech kimsadan bu qadar qimmatbaho sovg'a olmamish edim, – deb qo'ydi.

ISTE'DODLI YOSHLAR PUSHTIPANOHI

Mirhoji bakovul jazosini tortib, podsho dargohidan quvilgandan keyin amaldorlar biroz ehtiyyotkor bo'lib qoldilar. Ular endi ko'chada o'zlarini sipo tutar, odamlar ko'z oldida may ichmas, boyliklarini ko'z-ko'z qilmas edilar, ammo fisq-fujur ishlarini pinhoniy ravishda davom ettiraverdilar.

¹ U xushxat kotib so'zlarimni go'zallar yuziday bezabdi. Lekin qalami xato yurib, goh bir narsa qo'shibdi, goh kamaytiribdi. Garchi ko'ngil tilagan holga kelmasa ham, o'z qalamim bilan isloh qildim. So'zlarim ustida qancha uringan bo'lsam ham, uning xatiga xalal yetkazdim.

Navoiy haddidan oshgan ayrim amaldorlarni jilov-lash mumkin bo'lsa-da, ularning ko'pchiliginin insof bilan ish yuritishga o'rgatish mumkin emasligini allaqachon tushungan edi, shunday bo'lsa ham qo'lidan kelgancha fuqaroga yaxshilik qilishni qo'ymas edi. Ba'zan orzularining yuzdan birini ham ro'yobga chiqmayotganini ko'rib, yuragi siqlar, o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Shunda u o'zini ovutish uchun she'r va san'at oshiyoniga chiqib, nafosat gulzorini tomosha qilar, shu bilan atrofida sodir bo'layotgan xunuk hodisalarni unutmoqchi bo'lar edi. Xususan, Kamoliddin Behzod ishlagan suratlarni ko'rganda bahri-dili ochilib, dimog'i chog' bo'lib ketardi. Bu gal ham shundog' bo'ldi. Qo'llari qizlarnikidek nozik Kamoliddin uzatgan suratni tomosha qilarkan, shoirning xiyol qiyiq ko'zlaricha qaznab, qizil mag'iz yuzi yorishib ketdi. Bir varaq yaltiroq ipak qog'oz sahifasidan yo'g'on gavdali, lablari do'rdoq, ikki beti semirib ketganidan quloqlari go'sht ichiga botib ketgan, qip-qizil yuzli bir kishi qarab turar edi. Navoiy suratni ko'rib, beixtiyor kulib yubordi. Mirza Huyaynning jangovar beklaridan bo'lgan Bobo Mahmud ajoyib odam. U semizligiga qaramay, epchil chavandoz, mohir qilichboz, tengi yo'q mergan edi. Hammadan shunisi qiziq ediki, yo'l yurib, ot choptirib kelganda ham boshqa semiz odamlar singari harsillamas, tomiri xuddi yaxshi soatdek bir maromda urib turar edi. O'zi xushchaqchaq, oqko'ngil kishi bo'lib, ko'nglida kir saqlamas, askiya qilib, ulfatlar majlisiga jon kiritar edi. Yosh musavvir uning shakl-shamoyilinigina emas, ichki dunyosini ham aks ettira bilgan edi.

– Ofarin! – dedi yana shoir xushchaqchaq ovoz bilan, So'ngra boshqa suratlarni tomosha qilishga kirishdi. Navoiy buyuk shoir va adiblarning asarlarini o'qigandagina shunday hayajonlanardi.

– Siz tortg'on suratlarni ko'rganda latofat gulshanidin muattar bodi sabo kelgandek bo'lur dimog'img'a, – dedi u qarshisida tiz cho'kib o'tirgan oriq yuzli Behzodga kulib qarab. – Borakallo. Kotib va musavvirlarning baxt yulduzi Atorud sizni taxti himoyatig'a olibdur. Mehnat sizni yuksak kamolot bosqichig'a olib chiqib, riyozat yomg'uri muddao sahrosini lolazor qilibdur.

Shoir hayajonlanganda shunday ko'tarinki va kitobiy so'zlarni ishlatar edi.

– Maqtovlaringizdin boshim osmoni haftumga yetdi. Yaxshiki siz bor ekansiz, bo'lmasa holim nima kechar edi. Ruhim umidsizlik chohiga tushganida siz ko'mak ilkini uzatib, faqirni tortib olg'aysiz, – dedi Behzod unga minnatdorchilik bilan qarab.

– Sizdek hunarvar yigitlarga har qancha yordam bersa ham ozlik qiladur. Iste'dod egalariga yordam – serunum yerga don sochmoq bilan barobar. Ammo sizga bir so'z aytay. Iste'dod niholining kushandalari, hasadgo'ylari ko'p bo'lur. Ehtiyyot bo'ling.

– Rost aytdingiz, ilki daroz odamlar arosida bizdek faqir hunar egalarini ko'rolmaydurganlar ham bor erkan. Fahmimcha, Shoqosim Nurbaxsh menga hasad ko'zi bilan qaraydur. Sultonning menga iltifoti aning yuragiga rashk o'tin solg'on bo'lsa kerak. O'tgan kuni meni uchratib: „Qi-yomat kuni siz tortg'on suratlar, bizga jon topib ber, deb etagingizdan tutsalar, na qilursiz?..“ – deb so'rab qoldi.

– Siz nima deb javob berdingiz?

– Men aytdim: modomiki, qiyomat qoimda ul suratlar tilga kirib, ushmundog' so'zlarni aytg'on ekanlar, demakki jonlari bor, alarga ikinchi jonning keragi yo'q.

– Borakallo, o'rinalatib javob beribsiz, – deb kului Navoiy. Kuldi-yu, bir narsani o'ylab xomush bo'lib qoldi. – Shoqosimg'a Husayn Mirzoning e'tiqodi zo'r. Ul makkor soxta avliyodin har ish keladur. Sizga bir nima demadimi?

– Yo'q. Un chiqarmay, qoshlarin chimirib, mendin uzoqlashdi.

– Bundog' odamlardin qo'rmoq kerak. Bizning zamonda mansab egalari oldida gap topolmog'on kishidek bo'yin egib turmoq ma'qul. Hozirjavoblig' kishining boshig'a balo keltiradur. Tili o'tkirning boshida doim o'tkir qilich osig'liq. Kamtar bo'ling!

– Bilganimda aning oldida qo'l qovushtirib, yerga qarab turgan bo'lur edim. Emdi ul soxta avliyo payimga tushmasaydi, deb qo'rqamen.

Husayn Boyqaro yoshi qaytgandan keyin Shoqosim Nurbaxsh singari bir qallob „piri murshid“ga ixlos qo'yib, unga murid bo'lgan edi. Navoiy va uning yaqin do'stлari bu nufuzli soxta avliyonи o'lgudek yomon ko'rardilar-u, lekin o'z nafratlarini ochiq izhor qilishga jur'at etolmas edilar. Ammo bir kun Navoiyning do'sti – Muhammad Shams boplab uni tuzlagan edi.

Yoz kunlarining birida Muhammad Shams bir ish bilan Navoiynikiga keldi, mezon bilan salomlashgandan keyin uning orqasidan ergashib, chorbog'ning o'rtasiga qurilgan chodir ichiga kirdi. Sallasini o'rtadagi ustunga ilib, Navoiy bilan satranj o'ynashga kirishdi.

Shu vaqtida shoirning mulozimi Shoqosimning kelganimdan darak berdi. Muhammad Shams o'rnidan turib, sallasini boshiga kiyib oldi. Navoiy unga „Nurbaxsh“ga hazil qilmang“, deb tayinladi. Ammo Shoqosim chodirga kirib:

– Ajoyib xirgoh (chodir) ekan, – deyishi bilan Muhammad Shams o'ylab-netib o'tirmay:

– Taqsir, siz kelmasdin burun xirgoh edi, siz kirkach, xargoh (eshak og'ili) bo'ldi, – deb javob berdi.

O'tkir askiyachi bo'lgan Muhammad Shamsning o'qi mo'ljalga tekkan edi. Lekin soxta avliyo o'zini eshitmagan-ga solib dedi:

– Keyingi vaqlarda qulog'im og'ir bo'lib qolg'on, bir narsa dedilarmi?

– Ha, taqsir, chodirimizg'a qadam ranjida qilg'oningiz uchun sizni muborakbod qilayotirmen, – dedi Muhammad Shams.

Navoiy podshoning piri bilan so'rashib, uni e'zoz bilan to'rga o'tirg'izdi.

Shoir bundan bir yil ilgari bo'lib o'tgan bu gapni eslab kuldi-da:

– Qo'rqmang. Agar tortg'on suratlaringiz Husayn Mirzoga ma'qul bo'lsa, Shoqosimning tili qisiq bo'lib qolg'ay, – dedi. – Xususan, Bobo Mahmudning rasmini mirzam ko'r-

salar, xushvaqt bo'lg'aylar. Siz o'shal semiz bekning turli vaziyatdagi suratlarini oling...

Suratkashlik san'atidan xabardor shoirning maslahatlarini rassom jon qulog'i bilan tingladi. U Navoiyning uyidan chiqarkan, yuragidagi tiniq ilhom bulog'inining ko'zi ochilib, qaynay boshlaganini sezdi.

Behzod ketgandan keyin shoir bir necha yil ilgari Behzodni birinchi martaba ko'rganini esladi. U bir kuni saroyda naqqoshlar ishlab turgan xonaga kirgan edi. Podshoning o'ng qo'l vaziri bo'lgan Navoiyni ko'rib, naqqosh va mu-savvirlar o'rinalidan turib ta'zim qildilar. Navoiy ularning salomiga alik olib, o'tirishlarini so'radi. Naqqoshlar orasida o'n olti-o'n yettiga qadam qo'ygan notanish bir yigitchani ko'rib, hayratda qoldi. Yigitcha oltin suvi tayyorlab o'tirardi.

– Bul yigit kim? – deb so'radi Navoiy Mirak naqqoshdan.

– Bir tanishimning o'g'li. Ismi Kamoliddin. Rahmatlik otasi bechorahol bir hunarmand erdi. Yetim qolg'on o'g'li hunar o'rgansin, deb o'zima shogird qilib oldim.

– Ishga rag'batি yaxshimu?

– Yaxshi. Hunarga ishqiboz, mehnatkash bola erkan.

– Andog' bo'lsa, savob ish qilbsiz, Mirak.

Navoiy yosh yigitning tepasiga kelib, uning ishini tomosha qila boshladi. Kamoliddinning barmoqlari nozik va toza yuvilgan edi. Naqqosh va kotiblar ishga o'tirish oldidan qo'llarini kepak bilan yaxshilab yuvar edilar.

Behzod toza yuvilgan chinni idishning tagiga va yonlariga baliq yelim surtardi-da, unga yupqa oltin parchasini solib, ikki barmog'i bilan ishqalay boshlardi, oltin zarralar-ga aylanib erib ketgandan keyin unga ozgina sof suv quyib, qo'li bilan aylantirar, chinnining chetidagi yelimni yuvib tubiga tushirar, so'ng idishning qopqog'ini yopib qo'yar edi. Eriqan oltin chinni idish tubiga o'tirgandan keyin ortiqcha suvni asta to'kib, oltin ustiga ozgina olcha yelimi quyardi. Oltin suvi endi tayyor bo'lgan, unga qilqalamni botirib, kitobning muqaddimasiga naqsh solsa bo'lar edi.

Oradan bir oycha vaqt o'tgandan keyin Navoiy yana naqqoshlar va musavvirlar xonasiga kirdi. Bu safar Behzod surat chizishga o'rganayotgan edi. U ustozi chizib bergen bir surat ostiga qalin ipak qog'oz qo'yib, uning chetlarini va asosiy chiziqlarini o'tkir igna bilan sanchib chiqdi. Keyin suratni bir chekkaga olib qo'yib, oq qog'oz ustiga ko'mir kukunini aylantirib sepib, uni puflab tashladi. Ko'mir kukuni igna uchi tekkan chuqurchalarda qolib, suratning shakli yaqqol ko'zga tashlandi. Behzod ingichka qo'rg'oshin qalam bilan suratning tarxini chizib chiqdi. So'ngra qo'liga mushuk junidan yasalgan ingichka qilqalamni olib bo'yay boshladi. Shoir uning har bir harakatini diqqat bilan kuza-tib turdi.

– Ofarin! – deb yubordi Navoiy, Behzod ko'chirgan rasm asl nusxasining xuddi o'ziday chiqqanini ko'rib. Shu payt shoir hamma ishni yig'ishtirib qo'yib, rassomlikni o'rgangi-si kelib ketdi. Suratkashlikka uning qobiliyati bor, hayvon-larning rasmini torta bilardi, lekin musavvir bo'lmoq uchun ishni yoshlikdan boshlash kerak. Afsuski, yoshlik davri o'tgan. Navoiy chuqur xo'rsinib qo'ydi. U Mirak naqqoshga o'girilib:

– Mavlono, Kamoliddinga alohida e'tibor bering, – dedi.
– Og'ir ishlarni qilmasin, chelakda suv tashib yoki o'tin yo-rib ilki dag'allashmasin.

– Bosh ustiga, – dedi naqqoshlar boshlig'i, vaziri azam yosh musavvirni o'z himoyatiga olganini payqab.

* * *

Bir kuni Behzodning uyiga uning shogirdi Mahmud Muzahhib kelib: „Husayn Mirzo sizning tortg'on yangi suratlaringizni ko'rmoq istaydur“, dedi.

Navoiy do'stlari orasida Behzod ishlagan yangi rasm-larni maqtagan edi. Bu gap ko'p o'tmay, Husayn Boyqa-roning qulog'iga borib yetdi va darhol musavvirning uyiga uning shogirdini yogurtirdi. Behzod Bobo Mahmud bilan uchrashib, uning bir necha rasmini chizgan va ularni boshqa suratlar bilan birga podshoga taqdim qilish uchun

charm juzdonga solib qo'yan edi. U darhol juzdonni qo'l-tiqlab saroy tomon yo'l oldi.

Husayn Mirzo ilgari xushxat kotiblar ko'chirgan kitoblarni va ulardag'i naqsh va suratlarni soatlarcha tomosha qilib zavqlanardi. Biroq keyingi vaqtarda, Shoqosom Nurbaxshga qo'l bergandan keyin san'at asarlariga qiziqmay qo'ydi. Navoiyning Behzod haqidagi gaplari esa uning eski dardini qo'zitib, yana san'atga qiziqish uyg'otgan edi. Husayn musavvirni iltifot bilan qarshi olib, o'tirish uchun yonidan joy ko'rsatdi va taqdim etilgan rasmlarni bir-bir ko'zdan kechira boshladi. Bir suratda Bobo Mahmud kulib qarab turardi, ikkinchisida otga minmoqchi bo'lib uzangiga bir oyog'ini qo'yan, bo'ydor ot uning og'irligini ko'tara olmay keyingi oyog'iga o'tirib qolgan edi. Uchinchi suratda xo'ppa semiz bek barmoqlarini shiqirlatib o'yinga tushib turardi. Husayn Boyqaro buni ko'rib qattiq kulib yubordi. Eshik orqasida turgan bek va mulozimlar uning kulgisini eshitdilar. Erталабдан beri qovog'i ochilmagan hukmdorning g'azabidan qo'rqib turgan a'yonlar yengillanib nafaş oldilar.

Behzod podshoh huzuridan chiqqanda hammadan burun uni Shoqosim Nurbaxsh sultonning iltifoti oliyi bilan tabrikldadi. Hukmdorning kulgusi yosh musavvir boshi uzra to'plana boshlagan hasad bulutini tarqatib yuborgan edi. Navoiy yosh rassomning ishlari sultonga goyat darajada maqbul bo'lganini eshitib, behad suyundi.

SEHRLI SO'Z

Hirot shahrida Zayniddin degan bir bola bor edi. Zehni o'tkir, tirishqoq bo'lgani uchun mакtabda hammadan oldin o'qish, yozishni o'rganib oldi. Uning yaqin qarindoshi, Navoiyning eng yaqin suhabatdoshlaridan biri bo'lgan Sohib Doro ularnikiga tez-tez kelib turar, har safar turkiy va forsigo'y shoirlarning biror kitobini keltirar, Zayniddinda she'r va adabiyotga havas uyg'otishga harakat qilardi.

Zayniddin qo'liga olgan kitobni tushirmaguncha qo'ymasdi. O'n ikki yoshdayoq Hofiz, Sa'diy, Lutfiy, Navoiyning ko'p she'rlarini yod olvoldi.

U shoir qarindoshining kelishini sabrsizlik bilan kutardi, chunki Sohib Doro ko'p mutolaa qilgan kishi bo'lib, burung'i mashoyixlar, shoirlar hayotini yaxshi bilar, suhbat vaqtida ular to'g'risida qiziq-qiziq latifalar aytib berardi. So'zining oxirida har safar kuni kecha Navoiyning suhbatida kimlar bo'lgani, kimlar o'z she'rini o'qib bergani, Navoiyning bergen bahosi va hokazolarni hikoya qilardi.

– Alisher janoblari aqli, hushyor, ko'p mutolaa qilg'on yoshlarg'a homiy, muammo va tarix biladurgan kishiga ix-losmanddurlar. Kitob o'qimaydurgan kishilarni sevmaydurlar, – der edi.

Zayniddin Navoiyga yaqinlashib, uning suhbatidan bahramand bo'lish uchun ko'p kitob o'qir, muammo (she'riy topishmoq) va biror tarixiy voqeа qachon sodir bo'lgnanni harflar vositasi bilan ifoda etish usulini o'rganishga harakat qilar edi. Ularning tashqari hovlisida Xojazoda degan tabrizlik bir kishi turar edi. U arab va eron shoirlarning ko'p she'rlarini yoddan bilar, tarix va „ilmi“ muammodan xabardor edi. Zayniddin undan arab tili, muammo va tarixni o'rgana boshladi, tez orada zehnining o'tkirligi, xotirasining kuchi bilan o'z ustozini ham hayratda qoldirdi.

Bir kuni Sohib Doro bilan Xojazoda mehmonxonada gaplashib o'tirar, Zayniddin quyiroyda ularning suhbatiga qulqoq solar edi. Suv aylanib arig'ini topgandek, gap aylanib, muammo va tarix mavzusiga kelib taqaldi. Sohib Doro Alisher Navoiyning bu bobdag'i mahoratini maqtab, quydagi voqeani hikoya qildi:

Podshoh hazratlari Xuroson taxtin olg'ondin so'ng „Bog'i Jahon oro“ni obod qilmoqqa bel bog'ladilar. Bahor ayyomi, bir panjshanba kuni Mir Alisher mavlono Abdurahmon Jomiy bila Gozurgohdin xiyobon sari yurur erkanlar. Ul bog'ning bog'boni Sayid G'iyos har kimlarning bog'i-din sarv og'ochi sotun olib, arobalarga ortib kelayotgan erkan. Bog'bon hazratlarini ko'rib salom beribdur. Mavlono Jomiy alik olib, so'rabdurlarki: „Hech bog'larda sarv og'ochi qoldimu? Arobalarda necha adad og'och bor?“ Bog'bon debdurki: „Bog'larda sarv og'ochi ko'p. Arobalarda bir yuz to'rt adad sarv bor“. Alar debdurlarki, ajab adaddur. Navoiy

aytibdurlarki, munosib adaddur, nechunki „qad“ adadi bila munosibdur. Mavlono Jomiy tahsin o'qibdurlar.

Sohib Doroning gapiga diqqat bilan quloq solib o'tirgan Zayniddin xursand bo'lib, birdan qiyqirib yubordi:

– Qoyilmen. Qad so'zi bila sarv og'ochlarining sonini bildiribdurlar. – Zayniddin arabcha „q“ harfi – 100, „d“ – 4 ekanini bilar edi. Mavlono Sohib Doro jiyanining „abjad“ hisobini yaxshi o'rganib olganini, fahm-farosati o'sganini ko'rib terisiga sig'may ketdi.

Bir kuni Zayniddin otasi bilan Sohib Doroning uyiga mehmon bo'lib borishdi. Mavlononing mehmonxonasi doim fazilat ahli bilan gavjum edi. Ular uy egasining das-turxoni uchun emas, shirin va oqilona suhbat uchun, qadimgi shoir va fozil odamlar haqidagi hikoyalarini eshitish uchun kelar edilar, Sohib Doro zamonaning ko'zga ko'rigan forsgo'y shoirlaridan bo'lib, yosh qalamkashlarni o'z maslahatlari bilan bahramand qilib turardi. Shu sababdan tanqidiy mulohazalariga mushtoq bo'lgan yosh shoirlar unikidan arimasdi.

She'rxonlik va ovqatdan so'ng mehmonlar u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdilar. Quyiroqdan joy olgan yalpoq yuzli bir mehmon Sohib Doroga yuzlanib:

– Mavlono, jiyaningiz Zayniddin, nomi aytilmasa ham har qanday muammoni yechib bera oladur, deb eshitamen. Shu rostmi? – deb so'rab qoldi.

– Rost, bu bobda Zayniddin mahorat sohibi bo'libdur.

– Andog' esa, ruxsat eting, men bir sinab ko'ray.

– Marhamat, – Sohib Doro Zayniddinga, qo'rqma, bardam bo'l, degandek qarab qo'ydi.

– Xo'sh, bo'lmasa quloq bering, – dedi yalpoq yuzli mehmon, – ushbu muammodan qanday nom chiqadur?

Bobom belida duduk,

Biz ham muammo deduk.

Zayniddin qovog'ini uyib, ichida bir narsani hisoblayot-ganday lablarini qimirlatib turdi-da, birdan yuzi yorishib: „Junayd!“ – deb yubordi.

– Borakallo! – dedi mehmon. – Xo'sh, qanday topdin-giz?

– Bobom so'zining arabchasi – jad, duduksining ma'nodoshi nay. „J“ bilan „d“ harflari o'rtaida, ya'ni belida „nay“ so'zi bo'lg'ondin so'ng „Jnayd“ (Junayd) nomi chiqadur-da!

– Ofarin, mavlononing da'volari isbot bo'ldi, – deb yubordi hamma.

Mehmonlarning taajjublanishlari o'rinli edi, chunki, odatda, muammoni aytgan kishi, undan kimning nomi chiqishini bildirishi kerak, muammoni yechuvchi esa bu nomning qanday yashirilganini aytib berishi lozim edi. Ammo Navoiy, har qanday muammoni nomsiz yecha bilar edilar.

Bir kuni Sohib Doro Navoiy bilan suhbatlashib o'tirganda, Zayniddin to'g'risida gap ochib, uning muammo bo'bidagi mahoratini maqtadi.

Navoiy maroqlanib:

– O'n olti yoshda dedingizmi? –deb so'radi ajablanib.
– Bu yoshda bolalar burunlarini tortib yuradurlar. Ajab! Nomsiz muammoni yechmoq uchun forsiy, turkiy tillarni bilmoq, arab tili bilan tanish bo'lmoq kerak. Nechun ani o'zingiz bila ola kelmadingiz? Men vujudi aql-farosat fonusi bila munavvar bo'lg'on o'n olti yoshli insonni ko'rmoq istaydurmen. Erta oqshom boshlab keling.

Sohib Doro Zayniddinni maqtashga maqtab qo'ydi-yu, keyin qilgan ishidan pushaymon bo'ldi: „Mabodo, bola Navoiy huzurlarida o'zini yo'qotib, savolga javob berolmay, meni uyaltirib qo'ysa ne bo'ladur?“ – deb o'yladi u o'zidan xafa bo'lib. Ammo aytilgan so'z – otilg'an o'q, uni qaytarib bo'lmaydi. Kechqurun u Zayniddinlarnikiga borib, Navoiyning gapini ularga yetkazdi:

– Ertaga kechqurun Zayniddin mening uyimga borsin, birgalashib Mirnikiga borgaymiz.

– Bekor maqtanib qo'yibsiz, bola uyalib, berilgan muammoni yecholmay qolsa ne bo'lg'oy. Ishning bu tomonini ham o'yladingizmi? –dedi Zayniddinning otasi tashvishlanib va o'zini qayerga qo'yishini bilmay, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

– Qo'rqmang, Zayniddin ham aqli, ham yurakli yigit. Andin so'ng, Alisher shu qadar xushmuomala va nazo-

katlidurlarkim, hech bir kimsa alarning huzurlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydur. Shul mahalgacha alarning biror yosh yigitni mushkul bir savol bila mot qilib, uyaltirib qo'yg'onlarin bilmaymen. Xavotir olmang, yuzimiz yorug' bo'lg'ay.

– Ilohi, aytg'onningiz kelsin.

Zayniddin boshda biroz hayajonga tushdi-yu, Sohib Doroning so'zidan keyin o'zini tutib oldi, kechasi tinch uxladi.

Navoiyning mehmonxonasi har vaqtdagidek o'zining yaqin do'stlari: shoirlar, sozandalar bilan to'la edi. Zayniddin Sohib Doroning orqasidan kirib salom berganda, Alisher kulib, do'stlariga bir narsani hikoya qilayotgan edi.

– E, keling, mavlono. Andak kechikdingiz. Bu yigit kim? E, kecha aytg'on qarindoshingiz... Zayniddinmu? – deb so'radi u salomga alik olgandan keyin.

Uchli taqya ustidan shoyi salsa o'rab, egniga hayitdag'ina kiyadigan ko'k shoyi to'nini kiygan Zayniddin tavoze bilan quyiroqdan joy oldi.

Navoiy do'stlariga Zayniddinni ta'rif qilib:

– Nomi aytilmasa dog'i, istagan muammoni yecha bilar erkan bu yigitcha, – dedi.

– Hech bir odam ilmi muammo sizi bila tenglasha olmaydur, – dedi shoir Badaxshiy.

– Bu bobda menga teng yigitlar bor ekan, – dedi Navoiy Zayniddingga dalda berib. U Badaxshiyning bu o'rinsiz gapidan ranjigan edi. „Ne qilar erkan yosh yigitning boshidin sovuq suv quyib yuborib, shundog' ham u nom chiqargan odamlar arosig'a tushib, esankirab qolq'an ko'rindur. Rangi ham o'chinqiragan. Ani majlis savlati bosdi. Yechimi qiyin muammo bila aning shoxin sindirib qo'y may“, deb o'yładi Navoiy va „Umar“ nomi yashiringan osonroq bir muammoni yechishni taklif qildi. Rangi o'chinqiragan, ko'zları javdiragan yigitchaga muloyimgina qarab dedi:

Otim chiqsin desang qilg'il imorat,

Imoratni buzib, otni chiqarg'il.

Zayniddin bu muammoni bilar edi. Bir ko'ngli, o'zini bilmaganga solib: „Imoratni buzib, otni chiqarg'il, dedingiz. Imorat so'zidin „o“ va „t“ harfi chiqarilib tashlansa, ayn, mim, r harflari qolur“, deb javob bermoqchi ham bo'l-

di, lekin Navoiydek odamning huzurida yolg'on gapistishni o'ziga ep ko'rmay, shoirning ko'ziga qarab rostini aytidi:

- Men bul muammoni bilur erdim, boshqasini aytинг.
- Bo'ldi, bo'ldi. Bilganingizni ko'zingizdan ko'rib turibmen, sinab ko'rmoqqa hojat qolmadi. Sohib Doroning da'vosin qabul ayladik. - Shuni deb Navoiy Zayniddinlar kelmasdan burun boshlagan hikoyasini davom ettirdi: - Shunday qilib, o'shil Nosir ismli bo'yoqchi yigitni yana oldimg'a kelтирдilar. Men dedim: „Ikki bor senga rahm aylab qo'yib yuborg'on erdim, yana jinoyat qilbsen. Yatimligingni¹ qo'yananmu, yo'qmu?“ Nosir bo'yoqchi ta'zim qilib: „Yatimlarga shafqat qilmoq farz turur, zeroki, Xudoning o'zi aytibdurki: „Vaammal alyatima falo taqhir!“ Ya'ni, yetimlarga qahr qilmang!“ dedi. Men ul yigitning hozirjavobligi va bilimdonlig'iga qoyil qoldim va aning gunohini sulton sohibqirondin tilab oldim. Bul voqeaga rappa-raso yigirma yil bo'ldi.

„Demak, 880-sanayi hijriyada bo'lg'on“, deb o'yladi Zayniddin va bir narsani sanayotganday lablarini qimirlib, qoshlarini chimirib o'tirdi-da, Navoiyga yuzlandi:

- Bir so'z aytmoxqa ruxsat eting! - Shoir kulib bosh irg'itgandan keyin birinchi so'zga urg'u berib dedi: - Shafqat qilibsiz.

Navoiy qovog'ini uyib, ichida bir narsalarni hisobladi-da, birdan yuzi yorishib ketib: „Ofarin“, deb yubordi baland ovoz bilan. Eski arab imlosi bilan yozilgan „shafqat“ so'zidagi to'rt harfni songa aylantirganda 880, ya'ni Navoiy Nosir bo'yoqchiga rahm qilib, qo'yib yuborgan yili chiqardi. Navoiyning suhbatidagi boshqa mehmonlar ham oldinma-keyin bu sehrli so'zning riyoziy ma'nosini chaqib:

- Borakallo! - deb yubordilar.

XUROSON ZULMAT QO'YNIDA

Devorlari ov va jang manzaralari bilan bezalgan naqshinkor „salomxona“da arkoni davlat yig'ilgan. Sakkiz qirrali oltin taxt ustida qovoqlari salqigan, lunjlari osilgan, sochiga oq oralagan Husayn Boyqaro salobat bilan o'tirib-

¹ Navoiy zamonida „yatim“ deb bezori va o'g'rilarini aytishar edi.

di. Uning so'l tomonida Barlos va Orlot urug' oqsoqollari, sarkardalar, o'ng tomonida esa Alisher Navoiy, bosh vazir Nizomulmulk, eshik og'asi Muhammad Valibek va boshqa a'yonlar o'tiribdilar. Hammaning yuzidan muhokama qilinadigan masalaning jiddiyligi sezilib turibdi.

Sulton Husayn Balx shahrida hokim bo'lib turgan to'ng'ich o'g'li Badiuzzamonning isyon ko'targanini e'lon etib, unga qarshi qanday choralar ko'rish to'g'risida a'yonlaridan maslahat so'radi. So'zining oxirida:

– Ardoqlab o'stirgan o'g'limiz yuzimizga oyoq qo'yib, namozi jumada xutbani o'z nomaga o'qitdiribdur, – deb qo'shib qo'ydi.

„Shahzoda agar xutbani o'z nomiga o'qitg'on bo'lsa, o'zini podshoh deb e'lon qilibdur-da“, degan fikr o'tdi ko'pchilikning ko'nglidan.

– Qani, gapni bosh vazirdin eshitaylik, – dedi sulton o'ng tomonga burilib.

Boshiga navro'ziy yashil kuloh, egniga tillado'zi choppo kiygan barvasta Nizomulmulk gapni uzoqdan boshladi. Mamlakat endi tinchigan paytda bu ayanchli hodisanning ro'y berishi boshqa beqaror beklarni ham oyoqlantirishi va davlat moliyasiga katta zarar yetkazishini aytib, xazinada atigi ikki ming tuman aqcha qolganini, agar zarur bo'lsa, kelasi yilning solig'ini xalqdan undirib olishga tayyor ekanini bildirdi.

Ilonning yog'ini yalagan vazir tulki singari o'zini har maqomga solar, o'z fikrini dangal aytishga botinolmay, gapni aylantirardi.

– Fikringizni ochiqroq aytинг, – dedi Husayn sabrsizlanib.

– Fikrim shulki... him... agar mojaro tinchlik yo'li bila hal etilsa – xo'p-xo'p. Mabodo siyosat qilichini rayosat qinidan sug'urishga to'g'ri kelsa, min... mablag' topib berurman.

Sarkardalardan Jahongir Barlos darhol Balx ustiga yurish boshlashni taklif etdi.

– Vaqtini boy bermay, isyonkor shahar ustiga lashkar tortib bormoq zarur, – dedi u oyog'idagi upuka etigining

qo'njiga asta urib qo'yib. – Mening otliq qo'shinim Murg'ob daryosi bo'yida taxt turibdur. Agar farmoni olivy bo'lsa, quyundek uchib borib, Balxni qabob olurmen, zoti oliyning o'zlarini bir tuman askar bilan yetib borgunlaricha qal'adorlik qilurmen. Bu vaqtda xalifazoda Muzaffar Mirzo birla Muhammad Burunduq Astrobodni ishg'ol eturlar...

Urug' oqsoqollari uning gapini ma'qulladilar. Movut kamzuli ustidan yaltiroq sovut, boshiga po'lat dubulg'a kiyib olgan Jahongir Barlos qoshlarini mag'rurona kerib, atrofga alanglab qo'ydi.

Rasmiy mansab egasi bo'lмаган Navoiy boshiga simobi salla, egniga ko'k movut chopon kiyib kelgan edi. Jahongir Barlosning gapidan keyin sovqotganday, oldidagi mang'alda bozillab turgan cho'g'ga qo'lini tutdi.

– Mirzam, qilichni qindin sug'urmoqqa hali vaqt erta, – deydi u astagina. Navoiy juda sekin gapirgan bo'lsa-da, uning gapini hamma eshitgan edi. – Mirzam, nizoni sulh yo'li bilan hal etmoq zarur.

Sultonning peshanasi tirishib ketdi.

– O'zingiz ham xabardorsiz, Xoja Dehdorni Balxga elchi qilib yibordim, – dedi u Navoiyga tikilib. – Men ham mojaroni tinchlik bila hal etmoqchi bo'ldim. Oqibat na bo'ldi? Shundog' tajribali va omil elchi hech ish chiqara olmay, quruq qaytdi. Badiuzzamon bizning shartimizga ko'nmabdurdur. Astrobodni Muzaffar Mirzoga bermaydurmen, Astrobod ham meniki, Balx ham, debbdur. Bas, sulh yo'li berkildi.

A'yonlar bosh irg'ib:

„Shundog', taqsir, sulh yo'li berkildi“, deb podshohning gapini ma'qulladilar.

– Mirzam, yana bir martaba harakat qilib ko'raylik, – dedi Navoiy ta'zim bilan. – Bul safar kaminani elchi qilib yuboring. Men, har qalay, Badiuzzamonning ustozidurmen, so'zimni yerda qo'ymas.

Sulton shoirning bu gapini eshitib, sukutga toldi. „Bul yerda bo'layotg'on gaplar ertaga butun xaloyiqqa ma'lum bo'lg'usi. Agar hozir Navoiyga rad javobi bersam, hamma, podshoh Alisherning so'ziga kirmay, urush boshlamoqchi, ming la'nat, deydi“, deb o'yladi u.

– Mayli, siz elchi bo'lib boring, – dedi podshoh qoshlarini uyib. – Agar o'g'limiz itoat qilsa, biz ham aning gunohidin o'tarmiz. Ammo lekin shartlarimizga ko'nmasa... – uning yuzi qahrlı tus oldi, – o'zidin ko'ra bersin.

Darveshalining fitnasidan keyin olti yil o'tgach, Balx hokimi yana isyon ko'targan edi. O'sha vaqtida sulton Balxdagi isyon olovini so'ndirish uchun Astrobodda hokim bo'lib turgan o'g'li Badiuzzamonni yordamga chaqirdi. Badiuzzamon esa o'n ikkiga endi qadam qo'ygan o'g'li Mo'min Mirzoni Astrobodda qoldirib, bir qism askar bilan Hirota yetib keldi. Ota-bola birlashib, Balx isyonini bostir-dilar¹.

Husayn Boyqaro Badiuzzamonni Balxda qoldirib, o'zi Hirota qaytdi. Sultonning maqsadi – serdaromad Astro-bod shahrini kichik xotinidan bo'lган Muzaffar Mirzoga olib berish edi. Biroq, Badiuzzamon Astrobodni o'gay uksiga berishni istamay, otasining talabini rad etdi. Balxda isyon ko'tardi va Astrobodda qolgan o'g'li Mo'min Mirzoga chopar yuborib: „Astrobodni berma, agar Muzaffar Mirzo bostirib kirsa, quro bilan qarshilik ko'rsat“, deb buyurdi.

Navoiy Balxga jo'nagandan keyin, urush chiqarib, Badiuzzamon va uning tarafdorlari to'plagan boyliklarini qo'lga kiritish payida yurgan ochko'z sarkardalar bezovtalanib qolishdi. Aynihsa, Jahongir Barlos oyog'i kuygan tovuq-day tipirchilab yurardi. U bor-yo'g'ini qimorga boy berib qo'yib, o'ljatalab bo'lib qolgan edi. Navoiy Balxga jo'nagan kuniyoq u o'z maslakdoshi Nizomulmulkning qabulxonasi-ga kirdi. Eshikni ichidan mahkam berkitib olib, o'z dardini dangal gapirdi:

– Alisherbek ishning beliga tepaturgan bo'ldi, – dedi u ko'zlarini chaqchaytirib. – Agar urush chiqmasa, holim xarob. Yonimda bir diram ham qolmadidi.

– Pulingiz bo'lmasa qarz berib turay, – dedi vazir asta-gina.

– Shundoq ham bo'g'zimdin qarzg'a botg'onmen. Hoy, vazir janoblari, bir ish qilingki, Navoiy tarbuzi qo'ltig'idin

¹ 1496-yil.

tushib, sho'ppayib qaytsin. Bu narsalarga siz, siyosat arbollarining aqlingiz yetadur.

Nizomulmulk iljayib qo'ydi.

– Badiuzzamonning Balxdagi xazinasida yarmoq ko'p, – dedi vazir gapni chalg'itmoqchi bo'lgan kishiday.

– Rost, ko'p deb eshitadurmen, – sarkardaning qiyiq ko'zлari yaltirab, og'zidan so'lagi oqib ketayozgan edi. – Qani emdi, shul boyliklarning beshdan biri menda bo'lsa!

– Tinchlik bo'lsa, bu boyliklarni tushingizda ham ko'r-maysiz.

– Rost! Bir ish qilingki, zanglab yotgan qilichlarimiz qinidin chiqib javlon qilsin. Xanjarlarimiz qong'a tashna bo'b qoldi.

– Hoy sarkarda, menga qarang. Agar men bir ishni boshlab yuborsam, siz qo'lga tushirgan o'ljalarg'a meni sherik qilasizmu?

– Yarmin beramen, – dedi sarkarda shang'illab.

– Sekinroq, eshik orqasida odam bor, – dedi vazir alang-lanib. – Ilkingizni bering.

– Gap bitta, – dedi Jahongir Barlos uning nozik qo'lini qisib.

Novcha, qirra burun, ko'zлari katta-katta Badiuzzamon odob saqlab tiz cho'kib o'tirar edi. Jussasi kichikroq shoir uning oldida kichkina bolaga o'xshardi.

Navoiy podshohning Balxdagi saroyida Badiuzzamon bilan sulh muzokalarari olib borar, itoat ipini uzgan shah-zodani to'g'ri yo'lga solmoqchi bo'lardi.

– Gap shundog' bo'lsin, – dedi shoir nihoyat, – Astro-bodni iningizga topshiring, evaziga men o'rtada turib Maymanani olib beray.

– Astrobod osmon bo'lsa, Maymana qaro yer, – dedi Badiuzzamon, – he, lochinni olato'g'onoqqa almashtirib bo'lurmu? Agar sizdan bo'lak bir odam elchi bo'lib kel-ganda, bo'sag'amg'a yaqinlashtirmagan bo'lur erdim. Siz, har qalay, ustozimsiz.

– Agar meni ustoz desangiz, yuzimga oyoq qo'ymang, so'zimni yerda qoldirmang! – Bu gapni eshitib, ko'k shoyi

chopon kiyib, belini tilla kamar bilan tang'ib olgan olifta shahzodaning yuzi burishib ketdi.

– Xaloyiq urushlardin bezor bo'lg'on, osoyishtalikni istaydur, agar siz qilichni qing'a solib, otangiz bila tinchlik shevasida gaplashsangiz, xalqning muhabbatin qozonursiz. Xalqning muhabbatni katta gap. Ishning ketini o'ylang, axir!

Shahzoda ikkilanib qoldi: „Bir hisobda cholning gapi jo'yalik, – deb o'yladi u. – Otamning bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda. Inim bila taxt talashib qolg'onimda xalq meni qo'llasa, ishim o'ngidin keladur. – Uning ahli sulhga moyil bo'lsa-da, hislari tug'yon etar: – Nahotki, Astrobod-day shaharni o'gay ukangga bersang“, degandek bo'lardi.

– Ustoz, shartlarining menga og'irlilik qiladur.

– Urush og'irlilik qilmaydurmu? Nahotki, o'z manfatingiz yo'lida yurtning osoyishtaligini qurban etsangiz. O'z otangizga qilich ko'tarmoqchimisiz? Meni sharmisor qilib quruq qaytarmoqchimisiz? Qaysi yuz bila Hirota borurmen? Andan ko'ra meni shul yerda o'ldiring. Men poytaxtga qaytmaymen! O'ldiring!..

Navoiy so'zini tamomlay olmadi, ko'zidan duvullab yosh oqib ketdi.

Eshikda xizmat qilib turgan Behlul Navoiyning gaplari-ni eshitib, yig'lab yubordi, qaynoq ko'z yoshlari sarpochang kiygan sag'ri kavushiga toma boshladi.

– Ustoz, meni kechiring, sizni xafa qilmoqni istamagan erdim.

– Agar roziligidimni istasangiz, gapimga ko'ning!

– Otajon, hurmatingiz uchun Astroboddan kechdim.

Navoiy ko'z yoshlari artib, Badiuzzamonning peshanasidan o'pdi. Navoiy xursandligidan terisiga sig'may, yuzi yorishib, ajinlari yozilib, xuddi o'n yil yosharganday bo'ldi. Muzokalararning bitishi munosabati bilan berilgan ziyofatda u qiziq-qiziq latifalar aytib, yon-veridagilarni kuldirdi, shahar askiyachilarining qitiq patiga tegadigan gaplarni otib, ularning jag'ini ochdi. Hamma xursand bo'lib uyiga qaytdi. Kechasi shoir xuddi yosh boladay tinch uxladi.

Biroq ertasi kuni Navoiy dahshatli bir manzaraga duch keldi. Salom uchun saroya kelganda Badiuzzamon uni juda sovuq qarshi oldi. Ko'zlar chaqchaygan shahzoda salomiga alik olmasdan, Navoiyga naycha qilib o'ralgan bir qog'ozni uzatib:

– O'qib ko'ring manavi tumorni! – deb do'rilladi. – O'qing, riyokorlikning timsoli bo'lg'on bu qog'ozni!

– Nima gap o'zi? Qanday qog'oz? – deb so'radi rangi dokadek oqarib ketgan Navoiy.

– Bu – padari buzrukvorimizning Balx shahar dorug'a-sig'a yuborg'on maxfiy farmoni. O'qing!

Podshoh shahar boshlig'iga, „Badiuzzamon o'z navkarlari bilan ovga chiqqanda, shahar darvozalarini mahkam berkitib oling, uni shaharga kirgizmang“, degan mazmunda farmon yuborgan edi.

– Kecha mening navkarlarim shahar tashqarisida shuhali bir otliq kishini to'xtatib, yonin titkilab shu yorliqni topibdurlar, – dedi Badiuzzamon peshanasini tirishtirib.

– Otliqni qal'aga qamatdirib qo'ydim. Yaxshilab qarang, muhr va imzo otamniki, bu qalbaki yorliq emas.

– Qalbaki emas, – deb uning gapini tasdiqladi Navoiy Husayn Boyqaroning imzosini tanib.

– Demak, padari buzrukvorimiz sizni elchi qilib yuborib, meni chalg'itmoqchi va qopqonga ilintirmoqchi bo'libdurlar. Muni qarang, ikkimiz ham hiyla va nayrang tuzog'i-ga tushibmiz.

Navoiy sulton Husaynning hiylakor ekanini bilsa-da, lekin undan bunday xiyonat sodir bo'ladi, deb sira o'yamas edi. G'azabiga chiday olmay, tishlarini qirsillatib qo'ydi, lekin churq etmadni. „Mirzo Husayn hamma urinishlarimni behudaga chiqardi, emdi indamay izimga qaytaveray“, deb o'yлади u.

Shoir noumid bo'lib ertasigayoq o'z odamlari bilan Hirotga jo'nadi. Qirg'og'ini qamish bosib ketgan, to'lib-toshib oqayotgan Mug'rob bo'yiga yetganda, sultonning otliq askarlari daryodan kechib o'tmoqda edi.

Ko'ziga yorug'dunyo qorong'i bo'lgan Navoiy Hirotga yetib kelgach, bu yerda turishni istamay, Mashhad shahriga

jo'nadi. U sayohat qilib ko'nglidagi chigillarini yozmoqchi, asablarini tinchitmoqchi edi. Lekin Xuroson mamlakatida dahshatli voqealar yuz bera boshladi. Husayn Boyqaro Balx ustiga, Muzaffar Mirzo Astrobod ustiga yurish qildi. Qal'a bosib olishda tajribasi katta, askari ko'proq bo'lган sulton Balx shahrini qamal etib, uni jang bilan ishg'ol qildi. Badiuzzamon o'z navkarlari bilan arang qochib qutuldi.

Ertasi kuni Astrobod ham zabit etildi. Mo'min Mirzo asir qilib olindi va Hirota keltirilib, shahar o'rtasidagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamatildi.

Husayn Boyqaroning hali o'n ikki yoshga to'lмаган nabirasi nim qorong'i zindon ichida u yoqdan bu yoqqa yurib, jangda qilgan xatolarini eslab o'kinar, shahar mudofaa-sini yaxshi uyushtira bilmagan mayxo'r beklarni koyir edi. Uning jig'ibiyroni chiqar, lo'ppi yuzlari qizarib, qiyiq ko'zlaridan o't chaqnar, yosh yuragi g'azab bilan yonar, lekin unda ma'yuslikdan asar ham yo'q edi. U o'zining qamoqda qolib ketishi yoki shu yerda o'lim sharbatini totishini xayoliga ham keltirmas, nazarida birov kelib, hozir zindon eshigini lang ochadi-yu, uni bo'shatib yuboradigandek tuyulardi. Yoshlarga xos ishonch va umid bilan to'lgan qalbi o'zining tezda qutulib ketib, yana Astroboddagi onasi yonga qaytishidan darak berayotgandek edi.

Shu vaqtida Badiuzzamonning o'gay onasi Xadichabegim o'z tuzog'iga ilintirgan Mo'min Mirzoning atrofida qora o'rgimchakdek aylanib yurib, ig'vo to'rini to'qir edi. Yoshi qirqa yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, hali o'z chirroyini yo'qotmagan bu g'ayratli, o'ktam xotin eri Husayn Boyqaroni „gah“ deganda qo'lga qo'nadigan qilib olgan edi. Eri ko'p ichib mast bo'lishidan u xafa emas, bil'aks, xursand, chunki bunday vaqtarda u o'z ishini bitirib olardi. Xadichabegim eri o'lib ketgandan keyin Badiuzzamonning taxtga o'tirishidan qo'rqrar, shuning uchun podshoh bilan katta o'g'li orasiga nizo solib, o'z arzandasasi Muzaffarni valiahd qilib belgilashga urinardi.

Xadichabegim eski odat bo'yicha vazirlardan qochmasdi. Bir kuni u erini ichirib mast qildi-da, Nizomulmulkning qabulxonasiga kirdi. Vazir o'g'li bilan saroy xazinasi mus-

tavfilari (hisobchilari) ning daftalarini tekshirib o'tiar edi. Malikani ko'rishi bilan ota-bola o'rnidan turib ta'zim qilishdi. Xadichabegim:

– Badiuzzamonning tirmizagini nima qilmoqchisiz? – deb so'rab qoldi.

– Nima qillardik? Yana besh-olti kun qamoqda asrab, ko'zi moshdek ochilgandan keyin qo'yib yiborurmiz.

– Andin so'ng otasi birla yarash-yarash qilib og'iz- burun o'pishasiz, shundog'mi?

– Begim, tushuning axir. Boshqa ilojim yo'q.

– Bu – mening rejingga mos kelmaydur.

– Bilurmen, begin.

– Bilsangiz, shundog' bir ish qilingki, Mirzo katta o'g'li birla yuz ko'rishmaydurgan bo'lsin.

– Masalan?

– Masalan... – Xadichabegim beixtiyor vazirning o'g'liga ishonchksizlik bilan qarab qo'ydi, lekin ota-bolaning tili bir ekani esiga tushib, o'z fikrini dangal gapirdi. – Tirmizakni jallodg'a topshirmoq kerak.

Nizomulmulk bir irg'ib tushdi, uning g'udrush yuzlari bo'rtib, ko'zları ola-kula bo'lib ketdi. Vazirning novcha chaqirko'z o'g'li esa, hech narsani eshitmagandek ko'zlarini baqraytirib turardi.

– Oqibat xunuk bo'lmasaydi, deb qo'rqedurmen.

– O'zingiz erkakmisiz yo xotin kishimisiz? Hali shul yurak bila tillado'zi chopon kiyib yuribsizmi?

– Zoti oliyni ko'ndirib bo'larmikin?

– Siz farmon tayyorlang, ko'ndirish mendin.

O'zini katta oladigan, hech kimni nazar-pisand qilmaydigan Badiuzzamonni Nizomulmulk o'lgudek yomon ko'rар edi. U Mo'min Mirzoni qatl etish to'g'risida farmoni oliv yozar ekan, „Shoshma, o'g'lingni o'ldirtirib, o'zingni maymundek o'ynatamen“, deb o'ylar va tishlarini g'ichirlatar edi.

– Hezir mirzam qattiq mast. Imzo chektirib, muhrini bostirib olmoq qiyin emas, – dedi Xadichabegim.

Xadichabeginning xayoliga kelgan mash'um fikr Husayn Mirzoning ham miyasidan lip etib o'tgan edi. Uning

ayg'oqchilari Mo'min Mirzo qamalgan Ixtiyoriddin qal'asi atrofiga xaloyiq to'planib g'avg'o ko'tarayotgani, olomon qal'a begidan yosh shahzodani ozod qilishni talab etayotgani to'g'risida ma'lumot berib turar edilar. Qal'a begi oti-ga minib, qurolli navkarlari bilan olomonni quvib yuborar, ammo birozdan keyin xaloyiq yana to'planib qolar edi. „Mo'min Mirzoni xalq sevadur, ilojini topsa, hoziroq ani taxtga o'tirg'izib, podsho qilib ko'targay“, deb o'ylar edi sulton va g'ayirligi kelib, rashk o'tida yonar edi. Shu o'y xuddi xumga tushib qolgan aridek g'o'ng'illab, xayolxona-sida javlon urayotganda Xadichabegim qo'lida farmon bilan kirib keldi. U xotinining Mo'min Mirzo qoniga tashna bo'lib yurganini payqagan edi. Uni ko'rishi bilan o'zini mastlikka soldi.

– Vaziringiz mana bul farmong'a imzo chekib, muhr bo-sib berishingizni iltimos qildilar, – dedi Xadichabegim.

– A? Farmon? Ha, ha... Farmoni oliv. Nizomulmulk-ka inonsa bo'lur... Sho'bon uyquda bo'lsa dog'i... iti uy-g'oq.... Muhrim qayda? – U qo'liga farmonni olib, aylantirib ko'rdi, keyin cho'ntagidan muhrini olib, xotiniga uzatdi. – Ma, o'zing bosib ol!..

Sulton Husaynning Bo'dana va Do'lana degan ikki jallo-diga yana ish topildi. Bo'dana podshohga ko'r-ko'rona itoat etuvchi, g'alamislikni bilmaydigan, dali-g'uli, norg'ul yigit edi. O'limga hukm qilinganlarni, go'yo rahmi kelgandek, qiyamasdan o'ldirardi. Do'lana esa kallaxum, kaltabaqay, mug'ambirroq kishi edi. O'z qo'liga tushgan odamni, jal-lodlik qoidasiga rioya qilib, shoshmay o'ldirardi.

Vazir o'zining qora niyatini ama'ga oshirishni Bo'da-naga topshirdi. Jallod podshoh farmonini ko'rib, seskanib ketgan bo'lsa-da, lekin o'zini tutib oldi. Podshoh amrini so'zsiz bajo keltirishga o'rgangan jallod tez-tez qadam tashlab, Ixtiyoriddin qal'asiga yetib keldi. Yosh shahzoda bilan salomlashib, darhol:

– Seni o'Iturgali keldim, – dedi.

O'limni xayoliga ham keltirmagan bola uning gapini hazil fahmlab:

– He, – deb kului, – yolg'on aytasiz.

– Nechun kulasen, ahmoq. Yig'lamoq kerak!

Bo'dananing vajohati xunuk, qovog'idan qor yog'ardi.

– Nega yig'lay? Hazilga ham yig'laydimi kishi? –

Mo'min Mirzoning tovushi qaltirab ketdi. – Amakimsiz-ku.

Esingizdadir, uch-to'rt yil ilgari Iroqdin bir pahlavon kelib pahlavon Muhammad bila kurash qilg'onda men yelkangizda o'tirib tomosha qilg'on edim. O'shanda „Bo'danaday amakim bor, kimdan qo'rqamen?“ deb o'ylagan edim...

Jallodning avzoyi o'zgarib, lunjlari lip-lip ucha boshladi, tomog'iga bir narsa kelib tiqilganday bo'ldi.

– Esimda bor, – dedi u bo'shashib.

– Amaki, bu yil ham Iroqdin pahlavonlar keladi, deb eshitamen, tomosha qilish uchun birga boramizmi?

U bolaning boshini siladi-da, keyin zindondan chiqib, to'g'ri saroyga yo'l oldi, podshohning oyog'iga yiqilib, begunoh bolaning qonini so'ramoqchi bo'ldi. Biroq „hujrayi xos“ida g'irt mast bo'lib yotgan Husaynning eshigi oldida turgan Muhammad Valibek uni haydab yubordi.

– Kirib aytin... Bo'dana kelibdi, deng... O'z pushti kamidan bo'lg'on...

– Qoch deyman, oybolta bilan boshingni yoramen.

Bo'dana o'zidan ham berahm, toshyurak odamlar oldida ip esholmay qoldi. Voqeadan xabardor bo'lgan Nizomul-mulk shoshib-pishib, Do'lanani ishga soldi. Eng oldin unga bir xalta tanga in'om qilib, darhol zindonga jo'natdi.

Bo'dana chiqib ketgandan keyin Mo'min Mirzo bezovtalanib, zindon ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Boshi xavf-xatar ostida ekanini u endi payqagan edi. Biroq u o'lishni istamas, boshi uzra to'plangan bulutlar orasidan najot yulduzini axtarardi: „Zora, Bo'dana bobom olig'a borib arz qilsa-yu, jonimni qutqarib olsa“, deb umid qilar-di. Biroq eshikdan kirib kelgan kaltabaqay Do'lanani ko'rib

eti seskanib ketdi. Jallod indamay, beliga o'ralgan chilvirini yechdi, bolaning qo'lini orqasiga bog'lamoqchi bo'ldi.

– Qoch, ilkimni bog'latmayman, – dedi Mo'min Mirzo, o'zini burchakka olib. Uning zardasi qaynab, jahl qo'rquvni bosib ketgan edi.

– Gapni cho'zma, tiz cho'k.

– Tiz cho'kmaymen, o'ldirsang o'ldiraver. Shundog' turib beramen. – Bola qomatini tik tutib, boshini g'oz ko'tarib turdi...

Ertasiga ertalab Husayn Boyqaro karaxt bo'lib uyg'ondi, boshi og'rib turgani uchun sharobdorini chahirib, bir kosa may keltirishni buyurdi.

Sharobdor xomush, qovog'i soliq edi. Saroy suv quy-gandek jimjit, tiq etgan ovoz eshitilmasdi. Saroy ahli kuzda karaxt bo'lgan pashshadék g'ivirlashib, oyoq uchida sekin yurishardi.

– Hoy, ne bo'ldi? Muhammad Vali, qayerdasiz?

Muhammad Vali ichkari kirib ta'zim qildi.

– Na hodisa bo'ldi? Nega saroy jimjit?

– Mirzam... farmoningiz... bajo keltirildi.

– Ochiqroq gapirsangiz-chi! Qanday farmon?

– Muhammad... a... Mirzo Mo'min haqida...

– A? Mirzo Mo'minga ne bo'ldi?

– Kecha kechqurun... qatl etildi.

Husayn tizzasiga bir urib: „Oh!“ deb yubordi. U hozir chindan ham nevarasiga achinar, kecha bir daqiqalik chirkin hisga berilib, bema'ni ish qilganidan pushaymon yer edi.

Xuddi shu kuni Mashhaddan qaytib kelgan Navoiy yig'i-sig'i ustidan chiqib qoldi. Hirot ahli ham tobut ketidan chuvvos ko'tarib borishardi. Navoiy ham hassa tayangan holda tobut oldiga tushib: „Voy jigarim!“ deb yig'lar, duvullab oqqan ko'z yoshlari so'lg'in yuzidan soqoliga oqib tushardi.

Podshoh bu ko'ngilsiz voqeanning sababchilarini qattiq jazolash bilan o'z aybini bo'ynidan soqit qilmoqchi bo'ldi. Bosh vazir bilan uning o'g'lini darhol zindonga qamatib, so'roq qildira boshladi. Xadichabegim hamma aybni Nizo-

mulmulk ustiga yuklab, o'zini oppoq qilib oldi. Oradan bir necha kun o'tgandan keyin Bo'dana, podshohning amriga muvofiq, Nizomulmulkning ko'zi o'ngida uning o'g'lini o'l-dirdi, keyin qal'a darvozasi yonida vazirning oyog'idan dor-ga osib qo'yib, tiriklayin terisini shilib oldi.

O'g'li vahshiylarcha o'ldirilgandan keyin Badiuzzamon askar to'plab, otasiga qarshi urush boshladı. Xuroson mamlakatida o'limning bozori qizib, xarob bo'lgan binolar ustida boyqushlar sayrashga kirishdi. Vayron bo'lgan sha-harlarda och-yalang'och bolalar, juldur kiyimli, qoq suyak bo'lib qolgan ayollar tentirab qoldi.

Mamlakatni bosib olgan zulm-vahshatning poyoni ko'rmas, najot yulduzining yuzini qora bulutlar qoplab olgan edi.

Alisher Navoiy shahar tashqarisidagi chorbog'iga ko'-chib chiqdi. Uning beli bukchayib, qo'llari qaltiraydigan, qulog'i doim shang'illaydigan bo'lib qoldi. Biroq shunga qaramay, u to sahargacha mijja qoqmay ishlar, o'lim elchi-lari yetib kelmasdan burun ko'nglidagi gaplarni yozib qol-dirish uchun shoshilardi.

Shoirning tog' yonbag'riga solingan shinamgina shiy-poni o'rtasida, pastak kursi ustida bir sham lip-lip yonib turar, mis qandil ustiga ko'z yoshlarni to'kar edi. Oydinsiz kechalarda sham nuri zulmatning bag'rini yorib o'tib, olis-dan miltillab ko'rindi.

MIRHAYDARNING HALOKATI

Mo'min Mirzoning nohaq to'kilgan qoni o'z sohiliga kirib tinch oqayotgan hayot daryosini zaharlab, junbush-ga keltirdi. Har yondan jang nog'oralarining tovushi, „Ur, ho, ur“ sadolari yangray boshladı. Badiuzzamon o'g'lining o'chini olish uchun qilichini yalang'ochladi, o'ljalatalab sar-kardalar uning yoniga kirib, jang maydonlarida javlon urib, xalq molini yanishga kirishdilar. Podshohning hech tuzatib bo'lmaydigan xatosi Xuroson o'lkasini tubdan ja-hannam yoqasiga keltirib qo'ygan edi.

Navoiy yurt boshiga kelgan falokatdan cho'kib qolgan, boshini ko'tarib qarasa, osmon gumbazi charx urayotganga, oyog'i ostiga boqsa, yer aylanayotganga o'xshardi. U hassasiga tayanib binafshazorni aylandi, keyin supa chetiga o'tirib, ko'zini yumdi-da, xayolga cho'mdi. Uning boshi hamon aylanar, xayoliga biri biridan og'ir fikrlar kelardi. Yurtning yana nima ko'rgiligi bor ekan? Najot sohilidan tinchlik shamoli kelib, quyosh yuzini qoplagan vahshat bulutlarini haydab yuborarmikin?

Kishining boshiga g'am tushmasin, tushsa, ketma-ket bir-birini ergashtirib kelaveradi. Shoir uh tortib o'tirganda tog'avachchasi kelib salom berdi. Shoir ko'zini ochdi-yu, salomga alik olishni unutib qo'ydi. Mirhaydarning egnida quroq to'n, boshida kuloh, qo'lida tasbeh, oyog'ida eshak terisidan qilingan sag'ri kavush. Navoiy uning sarg'aygan yuziga, ust-boshiga qarab:

– Olloh, olloh, bu ne ahvol? Senga ne bo'ldi? Junun vodiyisdin esgan yel aqlingni olib ketdimi? – deb so'radi.

– Yo'q, es-hushim joyida, har vaqtdagidin ham joyida, ammo bul foniy dunyodin kechib, u'l dunyoni o'ylash payti kelganin angladim. Shul sababdin Darveshalibekka murid bo'lib, darveshlar qatorig'a kirdim.

– Shayxlar qatoriga de. Yo Olloh! O'shal karomatlari firibgarlikdin iborat shayxlar qatorig'a kirdim de!

– Zarbof to'n kiyib, riyokor podshog'a xizmat qilg'ondin, quroq to'n kiyib zikr tushgan yaxshi. Darveshning quruq noni shohning novvot-nabotidin shirinroq, – dedi Mirhaydar xiril-lab. Zikr-sama' tushaverib, uning tovushi bo'g'ilib qolgan edi.

– So'zima qulq sol, inim, – dedi shoir achinib. – Darveshlik yo'lig'a ertaroq kiribsen. Yoshing elliklarga borib qolg'onda mayli erdi. O'ttiz beshga emdi qadam qo'yding. Qarilarning qilg'ini qilib, olamg'a sharmanda bo'lma. Kek-salar yoshlarga ulfat bo'lib, alar bila mayxo'rlik qilsa, uyotg'a qoladur, yoshlar chollarg'a qo'shilib, kecha-kunduz toat qilsa, do'stlarning g'ashin keltiradur, dushmanlarni xur-

sand qiladur. O'zing ayt-chi, shu yoshingda soqoli oqarg'on shayxlar bila bir po'stakda o'ltirmoq senga yarashadurmi?

– Odamlar ne desalar desunlar. Men bul dunyodin voz kechib, o'zimni haqqa topshirdim. Osmon gumbazi oq uyim, yulduzlar chilchirog'im, oftob va oy naqqoram, – dedi Mirhaydar ko'kka boqib.

– Hahha! Ikki dunyo bir qadam bo'lib qolibdi-da senga. Ammo bola-chaqang borlig'in unutma. Osmondag'i naqqoralarni chalib, alarni to'yg'azib bo'lmaydur. Yaxshisi, men senga Far-roshon mavzeyidagi yerimni berayin, ziroatchilik bila shug'ullan.

– Yer tirnab, go'ng iskab, don sochmoqqa, bog' ko'kartimoqqa tobim yo'q.

– Po'stak ustida o'ltirib, riyozat chekmoq yaxshiroq erkan-da. Qachondin beri tasbeh o'girmoq halol mehnatdin afzal bo'lib qoldi?

Navoiyning har bir gapiga javoban Mirhaydar dalil kel-tirib, aljiray berdi. Shoir unga o'z xatosini tushuntirish mumkin emasligini tushundi, ahmoq odam bilan olishib o'tirishning befoyda ekaniga yana bir marta qanoat hosil qildi. Birovki, nasihat bilan tuzalmasa, hayot unga izo be-rib, ko'zini ochib qo'yadi.

– Mayli, bilganingdin qolma. Senga otaliq mehri bila boqdim, hech vaqt ahvolingdin g'ofil bo'lmadim. Ammo sen nasihatimni qulog'ingga ilmading, menga shul qadar azob berdingki, bu yuz o'limdin battar. Mening o'rning'a emdi Darveshalibek otaliq qilsin. Xonaqoda zikr tushadur-gan vaqt keldi, bora qol. Mening boshim og'rib turibduri, kirib dam olayin.

Oradan ikki hafta o'tmay, Navoiy juda g'alati bir gapni eshitib, tong qoldi. Odamlarning aytishicha, tog'avachchasi egnidagi quroq to'n o'rninga tugmador kiyib olibdi, kavush-mahsini yechib tashlab, etik kiyibdi va soqolini kalta qilib qirqtirib, Qunduz shahriga jo'nabdi va Boyqaroning ashaddiy dushmani – Xusravshoh xizmatiga kiribdi. Bu xabar go'yo boshiga kelib tekkan toshdek, shoirni gangitib qo'ydi. U Mirhaydardan tez-tez xabar olib turmagani-

ga o'kindi. Agar bunday bo'lishini bilganda uni bu nojo'ya qadamni bosishdan asrab qolgan bo'lardi. Buning oqibati nima bo'ldi? Mo'min Mirzo voqeasidan keyin sulton Husayn bilan oralariga tushgan sovuqlik adovatga aylanmas-mikin? Dushmanlar, Alisherbek Mirhaydarning bu ishidan bexabar bo'limgan, balki uning maslahati bilan shu ishi ni qilgan, deb ig'vo qilishlari turgan gap. Mirhaydarga xat yozib, Hirotg'a qaytib kelishni va sulton Husayndan kechirim so'rashni tavsiya etsamikin? Xati qo'lga tushsa, oqibati nima bo'ladi? Mirhaydar uning gapini qulqoqqa olarmi-kin? Navoiy taraddudlanib, vaqtini qo'ldan boy berib qo'ydi. Ishonchli bir savdogardan yuborgan xati Qunduzga kechikib borgan edi. Xusravshoh Husayn Boyqaro bilan sulh tu-zish uchun uning huzuriga ishonchli va mo'tabar bir kishi ni yuborishni mo'ljallab yurgan edi. Mirhaydar uning xizmatiga kirgandan so'ng bu ishga undan munosibroq odam topilmadi. Axir u Xuroson sultoniga yaqin bo'lgan nufuzli bir odamning yaqin qarindoshi-ku.

Husayn Boyqaro bu vaqtida Bodg'is viloyatida Boboxo-niy mavzeyida edi. U bu yerga isyon bayrog'ini ko'targan o'g'li Abulmuhsinga qarshi askar tortib kelgan edi.

Sulton chodirida qoshlarini chimirib, mushtini go'sht-dor, yalpoq yuziga tirab o'tirar, tutun kabi achchiq fikrlar a'zoyi badanini zaharlar edi. Bir tomondan Badiuzzamon, ikkinchi tomondan Abulmuhsin qilich yalang'ochlab mamlakatni parchalamoqchi, otalarining yuziga oyoqlarini qo'yib, yurtni o'z bilganlaricha idora qilmoqchilar. Non-ko'rlar! Agar ularni navkarları bilan qo'lga tushirsa, nima qilishini biladi. Yomonotliq bo'lmaslik uchun o'g'illarining qonini to'kmaydi-yu, lekin ularni yomon yo'lga solgan mu-lozim-navkarlaridan qirq-elliktasini qatl ettiradi. Shunday og'ir xayollar tuman kabi boshini chulg'ab turgan paytda Muhammad Valibek chodirga kirib ta'zim qildi-da, Xusravshohdan elchi kelganini va huzuriga kirish uchun ijozat so'rayotganini bildirdi.

– Xusravshohdin? Ajab! Siz aning yorlig‘in ko‘zdin kechirdingizmi? Kim ekan elchisi?

– Yorliqni ko‘rib chiqdim. Xusravshoh siz janoblarig‘a do‘sstligin izhor etib, eski xusumatlarni unutib yuborish va ikki o‘rtada yaxshi munosabat o‘rnatishni istaginda ekanin bildiribdur va Mirhaydarni elchi qilib yuboribdur.

– Mirhaydarni? Qaysi Mirhaydar? Mirsayid oqaning o‘g‘limi?

– Ha, shundoq. Alisherbekning tog‘avachchasi. – Muhammad Valibekning ko‘zida bilinar-bilinmas kinoya va kin-adovat uchquni ko‘rindi-yu, keyin so‘ndi.

Husayn Boyqaroning ko‘zları qinidan chiqayozgan edi. Ochiq havodan qor yog‘sа ham u bunchalik hayron bo‘lmasdi. Yaqindagina Mirhaydarning Hirot ko‘chalarida janda va kuloh kiyib yurganini eshitgan va ichida: „Bu kuningdan battar bo‘l!“ deb qo‘ygan edi.

Muhammad Valibek uning ko‘nglidagi gapni yuzidan o‘qiganday:

– Mirhaydar yaqing‘inada quroq to‘nda, ilkida tasbeh bila sang‘ib yuruvchi erdi, keyin jomasini o‘zgartirib, Qunduzg‘a ketdi. O‘zi arzimagan odam bo‘lg‘oni uchun bul haqda ma‘lumot berib, sizni bezovta qilmoqni istamagan erdik.

Mirsayid oqadek aqli va bahodir yigitdin Mirhaydardek ahmoq o‘g‘ilning tug‘ilg‘onig‘a ajablanurmen. Benihoya inoyatlarim va shafqatim evaziga menga xiyonat qildi. Barcha yaxshiliklarimni unutib, dushmanim xizmatig‘a kirdi. Men ani elchi deb ermas, xiyonatchi deb bilurmen. Ul nobakorni darhol qamatib qo‘ying, keyin qilmishig‘a yarasha jazo bergaymiz.

Sulton g‘azabidan dir-dir titrar edi. Bundan bir necha yil ilgari, Navoiyni Astrobodda sultonning bakovuli zaharlamohchi bo‘ldi, deb gap tarqatgan shu Mirhaydarning o‘zi emasmidi! Suvni loyqatib, sulton Husaynga ancha tashvish orttirgan ablah o‘shanda osongina qutulgan edi. Endi qutulib bo‘pti! Hozirning o‘zida Bo‘danani chahirib, ul xoinning kallasini olish to‘g‘risida buyruq bersamikin? Yo‘q, biroz

o'ylab ko'rish kerak. Hukamolar, g'azab vaqtida odam o'zini tuta bilishi lozim, deganlar. Hozircha bu to'g'rida o'ylamay, boshqa ishlar bilan shug'ullanishi lozim.

Ertasiga ertalab yana Mirhaydarga nima chora ko'rish to'g'risida bosh qotirdi. O'ylab-o'ylab, uni jallod qo'liga topshirishga jazm qildi, aks holda qo'l ostidagi mulozim va navkarlar omadi yurishgan boshqa hukmdorlar tomoniga o'tib ketishlari, keyin qaytib kelsak, Husayn Mirzo bizga jazo bermay, tavbamizni qabul qilar ekan, degan fikrga kelishlari mumkin. Hukmdorga xiyonat o'lim bilan barobar ekanini bilib qo'ysinlar ular!

Mirhaydarning dahshatli o'limi haqidagi xabar Navoiyni gangitib qo'ydi. Nima bo'lyapti o'zi? Nega Mirhaydar ahmoqlik qilib, sulton huzuriga elchi bo'lib keldi-yu, nega sulton bekorga uning bo'yniga qilich soldi? Har ikkalasi ning ham qilgan ishida bir ma'ni, mantiq bormi?

Qayg'usining zo'rligidan uning ko'zlariga yosh kelmas, tomog'idan ovqat o'tmas edi. Behlul keltirib qo'yan taom dasturxon ustida shundoqligicha qolardi: Do'stlar uni yupatishga, ko'nglini olishga urinar, shoир ularning ham-dardligidan minnatdor ekanligini aytib, yana boshini quyi solgancha sukutga tolardi. Oradan ikki kun o'tgach, Sohib Doro uning oldiga kelib:

– Mirhaydarning jasadini Bodg'isдин keltirib, shul yerda dafn qilsak yaxshi bo'lar edi, – deb qoldi.

– Bu fikr mening ham xayolimg'a kelgan erdi. Siz shul ishga bosh bo'ling.

– Agar bu ish Yalangto'sh bahodirg'a topshirilsa...

Yalangto'shning nomini eshitib, Navoiy bir ijirg'anib qo'ydi. Ammo u yaramas odam bunday topshiriqlarni bajon-u dil bajaradi. Uy egasiga o'zining sadoqatli ekanligini ko'rsatish va uning ishonchini qozonish uchun u o'zini o'tga, suvg'a tashlashga tayyor.

– Mayli, Yalangto'sh'a ayting, ikki yigitini olib, Bodg'is borsin. Bo'danag'a ikki-uch dinor bersa, ko'mgan yeridan jasadni olib, namatg'a o'rab beradur.

Besh kundan keyin shahid o'lgan Mirhaydarni odatga muvofiq kiyim-boshi bilan Chashmayi Mohiyondagi mozorga qo'ydlilar. Ustiga tuproq tortilib, Qur'on o'qigandan keyin Navoiy: „Davr bevafolari javridin dod! Zamon sitamkorlari zulmidin dod!“ deb yig'lab yubordi. Ko'z yoshlari yuzini yuvar, labiga, oqargan soqoliga oqib tushar, bukchayib qolgan gavdasi qalt-qalt qilar edi. Uning do'stlari ham o'zlarini tutolmay, beixtiyor ko'z yoshlarini oqizar edilar, Sohib Doro belbog'inining uchi bilan ko'zlarini artib, unga tasalli bera boshladi, yig'isini tiyolmagan shoir o'rnidan turolmayotgанини ko'rib, uning qo'ltig'idan olib, yetaklab ketdi.

O'LIM

Ko'rpa-to'shak qilib yotgan shoir o'qtin-o'qtin ihrab, quruqlashgan lablarini qimirlatib qo'yardi. Shunda uning yonida o'tirgan Sohib Doro paxta bilan og'ziga suv tomizar, shoirning oqarib ketgan yumaloq yuziga, yumilgan ko'zlariga qarab xo'rsinardi.

Navoiyning uyi suv quygandek jimjit, uning yaqinlari tovush chiqarmay, oyoq uchida yurar edilar. Betobni ko'rgani kelgan ahboblar ostonada qo'l qovushtirib, unga birpas qarab turardilar-da, ko'z yoshlarini artib, indamay chiqib ketardilar. Tildan qolgan bemor ba'zan o'ziga kelib, ko'zlarini arang ochar va sekin: „Oh, oh, oh!“ deb qo'yardi. Ziyrak Sohib Doro shoir jismoniy azob chekayotganidan emas, balki ruhan muazzab bo'layotganidan, mo'ljaldagi ishlari bitmay qolganidan afsuslanib oh chekayotganini ichki bir his bilan sezар, unga qo'shilib o'zi ham uh tortib qo'yar, umri oxirlab qolganda yuz bergen falokatlar Navoiyning yurak-bag'rini kuydirayotganini bilar edi. Mo'min Mirzo bilan Mirhaydarning o'limi yuragida qoldirgan jarohatlar, yurt ishlari, jabrdiydalarning shikoyatlarini eshitish, tinchgina bir yerda o'tirib ishlashga imkon bermadi. Ko'cha boshida biror qarzdor, yoinki o'g'lini garovga qo'yib boy odamdan pul olgan bir kishi Navoiyni poylab turar, u ko'chaga chiqsa, darrov yo'lini to'sib, ko'z yoshi bilan un-

dan madad so‘rar edi. Shoir ba‘zan ularga pul berib, hojatlarini ravo qilar, ba‘zan qarz berganlarni sabr qilib turishga ko‘ndirardi. Ba‘zi makkor odamlar: „Hajga ketayotirmen, fotiha bering“, deb o‘z hamrohlari bilan unikida mehmon bo‘lar, ba‘zilar, „hajdan keldim“, deb unikida tunab ketar edilar. Ba‘zan biror qallob shayx: „Falon avliyoni tushimda ko‘rdim, siz alarning yonida ekansiz“, deb uni tavof qilgan bo‘lar va shu bahona bilan bir narsa o‘marib ketardi. Hatto bir kuni hirotlik shoir Hasanshohning o‘g‘li: „Otam vafot etdilar, kafanlikka pul bering!“ deb yig‘lab, bir necha dinorini olib ketdi, keyin ertasiga Hasanshoh o‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi. Navoiy shayxlar, so‘filarning tamagirligi, soxta avliyolarning karomati, mazlumlarning oh-vohidan, beklarning g‘addor basharalarini ko‘rishdan qutulmoq uchun hajni bahona qilib, o‘z yaqinlari bilan mamlakatdan chiqib ketmoqchi ham bo‘ldi. Biroq bunga podsho ham ruxsat bermadi, ochko‘z beklardan yurak oldirib qolgan xalq ham.

Sohib Doro shularni o‘ylab, xo‘rsinib qo‘yar, o‘qtin- o‘qtin oh chekayotgan shoirga mehr bilan tikilardi.

„Bir hafta burun soppa-sog‘dek edilar, – deb yana xayol surib ketdi Sohib Doro. – Astroboddin kelayotg‘on Husayn Mirzoni kutib olmoq uchun yo‘lga chiqqanimizda, dimog‘lari chog‘ edi. Pariyon rabotida tunab, erta bilan sayrga chiqdilar, ammo rabot devorig‘a bitilgan she‘rlarni o‘qib ma‘yus bo‘ldilar“. U devordagi she‘rni yodlab olmaganiga pushaymon yer edi. O‘sha she‘rda agar qazo yetsa, hakimlar ojiz, Ibn Sino qonunlari kuchini yo‘qotadi, deyilgan edi. Darhaqiqat, Hirotning mashhur tabiblari ham Navoiyning dardiga davo topolmayaptilar. Dori-darmon ham, qon olish ham kor qilmadi.

Jumodiloxirning 12-kuni¹ erta bilan ulug‘ shoir jon taslim qildi. Butun Hirot azaxonaga aylandi, hammaning ko‘zida yosh, egnida motam libosi. Ko‘k ham motam tutgandek qora bulut bilan qoplandi.

¹ 1501-yil, 5-yanvar.

Navoiyning tobutini ko'tarib ketayotganlarida ko'z yoshi singari yomg'ir tomchilab turardi. Ammo bunga hech kim parvo qilmas, hech kim o'zini panaga olmas edi. Ko'chalar toshqin daryodek to'lqinlanib turar, har bir odam, tabarruk tobutga yelkam tegib qolsin, deb bir-birini turtar, tobutni yelkasiga olishi bilan boshqasi kiftini tutardi. Shahzodalar tobutni yelkalab darvozadan chiqishlari bilanoq oddiy xalq ularni surib uni egallagan edi. Shu topda hamma o'zining martabasi, boyligi, kambag'alligini unutgan, motam bir necha soatgacha hammani barobar qilib qo'ygandi. Shahzoda va kosib, bek va oddiy fuqaro, do'kon-dor va hammol aralash-quralash bo'lib ketgan, ular tobutga yaqinlashish uchun bir-birini turtar, hech kim bunga e'tibor bermas edi.


Daqiqa sayin almashinib turgan tobutkashlar qushdek yengil bo'lib qolgan shoirning jasadini dod-faryod ko'targan tumonat odam orasidan arang olib o'tib, iydgohga yetkazdilar. Bu yerda janoza o'qildi. Navoiy o'z masjidi jo-meining yoniga o'zi uchun maqbara qurdirgan edi, uning jasadini shu yerga dafn etdilar, shoirning yaqin do'stlari, san'atkorlar, olimlar uning daxmasida tunab, xushovoz hofizlarning tilovatiga quloq berib, uxmlamay chiqdilar.

Husayn Boyqaro Navoiyning uyida uch kun o'tirdi. Fotihaga kelgan odamlar „aza sohibi“ bo'lgan podshoga ta'ziya bildirib, tasalli berar va unga uzoq umr tilar edilar. Qora to'n ustidan belini bog'lab olgan Husayn o'tirgan yerdagi, qo'lidagi dastro'mol bilan ko'z yoshlarini artib, fotihaga kelganlarga minnatdorchilik bildirardi.

Kechasi Husayn Boyqaroning ko'zidan uyqu qochib, Alisher bilan birga o'tkazgan bolalik davrini, Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilib yurganlarini esladi. Keyingi davrlarini xotirlar ekan, ba'zan bilinar-bilinmas jilmayib qo'yar, ba'zan qovog'i osilib ketardi.

Podshoning Navoiy uyida uch kun o'tirishidan maqsadi shoir uning yaqin odami bo'lganligi, shoirning orqasida bog'chasi bo'lgan dang'illama hovlisiga, bog'-rog'la-

ri, yer-suvlariga merosxo'r ekanligini ko'rsatish edi. Darhaqiqat, Navoiyning bolalari yo'q, inisi Darveshali Hirotgakelmaydigan bo'lib, Xurosandan chiqib ketgan, Mirhaydar shahid bo'lgan. Navoiyning hovlisini suyukli o'g'li Muzaf-farga vasiqa qilib berishni ko'nglidan o'tkazib qo'ygan Hu-sayn Boyqaro marhumning „uch“ini juda katta qilib o'tka-zishga bel bog'ladi, u ikki yuz ellik qo'y va yetmish beshta ot so'ydirib, faqir-u fuqarog'a osh torttirdi, duoyi fotihadan so'ng, yuragining chigilini yozish uchun taxtiravoniga o'ti-rib, „Bog'i Jahon oro“ ga yo'l oldi.



MUNDARIJA

To'maris.....	3
Kitobga ixlos.....	21
Jayhun ustida bulutlar.....	33
O'tror.....	71
Zulmat ichra nur.....	143

„O‘zbek adabiyoti oltin fondi“ turkumi

MIRKARIM OSIM

TARIXIY QISSALAR

TO‘MARIS

KITOBYA IXLOS

JAYHUN USTIDA BULUTLAR

O‘TROR

ZULMAT ICHRA NUR

„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“

Toshkent – 2020

Muharrir *Rustam Mirzayev*

Badiiy muharrir va

kompyuterda sahifalovchi *Oygul Fozilova*

Musahhih *Zulfiya G‘ulomova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 210, 26.03.2012.

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 1.10.2019.

Bichimi 84x108¹/₃₂. „PT-Serif“ garniturasi.

Kegli 11,5. Ofset bosma usulida bosildi

Nashr tabog‘i 18,0. Adadi 5000 nusxa.

149-19 -sonli buyurtma.

„Yangiyul Poligraph Service, MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Samarqand ko‘chasi, 44.

میرکاریم اوسم

JAYHUN
USTIDA
BULUTLAR

کەنگەر بىخىرى پېتىاد

«QALDIRG·OCH
NASHRIYOTI»

ISBN: 978-9943-5947-1-5



9 789943 594715